

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O 'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti v.b.
QO'ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICHNING

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

FANIDAN

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:

Ta'lim sohasi:

Ta'lim yo'nalishi:

100000 - gumanitar soha.

120000 - gumanitar fanlar

*5120101 – Filologiya va tillarni
o'qitish (o'zbek tili)*

NAMANGAN – 2021

ANNOTATSIYA: Ushbu o'quv-uslubiy majmuada "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kursining maqsad va vazifasi, ma'ruzalarning qisqacha mazmuni, seminar mashg'ulotlarini o'tish namunalari va tarqatma materiallar, mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlar, talabalar bilimlarini joriy va oraliq nazorat qilish uchun savollar, testlar banki, fanga oid terminlarning qisqacha glossariysi, tavsiya etiladigan ilmiy va xorijiy adabiyotlar ro'yxati berilgan. O'quv rejasidagi har bir dars soati uchun mavzuga oid aniq tavsiyalar berilgan.

Tuzuvchi:

U.Qo'ziyev – NamDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD.

Taqrizchilar:

N.Uluqov – NamDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi professori,
f.f.d.

M.Sulaymonov – NamDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
f.f.n.

O'quv-uslubiy majmua Namangan davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan (2021-yil _____dagi "___" bayonnoma).

O'quv-uslubiy majmua oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2021-yil _____dagi ___-sonli qaroriga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

No	Mundarija	
1	O‘quv materiallari	4
2	ma’ruza mashg‘ulotlari	4
3	amaliy va seminar mashg‘ulotlari	162
4	Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari	170
5	Kurs ishlari	182
6	Glossariy	184
7	Ilovalar	190

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

1-mavzu: O'ZBEK TILI MORFEMIKASI. (2 soat)

REJA:

1. Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati.
2. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: derivatsion va grammatik morfemalar.
3. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) omillar.
4. Morfemalarning shakl va munosabatiga ko'ra turlari.

Tayanch iboralar: *Morfema, alternatsiya, morf, morfem tuzilishi, morfema variant, morfonologiya, fuziya, pleonasm, o'zak va affiksial morfema, affiks, morfema, allamorf, prefiks, suffiks, so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi affikslar, affiksial sinonimiya, affiksial omonimiya, affiksial antonimiya*

Morfemika sathining asosiy birligi morfemadir. Bu til birliklari iyerarxiyasida eng kichik ma'noli birlik sifatida nominatsiya va predikatsiya jarayonlari uchun xizmat qilgan semantik, funksional-konstruktiv elementdir. So'z, forma yasash modellari bilan birga, til va nutqqa xos sintaktik konstruksiyalarning reallashuvini ham morfema ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bu sathga tegishli birliklarning o'rganilishi qadimgi hind, arab, slavyan grammatikalariga borib taqaladi.

Morfemani keng qamrovli hodisa sifatida tushuntirish rus-polyak olimi Boduen de Kurtene qalamiga mansubdir. Tilshunoslik tarixida ilk bor morfem qurilish elementlariga qarashga asos solindi.

Boduen de Kurtene morfemaning quyidagi xarakterli belgilarini ko'rsatadi:

- a) psixik belgi, tasavvur va hodisalar ekanligi;
- b) ma'no tashish;
- s) so'z tarkibi elementlari sanalishi;
- d) o'zak va affikslar uchun umumlashtiruvchi tushuncha, atama bo'lishi;
- e) eng kichik ma'noli birliklar statusiga egaligi.

So'zning morfologik strukturasi uning ayrim ma'noga ega bo'lgan shunday grammatik elementlaridan tashkil topishi — grammatik qismlarta bo'linishidir. So'zning bo'linmas, eng kichik ma'noli qismlari *morfema* deb ataladi.

So'zning sostavidagi bu elementlar o'zak va affiksdan iboratdir. Til birliklarining eng muhimlaridan biri bo'lgan morfema so'zning minimal, eng kichik qismidir. Masalan, yig'ilishlar-da bu morfologik birlik ma'nosini yo'qotmay turib qismlarga ajralmaydi: undan keyingi bo'linish (bo'g'inlarga va ayrim fonemalarga ajralishi) morfologik strukturani emas, balki fonetik xususiyatni ko'rsatadi: tovushlar so'z ma'nosini farqlashga xizmat qilsa ham, lekin ma'no bilan bevosita bog'lanmaydi. Bulardan kelib chiqadiki, til hodisalarining ma'no bilan bog'likligi bevosita bildirilgan — ma'no beradigan bu bog'lanishning chegarasini ko'rsatadigan eng kichik bo'lak morfemadir.

Tovush ma'nolarning bir butunlikdan iborat bo'lishi, ma'no anglatish xususiyati so'zda ham bor, lekin bular bir qancha belgilarga ko'ra bir-biridan farqlanadi: so'z morfemalariga bo'linish, nutqda boshqa so'zlar bilan munosabatga kirishish gap bo'lagi funksiyasida kelish —

biror sintaktik vazifaga ega bo'lish xususiyatiga ega; morfema esa birinchidan, nutqda mustaqil qo'llanmaydi, so'z sostavidagina yashaydi, ikkinchidan, ma'noli qismlarga bo'linmaydi.

Morfemalar so'z xarakteriga ko'ra ikki xil: o'zak morfema va affiksial morfema. O'zak morfema so'zning leksik ma'nosini bildiruvchi asosiy qism bo'lib, affikslar shu o'zak bilan birgalikda, shu orqali qo'llaniladi. Shunga, o'zak morfema ma'nosida asosiy morfema va affiksial morfema ma'nosida ergash morfema terminlari ham ishlatiladi.

O'zak morfema. Har bir so'z shaklida albatta ishtirok etib, so'zning leksik ma'nosini ifodalovchi qism hisoblanadi. Agar so'z shakl bir morfadan iborat bo'lsa, u o'zak morfema hisoblanadi. O'zakka turli darajada affikslar qo'shilsa ham, o'zakning ma'nosi yo'qolmaydi. O'zak har bir affiksial morfemaning qo'shilishi bilan hosil bo'lgan yasalmaning ma'nosiga asoslangan bo'ladi.

Affiksial morfemalar o'zak morfemadan farkdi o'laroq, affiksial morfema o'zakka qo'shilgandagina turli leksik-grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiluvchi, mustaqil holda alohida qo'llanmaydigan morfemalaridir. Ular so'z yasovchi, forma yasovchi, so'z o'zgartiruvchi affikslarni va affiksoidlarni (somonxona, qizlarjon so'zlaridagi —*xona*, *-jon* elementlari ham mustaqil so'z, ham affiks vazifasini bajaradi) o'z ichiga oladi. Affiksial morfemalarga grammatik kategoriyalar (kelishik, son, aniqlik, egalik) va turli so'z turkumlariga qo'shiladigan elementlar sifatida, morfologik ma'noni ifodalashi va ular qo'shilganda ro'y beradigan morfologik alternatsiya nuqtai nazaridan qarash mumkin. Affiksial morfemalarni o'z navbatida prefiksial, suffiksial, fleksiyalar ulovchi morfemalarga va so'z morfemalariga bo'lish mumkin.

Morf — morfemaga nisbatan tilning butunlik tarkibidagi eng mayda nutq birligi deb qarash mumkin. Allomorf esa - allos – boshqa, morf – shakl, ya'ni boshqacha shakl ma'nosini anglatadi. Morfemaning fonetik sharoitga ko'ra tanlab ishlatiladigan, birining o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydigan ko'rinishlaridir. Masalan, *-gi* (*-ki*, *-qi*), *-ga* (*-ka*, *-qa*).

Morfonema - morfologik funksiya bajaruvchi bir necha fonemalarning yig'indisi. O'zbek tilida o'zak morfemaning o'zida hosil bo'luvchi morfologik alternatsiyalar juda kam hisoblanadi. Masalan, *tara* – *taroq*, *sez* – *seskanmoq*.

Affiksial morfema. Affiks mustaqil qo'llanmaydigan bog'liq, holda o'zakka qo'shib keladigan, o'zakning leksik-grammatik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan har xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladigan morfemadir.

Affikslarning fonologik strukturasi ayrim hollarda o'zakning strukturasi bilan bir xillik tug'dirsa, lekin bular o'zlarining bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Tipik o'zakning fonetik strukturasi hokim forma «undosh] unli] undosh» va «unli] undosh» tipida bo'lsa, affiksda bunday hokimlik holati yo'q.

2. O'zakning bir unli bilan bo'lishi juda kam uchraydigan hodisa bo'lib, affikslarda bu odatdagi holdir: *tishi*, *tinch-i* (moq), *bur-a* (moq) kabi.

3. Affiks bir undoshdan iborat bo'lishi ham mumkin: *ruchka]m*, *tan]sh*, *tuga]l* kabi.

4. Affikslarda undosh qator kelmaydi.

5. O'zak – negizning oxirgi tovushi bilan affiks «undosh+undosh» yoki «unli+unli» formasida bir xil bo'lganda, o'zak - negiz bilan affiksning chegarasi bo'g'inga ajralishi bilan bir xil bo'lmaganda - affiks qo'shilishi natijasida bo'g'inlarga ajralishi o'zgarib, natijada o'zakning va affiksning chegarasi bo'g'inlarning ajralish o'rnini bilan duch kelmaganda, bir bog'lovchi, tutashtiruvchi tovush orttiriladi.

6. Oxirida uzun unli bo'lgan o'zak – negizlarga egalik affiksi qo'shishda shunday fonologik hodisani ko'ramiz: affiks qo'shish jarayonida uzunlik yo'qolib, birikish odatdagidek bo'la beradi yoki shu unlidan keyin y tovushi orttiriladi: da'voying kabi.

So'zning sostavini grammatik jihatdan tekshirganimizda, unda ma'lum ma'no anglatadigan qismlarni, bu qismlarning o'zaro bog'langanligini ko'ramiz. So'zning morfologik strukturasi uning ayrim ma'noga ega bo'lgan shunday grammatik elementlardan tashkil topishi — grammatik qismlarga bo'linishidir. So'zning bunday bo'linmas, eng kichik qismlari *morfema* deb ataladi. So'zning morfologik strukturasi, morfemalarga ajratish xususiyati shuni ko'rsatadiki, uning sostavidagi bu elementlar o'zak va affiksdan iboratdir. Til birliklarining eng muhimlaridan biri bo'lgan morfema so'zning minimal, eng kichik ma'noli qismlaridir. Bu morfologik birlik ma'nosini yo'qotmay turib qismlarga ajralmaydi: undan keyingi bo'linish morfologik strukturani emas, balki fonetik xususiyatni ko'rsatadi: tovushlar so'z ma'nosini farqlashga xizmat qilsa ham, lekin ma'no bilan bevosita bog'lanmaydi. Bularan kelib chiqadiki, til hodisalarining ma'no bilan bog'liqligini bevosita bildiradigan — ma'no beradigan, bu bog'lanishning chegarasini ko'rsatadigan eng kichik bo'lak morfemadir.

Morfemalar o'z xarakteriga ko'ra ikki xil: o'zbek morfema va affiksal morfemadir.

Allamorf - yun. *allose* «boshqa», morfe «shakl» so'zlaridan olingan. Morfemaning fonetik sharoitga ko'ra tanlab ishlatiladigan, birining o'rnida ikkinchisini qo'llab bo'lmaydigan ko'rinishlaridir. Masalan, -ga, -ka, -qa.

Affikslarning so'z yasash va forma yasash xususiyatlari ularning vazifasiga qarab belgilanadi. Ular ma'no va funksiyalariga ko'ra ikki turga bo'linadi: so'z yasovchilar, shakl yasovchilar.

So'z yasovchi affikslar o'zak — negizga qo'shilib, leksik ma'noni o'zgartirib, yangi so'z hosil qiladi. Demak, bunday affikslarning o'zak - negizning ma'nosini taraqqiy qildirishi leksik sistema jihatdan, yangi so'z yaratish planida bo'ladi (*terim*]chi, *gul*]lamoq, *tin*]ch]lik) - yasovchi affiksning ma'nosi leksik xarakterda bo'ladi.

So'z yasovchilar 4 xil bo'ladi:

1. Ot yasovchi affikslar.
2. Sifat yasovchi affikslar.
3. Fe'l yasovchi affikslar.
4. Ravish yasovchi affikslar.

Shakl yasovchi affikslar yangi so'z hosil qilmaydi, ma'noni keskin ravishda boshqa qilib yubormaydi, balki har xil ottenkalar orttiradi, gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydi, modifikatsiya qiladi. Yasovchilar leksik ma'no bilan bog'lansa, bular grammatik ma'noga ega bo'ladi. Bular kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, oshirish, kuchaytirish, gumon, taxmin, emotsionallik, egalik, kishilik, fe'llardagi shaxs va son ko'rsatkichlari kabilarni bildirishi - asosiy ma'noga shularni qo'shish bilan xarakterlanadi.

Affikslarning ma'nolari har xil: so'z yasovchilarning ma'nosi leksik xarakterda, lekin bularning yasash xakteri bir xil emas: yasashda so'z turkumi o'zgarmasligi mumkin, o'zgarishi ham mumkin.

So'zlarda bo'lganidek, qo'shimchalarda ham shakl va ma'no munosabati asosida omonimiya, polisemiya, sinonimiya va antonimiya kabi hodisalar uchraydi.

Agglutinativ til bo'lganligi uchun o'zbek tilida har bir grammatik ma'no ayrim-ayrim morfema bilan ifodalanadi (< lot. *agglutinare* - «yelimlash»). Masalan, ot leksemalarda grammatik son ma'nosini, kelishik ma'nosini ifodalash uchun alohida-alohida morfema

qo‘shiladi: *kitob+lar+ni* kabi. Bunda har bir morfema bir grammatik ma‘noni ifodalaydi. Ayrim morfema-affikslar bir-biridan ajratib bo‘lmaydigan ikki grammatik ma‘noni ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, buyruq-istak mayliga xoslangan *-ng* tuslovchisi ayni vaqtda shaxs («II shaxs») va son («birlik») ma‘nolarini ifodalaydi, hozirgi o‘zbek tilida ushbu affiks tarkibini shaxs va son ma‘nolarini ifodalovchi qismlarga ajratib bo‘lmaydi. Ana shunday affiksga nisbatan ma‘no sinkretizmi haqida gapiriladi (< yunoncha *synkretismus* - «birlashtirish»). Bunday hodisa hozirgi o‘zbek tilida, masalan, nisbatlovchi (egalik), tuslovchi (shaxs-son) affikslarida mavjud.

Asli I, III shaxsning *-(a)yin*, *-sin* affikslarini qiyoslasak, oxiridagi *n* qismi mushtarak ekanini ko‘ramiz. Tarixan bu affikslarda grammatik son («birlik») ma‘nosi *-n* affiksi bilan ifodalangani ko‘rinadi; demak, bu yerda sinkretiklik azaliy emas, balki ikki ma‘noli qismning bir affiksga birlashib ketishi oqibatida yuzaga kelgan. I shaxsning *-(a)y* - *-(a)ylik* affikslarini qiyoslasak, *-(a)y* affiksi faqat shaxs ma‘nosini ifodalashi, «birlik» ma‘nosi esa *-(a)ylik* affiksiga (*-lik* qismiga) zidlash natijasida belgilanishi ochiq ko‘rinadi.

Sinkretik holatdan agglutinativ holatga o‘tish II shaxs nisbatlovchilarida ayniqsa kuchli. I shaxsning *-miz-* morfemasi tarkibidagi *-(i)z* qismini «ko‘plik» ma‘nosini ifodalaydigan morfema sifatida ajratish qiyin; lekin II shaxsning *-ngiz-* morfemasi tarkibidagi bunday qismni bemaolol ajratish mumkin, chunki bu shaxsning *-nglar-*, *-laring-* ko‘rsatkichlari *-ngiz-* ko‘rsatkichi tarkibidagi *-(i)z* qismini almashtirish bilan hosil qilingan; natijada I shaxsning *-miz-* morfemasi tarkibidagi *-(i)z* qismi ham ajraluvchi morfema ekani ochiq ko‘rinib qolgan. Har holda, I shaxsning *-miz-* morfemasiga nisbatan hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan ma‘no sinkretizmi haqida gapirish mumkin-u, lekin II shaxsning *-ngiz-*, *-nglar-*, *-laring-* ko‘rsatkichlariga nisbatan ma‘no sinkretizmi haqida gapirib bo‘lmaydi.

Xullas, o‘zbek tili morfemalariga nisbatan ma‘no sinkretizmi haqida hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan yondashib, shunda ham juda cheklangan hollarga nisbatangina gapirish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Affikslarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra turlari necha xil?
2. Allamorf nima?
3. So‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar haqida gapiring.
4. Morfologiya tushunchasi nima?
5. Morf va allamorfni izohlang.
6. So‘zning morfem tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
7. Fuziya nima?
8. Morfema varianti nima?
9. Morfemika nimani o‘rganadi?
10. Pleonazm va morfem pleonazm haqida so‘zlang.
11. Allamorf va morf tushunchalariga izoh bering.

2-mavzu: MORFEMALARDA SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARI.

Reja:

1. Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari.
2. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi,
3. Unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

Tayanch iboralar: *o'zak va affiksial morfema, affiks, morfema, allamorf, prefiks, suffiks, so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi affikslar, affiksial sinonimiya, affiksial omonimiya, affiksial antonimiya*

Morfemalarda ko'pma'nolilik (polisememiya)

Morfemalar asosan bir ma'no ifodalaydi, monosemem bo'ladi (yunoncha *monos* - «bir», «yakka»). Masalan, *-ni* kelishik affiksi «o'zi qo'shilgan leksema anglatadigan predmet (keng ma'noda) o'timli fe'l anglatadigan harakat qaratilgan obyekt»ekanini ko'rsatadi: *kitobni o'qib*; *-di* zamon yasovchisi «aniq yaqin o'tgan zamon»ma'nosini ifodalaydi: *Kitobni o'qidi* kabi. Ko'pma'nolilik (polisememiya) – ayrim morfemalarga-gina xos xususiyat (yunoncha *poly* - «ko'p»). Masalan, hozirgi o'zbek tilida *-(i)ngiz-* affiksi ikki ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: 1) «ko'plik»ma'nosini ifodalaydi (Bunda «shaxs»semasi saqlanadi, baho semasi betaraf bo'ladi): *kitobingiz (sizlarning)* kabi; 2) «birlik»ma'nosini ifodalaydi (Bunda «shaxs»semasi saqlanadi, «sizlash»baho semasi qatnashadi): *kitobingiz (Sizning)* kabi. Demak, «shaxs» semasi saqlanadi, «son»semasi o'zgaradi («ko'plik» «birlik»), shu bilan birga baho semasi («sizlash») yuzaga qalqiydi, natijada bir morfema ikki grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi.

Shunga o'xshash hodisa tuslovchilarda ham mavjud. Masalan, *-(i)ngiz* tuslovchisi bilan «II shaxs»semasi saqlangani holda: 1) «ko'plik»ifodalanadi (baho semasi betaraf bo'ladi): *keldingiz (sizlar)* kabi; 2) «birlik»ma'nosi «sizlash «baho semasi bilan birgalikda ifodalanadi: *keldingiz (Siz)* kabi.

Ayrim adabiyotlarda *ukamga* (kimga?), *mehnatga* (nimaga?), *ishxonaga* (qayerga?), *peshinga* (qachonga?) kabi misollar asosida jo'nalish kelishigi affiksi harakat yo'naltirilgan predmet, o'rin, payt ma'nolarini ifodalashi haqida gapirilar edi; hozir bunday (o'rin, payt kabi) ma'nolar kelishik affiksining ma'nolari emas, balki u qo'shiladigan leksemadan anglashiladigan ma'no ekanligi ta'kidlanadigan bo'ldi.

Ko'pma'nolilik hodisasini ko'pvazifalilik hodidasidan farqlash kerak. Masalan, tushum kelishigi – bir vazifali; lekin bosh kelishik – ko'p vazifali; bu kelishikdagi leksema: 1) ega vazifasida, 2) izohlovchi vazifasida va boshqa vazifalarda keladi. Shu asosda bosh kelishikni ko'p ma'noli deb bo'lmaydi.

Morfemalar orasidagi sinonimik munosabat

Sinonim bo'lish asosan leksema yasovchi morfemalarga xos. Masalan, *-dosh* affiksi ma'lum leksemalarga «birgalik»ma'nosi bilan qo'shilganda *ham-* affiksoidiga sinonim bo'ladi: *fikrdosh-* – *hamfikir-*, *suhbatdosh-* – *hamsuhbat-* kabi.

Shakl hosil qiluvchi morfemalarning sinonimik munosabatda bo'lishi juda oz uchraydi. Masalan, rang-tus anglatuvchi sifat leksemalarda «belgining me'yordagi holatdan oz,

kuchsiz»ekanini ifodalovchi *-(i)sh* (*ko'kish-* kabi) va *-(i)mtir* (*ko'kimtir-* kabi) affikslari o'zaro sinonim, chunki bu affikslarda: 1) ifoda jihati har xil, 2) ayni bir ma'noni ifodalaydi, 3) ayni bir turkum leksemalariga qo'shiladi, 4) ma'lum bir shart-sharoitda biri o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin va b. Bu sinonim affikslar orasidagi farq qaysi sifat leksemalarga qo'shib kela olishida ko'rinadi: *ko'kish-* – *ko'kimtir-* tarzida ishlatish mumkin, lekin *oqish-* deb ishlatiladi-yu, *oqimtir-* deb ishlatilmaydi va b. Sinonim bo'lish talablariga *-tir(-dir)*, *-giz (-kiz, -qiz, -g'iz)* orttirma yasovchilari ham javob beradi: *ayttir-* - *aytkiz-*, *bildir-* - *bilgiz-* kabi. Lekin bu affikslarda ayni bir fe'l leksemaga qo'shilish oz uchraydi, ko'pincha har xil leksemaga (saylab) qo'shiladi: *yondir-* deyiladi-yu, *yongiz-* deyilmaydi va b.

Affiksal omonimiya. Shaklan bir xil bo'lib, ma'no jihatidan turlicha turkumlarga xos so'z yasovchi va shakl yasovchi affiks *omonim affiks* deyiladi. Ular shaklan bir xil bo'lsa ham, lekin ma'no jihatidan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan boshqa-boshqa qo'shimcha hisoblanadi.

Affiksal omonimiya quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. So'z yasovchi qo'shimchalar o'zaro omonimlik munosabatida bo'ladi. So'z yasovchi qo'shimchalarning bir so'z turkumi doirasida omonimlik holatida bo'lishi juda kam uchraydi. Bu hodisa ko'pincha ikki, ba'zan uch so'z turkumi doirasida bo'ladi.

So'z yasovchi qo'shimchalarning omonimlik munosabatida bo'lishi quyidagicha:

a) *-k, -q (-ik, -iq, -uk, -oq)*: *kura-k, tesh-ik, chiz-iq, yut-uq, yamo-q, tuz-oq, o'r-oq* (ot); *eg-ik, sin-iq, qo'rq-oq, yum-uq* (sifat); *ko'z-ik, kech-ik, yo'l-yo'liq* (fe'l) kabi;

b) *-gi (-ki, -qi)*; *su'ur-gi, cho'-qi, te'-ki* (ot); *kuz-gi, kech-ki, qish-ki* (sifat) kabi;

v) *-in, -un*: *ek-in, tug-un, yig'-in* (ot); *erk-in, yashir-in* (sifat) kabi;

g) *-lik*; *bola-lik, mustaqil-lik, paxtachi-lik, yaxshi-lik* (ot); *hafta-lik, kun-lik, tush-lik, buxoro-lik* (sifat);

d) *-qin, -g'in (-qun, -g'un)*; *tosh-qin, yon-g'in, uch-qun* (ot); *yor-qin, oz-g'in, tur-g'un* (sifat) kabi;

e) *-don*: *tuz-don, kul-don, qalam-don* (ot); *bilim-don, gap-don, qadr-don* (sifat) kabi.

2. So'z yasovchi qo'shimcha bilan shakl yasovchi qo'shimcha omonimlik munosabatida bo'ladi:

a) *-chak, -choq, -chiq*: *kuyun-chak, maqtan-choq, sirg'an-chiq* (sifat); *kelin-chak, toy-choq, qo'-chiq* (otning kichraytish – erkalash shakli) kabi;

b) *-cha, -larcha, -lab*: *qisqa-cha, yashirin-cha, do'st-larcha, mard-larcha, oy-lab, yil-lab* (ravish); *uy-cha, shahar-cha* (otning kichraytish shakli); *o'n-larcha, yuz-lab, ming-lab* (son shakllari) kabi;

v) *-ma*; *gazla-ma, bos-ma, o's-ma* (ot) va *yasa-ma, tug'-ma, qayril-ma* (qosh); *qaynat-ma* (*sho'rva*) (sifat); *kel-ma, o'qi-ma, bor-ma* (fe'lning bo'lishsiz shakli) kabi;

g) *-(a)r*: *ko'k-ar, oq-ar* (sifatdan fe'l yasalgan); *kel-ar, oq-ar* (*suv*), *ko'r-ar ko'z, bor-ar* (*yer*), (sifatdosh shakli) kabi;

d) *-siz*: *suv-siz, kuch-siz, 'oyon-siz* (sifat); *kela-siz, keta-siz, o'qiy-siz, ishlaya'-siz, o'qigan-siz* (fe'lning shaxs-son shakli) kabi;

e) *-i, (a)y*: *chang-i, boy-i, tinch-i, kuch-ay, keng-ay* (fe'l yasovchi); *qishloq-(g')-i, maktab-i, kitob-i* (egalik shakli); *bor-ay, kel-ay, yoz-ay* (fe'lning mayl shakli).

3. Shakl yasovchi qo'shimchalar o'zaro omonimlik munosabatida bo'ladi:

a) *-(i)sh*: *oq-ish, ko'k-ish, sarg'-ish* (belgining kamligi shakli); *o'qi-sh, bor-ish, yoz-ish* (harakat nomi shakli); *yo'z-ish-di, ishla-sh-di, kul-ish-di* (fe'lning birgalik daraja shakli) kabi;

b) *-m, -ng*: *uka-m, ota-m, uka-ng, ota-ng* (egalik shakli); *keldi-m, o'qidi-m, keldi-ng, o'qiding* (shaxs-son shakli) kabi.

Bu kabi omonimlik xususiyatiga ega bo'lgan qo'shimcha **omomorfema** ham deyiladi. Bunday til hodisasi affiksali o'mo'nimiya deyiladi.

Affiksali polisemiya. Yasovchi affiksning bir turkumga xos bo'lgan xilma-xil ma'noli so'z yasash hodisasi affiksali polisemiya deyiladi: *tort-ma, bo'l-ma, bostir-ma* (joy oti); *isit-ma, terla-ma, yozish-ma* (mavhum oti); *sur-ma, qatla-ma* (narsa oti) kabi. *-ma* qo'shimchasi yordamida yasalgan bu so'zlarning hammasi *narsalik* ma'nosini anglatadi. Ular anglatgan ma'nodagi farq esa qo'shimcha orqali emas, balki yasash asosi orqali aniqlanadi. Shuning uchun bunday xususiyatga ega bo'lgan qo'shimcha *polisemantik qo'shimcha*, bunday til hodisasi esa *affiksali polisemiya* deyiladi.

Quyidagi qo'shimchalar polisemantik xususiyatga ega:

1) *-gi, -g'i (-ki, -qi): su'ur-gi, cho'-qi* (narsa oti), *sev-gi, sez-gi, kul-gi* (mavhum oti) kabi;

2) *-lik: 'illachi-lik, o'qituvchi-lik, uchuvchi-lik, adabiyotshunos-lik, o'lkashunos-lik, jamiyatshunos-lik* (kasb, hunar, soha oti); *yaxshi-lik, manman-lik, bola-lik, o'smir-lik, yosh-lik* (belgi, holat nomi); *te'a-lik, jar-lik, 'ast-lik, do'ng-lik* (joy, makon oti) kabi.

polisemantik qo'shimcha bir turkumga tegishli har xil ma'noli so'z yasashiga qaramay bir necha qo'shimcha emas, balki har xil o'zakka qo'shilib, turli xil ma'no ifodalaydigan birgina qo'shimcha hisoblanadi.

Demak, qo'shimchalardagi omonimiya va polisemiya hodisalari qo'shimchanning qanday yasash asoslariga qo'shilishi, yasama so'zning leksik va grammatik ma'nolari kabilarga qarab aniqlanadi.

Affiksali sinonimiya. Shaklan har xil bo'lib, bir-biriga o'xshash yoki juda yaqin ma'no bildiruvchi qo'shimcha *sinonim affiks*, bu hodisa esa *affiksali sinonimiyadeyiladi*. Affiksali sinonimiya, asosan, bir xil so'z turkumi doirasida sodir bo'ladi. Qo'shimchalardagi sinonimiya hodisasi boshqa-boshqa qo'shimchalarning so'z yasash asosiga qo'shilishi natijasida yuz beradi. Masalan, *o'rin-siz va no-o'rin, g'ayrat-li va ser-g'ayrat, suvl-li va ser-suv*.

Tilda sinonim qo'shimchalar so'z yasovchilarning o'zaro va shakl yasovchilarning o'zaro ma'nodosh bo'lib kelishi asosida (*o'zgar-t va o'zgar-tir, topl-dir va topl-g'iz, oq-ish-oq-imtir, oq-roq, ayt-ing-lar-ayt-ingiz, unum-li-unum-dor, 'ul-li-'ul-dor* kabi), shuningdek, o'zbek tili qo'shimchalari bilan boshqa tillardan qabul qilingan qo'shimchalarning ma'nodoshlik xususiyatiga ega bo'lishi natijasida (*adabiyot-chi va adabiyot-shunos, g'ubor-siz va be-g'ubor* kabi) kelib chiqadi. Sinonim qo'shimchalarning turli asoslarga qo'shilib so'z yasash darajasi ham bir xil emas. Jumladan, mahsuldor *-chi* qo'shimchasi turli ma'no anglatgan shaxs oti yasagani holda, uning sinonimi sifatida kelgan *-shunos* qo'shimchasi ma'lum asoslargagina qo'shilib shunday otlar yasaydi. Shuningdek, *-shunos* qo'shimchasi qo'shilgan barcha asoslarga *-chi* qo'shimchasi ham bir xilda qo'shila olmaydi. Qiyoslang: *adabiyot-chi va adabiyot-shunos, tarix-chi va tarix-shunos*, lekin *bo'yoq-chi, xizmat-chi* (*-shunos* qo'shimchasini qo'shib bo'lmaydi), *sharq-shunos, tu'roq-shunos, o'lka-shunos* (*-chi* qo'shimchasi qo'shilmaydi) kabi so'zlarda bu qo'shimchalarni almashtirib qo'llab bo'lmaydi.

Sinonimiya quyidagi ko'rinishlarga ega:

1. *-chi* qo'shimchasi tojik tilidan qabul qilingan *-shunos, -kor, -kash* kabi qo'shimchalar bilan sinonimlik munosabatida bo'ladi: *til-chi va til-shunos adabiyot-chi va adabiyot-shunos; qasos-chi – qasos-kor, childirma-chi – childirma-kash* kabi.

2. *-li* qo'shimchasi tojik tilidan o'zlashgan *-kor, -dor, ba-, -ser* kabi yasovchilar bilan sinonimlik holatida bo'ladi: *itoat-li va itoat-kor, (-go'y) bayroq-li va bayroq-dor, suvl-li va ser-suv, tashvish-li va ser-tashvish, davlat-li va ba-davlat, tartib-li va ba-tartib* kabi.

3. –*siz* qo‘shimchasi tojik tilidan o‘zlashgan *be-*, *no-* qo‘shimchalari bilan sinonimlik munosabatda bo‘ladi: *g‘ubor-siz* va *be-g‘ubor*, *xabar-siz* va *be-xabar*, *umid-siz* va *no-umid*, *o‘rin-siz* va *no-o‘rin* kabi.

Affiksial antonimiya. Qo‘shimchalarning qarama-qarshi ma‘no bildirish hodisasi *affiksial antonimiya* deyiladi. Antonim affikslar o‘zbek tilida uncha ko‘p emas. Masalan: Sifat yasovchi –*li* va –*siz*, –*li* va *be-*, –*li* va *no-*, –*siz* va –*dor*, –*siz* va *ser-* kabi qo‘shimchalar qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar yasaydi: *kuch-li-kuch-siz*, *o‘rin-li-o‘rinsiz*, *odob-li-odob-siz*; *baraka-li-be-baraka*; *nuqson-li-be-nuqson*; *foyda-li-be-foyda*; *o‘rin-l=no-o‘rin*, *jo‘ya-li-no-jo‘ya*; *insof-li-no-insof*; *‘ul-siz-‘ul-dor*, *xabar-siz-xabar-dor*; *go‘sh-t-siz-ser-go‘sh-t*, *farzand-siz-ser-farzand* kabi.

Affiksial pleonazm. Affiksatsiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bir so‘zda bir xil affiksning birdan ortiq bo‘lmasligidir. Lekin bu holatning ham o‘z aniq sabablariga ko‘ra chekinishlari - affikslarning takrorlanishi uchrab turadi, ya‘ni *affiksial pleonazm* hodisasi sodir bo‘ladi. *pleonazm* – yunoncha «pleonasmos – ortiqchalik» ma‘nosini ifodalaydi. Bir so‘zda ma‘nolari bir xil yoki yaqin bo‘lgan affikslarning takrorlanishi (ikki, ba‘zan uch) *affiksial pleonazm* deyiladi.

So‘zda takrorlanib keladigan bunday affikslar har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi: bir affiksning aynan o‘zi takrorlanadi yoki tashqi shakli har xil bo‘lgan – sinonim affikslar takrorlanadi: *ayt-ingiz-lar*, *ish-da-ligim-da*, *bir-i-si*, *sing(i)l-i-si* kabi. Shuningdek, til birliklari (so‘zlar) ham semantik jihatdan takror holda qo‘llanadi: *bosh-oyoq sar‘o* birikmasidagi «*sar‘o*»so‘zi ham «*bosh-oyoq*» ma‘nosini ifodalaydi. Yoki *pulsirot ko‘prigi* birikmasidagi «*pul*» so‘zi «*ko‘prik*» ma‘nosini bildiradi.

Nazorat uchun savollar:

12. Affikslarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari necha xil?
13. Allamorf nima?
14. So'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar haqida gapiring.
15. Morfologiya tushunchasi nima?
16. Morf va allamorfni izohlang.
17. So'zning morfem tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
18. Fuziya nima?
19. Morfema varianti nima?
20. Morfemika nimani o'rganadi?
21. Pleonazm va morfem pleonazm haqida so'zlang.
22. Allamorf va morf tushunchalariga izoh bering.

3-mavzu: O'ZBEK TILI DERIVATSIYASI

REJA:

1. So'z yasash qolipi.
2. So'z yasash qolipi UMIS, yasama so'z YaXVO sifatida.
3. So'z yasash qolipining turlari.

Tayanch so'z va iboralar: *yasama so'z, yasalgan so'z, ixtisoslashish, soddalashish, tublashish, leksemalashish (leksikalizatsiya), so'z yasash qolipi, so'z yasash usullari, so'z yasalishi tarkibi, diaxron yasalish, sinxron yasalish., til, lison, nutq, dialektika, me'yor, konstruktsiya, qolip, qolip turlari, izchil affikslar, noizchil affikslar, so'z yasash qolipi*

Derivatsiya (so'z yasalishi, hosil bo'lishi) tilshunoslikning alohida bo'limi. U derivatsiya hodisasi, uning diaxron va sinxron turi, so'z yasash, hosil bo'lish usuli kabi masala bilan shug'ullanadi. Derivatsiya so'z yasalishini ham ([*ishchi*], [*ishla*], [*kitobxon*]), ichki mikoniyat asosida yangi leksema paydo bo'lishini ham ([*kelishgan*], [*ixtisoslashuv*], [*o'qigan*], [*birov*]) o'rganadi.

So'z yasalishi – sof nutqiy hodisa, nutqiy jarayon. U derivatsiyaning asosiy qismini tashkil etadi. Biroq uning lisoniy asosi bor. Shu sababli lison va nutqqa birday daxldor.

So'z yasalishi lingvistik termin sifatida ikki ma'noli:

- a) so'z yasash jarayoni atamasi;
- b) ushbu jarayonni o'rganuvchi soha.

So'z yasash deganda qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilish tushunilavermaydi. Masalan, so'z yangi ma'no kasb etishi natijasida yangi so'z paydo bo'lishi mumkin. Deylik, [*ishbilarmon*] so'zi yangi ma'no kasb etdi. Biroq bu yerda yangi so'z yasalishi yo'q. Demak, so'z yasalishi, yasama va yangi ma'no kasb etgan so'zlarning leksemalashuvi hodisasini farqlash lozim.

Derivatsiya ham til taraqqiyoti natijasida tarixiylik va zamonaviylikka daxldor bo'ladi. Shu boisdan tarixiy va sinxron derivatsiyani farqlash lozim.

Tarixiy va sinxron derivatsiya. Hozirgi derivatsiyada yasama so'z bilan derivatsion (so'z yasash) qolip orasida aloqa mavjud bo'lib, qolipning shakliy va mazmuniy tomoni hosila so'zda o'z izini qoldirgan bo'ladi. [*Kitobchi*] yasama so'zida [**ot+chi=ot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti**] qolipidagi tenglik alomatining chap (shakliy) va o'ng (mazmuniy) tomoni izlari yaqqol ko'rinib turibdi.

Tarixiy derivatsiyada yasama so'zning shakli va ma'nosiga mos qolip mavjud bo'lmaydi. Bu maxsus tekshirish natijasida aniqlanadi. Masalan, [*qishloq*], [*ovloq*] so'zlarining ma'nosini ularning tashkil etuvchilari va derivatsion qolipi asosida chiqarib bo'lmaydi. Chunki ular tarixiy yasalmalardir. [*Qorovul*], [*yasovul*], [*silliq*] so'zida ham shu hol kuzatiladi.

So'z yasash (derivatsion) qolipi haqida. Har qanday yasama so'z so'z yasash qolipi asosida hosil qilinadi. Hosila lisoniylashib, o'z qolipidan uzilib ketsa ham, unda bilinar-bilinmas qolip bilan (agar qolip yashovchan bo'lsa) bog'lanish baribir saqlanib qoladi.

So'z yasash qolipi ikki uzvdan iborat bo'ladi:

- a) qolipning shakliy tomoni;
- b) qolipning mazmuniy tomoni.

Yasama so'zda ana shu ikki jihat tajallilanadi. Yasalma shaklan va mazmunan ana shu qolipga muvofiq kelsa, unga shu qolip hosilasi sifatida qarash mumkin. Masalan, [*kitobchi*]

so'zida mazkur qolipning izi bor. Lekin [*xabarchi*] so'zida qolipning mazmuniy tomoni aks etmagan. Demak, leksema bu qolip mahsuli emas.

So'z yasash qolipining shakliy tomoni ikki qismdan tashkil topadi: *yasovchi asos* va *yasovchi vosita*. Masalan, [**ot+chi=shu ot bilan shug'ullanuvchi shaxs oti**] qolipining shakliy qismi bo'lgan [**ot+chi**] ning *ot* qismi yasovchi asos, [*-chi*] qismi esa yasovchi vosita.

Qolipning yasovchi asosi, albatta, mustaqil so'z, yasovchi vosita qismi esa so'z ham, qo'shimcha ham bo'lishi mumkin. Masalan, qo'shma, juft so'z yasash qoliplarida asos ham, vosita ham so'z.

So'z yasalishi esa tilshunoslikning alohida bo'limi bo'lib, u ikki xil ma'noda qo'llanadi: 1) *umuman yangi leksik ma'noli so'z hosil qilish*; 2) *tilshunoslikning so'z yasalishi bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi* bo'limini bildiradi.

So'z yasalishi, umuman, qanday usul, qanday vosita bilan bo'lmasin yangi leksik ma'noli so'z hosil qilishdir. Masalan, *ish-chi* (*-chi* qo'shimchasi bilan yasalgan), *gulbeor* (2 yasovchi asosning birikuvidan yasalgan) va boshqalar.

So'z yasalishi tilshunoslikning ayrim bir bo'limi sifatida so'zlarning yasalishini (yasama so'z), yangi leksik birlik hosil qilishning qonun-qoidalarini, vositalarini, so'z yasalishi strukturasi (tarkibini) tekshiradi. **Demak, bu sohaning obyekti yasama so'zdir.**

So'zni leksikologiya ham, grammatika ham tekshiradi. Lekin bu ikki xil tekshirish bir-biridan ma'lum belgilari bilan farq qiladi. Leksikologiya so'zning semantik strukturasi, ularning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini, so'zlarning o'z yoki o'zlashgan so'z ekanini, so'zlarning emotsional-eks'ressiv bo'yoqqa ega bo'lishi kabi masalalarni o'rganadi. Grammatika esa so'zning shaklan o'zgarishlarini, so'z qo'shilishining, so'z birikmalarining turli ko'rinishlarini, gap va uning turlarini o'rganadi. Demak, so'z yasalishining o'z ob'yekti bor.

O'ZBEK TILIDA SO'Z YASALISHI USULLARI

O'zbek tilida so'z yasashning vositalari har xil bo'lib, uning turlari shunday ko'rinishlarga ega: 1) *fonetik usul*; 2) *semantik usul*; 3) *affiksatsiya (morfologik) usuli*; 4) *Kompozitsiya (sintaktik) usuli*.

1. Fonetik usul. Bu usul bilan so'z yasash 2 hodisani ko'zda tutadi: 1) so'zning tarkibida fonetik o'zgarish (tovush o'zgarishi) qilish orqali yangi so'z hosil qilish. Masalan, *bo'r-bo'z*, *tog'-tosh*, *ko'z-ko'rmoq*, *tosh-tish* (qattqlik belgisi asosida);

2) urg'uning o'rnini o'zgartirish bilan yangi so'z yasash. Masalan, *yangi* (sifat), *yangi* (ravish), *hozir* (ravish) - *hozir* (tayyor), *tugma* (ot), *tugma* (fe'l), *akademik* (unvon) – *akademik* (nashr turi).

2. Semantik usul. Leksik – semantik yo'l bilan so'z yasash so'z ma'nosining o'zgarishi, ma'noning ko'chishi orqali yangi ma'noli so'zning yuzaga kelishidir.

Semantik yoki leksik-semantik usul yordamida so'z yasash tarixiy taraqqiyot jarayonida tildagi ayrim ma'nolar orasidagi bogplanishlarning yo'qolib ketishi, so'zning ayrim shakllarida yangi leksik ma'noning yuzaga kelishi kabi hodisalar bilan bog'liq. Bunday hodisa tilning ko'p yillar davomida rivojlanishi natijasida asta-sekin yuzaga keladi: **bo'z I**-gazlama, i' gazlama, bo'z. Masalan: *Arqog'ini ko'rib, bo'zini ol, Onasini ko'rib, qizini ol. (Maqol)*; **bo'z II** –ko'kka moyil oq rang. Masalan: *Safidan adashgan bo'z turna bo'zlar. (A.Suyun)*; **bo'z III** – ekin ekishga yaroqli, lekin uzoq vaqt ishlanmay, ekilmay yotgan yer. Masalan: *poylab dehqon yo'lini, bo'rsillaydi bo'z tu'roq. (A.Suyunov)*; **bo'z IV** – turmush tajribasiga ega bo'lmagan, xom bola, o'smir. Masalan: *Ko'pchiligimiz jang ko'rmagan bo'z yigit edik. (B.Imomov)*. *Suluv qizing bor bo'lsa, bo'z bolaga yoqarsan. («Sharq yulduzi»)*; **bo'z V** - o'tsimon cho'l opsimgi- chalov. Masalan: *Sarhovuz betini chalov bosgan. (S.Siyoyev)*; **bo'z VI** - qattiq, uvvos yig'i. Masalan:

Unutmog ham shunchami, Dunyo topdi bo'zimga (M.Yusuf). Quyidagi so'z ma'nolari ham xuddi shunday hodisa tufayli yuzaga kelgan: *yupqa* (qalin emas), (*yupqa* qog'oz-sifat) - *yupqa* - ovqatning nomi (ot); *ko'k* (rang) - *ko'k* (osmon) - *ko'k* (rezavor) - *ko'k* (tikishning bir turi); *kun* (sutkaning bir qismi) – *kun* (quyosh, planeta).

Semantik usul bilan yasalgan so'zlar bir turkum doirasida *ko'k* (osmon) *ko'k* (rezavor); *bo'z* (gazlama) – *bo'z* (o'tsimon cho'l opsimpligi) vaot hamda boshqa - boshqa so'z turkumlariga tegishli bo'lishi mumkin: *yupqa*-sifat, *yupqa* – ot, *ko'k* (rang) *ko'k* (osmon) *bo'z* – ot (gazlama), *bo'z* - sifat (bo'z bola) kabi.

3. **Affiksatsiya usuli.** Hozirgi o'zbek tilida so'z yasashining keng qo'llaniladigan eng unumli, yetakchi turi **affiksatsiya usulidir**. Asosga qo'shilib, shu asosning ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan, ammo yangi bir leksik ma'nodagi so'z hosil qilishda ishtirok etadigan affiks **so'z yasovchi affiks** (qo'shimcha) deyiladi. Yangi leksik ma'noli so'z hosil qilishning yetakchi vositasi bo'lgan affiksatsiya o'zbek tilida **suffiksatsiya** xarakterida bo'ladi, ya'ni yasovchi qo'shimchalar yasovchi asosning oxiriga qo'shiladi. Masalan, *terim-chi, olma-zor, til-shunos, oq-la, ish-la, bilim-li, intizom-li* kabi. Qisman so'z yasashda boshqa tillardan (asosan tojik tilidan) kirgan old qo'shimchalar (prefiksalar) ham qo'llanadi. Masalan, *ba-quvvat, bar-vaqt, be-baho, no-o'rin, be-o'xshov, be-vafo, ser-hosil* kabi. Bunday yasash asosan sifat turkumida uchraydi.

So'z yasovchi affiksalar ko'pincha bir turkumdagi so'zdan boshqa bir turkumga kiradigan yangi leksik birlik yasaydi. Masalan, *yoq, qish* – ot, *yoqgi, qishki* – sifat; *ish, arra* – ot; *ishla, arrala* - fe'l; *oq, yaxshi*-sifat, *oqla, yaxshila* – fe'l; *su'ur, o'r-fe'l, su'ur-gi, o'r-oq*-otkabi.

Ba'zan so'z yasovchi affiks bir turkumning o'ziga xos bo'lgan so'z yasashi mumkin. Bu ko'proq ot turkumiga xos. Masalan, *ish-ish-chi, temir-temir-chi, arava-arava-kash* (-soz); *qum-qum-loq, tosh-tosh-loq, o'rik-o'rik-zor, til-til -shunos, adabiyot-adabiyot-shunos, o'zbek-O'zbekiston* kabi.

So'z yasovchi affiksalar nutqda qo'llanishi darajasiga ko'ra *unumli, kam unum va unumsiz* affikslarga bo'linadi.

Ko'plab yangi so'zlar yasash uchun xizmat qiladigan affiks **unumli yasovchi** deyiladi. Masalan, *ish-chi, xizmat-chi, ov-chi, a'lo-chi, mosla-ma, qaynat-ma, yasa-ma, ko'rgaz-ma, tinch-lik, yaxshi-lik, katta-lik, kul-gi, turt-ki, su'ur-gi, qish-ki, ish-la, arra-la, oq-la, bosh-la, yaxshi-la, tarash-la* kabi.

So'z yasashda kam qatnashadigan affiks *kam unum yasovchi* deyiladi. Masalan: *o'r-oq, taro-q, bosh-oq, mehnat-kash, arava-kash, suz-gich, qir-g'ich, yig'im, musobaqa-dosh* kabi.

Hozir yangi birlik hosil qilmaydigan affiks **unumsiz yasovchi** deyiladi. Unumsiz affiksalar odatda bir necha so'zdagina mavjud bo'ladi. Masalan: *qo'-ag'on, cho'-ag'on, sez-gir, kes-kir, ish-chan, uyat-chan, san-a, kes-kin*.

Affiksoydlar. Affikslarning tug'ilishida shunday hol ham uchraydi: ba'zi so'zlar affiks funksiyasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan bo'lsa ham, hali affiksga aylanib yetmagan bo'ladi. Bular **affiksoyd** sanaladi. Masalan, *bu uyda topirt xona bor – biz ishxonada uchrashdik*. Ko'rinadiki, *xona* elementi o'rni bilan so'z bo'lib ham qo'llanadi, affiks bo'lib ham qo'llanadi (keyingi holda o'rin bildiradigan affiksga juda yaqin keladi). U bir o'rinda o'zak morfema, boshqa o'rinda – ergash morfema vazifasida keladi: *molxona, muzxona* (chog'ishtiring: *muzlik*); *somonxona* (o'tinxona, maktabxona (shevalarda: *maktab* so'zidagi –*ma* elementining o'rin ma'nosi o'zbek tilida uqilmaydi: bu struktura o'zbek tiliga yot, shuning uchun –*xona* morfemasi qo'shilgan, kitob so'zi bilan bog'liq), *sartaroshxona* qiyoslang: (*sartaroshlik*). *Jon* elementi ham shunday: *jonim otam = otajonim, jon qizlar = qizlarjon, jon bolam = jonim*

bolam, bolajonim, jonginam = bolajonginam kabi. O'zbek tilida affiksoidlar (ular so'z-affiks=so'z deb ham yuritiladi) kam uchraydi.

4. Kompozitsiya usuli. Kompozitsiya yo'li bilan so'z yasash birdan ortiq yasovchi asosni ma'no va mazmun jihatidan biriktirib, yangi leksik birlik - qo'shma so'z hosil qilishdir. Qo'shma so'zning sodda so'zdan farqi shundaki, sodda so'zda mustaqil ma'noli qism bitta. Qo'shma so'zda esa bittadan ortiq bo'ladi. So'z yasashning bu turi o'zbek tilida eng faol usullaridan hisoblanadi. Masalan, *gulbeor, yeryong'oq, uchburchak* kabi. Qo'shma so'z bir butun leksik ma'no – bir murakkab tushuncha va yaxlit shakllanish – grammatik tushunchaning ham yaxlitligi, fonetik butunlik bilan xarakterlanadi. Demak, u bir so'zdir. Qo'shma so'zning qismlari orasida grammatik aloqa bo'lmaydi. Ammo semantik aloqa bor. U har qanday so'z birikmasida, gapda bir sintaktik vazifa bajaradi. Qo'shma so'zning asosiy qismi ikki kom'onentdan iborat bo'ladi. Qo'shma so'zlar ot, sifat, son, ravish va qisman fe'llarda keng tarqalgan. Masalan: *oqqush, beshbarmoq, uchburchak, urtopqmoq, belbog', bilaguzuk* (ot); *mehmon-do'st, shifobaxsh, jigarrang* (sifat); *qaror qilmoq, ado etmoq, qo'l qo'yimoq* (fe'l); *hech qachon, bir lahza, bir zum, bir nafas* (ravish).

Agar ikki yoki undan ortiq mustaqil ma'noli morfemadan tashkil topgan qo'shma so'zning biror kom'onenti (morfemasi) hozirgi o'zbek tilida mustaqil ma'nosini yo'qotgan bo'lsa, bu qo'shma so'z qo'shma so'zlik xususiyatini yo'qotadi – sodda so'zga aylanadi. Shuningdek, mustaqil so'z bilan ko'makchi (asosan ko'makchi fe'l) so'zning birikuvi ham qo'shma so'z emas. Bunday qo'shilmalar analitik shakl deyiladi. Masalan, *qalam bilan, ukam uchun, o'qib chiqmoq, yoza boshlamoq, ko'rib qolmoq, berib kelmoq* kabi (Bu haqda fe'lning analitik shakli qismiga qarang). Shuningdek, *kechqurun, zararkunanda, odamshavanda, dardisar, astoydil* kabi so'zlar aslida qo'shma so'z bo'lgan bo'lsa ham, hozirda sodda so'z hisoblanadi.

Qo'shma so'z bilan so'z birikmasining shaklan o'xshash tomonlari bor. Ammo ular orasida ham farq bor. Ular quyidagilar:

- a) qo'shma so'zning qismlari morfema, so'z birikmasining qismlari esa so'z bo'ladi;
- b) qo'shma so'zning qismlari yaxlitligicha bir leksik ma'no ifodalaydi, so'z birikmasining qismlari alohida-alohida leksik ma'no ifodalaydi;
- v) qo'shma so'zning qismlari orasida sintaktik aloqa bo'lmaydi, so'z birikmasining qismlari orasida sintaktik aloqa bo'ladi *tuyaqush, oybolta, xushfe'l, qo'ziqorin*-qo'shma so'z, *qush qanoti, oy yorug'i, asalari uyasi, qora 'ortfelli* (yigit), *chust do''ili* (bola), *o'n qavatli* (bino)-so'z birikmasi;
- g) qo'shma so'z qismlari o'z mustaqilligini (qisman yoki toplaligicha) yo'qotadi, so'z birikmasining qismlari esa o'z mustaqilligini saqlaydi;
- d) qo'shma so'z qismlari yaxlit bir savolga javob bo'ladi, so'z birikmasi qismlari alohida savolga javob bo'ladi va bir gap bo'lagi vazifasida keladi.

Davrlar o'tishi bilan ayrim so'z birikmalari bir so'zga (qo'shma so'zga) aylanishi mumkin. Bunda so'z birikmasi bir ma'no – leksik ma'no ifodalaydigan bo'lib qoladi, birikma qismlari orasidagi sintaktik aloqa yo'qoladi. Natijada aslida so'z birikmasi bo'lgan birlik qo'shma so'zga aylanadi. Bu jarayon tilshunoslikda **sintaktik-leksik** usul bilan so'z yasalishi deb yuritiladi. Masalan, *qashqargul, tokqaychi, mingboshi, yurtboshi, yengiltabiat, kaltafahm, o'zbilarmonlik baribir* (bari-ega – bir- kesim). Sintaktik – leksik usul bilan so'z yasash tarixiy (diaxron) yasalish hisoblanadi.

4-mavzu. SO'Z YASASH QOLIP. YASAMA SO'ZLARNING XUSUSIYATLARI, TIPLARI VA TURLARI.

Reja:

1. Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari.
2. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi.
3. Yasama so'z taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari.
4. So'z turkumlarida yasaliş va yasama so'zlarning leksemalashishi.

Tayanch so'z va iboralar: *yasama so'z, yasalgan so'z, ixtisoslashish, soddalashish, tublashish, leksemalashish (leksikalizatsiya), so'z yasash qolipi, so'z yasash usullari, so'z yasaliş tarkibi, diaxron yasaliş, sinxron yasaliş., til, lison, nutq, dialektika, me'yor, konstruktsiya, qolip, qolip turlari, izchil affikslar, noizchil affikslar, so'z yasash qolipi*

So'zning yasaliş tarkibi so'zning morfem tarkibidan ham, so'zning morfologik tarkibidan ham farq qiladi.

So'zni morfem tarkibiga ko'ra tahlil qilinganda, uning (so'zning) umuman tarkibi – morfemalari - ma'noli qismlari aniqlanadi. Masalan: *ter-im-chi-lar, o'qi- t-uv-chi-lik-ni, paxta-zor-lar-ning* kabi.

So'zning morfologik tarkibi tahlil qilinganda esa, uning (so'zning) shakl yasash asosi va shakl yasovchi vosita ajratiladi. Bu vositalar esa so'z tarkibida ikkatadan oshmaydi: *shakl yasovchi asos, shakl yasovchi affiks*. Masalan: *paxtakorlarning* so'zining shakl yasovchi asosi *paxtakorlar*, shakl yasovchi affiksi –**ning**, *paxtakorlar* so'zining shakl yasovchi asosi – *paxtakor*, shakl yasovchi affiksi –*lar*, *paxtakor* - so'z.

So'z yasash tarkibida esa **so'z yasovchi asos** va **so'z yasovchi affiks** ajratiladi. Ya'ni so'zda yasovchi qismlar ham ikkatadan oshmaydi (garchi so'z tarkibida birdan ortiq o'zak va so'z yasaydigan birdan ortiq affiks bo'lsa-da). Masalan, *bilimdonlik* so'zining so'z yasovchi asosi *bilimdon*, so'z yasovchi affiksi –*lik*, *bilimdon* so'zining so'z yasovchi asosi *bilim*, so'z yasovchi affiksi –*don*, *bilim* so'zining so'z yasovchi asosi –*bil*, so'z yasovchi affiksi –*im*.

Yasama so'zning asosi (so'z yasaliş asosi) qo'shma so'z yoki so'z birikmasiga teng bo'lishi mumkin. Bunday holatda ham yasovchi qismlar ikkatadan oshmaydi. Masalan, *belbog'li* so'zining yasovchi asosi – *belbog'*, yasovchi affiks –*li*; *beshtavatli (bino)* yasovchi asos – *beshtavat*, yasovchi affiks – *li*; *ikki xonali (uy)* – *ikki xona* – yasovchi asos, *-li* yasovchi affiks. Ammo yasovchi affiks qatnashmagan qo'shma so'zlarda yasovchi qismlarning hammasi **yasovchi asos** deb yuritiladi. Masalan, *toshko'mir tosh* – yasovchi asos, *ko'mir* – yasovchi asos - *toshko'mir* – yasalma; *oqqush - oq* - yasovchi asos, *qush* – yasovchi asos - *oqqush* – yasalma kabi.

So'zning yasaliş tarkibini aniqlashda faqat yasama so'zlar (sodda yasama va qo'shma so'zlar) tahlil qilinadi. Ya'ni sodda tub so'zlar e'tibordan chetda qoladi. Bunday so'zlar so'zning morfem va morfologik strukturasi ko'ra tahlil etiladi. Boshqacha aytganda, so'zning yasama qismigina tahlil etiladi. Masalan, *o'quvchilarning* so'zining o'quvchi qismi, *olmazorlar* so'zining olmazor qismi, *tinchlikni* so'zining *tinchlik* qismi va boshqalar.

Soʻz tarkibida morfemalarni topgʻri ajratish yasash asosining va yasovchi vositaning tarkibini, chegarasini topgʻri hisobga olish katta ahamiyatga ega. Masalan, *gulchilik*, *temirchilik*, *baliqchilik* kabi yasama leksemalarda *gulchi*, *temirchi*, *baliqchi* yasash asosi hisoblanadi. Ammo *koʻpchilik*, *ozchilik*, *dehqonchilik*, *yogʻingarchilik* kabilarda esa yasash asosi *koʻp*, *oz*, *dehqon*, *yogʻin* leksemalaridir. Shunki oʻzbek tilida *koʻpchi*, *ozchi*, *dehqonchi*, *yogʻingar* shaklidagi leksemalar yoʻq. Demak, bu oʻrinda shu soʻzlar tarkibidagi *-chilik*, *-garchilik* qismlari yasovchi affikslar hisoblanadi.

Hozirgi oʻzbek tilida yasama soʻzlar miqdori lugʻat boyligining katta qismini tashkil qiladi. Bu yasalmalar hosil boʻlishiga koʻra ***tarixiy (diaxron) va hozirgi (sinxron)*** yasalishga aloqador boʻlishi mumkin. Soʻz yasalishining tahlilida bu ikki hodisani farqlash lozim.

Soʻz yasalishi ***hozirgi (sinxron)*** asʻektga tayanadi. Bunda til taraqqiyotining maʼlum bir davri koʻzda tutiladi. Masalan, hozirgi zamon oʻzbek tili. Bunda yasama soʻzning qismlari oʻrtasidagi munosabat jonli boʻladi, yaʼni soʻzning maʼnosini qismlarning maʼno munosabati bilan asoslash mumkin boʻladi. Masalan, *oʻr-im*, *ter-im*, *temir-chi*, *doira-chi*, *bilim-li*, *aql-li*, *randa-la*, *egov-la* va boshqalar.

Tarixiy (diaxron) yasalishda esa yasama soʻzning maʼnosi va shu maʼnoning ifodalanish usulini qismlarning maʼno munosabatlari orqali asoslab boʻlmaydi. Bu maʼno maxsus tekshirishlar orqali aniqlanadi. Masalan, *oʻt-loq*, *tosh-loq*, *qum-loq*, *qish-loq*, *ov-loq* soʻzlari koʻrinishidan oʻxshash. Bularning hammasi aslida oʻrin maʼnosini ifodalovchi *-loq* qoʻshimchasi orqali yasalgan. Ammo dastlabki uch soʻz yasama sanalib, morfemalarga ajraladi (*oʻt-loq - oʻtli*, *oʻt koʻp joy*, *tosh-loq - toshli*, *tosh koʻp joy*, *qum-loq - qumli*, *qum koʻp joy*). Keyingi ikkitasi (*qishloq*, *ovloq*) bunday qismlarga ajralmaydi, chunki bularda qismlarning semantik munosabati sezilmaydigan boʻlib qolgan. Yaʼni *qishloq* soʻzi fasl bildiruvchi *qish* soʻzi bilan bogʻlanmaydi (*qish-la-q* «*qishda yashaydigan joy*»), *ovloq* soʻzi endi «*ov joyi*, *ov qilinadigan joy*» maʼnosida emas, balki maʼnosi oʻzgarib «*xilvat joy*» degan maʼnoni bildiradi.

Hozirgi (sinxron) soʻz yasalishida kamida ikkita yasovchi komʼonent (qism) qatnashadi. Bulardan hech boʻlmaganda bittasi mustaqil maʼnoli (narsa, belgi, harakat va sh.k.) boʻladi. Yasama soʻzni yuzaga keltiruvchi bu qismlar *yasovchilar*, ularning oʻzaro munosabatidan (birikishidan) hosil boʻlgan birlik *yasalma* (yasama soʻz) deyiladi.

Yasalmaning yuzaga kelishida qatnashuvchi mustaqil maʼnoli qism **yasovchi asos** (yasalmaning asosi) hisoblanadi. Bunday asos sodda yasama soʻzda bitta, qoʻshma soʻzda birdan ortiq boʻladi: *ishchi*: *ish* – yasovchi asos, *-chi*– yasovchi qoʻshimcha, *ishchi* – yasalma; *toshkoʻmir*: yasovchi asos – *tosh* va *koʻmir*, *toshkoʻmir* – yasalma.

Yasama soʻz quyidagi qonuniyatlarga asoslanadi.

1. Agar soʻz tarkibida, ikki yasovchi qism qatnashmasa, garchi bu soʻz tarkibida yasovchi qoʻshimcha yoki mustaqil maʼnoli qism boʻlsa-da, shuningdek, soʻzning maʼnosi bilan soʻz yasalishining maʼlum tipi oʻrtasida aloqadorlik sezilsa-da, bu soʻz yasama soʻz boʻla olmaydi. Masalan, *qattiq*, *yumshoq*, *silliq* soʻzlariga eʼtibor bering. Bulardan *yumshoq* soʻzi *yumsha* feʼliga *-q* qoʻshimchasining qoʻshilishidan hosil boʻlganini sezish qiyin emas (*-q* qoʻshimchasining taʼsirida feʼl oxiridagi **a** tovushi **o** tovushiga oʻtgan: *yumsha-q - yumshoq*). Shuningdek, *yumshoq* soʻzi bildirgan maʼnoni *yumsha* va *-q* yasovchilari maʼnosi bilan asoslash mumkin: *-q* qoʻshimchasi narsaning feʼl anglatgan harakat natijasi sifatidagi belgisini bildiradi: *yigʻ-iq*, *qis-iq*, *yoʻ-iq*, *yirt-iq* kabi.

Qattiq soʻzi ham aslida xuddi *yumshoq* soʻzi tipida yasalgan. Buni *yumshoq* soʻzi bildirgan maʼnoning *yumshash* harakati bilan bogʻliqligi, *qattiq* soʻzi bildirgan maʼnoning qotish harakati bilan bogʻliqligidan va ikkalasida ham bir qoʻshimchaning mavjudligidan sezib olish

mumkin. Lekin yuz bergan fonetik o'zgarish *qattiq* so'zning *qot* fe'li bilan bogplanishini juda xiralashtirib, sezilmas darajaga keltirib qo'ygan. Shuning uchun bu so'zni qismlarga ajratib bo'lmaydi.

Silliq so'zi ham shu tipda yasalgan. Lekin yasamalilik bu so'zda deyarli sezilmaydi. Shunki hozirgi o'zbek tilida «sathini ravon qilish» ma'nosidagi *sili* (yoki «*sib*») fe'li yo'q.

Demak, hozirgi so'z yasalishi nuqtai nazaridan *yumshoq, iliq, ochiq* kabilar yasama so'z. Lekin *suyuq, silliq, quyuq* so'zlari yasama so'z emas.

2. Ba'zi so'zlarda affiks qismi borligi sezilib turadi, hatto, uni boshqa qo'shimcha bilan almashtirish ham mumkin. Bu hol mazkur so'zning aslida yasama bo'lganini juda aniq ko'rsatadi: *tirik, tiril*. Lekin bularda ham mustaqil ma'noli qism (yasovchi asos) bo'lgani bilan ularni yasama so'z hisoblab bo'lmaydi.

Xullas, u yoki bu so'zning tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha bo'lsa, hatto bu qo'shimcha bir necha so'zlar tarkibida uchrasa ham, lekin so'z tarkibida mustaqil ma'noli kom'onent (yasovchi asos) qatnashmasa, bunday so'zlarni yasama so'z deb bo'lmaydi. Ularning yasamaligi yo tarixiy nuqtai nazardan yoki boshqa til nuqtai nazaridan bo'ladi. Masalan, *g'ovla, emakla, o'dag'ayla, tarashla* so'zlaridagi **-la** affiksining fe'l yasovchi affiksligi aniq. Demak, bu so'zlar tarixan yasama fe'l. *Mashinist, egoist, maishiy, moddiy, siyosiy* so'zlardagi **-ist, -iy** ham so'z yasovchi affiks. Lekin bularda ham mustaqil ma'noli kom'onent (yasovchi asos) yo'q, shuning uchun yasovchi qismlarga bo'linmaydi. Demak, yasama so'z emas. Bularning yasama so'z ekani qaysi tildan o'zlashgan bo'lsa, o'sha til nuqtai nazaridagina bo'lishi mumkin.

3. Biror so'z tarkibida mustaqil ma'noli qism bo'lsa ham, lekin undan qolgan qismning ma'no va vazifasi shu so'z doirasida uqilmasligi (bilinmasligi) mumkin: *ko'chmanchi, tiqmachoq, bo'g'iz, beldamcha, zarurat, o'stloq, quloqchin, qoldiq, bosqich, shaxsiyat, shodiyona, qo'nalg'a, biror* (biron) va b. Bularda ham mustaqil ma'noli qism borligi sezilib tursa-da, lekin undan qolgan qismning so'z yasovchi ekani sezilmaydi, shuning uchun bunday so'zlar ham hozirgi so'z yasalishi nuqtai nazaridan yasama so'z hisoblanmaydi, yasovchi qismlarga bo'linmaydi.

4. Ba'zi so'zlar tarkibida mustaqil ma'noli qism va yasovchi affiks borligi sezilsa-da, bu so'zning ma'nosini uning qismlari ma'nosi bilan asoslab, izohlab bo'lmaydi: *beozor, oqliq, sholcha, qishloq, ovloq* kabilar. Bunday so'zlarni ham hozirgi so'z yasalishi nuqtai nazaridan yasama so'z deb bo'lmaydi.

Demak, ma'lum bir so'zning tarkibida mustaqil ma'noli qism yoki yasovchi affiksning, yoki har ikkisining borligi sezilib tursa-da, lekin bu so'zning ma'nosini ajralishi mumkindek ko'ringan qismlar ma'nosi bilan asoslab bo'lmasa, bunday so'z hozirgi so'z yasalishiga kirmaydi. Bunday so'zlar yasovchi qismlarga bo'linmaydi (bularda yasovchi asos+yasovchi affiks yoki yasovchi asos+yasovchi asos holati bo'lmaydi), ularda soddalashish yuz bergan.

Xullas, hozirgi so'z yasalishida ikki yasovchi qismning qatnashuvi, bulardan esa kamida bittasi mustaqil ma'noli bo'lishi shart. Yasama so'zning (yasalmaning) ma'nosi ana shu yasovchi kom'onentlarning ma'no munosabatiga asoslangan bo'ladi: *ter-im; ter* – yasovchi asos, **-im** - yasovchi affiks; *belbog'-li: belbog'* - yasovchi asos, **-li** yasovchi affiks va b.

Yasama so'zlar lisoniy ham, sof nutqiy ham bo'lishi mumkin. Misol sifatida quyidagi so'zlarga murojaat qilamiz. *paxtakor, ishchi, kitobchi, aqlli, daftarchi, sharsimon, uysimon*. Bu so'zlarni ikki guruhga bo'lamiz:

- 1) [*paxtakor*], [*ishchi*], [*aqlli*], [*sharsimon*];
- 2) (*kitobchi*), (*daftarchi*), (*uysimon*).

Har ikkala guruh soʻzi ham yasama soʻz hisoblanadi. Biroq birinchisi qulayligi, odatlanilganligi, keng istehmolliligi bilan xarakterlansa, ikkinchi guruh unchalik qulay emasligi, kam istehmolliligi, favquloddaligi bilan ajralib turadi.

Demak, birinchi guruh ijtimoiy shartlanganlik xossasiga ega va shu boisdan yuqoridagi zikr etilgan belgilar ularning barchasi uchun umumiy. Ikkinchi guruh esa nutqiy hodisa ekanligi, endigina soʻz yasash qolipidan chiqqanligi bois, odatlanilmaganlik, favquloddalik kasb etgan.

Koʻrinadiki, nutqiy yasama soʻzning ayrimi nutq bosqichidagina mavjud boʻlsa, baʼzilari oʻzini chiqargan qolipdan uzoqlashib, bir butun holda lisoniy sathga «koʻtarilib ketadi».

Hosilasining lison va nutqqa munosabati jihatidan soʻz yasash qolipi ham farqlanadi. Ularni unumsiz (tarixiy) va unumli (zamonaviy) soʻz yasash qolipi sifatida farqlash lozim.

Nutqiy yasama soʻzning lisoniy sathga koʻtarilishi bir necha bosqichda kechadi. Uni nutqdan lisonga siljishi, lisoniylashishi darajasiga koʻra quyidagicha tartiblash mumkin:

- 1) ixtisoslashgan leksema;
- 2) soddalashgan leksema;
- 3) tublashgan leksema.

Ixtisoslashgan leksema nutqiy yasama soʻz lisoniylashuvining eng quyi darajasi. Ixtisoslashgan leksema yasamaligini yoʻqotmagan, yaʼni oʻzida qolipning shakliiy tomoni izini saqlagan, biroq maʼnoviy tomondan qolipdan uzilgan, maʼnosini qolipning oʻng (mazmuniy) tomonidan keltirib chiqarish imkoni boʻlmagan, toraygan maʼnoli leksema. Masalan [*ishchi*](worker, rabochiy) leksemasi «zavod yoki fabrikada ishlovchi, oʻrta maʼlumotli mutaxassis» maʼnosiga ega boʻlib, u [ot]+[chi]+otdan **anglashilgan narsa ustida ishlovchi kishi**] qolipi hosilasi. Qolip hosilasi sifatida u qolipning chap tomoni xususiyatini oʻzida mujassamlashtirgan: Chunki [*ishchi*] leksemasining shakliiy tomoni, yaʼni nomemasida qolipning [ot+chi] umumiyliigi zarrasi, koʻrinishi voqelangan. Leksema sememasi esa «shu otdan anglashilgan narsa bilan shugʻullanuvchi shaxs» mohiyati koʻrinishiga emas, balki uning toraygan, maʼlum bir ixtisosni anglatuvchi koʻrinishi holatiga ega boʻlib qolgan. [*Ishchi*] leksemasiga qiyosan olinadigan, deylik, (*kitobchi*) soʻzida soʻz yasash qolipining shakliiy tomonidan ham, maʼnoviy tomonidan ham uzilish kuzatilmaydi. Yoki [*yozuvcchi*] leksemasi va (*yozuvcchi*)soʻzini qiyoslaylik. Har ikkala hosila ham [[feʼl]+[uvchi]+shu feʼldan **anglashuvchi harakat bilan shugʻullanuvchi shaxs**] qolipi mahsulii. Uni gap tarkibida kuzatamiz: 1.*Yozuvchi hayotni teranroq kuzatadi*. 2.*Insho yozuvchi ijodkorligini namoyon qilishi kerak*.

Birinchi gapda [*yozuvcchi*] leksemasi kasbni anglatib, ixtisoslashgan maʼnoga ega. Ikkinchi gapda esa leksema muayyan yozish harakatini bajaruvchi shaxsni ifodalagan. «Adib» maʼnosidagi [*yozuvcchi*] leksemasi shaklan emas, balki maʼnoviy jihatdan qolipdan uzilgan, ixtisoslashgan maʼnoli leksema. Ikkinchi hosila esa ham shaklan, ham mazmunan qolipga muvofiq kelganligi bois, nutqiy yasama. Leksema hosil boʻlishining bu usuldagi boshqa koʻrinishi sifatida soʻzning atamaviy maʼno kasb etishi (*qoʻshish, ayirish, boʻlish* soʻzlar)ni koʻrsatish mumkin.

Soddalashgan leksema yasama soʻzlar lisoniylashuvining yanada yuqoriroq bosqichi. Soddalashish bu maʼlum bir soʻz yasash qolipining hosilasida oʻzak va qoʻshimchaning oʻzaro birikib ajralmas holga kelishi, soʻzshakldagi grammatik vositaning qotib qolishi natijasida yangi maʼno ifodalashidir. Oʻzbek tilidagi [*oldin*], [*keyin*], [*tashqari*], [*ichkari*], [*yuqori*]kabi yuzlab soʻz soddalashgan yasama soʻz - leksema. Soʻz birikmalarining sintaktik qolipdan uzilish holati sifatida (**boshning ogʻrigi** – [*boshogʻriq*], **belning bogʻi** – [*belbogʻ*]) misollarini koʻrsatish mumkin.

Tublashgan leksema shunday leksemalashgan yasama soʻzki, ularning yasalishini, tarkibini etimologik maʼlumotsiz aniqlab boʻlmaydi. Masalan, [sin] feʼlining oʻzagi [si], [tingla] feʼlining oʻzagi [ding], [toʻq] soʻzi oʻzagining [toʻ] ekanligini til tarixi boʻyicha chuqur maʼlumotga ega boʻlmasdan bilib boʻlmaydi.

Demak, maʼlum boʻladiki, tilda leksema yasash hodisasi yoʻq. Balki yasama soʻzning, nutqiy hosilaning lisoniylashuvi, leksemalashuvi mavjud.

TAHLIL NAMUNASI:

1. Morfem struktura tahlili (Soʻzning eng kichik maʼnoli qismlari va ularning turlari aniqlanadi).

1) *terimchilarni*: *ter*=oʻzak, *-im*=s.yas.aff., *-chi*=soʻz yas.aff., *-lar*=kat.shak. yas.aff., *-ni*=kat.shak. yas.aff; *baliqchilikdan*: *baliq*= oʻzak, *-chi* =soʻz yas.aff., *-lik*= kat.shak. yas.aff., *-dan*= kat.shak. yas.aff; 3) *topqimachilikni*: *topqi*= oʻzak, *-ma*=soʻz yas.aff., *-chi* =soʻz yas.aff., *-lik*=soʻz yas.aff., *-ni* = kat.shak. yas.aff; 4) *dehqonchilikda*:

dehqon= oʻzak, *-chilik* =soʻz yas. aff., *-da* =kat. shakl yas. aff; 5) *koʻpchilikning*:

koʻp = oʻzak, *-chilik* =soʻz yas. aff., *-ning* =kat. shakl yas.aff; 6) *Mirzachoʻllik*:

Mirza = oʻzak, *choʻl* = oʻzak, *-lik* soʻz yas. aff; 7) *Kattaqoʻrgʻondan*:

Katta = oʻzak, *qoʻrgʻon*= oʻzak, *dan* =kat. shakl yas. aff;

8) *ishlagan*: *ish*= oʻzak; *-la* = soʻz yas.aff., *-gan*=nok. shakl yas.aff.

2. Soʻz yasalish strukturasi tahlili: (yasalmani hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

1) *temir*: *temir* soʻz;

2) *temirchi*: *temir*= yasovchi asos, *-chi* =yasovchi affiks (*temirchi*=yasalma);

3) *temirchilik*: *temirchi*=yasovchi asos, *-lik* =yasovchi affiks (*temirchilik* = yasalma);

4) *kimyogar*: *kimyo* =yasovchi asos, *-gar* =yasovchi affiks (*kimyogar*=yasalma);

5) *kimyogarchilik*: *kimyogar* =yasovchi asos, *-chilik* =yasovchi affiks (*kimyogarchilik* =yasalma);

6) *oʻrtoqchilik*: *oʻrtoq*=yasovchi asos, *-chilik* =yasovchi affiks, (*oʻrtoqchilik*= yasalma);

7) *Yangiyoʻl*: *Yangi*=yasovchi asos, *yoʻl*=yasovchi asos, (*Yangiyoʻl* = yasalma);

8) *nooʻrin*: *no*=yasovchi affiks, *-oʻrin*= yasovchi asos, (*nooʻrin*= yasalma);

9) *serhosil*: *ser*=yasovchi affiks, *-hosil*= yasovchi asos, (*serhosil* = yasalma);

3. Morfologik struktura tahlili: (soʻzshakl hosil qiluvchi qismlar ajratiladi).

1) *ishlar*: *ish*=shakl yasovchi asos, *-lar*=shakl yasovchi affiks, (*ishlar* =soʻz shakl);

2) *ishchilar*: *ishchi*=shakl yasovchi asos, *-lar*=shakl yasovchi affiks (*ishchilar*= soʻzshakl);

3) *ishchilarni*:

ishchilar =shakl yasovchi asos, *-ni*=shakl yasovchi affiks, (*ishchilarni*= soʻzshakl);

4) *ishchilarimizning*:

ishchilarimiz=shakl yasovchi asos, *-ning*=shakl yasovchi affiks (*ishchilarimizning* = soʻzshakl).

Eslatma. Agar leksemaning tarkibida yasovchi qism qatnashmasa, u “soʻz” termini bilan nomlanadi.

Soʻz turkumlarida soʻz yasalishi

Soʻz yasalishi hodisasi mustaqil soʻz turkumlariga xos boʻlsa ham, lekin soʻz yasashning biror usuli bilan yangi soʻz hosil qilish soʻz turkumlarining barchasi uchun birdek emas. Masalan, hozirgi oʻzbek tilida eng mahsuldor usul – affiksatsiya va Kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash ot, sifat, feʼl va ravish turkumlari uchun xarakterlidir. Son turkumida esa affiksatsiya usuli bilan ham, Kompozitsiya usuli bilan ham miqdor bildiruvchi yangi soʻz (yangi son) yasalmaydi. Sonlarga qoʻshiluvchi **-(i)nchi** (*uchinchi*, *beshinchi*, *ikkinchi*), **-ta** (*ikkita*, *uchta*, *beshta*) kabi affikslar yangi miqdor bildiruvchi son hosil qilmaydi, balki son (miqdor)

tushunchasini o'zgartmagan holda, unga tartib, dona kabi ma'nolar qo'shadi, xolos: *O'n besh, besh yuz, besh yuz ming, besh yuz million, o'n ming, o'n besh ming* kabilarda har bir so'z (son) o'z ma'nosida qatnashadi, ular birikib yangi bir so'z (son)ni hosil qilmaydi.

Olmoshlar boshqa turkumga oid so'zlar o'rnida qo'llanuvchi, umumiylik xususiyatiga ega so'zlar bo'lganidan yangi so'z yasash hodisasi bu turkumda deyarli yo'q darajadadir.

Hozirgi o'zbek tilining lug'at tarkibida ot turkumi juda ko'p so'zlarni birlashtiradi. Boshqa so'z turkumlariga nisbatan ot turkumining yangi so'zlar bilan boyib borishi ancha faol va uzluksiz davom etadi. Ot turkumining boyib borishi o'zbek tilining asosan o'z ichki vositalari asosida, shuningdek, boshqa tillarning ta'sirida sodir bo'ladi.

Hozirgi o'zbek tilida otlar quyidagi usullar bilan yasaladi: 1) *affiksatsiya usuli*, 2) *Kompozitsiya usuli*. Bular so'z yasashning faol usullari hisoblanadi. Bulardan tashqari, qisman fonetik usul va semantik usul bilan yasalgan otlar ham bor.

Affiksatsiya usulida yasovchi asosga maxsus affiks qo'shish orqali ot hosil qilinadi. Bu usul hozirgi o'zbek tilida ot yasashning eng faol, eng mahsuldor usullaridan biri hisoblanadi. Affiksatsiya usuli bilan ot yasashda ot, fe'l, sifat, ravish va boshqa turkum so'zlari asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra bu otlar uch turga bo'linadi: 1) *ot asosidan yasalgan otlar*; 2) *fe'l asosidan yasalgan otlar*; 3) *boshqa so'z turkumlaridan (sifat, ravish, son, taqlidiy so'z kabilardan) yasalgan otlar*.

Ot asosidan yasalgan otlar. Bu turdagi yasashda asos bo'lib ot so'zlar xizmat qiladi. Bunday yasalmalarning ma'nosi har vaqt yasash asosining ma'nosi bilan bogplangan, undan opsib chiqqan bo'ladi. Bu xildagi yasama otlarda yasash asosining ma'nosi bilan bog'liq ravishda shaxs, narsa va o'rin-joy, har xil mavhum tushunchalar ifodalanishi mumkin.

Shaxs otlari juda katta topdani tashkil qiladi, anglatgan ma'nolarining xilma-xilligi, yasovchi affikslarning ko'pligi, mahsuldorligi bilan boshqa topdagi otlardan ajralib turadi. Bu otlar sof o'zbekcha affikslar hamda boshqa tillardan (asosan tojik tilidan) qabul qilingan yasovchi morfemalar vositasi bilan yasaladi. Hozirgi o'zbek tilida shaxs oti yasovchi qo'shimchalar quyidagilar: *-chi, -dosh, -gar, (-kar), -kor, -bon, -dor, -shunos, -furus, -boz, -xo'r, -'az, -soz, -do'z, -kash, -xon, -go'y, -navis, -'arast*.

1. **-chi.** Bu affiks eng faol ot yasovchi bo'lib, barcha so'z turkumlaridan (boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlardan ham) ot yasashga xizmat qiladi: *ish-chi, tarix-chi, jang-chi, bo'z-chi, bo'yoq-chi, suv-chi, qiziq-chi, ma'ruza-chi, xizmat-chi, yolg'on-chi, traktor-chi, haybarakalla-chi* kabi.

-chi affiksi polisemantik xususiyatga ega. Bu affiks orqali yasalgan otning xilma-xil ma'nolari bevosita yasash asosining ma'nosi bilan bogplangan. Bu tipdagi yasama otlar: a) shaxsning yasash asosi anglatgan narsa bilan shug'ullanishini (*temir-chi, bo'yoq-chi, suvoq-chi, suv-chi, tunuka-chi, qush-chi*); b) ish-harakatni yasash asosi anglatgan narsa vositasida bajarishini (*nay-chi, childirma-chi, dutor-chi, ketmon-chi, mashina-chi, o'roq-chi, karnay-chi, traktor-chi, shaxmat-chi* kabi); v) yasash asosidan anglashilgan narsani yaratish, yasash bilan shug'ullanishini (*taqa-chi, egar-chi, bo'z-chi, ichoq-chi, sandiq-chi* kabi); g) shaxsning kasb-hunar, turlicha mutaxassislik, shuningdek, fan-texnikaning xilma-xil sohalari bo'yicha mashg'ul bo'lishini (*tarix-chi, lug'at-chi, dengiz-chi, razvedka-chi, yilqi-chi, futbol-chi* kabi); d) shaxsning biror belgi, holat, xususiyati bilan ajralib turishini (*janjal-chi, kek-chi, lof-chi, hasad-chi, tuhmat-chi, fitna-chi, gina-chi, g'alva-chi, vahima-chi* kabi); ye) shaxsning biror jamoaga, ijtimoiy tashkilotga munosabatini (*isyon-chi, dinamo-chi, paxtakor-chi, millat-chi, res'ublika-chi* kabi) va boshqa juda ko'p ma'nolarni anglatgan otlar yasaydi.

2. **-dosh**. Yasash asosidan anglashilgan narsa, soha bo'yicha birgalik, yaqinlik, barobar aloqadorlik ma'nosidagi shaxs oti yasaydi: *vatan-dosh, qurol-dosh, teng-dosh, fikr-dosh, maktab-dosh, suhbat-dosh, yo'l-dosh* kabi.

-dosh affiksi ma'no jihatidan tojik tilidan qabul qilingan **ham-** affiksi bilan sinonimik munosabatda bo'ladi: *fikr-dosh=ham-fikr, suhbat-dosh = ham-suhbat* kabi. Bu affiks orqali ayrim ilmiy atamalar ham yasaladi: *sifat-dosh, ravish-dosh, un-dosh* kabi.

3. **-gar (-kar)**. Bu affiks yasash asosida ifodalangan narsa bo'yicha shaxsning kasb-hunarini bildiradigan ot yasaydi: *zar-gar, savdo-gar, mis-kar, sovun-gar, kimyo-gar* kabi.

4. **-kor**. Yasash asosi anglatgan narsani yetishtiruvchini, shu narsa bilan shug'ullanuvchini ifodalaydigan ot yasaydi: *g'alla-kor, paxta-kor, san'at-kor, sabzavot-kor, sholi-kor* kabi.

5. **-bon**.

6. **-dor** (tojikcha *doshtan* – «ushlamoq», «ega bo'lmoq» fe'lidan).

7. **-shunos** (tojikcha *shunoxtan* – «tanimoq», «bilmoq» fe'lidan).

8. **-furush** (tojikcha *furo'xtan* – «sotmoq» fe'lidan).

9. **-boz** (tojikcha *bozidan, boxtan* – «o'ynamoq» fe'lidan).

10. **-xo'r** (tojikcha *xo'rdan* – «yemoq» fe'lidan).

11. **-paz** (tojikcha *puxtan* «pishirmoq» fe'lidan).

12. **-soz** (tojikcha *soxtan* – «yasamoq» fe'lidan).

13. **-do'z** (tojikcha *do'xtan* – «tikmoq» fe'lidan).

14. **-kash** (tojikcha *kashidan* - «tortmoq» fe'lidan).

15. **-xon** (tojikcha *xondan* – «o'qimoq» fe'lidan).

16. **-go'y** (tojikcha *guftan* – «demoq», «aytmoq» fe'lidan).

17. **ham-** Shaxsning yasash asosi orqali ifodalangan narsa, voqea-hodisalarga teng aloqadorligi, birgaligi ma'nolarini anglatgan ot yasaydi: *ham-suhbat, ham-shahar, ham-qishloq* kabi.

18. **-iy**. Kishi va joy nomlariga qo'shilib, shaxsning taxallusini bildirgan ot yasaydi: *Navo-iy, Habib-iy, Abdulla Avlon-iy, Ismoil Buxor-iy, Mirzo Samarqand-iy, Yunus Rajab-iy* kabi.

Hozirgi o'zbek tilida shaxs oti yasovchi affikslarning so'z yasash darajasi bir xil emas. Ularning ayrimlari, ayniqsa **-chi** affiksi, eng faol so'z yasovchi vosita sifatida xizmat qilsa, ba'zilari, jumladan, **-dosh, -dor** kabi affikslar oz miqdorda so'z yasaydi. **-bon, -oh, -xo'r, -do'z, -paz** kabi affikslarning so'z yasash darajasi esa juda chegaralangan. Yuqorida keltirilgan **-shunos, -parvar, -xo'r, -paz, -do'z, -boz, -bon, -dor, -soz, -xon, -go'y** kabi yasovchilar tojik tilida mustaqil so'z asosidan iborat bo'lib, o'zbek tilida yasovchi affiks (affiksoid) sifatida xizmat qiladi.

Narsa va o'rin-joy otlari. Bunday otlarni yasovchi affikslar u qadar ko'p emas:

-loq, -don, -zor, -iston, -poya, -goh, -noma, -xona, -obod kabi.

Mavhum tushunchalarni anglatuvchi otlar. Bunday otlar ham katta topdani tashkil qiladi. Bu topdaga kirgan otlarning ma'nosi va qo'llanish doirasi xilma-xildir. Mavhum otlar ko'pincha kitobiy va ilmiy uslublarda kengroq ishlatiladi. Mavhum otlar asosan o'zbek tilining o'z yasovchi affikslari orqali hosil qilinadi. Boshqa tillardan qabul qilingan affikslar vositasida mavhum otlar deyarli yasalmaydi.

Hozirgi o'zbek tilida quyidagi affikslar mavhum ot yasashga xizmat qiladi:

1. **-lik**. Bu affiks turlicha ma'no anglatadigan otlardan mavhum otlar yasaydi. Bunday yasalmalarda yasash asosi vazifasida har xil turkum so'zlari keladi:

a) holat, xususiyat, belgi ma'nolarini anglatgan ot: *bola-lik, yigit-lik, talaba-lik, o's'irin-lik, yosh-lik* kabi. *Kuyov-lik, aka-lik, ona-lik, kelin-lik* kabi yasalmalar ham shu xildagi holat, xususiyat bildiruvchi otlarga kiradi;

b) kasb-hunar, mutaxassislik ma'nolarini bildiruvchi ot yasaydi: *kosib-lik, tilshunos-lik, chorvachi-lik, temirchi-lik, o'qituvchi-lik, zargar-lik* kabi;

v) holat oti yasaydi: *tinch-lik, tashkilotchi-lik, byurokrat-lik, og'machi-lik, so'l-lik* kabi;

g) mo'ljallangan, shunga xoslangan narsa oti yasaydi: *dars-lik, urug'-lik, kiyim-lik* kabi.

2. **-chilik (-chi+-lik)**. Bu murakkab affiks yasash asosi anglatgan narsa bo'yicha kasb-hunar sohasi, holat, xususiyat ma'nolarini bildiruvchi ot yasaydi: *dehqon-chilik, meva-chilik, o'rtoq-chilik, quda-chilik, qassob-chilik* kabi. Bu affiks ham polisemantik xususiyatga ega bo'lib, xilma-xil ma'noli mavhum otlar yasaydi.

3. **-garchilik (-gar+chi+lik)**. Bu murakkab affiks turli otlarga qo'shib, yasash asosi anglatgan narsa bilan bog'liq holat, belgi, xususiyat bildiruvchi otlar yasaydi: *odam-garchilik, yog'in-garchilik, loy-garchilik, oshna-og'ayni-garchilik, serob-garchilik* kabi.

4. **-lashtirish (-la+sh+tir+ish)**. Bu murakkab affiks *avtomat-izatsiya, gazifikatsiya* kabi baynalmilal so'zlar tarkibida «-izatsiya», «-ifikatsiya» kabi qismlarni kalkalash asosida kelib chiqqan: *avtomat-lashtirish, radio-lashtirish, elektr-lashtirish, kom'yuter-lashtirish* kabi.

Fe'l asosidan ot yasalishida quyidagi affikslar qo'llanadi: **-gich (-g'ich, -kich, -qich)**, **-ma**. Bu affiks polisemantik bo'lib, eng muhim ma'nolari quyidagilar:

a) aniq narsa oti yasaydi: *tug-ma, qo'lyoz-ma, qo'llan-ma, o's-ma, qotish-ma, gazla-ma, quril-ma, sur-ma* kabi;

b) o'rin-joy oti yasaydi: *bostir-ma, tort-ma, bo'l-ma, 'istir-ma*;

v) harakat va holat atamasini bildiruvchi ot yasaydi: *yoziq-ma, uyush-ma, eslat-ma, ayir-ma, birik-ma*;

g) ovqat nomlarini yasaydi: *qovur-ma, qatla-ma, dimla-ma, cho'z-ma, qiy-ma, suz-ma* kabi;

d) mavhum tushunchalarni bildiruvchi ot yasaydi: *terla-ma, bo'g'-ma, oq-ma, qichi-ma, ustqur-ma, yukla-ma* kabi.

3. **-m (-im, -um)**. Bu affiks harakat natijasida paydo bo'ladigan narsa oti: *top'la-m, kiyim, bog'la-m, bo'l-im* kabi. narsani bildiruvchi ot ham (*kiy-im, top'la-m, topg'ra-m*), mavhum tushunchalarni bildiruvchi ot ham yasaladi: *bil-im, oq-im, ter-im, kes-im, un-um, tuz-um, chida-m, kechir-im* kabi.

4. **-gi (-g'i, -ki, -qi, g'u)**.

5. **-ch, -inch**.

6. **-(i)k, (i)-q (-ik, -iq, -uq, -oq)**. Bu affiks:

a) aniq narsa va harakat quroli otini yasaydi: *kura-k, ela-k, topsha-k, 'ich-oq, tuz-oq, taro-q, soch-iq, o'r-oq* kabi;

b) o'rin-joy ma'nosini bildiruvchi ot yasaydi: *yot-oq, qo'r-iq* kabi;

v) holat, xususiyat, belgi ma'nosidagi mavhum ot yasaydi: *tila-k, beza-k, yut-uq, sol-iq, qil-iq, buyr-uq, charcho-q, tort-iq* kabi.

7. **-indi (-in+di)**.

8. **-in, -un**.

9. **-mak, -moq**.

10. **-dak, -doq**.

11. **-g'in, -qin**.

12. **-(u)-v, (o)v**.

13. *-chi, -vchi, -uvchi.*

14. *-sh.*

Bulardan tashqari, fe'l asosidan ot yasovchilarga quyidagilar ham kiradi: *-it, -at: chiq-it, qur-it, ko'ch-at; -kilik: ich-kilik; a: jizz-a, vasvas-a; -chiq; yo'in-chiq, suyan-chiq; -diq: hor-diq, qol-diq, topil-diq; -ak; g'ildir-ak, bizbiz-ak, var-ak* kabi.

Kompozitsiya usuli bilan ot yasalishi

Ikki va undan ortiq asosning qo'shilishi orqali ot hosil qilish *Kompozitsiya usuli bilan ot yasash* deyiladi. Kompozitsiya usuli bilan asosan qo'shma otlar yasaladi. Qo'shma otlarning tuzilishi aslida so'z birikmasiga o'xshaydi, qo'shiluvchi qismlarning har biri mustaqil so'zga teng bo'ladi. Tilning tadrijiy taraqqiyoti natijasida birikma qismlari orasidagi sintaktik aloqa yo'qoladi, yaxlit bir ma'no anglatgan yangi leksik birlik - qo'shma so'z hosil bo'ladi. Bu hodisa asta-sekinlik bilan tilda qo'shma so'z yasash qolipiga aylanib qoladi. Qo'shma so'z yasalishi uchun asos bo'lgan bu qismlar o'zining dastlabki ma'nosini qisman yoki butunlay yo'qotadi, ikkalasi birgalikda boshqa yangi leksik ma'no anglatib boshlaydi. Masalan, *qo'zi* bilan *qorin* so'zlarining har qaysisi alohida leksik birlik, o'z ma'nosiga ega. Ularning qo'shilishidan hosil bo'lgan *qo'ziqorin* so'zi esa avvalgi so'zlarning ma'nosidan boshqa ma'noni, boshqa narsaning nomini bildiradi. *Qo'l-qo', Olti-ariq, Oq-tosh, Qora-qishloq, Olma-bosh, Sho'r-quduq* kabi yasalmalar ham shu asosda hosil bo'lgan.

Aniqlovchi bilan aniqlanmishga teng qismlarning qo'shib ketishi natijasida hosil bo'lgan bunday qo'shma otlar asli tuzilish jihatidan qaratqichli birikma (*qo'qonarava, asalari, qo'lqo', oshqozon, bo'rijar, qo'lyozma* kabi) hamda sifatlovchili birikma tarzida bo'ladi: *Oqqo'rg'on, beshbarmoq, Yettisuv, baqaterak, ko'richak, o'qilon, Qorate'a* kabi

Tarkibidagi qismlari qanday turkum so'zlari bilan ifodalanishiga qarab qo'shma otlar quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi:

1. Ikki otdan iborat bo'ladi. Bu qo'shma otlar:

a) asli qaratuvchilik munosabatida bo'lgan ikki otning qo'shib ketishidan hosil bo'ladi: *ko'z-oynak, bilag-uzuk, bel-bog', osh-ichoq, ot-toprva, tom-orqa* kabi;

b) asli sifatlovchilik munosabatida bo'lgan ikki otning qo'shib ketishidan hosil bo'ladi: *oltin-gugurt, tosh-ko'mir, tilla-qo'ng'iz, sada-rayhon* kabi.

2. Sifat va otdan iborat bo'ladi: *Qora-ko'l, Katta-qo'rg'on, Oq-saroy, achchiq-tosh, ko'k-yo'tal, oq-qush, Ko'k-tosh, Qizil-te'a, Yangi-qo'rg'on* kabi.

3. Son va otdan tarkib topgan bo'ladi: *Toprt-ko'l, uch-burchak, Uch-qo'rg'on, Besh-yog'och, Uch-quduq, besh-barmoq, sakkiz-oyoq* kabi.

4. Ot hamda fe'lning sifatdosh yoki harakat nomi shakllaridan iborat bo'ladi: *ot-boqar, beshik-tervatar, tuya-tortar, o'rin-bosar, muz-yorar, kunga-boqar, bo'ri-bosar, dunyo-qarash* kabi. Ba'zan ot bilan aniq o'tgan zamon shaklidagi fe'lning birikuvidan iborat bo'ladi: *Qor-yog'di, Soy-keldi, Gurs-ketdi, go'sht-kuydi* kabi.

5. Ikki fe'ldan iborat bo'ladi. Bunday qo'shma otlarda birinchi fe'l ravishdosh shaklida, ikkinchi fe'l esa sifatdosh va harakat nomi shaklida bo'ladi: *ishlab chiqarish, iskabtopar, olibsotar, izlabtopar* kabi.

6. Son (ba'zan olmosh) bilan fe'lning sifatdosh shaklidan iborat bo'ladi: *besh-otar, besh-ko'tarar, o'zi-bo'larchilik*.

Qo'shma otlardan tashqari, turg'un birikma tarzidagi otlar ham bo'ladi. Bunday otlar ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topadi, bu so'zlar orasida aniqlovchilik munosabati saqlangan bo'ladi. Bunday birikma tarkibidagi so'zlarning hammasi birgalikda yaxlit bir tushunchani anglatadi. Turg'un birikma tarzidagi qo'shma otlarning keyingi qismi ko'pincha uchinchi shaxs

egalik affiksini olgan bo'ladi: *mehnat daftarchasi, xalq maorifi bo'limi, O'zbekiston Res'ublikasi, Vazirlar Mahkamasi* kabi.

Turg'un birikma tipidagi qo'shma otlar tarkibidagi so'zlarning o'rmini o'zgartirib bo'lmaydi: *Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Amerika Qo'shma Shtatlari, Yevro'a Hamjamiyati, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi* kabi.

SIFAT YASALISHI

Boshqa so'z turkumlari singari, sifat ham topxtovsiz yangi so'zlar bilan boyib boradi. Bu hodisa asosan o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari hisobiga yangi ma'noli sifatlar hosil qilish va boshqa tillardan so'zlar qabul qilish hisobiga sodir bo'ladi: *dokumental, aktual, dialektal, 'rogressiv, effektiv, federativ, traditsion, redaktsion, reaksion* kabi sifatlar aynan shu shaklda qabul qilingan. Ammo bu sifatlardagi *-al, -iv, -on* kabi elementlar faqat shu so'zlar tarkibidagina keladi, shu tarkibdan ajratilmaydi. Bular o'zbekcha so'zlardan yangi sifat yasash xususiyatiga ega emas. Tojik tilidan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibidagi sifat yasovchi affikslar esa asrlar davomida tilimizga singib ketishi natijasida o'zbekcha so'zlardan ham sifat yasay oladi. Bu affikslar endilikda o'zbek tilining faol so'z yasovchilari qatoriga o'tgan: *dongdor, salmoqdor, bilimdon, sersuv, serunum, noo'rin, beomon* kabi.

Otlar singari sifatlar ham **affiksatsiya** va **Kompozitsiya** usullari bilan yasaladi. Bu ikki usul orqali sifat yasashda affiksatsiya usuli ayniqsa, mahsuldor hisoblanadi.

Affiksatsiya usuli bilan sifat yasalishi

Affiksatsiya usuli bilan sifat yasalishida ko'pincha ot va fe'l, ba'zan ravish yasash asosi vazifasida keladi. Bu usul bilan sifat yasashda quyidagi affikslar qo'llanadi:

1. *-li*.

Bu affiks orqali yasalgan sifatlar quyidagi ma'nolarni anglatadi: a) yasash asosi otdan anglashilgan narsaga egalikni, o'sha narsaning borligi, mavjudligini bildiradi: *uy-li, miltiq-li, do''i-li, paxta-li, bola-li, meva-li, qo'qoq-li, dasta-li* kabi; b) yasash asosidan anglashilgan narsaning odatdagidan ko'ra ko'pligi, mo'lligi, ortiqligi ma'nolarini bildiradi: *gavda-li, aql-li, kuch-li, suv-li* kabi; mavhum otlarga qo'shilganda ham shunday ma'no anglatgan sifatlar yasaladi: *hurmat-li, muruvvat-li, mushohada-li, intizom-li, ishonch-li, shiddat-li, unum-li, bilim-li* kabi; v) yasash asosi fe'lning sifatdosh shaklidan bo'lib, narsaning undan anglashilgan harakat-belgi, holat-xususiyatga ega ekanligini bildiradi: *qiziqar-li, qoniqar-li, tushunar-li, yetar-li, achinar-li, ko'rinar-li* kabi. Bu tipdagi yasalmalarda **-li** affiksi sifatdosh yasovchi **-(a)r** affiksi bilan birikib, bir murakkab affiksga aylanib bormoqda: *ajablanar-li, sezilar-li, maqtar-li, aytar-li, bilinar-li, zerikar-li* kabi; g) yasash asosi fe'lning harakat nomi shaklidan bo'lib, buyum-narsaning biror ish uchun yaroqli ekanligini, o'sha harakat uchun moslanganligini bildiradi: *cho'ish-li, minish-li, yeyish-li, ichish-li* kabi.

-li affiksi egalik, mavjudlik, ortiqlik ma'nolarini anglatgan ayrim yasalmalarda **ser-, -dor, ba-** kabi affikslar bilan sinonimiya munosabatida bo'ladi: *g'ayratli-serg'ay-rat, suvli-sersuv, unumli-serunum-unumdor, davlatli-badavlat, serhosil-hosildor, savlatli-sersavlat, jarangli-jarandor* kabi.

2. **-siz**. Bu affiks ham juda unumli bo'lib, yasash asosi bilan bog'liq ravishda belgi, xususiyat, holat kabi xilma-xil ma'nolarni bildiruvchi sifat yasaydi. Bular quyidagicha: a) yasash asosidan anglashilgan narsaga ega emaslikni, uning yo'qligi, mavjud emasligini bildiradi: *suv-siz, ish-siz, xato-siz, 'ul-siz* kabi; b) yasash asosi anglatgan narsa, holat kabilarning kamligi, yetarli emasligini bildiradi: *tuz-siz, kuch-siz, harakat-siz, yog'-siz, tajriba-siz, aql-siz* kabi; v) yasash asosidan anglashilgan buyum-narsa belgisi, holat, xususiyat kabilarning ko'pligi,

ortiqdigi, shu xususiyat uning doimiy belgisiga aylanganligi ma'nolarini bildiradi: *chek-siz* (*dengiz*), *'oyon-siz*; (*cho'l*) *had-hisob-siz*; g) shaxs, narsaning salbiy xususiyatini, salbiy holatini bildiradi: *ong-siz*, *andisha-siz*, *axloq-siz*, *shafqat-siz*, *hayo-siz* kabi. Bu yasovchi ba'zan **be-**, **no-** affikslari bilan sinonimlik munosabatida bo'ladi: *'oyon-siz = be-'oyon*, *tartib-siz = be-tartib*, *o'rin-siz = no-o'rin*, *umid-siz – no-umid*, *bahosiz-bebaho*, *o'rinsiz-noo'rin* kabi.

3. **-gi (-ki, -qi)**. Bu affiks yasash asosidan anglashilgan o'rin va paytga munosabatni, unga xoslanganlikni bildiradi: *yoz-gi*, *kuz-gi*, *bugun-gi*, *keyin-gi*, *qadim-gi*, *tun-gi*, *ich-ki*, *tash-qi*, *kech-ki* kabi. Ba'zan bu affiks fel o'zakka qo'shilib, yasash asosi vazifasida fe'l shakllari keladi, shunday xususiyatga egalik ma'nosini bildiruvchi sifat yasaladi: *vaysa-qi*, *yig'lo-qi*, *sayro-qi* kabi.

Savol va topshiriqlar

1. So'z yasash qolipi nima?
2. Tub va yasama leksemalar haqida ma'lumot bering.
3. Sifat yasalishi haqida ma'lumot bering va badiiy asarlardan misollar toping.
4. Kompozitsiya usuli bilan sifat yasalishiga badiiy adabiyotlardan misollar to'lang.
5. O'zbek tilida affikslarning asosga qo'shilish o'rni haqida nimalarni bilasiz? Mustaqil topilgan misollar orqali izohlang.
6. Fe'l yasalishi haqida ma'lumot bering. Badiiy asarlardan misollar to'lang.
7. Qo'shma fe'llar bilan analitik shakllar orasidagi o'xshash va farqli jihatlarni misollar bilan izohlab bering.
8. Ravish yasalishi haqida ma'lumot bering.
9. Kompozitsiya usuli bilan yasalgan ravishlarga badiiy asarlardan misollar toping.

O'ZBEK TILI MORFOLOGIYASI. GRAMMATIK SHAKL VA GRAMMATIK MA'NO.

REJA:

1. Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya.
2. Grammatik shakllangan so'z morfologiyaning birligi sifatida.
3. O'zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari.
4. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no.
5. Grammatik ma'noning xususiyatlari va turlari.

Tayanch so'zlar: grammatika, qiyosiy grammatika, chog'ishtirma grammatika, umumiy grammatika, xususiy grammatika, nazariy grammatika, amaliy grammatika, tavsifiy grammatika, generativ grammatika, antik grammatika, grammatik ma'no, umumiy grammatik ma'no (UGM), xususiy grammatik ma'no (XGM), oraliq grammatik ma'no (OGM), pleonazm, tejamkorlik.

Grammatika ko'plab tilshunoslik atamasi kabi ikki ma'noli. Bir ma'nosida tilning grammatik qurilishi tushunilsa, ikkinchi ma'nosida tilshunoslikning shu grammatik qurilishni o'rganuvchi sohasi anglashiladi. Demak, u so'z va gapning formal-grammatik tomoni – so'z o'zgarishi, sintaktik birliklar va ularning turli ko'rinishi, strukturasi va hosil qiluvchi vositalari, shuningdek, ifodalaydigan grammatik ma'nosini o'rganadi.

Grammatikaning tarkibiy qismlari, o'rganish obyekti. Grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis yaxlitligi, keng ma'noda tilning barcha qurilish sathi tushuniladi.

Grammatik ma'no haqida umumiy tushuncha. Ma'lumki, grammatik ma'no ifodalashning turli vositasi mavjud. Masalan, fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vosita shular jumlasidan. Demak, grammatik ma'noni faqat so'z yoki so'zshaklga nisbat berish mahqul emas. Nutqni shakllantiruvchi barcha lisoniy birlik grammatik ahamiyat kasb etishi mumkin.

Grammatik ma'no deganda **til (fonetik, leksik, morfologik va sintaktik) birliklarning nutqni shakllantiruvchi umumlashma abstrakt ma'nolari tushuniladi.** Ta'rifni qisqacha sharhlaymiz. Ko'rinadiki, ta'rifda uch muhim unsur mavjud. Ular quyidagilar:

- a) grammatik ma'noning barcha til birliklariga xosligi;
- b) bevosita (!) nutqni shakllantirishi;
- v) umumlashma va abstraktligi.

Grammatik ma'noning bevosita nutqni shakllantirishi deganda shuni tushunish lozimki, lisoniy birlik grammatik ma'nodan xoli qilinsa, u nutq uchun tayyor bo'lmay qoladi. Masalan, [bola] leksemasining lug'aviy ma'nosi nutqqa grammatik ma'no vositasida kiradi. Uning kelishik, son, subyektiv baho, hokim yoki tobe uzvlik, qaysi gap bo'lagi ekanligi kabi grammatik ma'nolari lisoniy sathda yo'q. Demak, leksema lug'aviy ma'nosi ustiga ana shu grammatik ma'no qavatlangan, u nutq tarkibiga kira oladi.

Grammatik ma'no nutqda to'g'ridan-to'g'ri voqelanaveradi. Bunga morfologik shaklning grammatik ma'nosi asosida amin bo'lish mumkin.

Grammatik ma'no umumlashma tabiatga ega deganda uning juda ko'p lisoniy birliklarga birday tegishli, umumiy ekanligi nazarda tutiladi. Masalan, «ot», «sifat», «son» grammatik ma'nosi juda katta miqdordagi so'zlar uchun umumiy.

Grammatik ma'noning abstraktligi deganda uning bevosita kuzatishda berilmaganligi nazarda tutiladi. Masalan, hozirgina keltirilgan [WP_m – kesimlik ko'rsatkichi bilan

shakllangan atov birligi] sintaktik qolipining grammatik ma'nosi ko'zga tashlanib turgan til birliklari zamiriga yashiringan.

Grammatik ma'no morfologik sathda so'zlarning umumiy ma'nosi bo'lgan so'z turkumlari (masalan, otlarda umumiy predmetlik, fe'llardagi jarayonlilik), shuningdek, har bir so'zshaklning ma'lum bir morfologik kategoriya doirasida qarama-qarshi qo'yiluvchi ma'nosi (masalan, zamon, shaxs-son, egalik, kelishik) sifatida yuzaga chiqsa, sintaksis doirasida predikativlik, so'z birikmasidagi hokim va tobe uzvlarning, gap bo'laklarining bir-biriga o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'ladi. Keng ma'noda so'z yasaliş hodisasi ham grammatik ma'noga daxldor. Chunki yasaliş natijasida so'zning turkumlardagi o'rni o'zgarib ketadi. Sintaktik qolip, yordamchi leksema va grammatik shaklda faqat grammatik ma'no mavjud.

Grammatik ma'no grammatik shakllanmagan leksemaning lisoniy mohiyatida mavjud bo'lishi ham, grammatik shakl yoki grammatik qolip yordamida ifodalanishi ham mumkin. Masalan, (*kitoblar*)so'zshaklining «turdosh ot» grammatik ma'nosi boshqa barcha turdosh otda bo'lgani kabi uning mohiyatida mavjud, «ko'plik» ma'nosi esa ma'lum bir shakl (*-lar*) yordamida ifodalangan. *Kitobni o'qimoq* birikuvidagi (*kitob*) so'zining «tobe uzv» grammatik ma'nosi unga lisoniy sintaktik qolip asosida «yo'ishtirilgan».

Grammatik va leksik ma'no munosabati. *Bolalar qiziqarli kitobni o'qiydilar* gapini olaylik. Aytilganidek, mustaqil so'z o'zida bir vaqtda leksika va grammatikani birlashtiradi.

So'z grammatik birlik sifatida morfologik ma'no tizimiga ega. Shunga ko'ra, grammatik ma'noni quyidagi tipga bo'lish mumkin:

a) ma'lum bir turkumga kiruvchi so'zning ular qaysi morfologik shaklda bo'lishidan qathi nazar barchasi uchun birday tegishli bo'lgan grammatik ma'no (masalan, otlarda predmetlik, sifatlarda belgilik, fe'llarda jarayonlilik);

b) bir turkumdagi biror guruhning qanday grammatik shaklda bo'lishidan qathi nazar barcha so'zlariga xos bo'lgan grammatik ma'no (masalan, ozaytirma daraja sifatning faqat rang bildiruvchi turlariga xos);

v) biror turkumdagi ma'lum bir so'zning ma'lum bir shakldagi turigagina xos bo'lgan grammatik ma'no (masalan, o'zlik olmoshiga kelishik qo'shimchasi faqat egalik qo'shimchasidan keyin qo'shiladi, olmoshning boshqa turlarida bunday hol kuzatilmaydi, yoki [-ya'] qo'shimchali aniq hozirgi zamon shakli III shaxsda [-di] shakli bilangina voqelana oladi).

GM turlari.UGM, OGM, XGM haqida. Grammatik shaklning fahmiy his qilinadigan alohida ma'nosi *xususiy grammatik ma'no* (qisq. XGM) deyiladi. Masalan, egalik qo'shimchalari umuman «keyingi so'zni oldingi so'zga bog'lash» mohiyatiga ega. Bu *umumiy grammatik ma'no* (qisq.UGM) bo'lib, u nutqiy birlik bo'lgan *Halimning kitobi* birikuvida «(*kitob*) so'zini (*Halim*)so'ziga bog'lash», *daftarning varag'i* birikuvida esa «(*varaq*) so'zini (*daftar*) so'ziga bog'lash» tarzida xususiylashgan. Bu – XGM.

UGM lisoniy tabiatli bo'lib, lisoniy birliklarga xos barcha belgiga, XGM esa nutqiy ma'no bo'lganligi uchun nutqiy birliklarga xos belgiga ega. UGM umumiy, mavhum, zaruriy, barqaror, invariant, uzual, ijtimoiy bo'lsa, XGM bu belgilarning aksi bo'lgan xususiylilik, aniq, tasodifiy, beqaror, okkazional, individual kabi belgiga ega.

Grammatik ma'no so'zning grammatik shakli bilan va undan xoli holdagi holatidan, ya'ni o'zak-negizidan anglashilganligi kabi UGM va XGMlar ham ikki xil tabiatli. Masalan, «predmetlik» ot turkumining, «jarayonlilik» fe'l turkumining, «belgi» sifat turkumining grammatik shaklsiz ifodalanadigan UGMsi. *Bu Halimning kitobidir* gapidagi(*kitob*)so'zining «Halimga tegishli o'qish uchun mo'ljallangan predmetni ifodalovchi turdosh ot» ma'nosi bu so'zning grammatik shaklsiz ifodalanadigan XGMsi.

UGM va XGM grammatik shaklda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Har bir grammatik kategoriyaning ma'nosi – uning shakllarining ma'nosiga nisbatan UGM. Masalan, barcha kelishik shakllari uchun umumiy bo'lgan «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi – kelishik kategoriyasining UGMsi. Bu kategorial umumiylik alohida shakllarning ma'nosiga nisbatan belgilanadi. Boshqacha aytganda, kelishik kategoriyasining yuqorida aytilgan UGMsi uning tarkibiga kiruvchi 6 ta kelishik shaklining ma'nosidan sintezlanadi, ya'ni keltirib chiqariladi.

Har bir kelishik shaklining ma'nosi undan quyidagi ma'noga nisbatan UGM. Masalan, qaratqich kelishigining UGMsi – «oldingi ism turkumiga kiruvchi so'zni keyingi ism turkumiga kiruvchi so'zga bog'lash». UGM har doim ham quyi ma'noga nisbatan olinadi. Masalan, kelishik kategoriyasi UGMsi quyidagi kelishiklarning ma'nosiga nisbatan olinsa, har bir kelishikning UGMsi undan quyidagi bu kelishik UGMsining «parchalari»ga nisbatan belgilanadi. Chunki har bir kelishikning ma'nosiga nisbatan UGM termini qo'llanilmaydi. Misol sifatida tushum kelishigi shakli ma'nosini olaylik. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash», tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» va tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lmish *kitobni o'qimoq* birikuvida voqelangan «(*kitob*)so'zini (*o'qimoq*)so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi yaxlitlikda olinganda, UGM-OGM-XGM munosabatida. Kelishik kategoriyasining «oldingi mustaqil so'zni keyingi mustaqil so'zga bog'lash» ma'nosi tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosiga nisbatan UGM maqomida, tushum kelishigining muayyan nutq parchasi bo'lgan *kitobni o'qimoq* birikuvida voqelangan «(*kitob*)so'zini (*o'qimoq*)so'ziga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» nutqiy ma'nosi XGM. Tushum kelishigining «oldingi ismni keyingi fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» ma'nosi esa UGM va XGM orasida turganligi hamda ularni bog'lovchi bo'g'in bo'lganligi uchun OGM maqomida. OGMning mavqei nisbiy. Masalan, kelishik kategoriyasining UGMsi e'tibordan soqit qilinsa va fikr faqat tushum kelishigi va uning quyi ma'nolari haqida ketsa, mazkur OGM UGM sifatida qaraladi. Tushum kelishigining zikr etilgan XGMsi e'tibordan soqit qilinib, so'z kelishik kategoriyasi va tushum kelishigi munosabati xususida ketsa, bunda OGM ushbu UGMga nisbatan XGM sifatida ham qaralishi ham mumkin.

Demak, borliq hodisalari umumiylik – maxsuslik – xususiylik (alohidalik) munosabatida bo'lganligi kabi grammatik ma'no ham «umumiy grammatik ma'no – oraliq grammatik ma'no – xususiy grammatik ma'no» ko'rinishiga ega.

Kategorial va yondosh ma'no har bir grammatik shaklda mavjud.

Grammatik shakllar nutqda ba'zan UGMsida bo'lmagan ma'noni ham voqelantiradi. Masalan, ko'rilgan [-lar] shakli nutqda «hurmat» ma'nosini ifodalashi ham mumkin. Bu ma'no shaklning UGMsi tarkibiga kirmaydi. U UGM bilan birga yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Bunday ma'no *hamroh ma'no* deb yuritiladi. Demak, kategorial ma'no shaklning mohiyati va UGMning asosi. Yondosh ma'no UGMga kirsada, mohiyat tarkibiga kirmaydi. Hamroh ma'no esa shakl mohiyatiga ham, UGM tarkibiga ham kirmaydi. Quyidagi gaplarni qiyoslang: 1. *Aqllari bormi? – ukasiga istehzoli kuldi Halim. U kishining fikrlari bizga mahqul.* Birinchi gapda (*aqllari*)so'zshaklining [-lari] egalik qo'shimchasida “kesatish” ma'nosi ham (aslida *aqling*), «II shaxs, birlik» ma'nosi ham anglashilmoqda. «Kesatish», umuman, egalik kategoriyasi UGMsiga daxldor emas. Lekin “II shaxs birlik” ma'nosi bu kategoriyaning [- (i)ng] shakliga xos kategorial ma'no bo'lib, [-lari] shakli bu ma'noni ifodalash uchun xoslangan va UGM ko'rinishiga vaqtincha “yo'ishgan” tajalli hisoblanadi. Uning bunday xususiyatga egaligi ushbu “noqulay” ifodalovchi bilan nutqqa chiqishi uchun zarur nutqiy sharoit, bog'liq qurshov

talab qilayotganligi bilan ham belgilanadi. Zero gapdan muallif gapi (“*ukasiga istehzoli kuldi Halim*”) olib tashlansa, [-lari] shaklidan anglashilayotgan ushbu hamroh ma’no uqilmay qoladi.

UGMni ochish yo’llari. UGM nutqiy ma’no bo’lgan XGMLarni bosqichli umumlashtirish orqali ochiladi. Bunda XGMdagi o’zi mansub UGMga tegishli bo’lmagan barcha begona tajallilar idrokiy yo’l bilan e’tibordan soqit qilinadi. Quyida [-moqda] hozirgi zamon davom fe’li shakli va umuman zamon kategoriyasining UGMsini bosqichli tiklash namunasini beramiz.

1-bosqichda [-moqda] shaklining turli matniy va uslubiy hollarda qo’llanishini tahlil etish asosida bu shaklning nutqiy, matniy ma’no turlari, ya’ni XGMLari aniqlanadi.

2-bosqichda [-moqda] qo’shimchali zamon shakli birinchi bosqich xulosalari asosida [- (a)y] qo’shimchali hozirgi –kelasi zamon, [-ya’] qo’shimchali aniq hozirgi zamon, [-yotir] qo’shimchali hozirgi zamon shakli kabi barcha hozirgi zamon turlari bilan munosabatlarda ko’rilib, shu asosda [-moqda], [-yotir], [-ya’], [-(a)y] qo’shimchali hozirgi zamon shakllarining mohiyati – UGMLari ochiladi. Keyingi bosqich uchun farqlar e’tibordan soqit qilinib, ulardagi bir xillik (umumiylik)lar ajratib olinadi. Bu bir xilliklarga keyingi bosqich qiyoslashlari uchun ahamiyatli bo’ladi.

3-bosqichda avvalgi bosqich xulosalari asosida hozirgi zamon shakllari umumiylik sifatida olinib, uning kelasi zamon shakllari umumiyliigi bilan aloqa-munosabatlari, o’xshash va farqli jihatlari oydinlashtiriladi. Joriy bosqich uchun ulardagi farqlar, keyingi bosqich uchun bir xillik (umumiylik)lar ahamiyatli bo’ladi.

4-bosqichda oldingi bosqich xulosalari asosida «sodir bo’lmagan va bo’layotgan harakat-holat»ni ifodalovchi o’tgan zamon shakli bilan munosabatlari tekshirilib, hozirgi-kelasi va o’tgan zamon shakllarining UGMsi ochiladi.

5-bosqichda 4-bosqich xulosalari asosida hozirgi, kelasi va o’tgan zamon shakllari ma’noviy xususiyatlari bilan munosabatlarini aniqlash asosida zamon va mayl kategoriyalarining UGMLari tiklanadi.

So’zshakl va uning asosiy tiplari: nol shakl, sintetik, analitik, aralash, juft va takroriy shakllar. Leksema nutqqa chiqqanda, albatta, grammatik shakllangan bo’ladi. *Men sarguzasht kitoblarni sevib o’qiyman* gapidagi so’zlarga diqqat qilaylik.[*Men*]olmoshi ongda leksema sifatida hech qanday grammatik shaklga ega emas. Biroq u mazkur gapda bosh kelishik shaklida va birlik sonda. (*Sarguzasht*) sifati oddiy daraja shaklida, (*kitoblarni*) tushum kelishigida va ko’plik sonda, (*sevib*) aniq nisbat va ravishdosh shaklida, (*o’qiyman*) aniq nisbat, hozirgi-kelasi zamon shakli, birinchi shaxs birlik, tasdiq shaklida. Leksemaning nutqda voqelangan ko’rinishi **so’zshakl** atamasi bilan yuritiladi. Bundan shunday xulosa chiqadi: so’zning grammatik shakli bir leksemaning nutqdagi har xil tusli o’zgarishi bo’lib, u bir leksemaning o’zini ifodalab, yo qo’shimcha ma’no ottenkasi bilan farqlanadi yoxud bir leksemaning boshqa leksemaga nutqdagi sintaktik munosabatini ko’rsatadi. Shu sababli so’z yasovchidan boshqa qo’shimchani barchasi grammatik shakl yasovchi, grammatik shakl deb yuritiladi.

Bir leksemaning ma’lum bir sistemaga kiruvchi grammatik shakli bir butun holda paradigmani tashkil qiladi. Masalan, [*olma*], [*olmaning*], [*olmani*], [*olmaga*], [*olmada*], [*olmadan*]so’zshakllari[*olma*]leksemasining kelishik paradigmasi. Morfologik paradigma (grammatik shakllar sistemasi) har bir so’z turkumi uchun alohida (son, daraja, nisbat, o’zgalovchi) bo’lishi ham, barcha so’z turkumlari uchun umumiy bo’lishi ham (kelishik, egalik, kesimlik) mumkin.

O'zbek tilida so'z bir grammatik ko'rsatkichli yoki bir necha grammatik ko'rsatkichli bo'lishi mumkin. Masalan, yuqorida keltirilgan (*sarguzasht*) so'zi bir grammatik ko'rsatkichli (oddiy daraja), (*kitoblarni*) ikki grammatik ko'rsatkich (tushum kelishigi, ko'plik son) li. Shuningdek, tilimizda grammatik shaklning ba'zilari bir grammatik ma'noni, ba'zilari bir vaqtning o'zida bir necha grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. Masalan, keltirilgan (*sevib*) so'zshaklidagi (*-ib*) ko'rsatkichi holat ma'nosinigina, (*o'qiyman*) so'zshaklidagi (*-man*) shakli esa, ham birinchi shaxs, ham birlik ma'nosini ifodalamoqda.

Hozirgi o'zbek tilida so'zshaklning bir necha tipi mavjud:

- a) affikslar yordamida hosil bo'luvchi so'zshakl (sintetik yoki "yo'ishgan" shakl);
- b) nomustaqil (faqat grammatik ma'no ifodalaydigan) so'z bilan ifodalanadigan so'zshakl (analitik yoki "ajralgan shakl");
- v) ham affiks, ham nomustaqil so'z yordamida ifodalangan shakl (sintetik-analitik yoki "aralash" shakl);
- g) so'zning takroridan hosil bo'lgan shakl yoki takroriy shakl).

Sintetik shakl affiksning tabiatiga qarab ikki ko'rinishga ega:

a) affiksi moddiy shaklga ega bo'lmagan (nol shaklli) so'zshakl (*Shoir shehr o'qiydi* gapidagi [*shoir*] so'zi bosh kelishikda va birlik sonda bo'lib, bu ma'noni ifodalovchi shakl *nol shakl* deyiladi);

b) affiksi moddiy shaklga ega bo'lgan so'zshakl (keltirilgan gapdagi *o'qiydi* so'zshaklining hozirgi-kelasi zamon, III shaxs birlik ma'nolari moddiy shaklli vosita bilan ifodalangan).

Analitik so'zshakl nomustaqil ma'noli (asosan, yordamchi) so'z yordamida hosil qilinadi: *maktab uchun, kelajak sari*.

Sintetik-analitik shakl ham affiks, ham yordamchi so'z yoki yordamchi so'z vazifasidagi mustaqil so'z bilan hosil qilinadi. Masalan, *o'qib chiqdi, borgan ekan, shaharga tomon* va h. Bunda *chiqdi* so'zi ushbu o'rinda (*-ib*) affiksi, *tomon* so'zi (*-ga*) qo'shimchasi yordamida aralash so'zshaklni vujudga keltirgan.

Takroriy shakl ham ma'lum bir grammatik ma'no ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *baland-baland* (imorat), *qator-qator* (daraxtlar), *kula-kula* kabilar «ko'plik», «takror» ma'nosini ifodalaydi. Ba'zi manbalarda takror so'zshaklni ravish sifatida qarash ham uchraydi. Bunda takrorlash natijasida yangi so'z, lug'aviy ma'no, so'zshakl vujudga kelayotganligi nazarda tutiladi. Masalan, *qator-qator* so'zshaklida yangi lug'aviy ma'no *qator* so'zining kuchaygan, orttirilgan ifodali ko'rinishi orqali yuzaga chiqqan.

Grammatik ma'no ifodalash usullari. O'zbek tilida grammatik ma'no ifodalashning quyidagi vositalari mavjud:

- 1) affiksal vosita;
- 2) cof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'z;
- 3) co'z tartibi;
- 4) takror;
- 5) ohang;
- 6) sintaktik qolip.

Affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi, u orqali deyarli aksariyat grammatik ma'no ifodalanadi. Ifodalaydigan grammatik ma'noning xarakteriga va o'z mohiyatiga ko'ra affikslar ikkiga bo'linadi:

- a) so'z yasovchi affiks;
- b) shakl yasovchi affiks.

Soʻz yasovchi affiksoʻzga qoʻshilib, yangi lugʻaviy maʼno hosil qiladi va soʻzning grammatik tabiatiga ham taʼsir etadi. Masalan, [ish]soʻziga qoʻshilgan [-la]soʻz yasovchi qoʻshimchasi yangi lugʻaviy maʼno vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik maʼno ham hosil qiladi. Qiyoslang: [ish] (gram.maʼno: “predmetlik”, “ot”) – [ishla] (gram.maʼno: “jarayon”, “feʼl”). Koʻrinadiki, hosila leksemadagi “jarayon” va “feʼl” grammatik maʼnolari soʻz yasovchi vosita yordamida vujudga kelgan.

Soʻz yasovchi vosita orqali har xil grammatik maʼno ifodalanishi mumkin. Masalan, [-kash] yasovchisi hosilasi sifat ham, ot ham boʻladi (*mehnatkash* – ot, *dilkash* – sifat). Demak, soʻz yasovchi vosita nafaqat yangi soʻz hosil qiladi, balki yangidan-yangi grammatik maʼnoni ham vujudga keltiradi. Bu mustaqil soʻzda lugʻaviy maʼnoning grammatik maʼno bilan dialektik aloqasini, ularning oʻzaro yaxlitlikda mavjudligini koʻrsatadi.

Shakl yasovchi qoʻshimcha grammatik maʼno ifodalashning affiksial vositalari sirasida eng sarmahsuli. Affikslar asosan sintetik shakl hosil qiladi va qisman analitik shakllar hosil qilishda yordamchi vositalarga koʻmaklashadi.

Sof nomustaqil va nomustaqil vazifadagi soʻzham grammatik maʼno ifodalovchi vosita sirasida muhim oʻrin tutadi.

Yordamchi soʻz mustaqil soʻz va gapda grammatik maʼno ifodalashning alohida turini tashkil etadi.

Bogʻlovchilar teng munosabatli birliklarni bogʻlab, ular orasida har xil tenglashtirish, zidlash, ayirish kabi morfologik maʼnoni ifodalash uchun xizmat qiladi: *olmavaanor; oʻqidi, lekinyozmadi*.

Koʻmakchining morfologik maʼno ifodalash imkoniyati sintaktik imkoniyatidan kengroq. Chunki u mustaqil leksema sememasini modifikatsiya qilishi bilan ahamiyatli.

Oʻzbek tilida yordamchi soʻzlar katta guruhni tashkil etadi. Koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklamaning «yarim bogʻlovchi», «yarim koʻmakchi», «yarim yuklama» kabi turi ham mavjud boʻlib, bunday soʻzlar ham mustaqil, ham nomustaqil maʼnoga ega. Masalan, *Ishning boshida Abdurahim turar edi*.

Harakat tarzi shakllari sintetik-analitik shakl. Masalan, (*oʻqib chiqdi*), (*yoza boshladi*), (*qoʻrqib ketdi*) soʻzshakllari ravishdosh shakli va koʻmakchi feʼldan tashkil topganligi sababli sintetik-analitik shakl hisoblanadi.

Soʻz tartibi.

Ohang – grammatik maʼno ifodalashning fonetik vositasi. Bu vosita yordamida gapning turini, gap boʻlaklarini ajratish, farqlash mumkin. *Gulnora, singlim keldi. Ikki bolali ayol. Ajdodlarimiz ulugʻ temuriylarga borib taqaladi.*

Grammatik shakl va uning turi. Grammatik maʼno ifodalovchi morfologik koʻrsatkich *grammatik shakl yasovchi* yoki qisqa qilib *grammatik shakl* deyiladi. Boshqa nofonologik birliklar kabi grammatik shakl uch tomon – shakl, maʼno va vazifaning yaxlitligidan iborat. Grammatik shaklning moddiy tomoni *grammema* atamasi bilan ham yuritiladi.

Grammatik shakl (*grammatik koʻrsatkich, grammatik shakl, morfologik shakl, morfologik koʻrsatkich, morfologik vosita* atamaları – maʼnodosh terminlar) tasnifi tilshunoslik, jumladan, oʻrta va oliy tahlim grammatik tizimining muhim tushunchasidan biri boʻlganligi sababli har doim dolzarb boʻlib kelgan. Oʻtgan davr mobaynida oʻzbek tili grammatik koʻrsatkichlarining tasnifi yaratildi, ammo xulosa avval arab, keyinchalik rus tili grammatik meʼyoriga asoslangan holda berib kelindi. Oʻzbek substantsial tilshunosligi oʻzbek tilining agglyutinatib tabiati va ontologik shakl yasash xususiyatiga tayangan holda grammatik koʻrsatkichlarning yangicha tasnifini berdi. Bunga koʻra:

- a) lug'aviy shakl hosil qiluvchi;
- b) sintaktik shakl hosil qiluvchi;
- c) lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi farqlandi:

Lug'aviy shakl hosil qiluvchi, asosan, to'rt yirik so'z turkumi – fe'l (nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, sintetik va analitik harakat tarzi shakllari), ot (son, kichraytirish-erkalash), sifat (daraja) va sonda (uning ma'no turini hosil qiluvchilar) mavjud bo'lib, qo'llanilishi o'zi mansub so'z turkumi bilan chegaralanadi. Shu boisdan ular tasniflovchi, ya'ni so'zlarni tasniflash chog'ida bir turkumni boshqalaridan ajratuvchi shakl deb yuritiladi.

Sintaktik (aloqa-munosabat) shakl hosil qiluvchilar so'z lug'aviy ma'nosiga ta'sir etmay, so'zlarni bir-biriga bog'lashga yoki ularga ma'lum bir sintaktik vazifa berishga xizmat qiladi. Anhanaviy ta'riflardagidan farqli ravishda aloqa-munosabat shaklining qo'llanilishi lug'aviy shakllardek bir so'z turkumi bilan chegaralanmaydi, ya'ni bu shakl istalgan mustaqil so'zga qo'shilib, uni o'zidan keyingi yoki oldingi so'z bilan sintaktik aloqaga kiritadi yoki so'zga sintaktik vazifa tayinlaydi. Kelishik, egalik, kesimlik shakli shunday grammatik vosita.

O'zbek tilida shunday shakllar borki, ular bir tomondan so'zning lug'aviy ma'nosiga ta'sir etadi, ikkinchi tomondan, ularni sintaktik aloqaga kiritadi. O'zgalovchi kategoriya shakllari shunday ikkiyoqlama mohiyatga ega. Masalan, *shoshilib gapirmoq* birikmasida (*-ib*) ravishdosh shakli (*shoshil*) so'zining lug'aviy ma'nosiga ta'sir etgan, ya'ni unga ravishlik ma'nosiga yaqin ma'no bergan, shu bilan birgalikda, bu so'zni keyingi so'zga bog'lash vazifasini ham bajarmoqda. Shuning uchun o'zgalovchi kategoriya shakllari lug'aviy shakl hosil qiluvchilar va sintaktik shakl hosil qiluvchilar orasida oraliq vaziyatni egallab, *lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi* atamasi bilan nomlanadi.

Grammatik shaklning tuzilishiga ko'ra turi. Grammatik shaklning tuzilishiga ko'ra turlari bir qarashda ularning sintetik va analitik turining yangicha nomlanishiga o'xshaydi. Biroq sintetik shaklning o'zi sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, (*uydagi*), (*ko'chadagi*) so'zshakllaridagi sintetik grammatik shakl (*-dagi*) murakkab shaklga misol (*-da+gi*).

Grammatik shakl tuzilishiga ko'ra sodda yoki murakkab bo'lishi mumkin. Sodda shakl bir grammatik ko'rsatkichdan iborat bo'ladi. Kelishik, egalik shakllari bunga misol. Sintetik shaklning ayrimi va sintetik-analitik shaklning barchasi murakkab shakl.

Shakllarning so'zga qo'shilish tartibi. Affikslarning so'z tarkibidagi tartibi ma'lum qonuniyatga ega bo'lib, bu hodisa ularning turi bilan bog'liq: so'z yasovchi, lug'aviy shakl hosil qiluvchi va sintaktik shakl hosil qiluvchi so'zdagi o'rni bilan farqlanadi.

Sintaktik shakllarning tartibi:

a) nokesimlik shakllari: egalik affiksi+kelishik qo'shimchasi ((*bolamni*), (*o'qiganimni*));

b) kesimlik shakllari: tasdiq/inkor+zamon/mayl+shaxs+son.

Hamma turdagi affiksdan keyin affiks tipidagi yuklamalar qo'shiladi.

Qo'shimchalar qo'shilishidagi istisnolar:

a) semantik boshqalik talabi bilan bog'liq bo'ladi;

b) til hodisalarining davrga ko'ra o'zgarishi (tarix), dialektal farq va o'zgarish xususiyati, 'oetik talab bilan bog'liq bo'ladi. Misol: *Bilurlar erdi* (Qutb) – *bilar edilar, qilmag'aylarsiz* («Boburnoma») – *qilmag'aysizlar, solurlar erdi quloq – quloq solur erdilar*.

Bunday tartib o'zgarishi o'zida nozik ma'noviy farqlarni aks ettiradi.

Shakllarda pleonazm va tejankorlik. Bir so'zda ma'nolari bir xil yoki yaqin bo'lgan qo'shimchanning takrorlanishi (ikki, ba'zan uch) *affiksal pleonazm* deyiladi. pleonazm affikslarda

bir necha ko'rinishga ega. Masalan, bir affiksning aynan o'zi yoki tashqi shakli har xil bo'lgan – ma'nodosh affikslar takrorlanadi: takrorlangan bu affikslar:

- a) zich, ketma-ket holda (ayting+iz+lar) ham;
- b) ajralgan holda ham bo'lishi (ish+da +lig+im+da) mumkin.

Affiksial pleonazm har xil sababga ko'ra yuzaga keladi. Bir affiks o'zak bilan juda ham zichlashib, o'zakning tarkibiga singib ketadi, bunda o'zak o'z mustaqqilligidan mahrum bo'ladi, natijada so'zga shu qo'shimchani ma'nodoshlaridan biri qo'shilishi mumkin, qo'shimcha arxaiklashib, undan keyin tildagi istehmolida bo'lgan qo'shimcha qo'shiladi ((*ichkariga*), (*tashqariga*), (*nariga*), (*beriga*), (*barisi*) kabi). Takrorlanayotgan sinonim affikslarning barchasi «tirik» bo'lsa, ular ta'kid, kuchaytirish kabi uslubiy vazifani o'z zimmasiga oladi (*sizlar aytingizlar* kabi). Boshqa tildan kirgan affiks tushunarli va keng istehmolli bo'lmaganda ham uning tilimizdagi ma'nodoshi qo'llanadi (*yor+on+lar* kabi). Qo'shimcha qo'shilishi natijasidagi tovush o'zgarishi ham ma'nodosh affiksning qo'shilishiga sabab bo'ladi:(*yarmisi*), (*kichkinagina*), (*unisi*), (*anavinisi*), (*qaysinisi*), (*singlisi*), (*toychoqcha*) kabi.

Tejam – pleonazmning ziddi. Tildagi tejam tamoyili so'zlovchi (individ)ning ruhiy, psixofiziologik quvvatini til birliklarini qisqartirish, tushirib qoldirish orqali tejash, kommunikatsiyaga ketadigan vaqtni kamaytirish, tildagi ortiqchalikni bartaraf etish ehtiyojidan kelib chiqib, zohir bo'ladigan umumlisoniy qonuniyat. *O' keling* (olib keling), *buyam* (bu ham), *qong* (qoling) kabi hodisa bunga misol bo'ladi. Tejamkorlikning fonetik, morfologik ko'rinishi mavjud. Morfologik tejam asosida fonetik tejam yotadi. *Yirik-irik*, *yigit-igit*, *yiroq-iroq* qisqaruvi fonetik tejamga misol. *Olib ber - ober*, *bizim - bizning*, *sizing - sizning* kabilar morfologik qisqaruvga misol. *Olib ber - ober*, *bizim - bizning*, *sizing - sizning* tejalishlari – nutqiy qisqaruv.

Tejam o'z maqomiga ko'ra yo lisoniy, yo nutqiy bo'lishi mumkin. Masalan, jo'nalish kelishigi shakli dastlab [-*qaru*]ko'rinishida bo'lgan, bugungi kunda u qisqarib, [-*ga*] shakliga kelib qolgan. Bu – tejamning lisoniylashuvi. *Olib ,er - ober*, *bizim - bizning*, *sizing - sizning* tejalishi nutqiy qisqaruv. Chunki, masalan, *sizing* so'zshaklidagi (-*ing*)lisonda [-*ning*] shaklida yashaydi. Tilshunoslikda faqat nutqiy qisqaruvlarnigina tejam sifatida tan olishga moyillik kuchli.

Tejam o'z mohiyatiga ko'ra nutqiy aloqani osonlashtirishga xizmat qiladi, biroq axborot ko'lamiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Grammatikaning tarkibiy qismlarihaqida ma'lumot bering.
2. Morfologiya nimalarni o'rganadi?
3. O'zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari haqida ma'lumot bering.
4. Grammatik ma'no nima?
5. Grammatik ma'noning morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no kabi turlariga tavsif bering.

O‘ZBEK TILI GRAMMATIK (MORFOLOGIK) KATEGORIYALARI VA ULARNING TURLARI.

REJA:

1. Lug‘aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.
2. Lug‘aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.
3. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar.
4. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta’sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

Tayanch so‘zlar: *kategoriya, grammatik kategoriya, lug‘aviy shakl, sintaktik shakl, lug‘aviy-sintaktik shakllar, lisoniy imkoniyat, nolisoniy omil, lisoniy omil.*

Kategoriya atamasitilshunoslikka falsafadan kirgan termin. U falsafada «obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko‘proq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha» tarzida ta’riflanadi. Falsafada ham, tilshunoslikda ham kategoriya bir xil narsani ataydi, ya’ni kategoriya uchun juftlik va alohidalik xos bo‘lishi shart. Falsafada juftlikni sabab-natija, mohiyat-hodisa, butun qism, alohidalikni borliq, miqdor, makon tashkil etsa, tilshunoslikda *kategoriya* atamasi ostida zidlangan ikkilik (son kategoriyasi) yoki ko‘plik (kelishik kategoriyasi) tushuniladi.

Bugungi tilshunosligimizda *grammatik kategoriya* atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriyani tan olish ustuvor. Umuman, sintaktik kategoriya ham grammatik kategoriya sifatida qaralsa-da, xususiy hollarda, ya’ni sintaktik tekshirishlarda *kategoriya* tushunchasi e’tiborga molik ahamiyat kasb etmaydi. Bunga qo‘shilib bo‘lmaydi, albatta.

Ta’kidlash lozimki, grammatik kategoriya va unga mansub grammatik shakl o‘zaro’og‘onali, butun-bo‘lak munosabatlarida bo‘ladi. Bu esa biror grammatik shaklning qaysidir grammatik kategoriyaga mansub bo‘lmasligi mumkin emasligini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, ayrim kategoriyada moddiy ifodali grammatik shakl bitta bo‘ladi. Moddiy ko‘rsatkichi bitta bo‘lgan kategoriyasida muayyan morfologik formani yasovchi asosning o‘zi nol ko‘rsatkichli bo‘lib, ikkinchi morfologik shaklni tashkil qiladi. Masalan, otning son kategoriyasida shunday holni ko‘rish mumkin. Bunda birlik son nol shaklli grammatik ko‘rsatkich bo‘lib, u ushbu shakliy va shunga muvofiq ma’noviy mohiyati bilan [-lar] shakliga ziddiyatda turadi. Sifatlardagi oddiy va qiyosiy daraja shakllari ham fikrimizni dalillaydi.

Darslik va akademgrammatikada [-niki], [-dagi], [-dek], [-gacha]birliklarini goh nokategorial shakl yasovchi, goh so‘z yasovchi sifatida qarash hollari uchrab turadi. Bu tilshunosligimizda o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolardan.

Demak, nokategorial grammatik shakl bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun grammatik shaklni kategorial va nokategorial kabi turga ajratish va zid qo‘yish ilmiy asosli emas. Shunday qilib, grammatik kategoriyaga quyidagicha ta’rif berish mumkin. **Bir umumiy grammatik ma’no ostida birlashuvchi, shu asosda bir-birini taqozo va bu umumiy ma’noning parchalanishi asosidainkor qiluvchi shakllar tizimi** *grammatik kategoriya* deyiladi.

O‘zbek tilshunosligida tilimizdagi 9 ta GK mavjudligi tan olinadi:

- 1) nisbat kategoriyasi;
- 2) o‘zgalovchi kategoriyasi;
- 3) harakat tarzi kategoriyasi;
- 4) bo‘lishli-bo‘lishsizlik kategoriyasi;

- 5)son kategoriyasi;
- 6)daraja kategoriyasi;
- 7)kelishik kategoriyasi;
- 8)egalik kategoriyasi;
- 9)kesimlik kategoriyasi:
- 9.1) shaxs-son;
- 9.2) zamon;
- 9.3) tasdiq-inkor;
- 9.4) mayl (modallik)

GK ham serqirra mohiyatli lisoniy hodisa bo'lganligi sababli turli tomondan tasnif qilinadi. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

1. Kategoriya shakllarining ma'noviy tarkibiga ko'ra.
2. Morfologik kategoriya (MK)ning so'z turkumi yoki gap bo'laklariga xosligiga ko'ra.
3. MK sintaktik qobiliyatining yo'nalishiga ko'ra.

Birinchi tasnifga muvofiq, GK sodda va murakkab kategoriyaga bo'linadi. Nisbat, subyektiv munosabat, son, qiyoslash, daraja, egalik sodda kategoriya sifatida qaraladi. Chunki ularda ma'no sodda bo'lib, ularda boshqa kategoriya tajallisini k'ymaymiz. Chunonchi, son kategoriyasining ma'nosi miqdoriy va sifatiy belgilarning ma'lum yig'indisidan iborat bo'lsa, kelishik kategoriyasi tobelikni ifodalaydi. Daraja kategoriyasi belgining qiyosan ekanligini ko'rsatsa, nisbat kategoriyasi fe'l anglatgan bajaruvchining miqdor va sifat jihatdan tavsifini beradi. Bu soddalik, albatta, nisbiydir. Chunki grammatik ma'no tarkibi kategorial, yondosh va hamroh ma'nodan iboratligi bunday hukm chiqarishga yo'l bermaydi. Biroq bu kategoriyalarda mavjud ma'nolardagi yondosh va hamroh ma'no boshqa bir morfologik kategoriyaga emas, balki umuman boshqa qaysidir sathga tegishli.

Murakkab kategoriya shakllarida ma'no murakkab bo'lib, boshqa kategoriyaga mansub ma'nolar ham mujassamlashgan bo'ladi. Egalik, o'zgalovchi, harakat tarzi, kesimlik ana shunday GKlardan. Masalan, egalik kategoriyasida uch xil ma'no mujassamlashgan bo'ladi:

- a)lisoniy (so'zlarni bir-biriga bog'lash) va nolisoniy (borliqdagi bir narsa/shaxsning ikkinchi bir narsa/shaxsga mansubligi) munosabatni ifodalash;
- b)shaxs ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni yondosh);
- v)son ma'nosi (egalik kategoriyasi uchun nokategorial, ya'ni yondosh).

Kesimlik kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda tasdiq/inkor, mayl-zamon, shaxs-son va zamon ma'nolari birlashgan va ular bitta qo'shimchada yoki bir necha qo'shimchada yuzaga chiqadi. Masalan, *olmani ol* gapida (*ol*) so'zshakli tasdiq, buyruq mayli, ikkinchi shaxs, birlik son va hozirgi zamon ma'nolarini voqelantirib kelmoqda va bular nol shakl bilan ifodalanmoqda. *Kitobni olmadingiz* gapida inkor ma'nosi (*-ma*) qo'shimchasi bilan, mayl va zamon ma'nosi (*-di*)shakli bilan, ko'plik ma'nosi (*-iz*) shakli bilan ifodalanmoqda.

O'zgalovchi kategoriyasi ham murakkab bo'lib, unda ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllari ma'nolari yondosh ma'no sifatida bir butunlikni tashkil etadi.

So'z turkumi yoki gap bo'lagiga xosligi jihatidan MK ikkiga bo'linadi:

- a)leksik-morfologik kategoriya;
- b)funksional-morfologik kategoriya.

Leksik-morfologik kategoriya so'zlarning ayrim guruhiga, ya'ni tukumlarga xos bo'lib, ular sirasiga nisbat, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, son, subyektiv munosabat, qiyoslash, daraja kategoriyalari kiradi. Kelishik, egalik, kesimlik funksional-morfologik

kategoriyadir. Chunki kesimlik kategoriyasi kesim vazifasida keluvchi barcha so'zga xos. Kelishik kategoriyasi so'z birikmasidagi tobe a'zo vazifasida keluvchi so'zni shakllantirsa, egalik kategoriyasi qaratuvchili birikmadagi hokim a'zoni shakllantiruvchi grammatik kategoriyadir. Formal o'zbek tilshunosligida kelishik va egalik kategoriyasining ot turkumiga, shaxs-son kategoriyasining fe'lga xosligi uqtirilar edi. Bu ham, albatta, asossiz emas. Chunki kelishik va egalik kategoriyasi ko'rsatkichlari ko'p hollarda otni shakllantirsa, kesim vazifasida kelishga asosan fe'l xoslangan. Fe'l fe'l bo'lganligi uchun emas, balki kesim vazifasida kelganligi uchun tuslanadi. Ot esa ot bo'lganligi uchun emas, balki tobe a'zo vazifasida kelganligi uchun turlanadi. Chunki so'zlarning turkumga ajralishidagi dastlabki asos ularning sintaktik vazifasidir. «Avvalo gap bo'laklari farqlangan va, shunga muvofiq, so'z turkumlari ajratilgan» (I.I.Meshchaninov). Demak, kelishik va egalik kategoriyasini faqat otga, kesimlik kategoriyasini faqat fe'lga bog'lab qo'yish ularning imkoniyatini toraytirib qyyishdir.

MK sintaktik qobiliyatining yo'nalishiga ko'ra tasnifida «birin-ketinlik», ya'ni grammatik kategoriya sintaktik qobiliyatining «oldingisi bilan» va «keyingisi bilan» sifatida belgilanishi nazarda tutiladi. Masalan, (*kitobning*) so'zshaklidagi (*-ning*) o'zidan keyin egalik shaklini olgan ot kelishi shartligini, (*kitobi*) so'zidagi (*-i*) bu so'zshakldan oldin qandaydir qaratqich aniqlovchi bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. O'zbek tilida egalik, nisbat, o'zgalovchi, kesimlik, qiyoslash, son kategoriyasi so'zshaklning «oldingisi bilan» aloqalarini ko'rsatsa, kelishik va o'zgalovchi kategoriyasining ravishdosh va sifatdosh shakllari so'zshaklning «keyingisi bilan» aloqasini ifodalaydi. O'zgalovchi kategoriyasining harakat nomi shakli hamda subyektiv baho kategoriyasi bu jihatdan mo'htadil.

Aloqa-munosabat kategoriyalari

Aytilganidek, aloqa-munosabat (sintaktik) kategoriyalari so'z turkumiga emas, balki gap bo'laklariga, so'zning sintaktik mavqeiga xos. Aniqrog'i, so'z ma'lum bir turkumga xos bo'lganligi uchun emas, balki qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganligiga, gapda qanday sintaktik vazifa bajarayotganligiga qarab aloqa-munosabat shaklini qabul qiladi. Biroq bunda so'z turkumining ko'proq qaysi gap bo'lagi vazifasiga xoslanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ot turkumi ko'proq tobe mavqeda kelib, ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifalarini bajaradi. Kesim vazifasida kelishga esa fe'l turkumi xoslangan. Shuning uchun bu bir qarashda kelishik otga, kesimlik shakli esa fe'lga xosdek tasavvur uyg'otadi. Bu – grammatik illyuziya. Aslida barcha mustaqil so'z turkumining barcha gap bo'laklari vazifasida kela olishi haqidagi «aksioma» mazkur shakllarning so'z turkumlariga munosabatini yaqqol namoyon qiladi.

Sintaktik shakl yasovchilar quyidagi jihatlariga ko'ra tasniflanadi:

1. Turlash va turlash xususiyatiga ko'ra: turlovchilar, tuslovchilar.
2. Bog'lanadigan birliklariga ko'ra: so'z birikmasini bog'lovchilar, gap bo'laklarini bog'lovchilar.
3. Bog'lash yo'nalishiga ko'ra: chapga bog'lovchilar, o'ngga bog'lovchilar.
4. Urg'ulilik xususiyatiga ko'ra: urg'uli va urg'usiz (shaxs-son)
5. Shaklva ma'no munosabatiga ko'ra: omonim, sinonim, antonym (uyga-uydan).
6. Ishlatilish o'rniga ko'ra: so'z o'rtasi va oxirida.
7. So'z turkumlari bilan ishlatilish faolligiga ko'ra: faol (egalik, kelishik), nafaol (shaxs-son).
8. So'z turkumlari bilan ishlatilish faolligiga ko'ra: nafaol (egalik, kelishik), faol (shaxs-son).

9. Gap bo'laklari tarkibida ishlatilishiga ko'ra: faol (egalik, kelishik), nofaol (shaxs-son).

10. Grammatik shaklining ifodalanishiga ko'ra: belgili va belgisiz¹.

Kesimlik kategoriyasi.

Kesimlik kategoriyasining ma'nolari murakkab bo'lib, ular quyidagilardir:

a) tasdiq/inkor ma'nosi;

b) mayl ma'nosi;

v) zamon ma'nosi;

g) shaxs ma'nosi;

d) son ma'nosi;

e) kesimni shakllantirish va uni gapning egasi va hol bilan bog'lash.

Demak, kesimlik kategoriyasida beshta ma'noviy xususiyat va bir sintaktik vazifa mujassam. «Tasdiq/inkor, mayl-munosabat, zamon, shaxs, son, ma'nosini ifodalab, kesimni shakllantirish va uning gap kengaytiruvchilari (ega, hol) ga sintaktik munosabatini ko'rsatish» - kesimlik kategoriyasining UGMsi.

Kesimlik kategoriyasi shakllari uchun shaxs, son, zamon, mayl, tasdiq/inkor ma'nolarini yaxlit ifodalash xos bo'lib, bu ma'no bir qo'shimcha bilan ham, bir necha qo'shimcha bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *kitobni o'qi* gapida (*o'qi*) so'zshakli ikkinchi shaxs, birlik, hozirgi-kelasi zamon, tasdiq ma'nolari voqelangan bo'lib, bitta nol shakl bilan yuzaga chiqqan. *Otam – ishchi* gapida ham shunday hol kuzatiladi. *Kitobni o'qimadingiz* gapida shaxs-son ma'nosi (*-ingiz*), inkor ma'nosi (*-ma*), zamon ma'nosi (*-di*) shakli bilan alohida-alohida ravishda ifodalangan.

Egalik kategoriyasi. Bu kategoriyaning ko'rsatkichlari quyidagi: *-(i)m*, *-(i)miz*, *-(i)ng*, *-(ing)iz*, *-(i)si*.

Bu kategoriya shaxs va son ma'nosi bilan uzviy bog'langan. Shu boisdan egalik kategoriyasi (qisq. EK) ning barcha ko'rsatkichida bir vaqtning o'zida shaxs ma'nosi ham, son ma'nosi ham ifodalanadi. Holbuki, bu ma'nolar ushbu kategoriyadan tashqarida ham mavjud (masalan, kishilik olmoshlarida, kesimlik kategoriyasida, shuningdek, otning son kategoriyasida va h.). Aslida shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun kishilik olmoshi xoslangan. Ulardan boshqa lisoniy birliklardagi shaxs-son ma'nosi olmosh mohiyatining tajallilari. Demak, EKning mohiyatini shaxs-son ma'nosining qo'llanilishi bilan bog'liq o'ziga xos holatdan tashqaridan qidirmoq lozim bo'ladi.

EK asosidagi sintaktik qurilma rang-barang ma'noni anglatadi. Bu rang-baranglik shaxs-son, aniqlik/noaniqlik kabi tajalli ma'no, tobe so'zning kelishik shakli, birikuvchi so'zlarning semantikasi kabi omil bilan bog'liq. Masalan, (*g'amim*)so'zshakli kontekst bilan bog'liq ravishda ikki xil ma'no anglatadi: *g'amimni yedim – g'amimni yeding*. Shu boisdan EK ning faqat sintaktik xususiyati uning mohiyatiga daxldor. Zero EK UGMsidagi kategorial ma'no sintaktik tabiatli, undan anglashiladigan turli ma'no yondosh va hamroh ma'no. Xususan, «shaxs-son» ma'nosi EK uchun yondosh, shaxs-son kategoriyasi uchun kategorial.

EK ning sintaktik (kategorial) mohiyati – «keyingi mustaqil so'zning oldingi ifodalangan (a) yoki ifodalanmagan (b) mustaqil so'zga sintaktik munosabatini ko'rsatish. Masalan, a) *mening kitobim, mening borganim, kelishning azobi*; b) *sevinchim, ishing*;

¹Manba: Исақов З. Синтактик шакл ясовчилар хусусида // Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари ҳамда таълим тизимида тил компетентлигини шакллантириш ва ривожлантириш масалалари (Регионал илмий семинар материаллари, 1-чиқиш). – Андижон, 2015.87-90-бетлар.

EK qaratqich kelishigi va bosh kelishik shakli bilan zich munosabatda bo'ladi. Aniqrog'i, egalik affiksi bilan shakllangan so'zdan oldingi, unga tobe so'z qaratqich (a) yoki bosh kelishikda (b) bo'lishi mumkin: a) *mening kitobim, kitobning varag'i*; b) *mart oyi, dam olish kuni, qish payti*. (Keyingi birikuvlardagi bosh kelishik shaklini belgisiz qaratqich kelishigi sifatida tan olish ham uchrab turadi.)

Ko'rinadiki, egalik ma'nosi uch xil usul bilan ifodalanadi:

1) *morfologik usul*da egalik ma'nosi egalik shakli bilan ifodalanadi, ammo qaratuvchi so'z keltirilmaydi: *kitobim, o'qiganing, taq-tuqi*.

2) *morfologik-sintaktik usul*. Bunda egalik subyekt qaratqich kelishigida, egalik obyekt egalik shaklida bo'ladi: *mening kitobim, sening o'qiganing, bolg'aning taq-tuqi, gulning qizili*.

3) *sintaktik usul*. Bunda egalik subyekt qaratqich kelishigida, egalik obyekt egalik shaklisiz bo'ladi: *bizning uy, sizning ko'cha*.

Modal ma'no EK uchun nokategorial, ya'ni hamroh ma'no bo'lib, u o'zining grammatik kategoriyasiga ega emas. I shaxs birlik, III shaxs qo'shimchasidan boshqasi modal ma'no ifodalaydi. «Sizlash», «sensirash», «kamsitish», «kesatish», «hurmat» kabi qator ma'nolar modal ma'no. Bu, ayniqsa, ko'plikda yaqqolroq ko'zga tashlanadi. *Akamning kitoblari, dadamning mashinalari* kabi.

Egalik qo'shimchalarining xususiy qo'llanishida «butun-qism» ma'nosining yuzaga chiqishini ham kuzatish mumkin: *o'quvchilarning biri, talabalarning ahlochisi, odamlarning o'qigani* kabi.

EK ning UGMsi kategorial va yondosh ma'no asosida bir necha OGMga ajraladi:

1) «qarashlilik/mansublik»: *Ilhomning kitobi, bolaning otasi, qo'yning boshi*;

2) «foil-harakat»: *Adibaning kulishi, sening qarishing*;

3) «aniqlanmishni aniqlovchiga bog'lash»: *qovun bozori, go'sht do'koni*;

Bu OGMLarning har biri bog'lanayotgan so'zlarning xususiyatiga bog'liq ravishda qator XGMLarda yuzaga chiqishi mumkin: *bolaning otasi, gulning bargi, Mohigulning kitobi, qizlarning bittasi*. Masalan, bola va ota orasida qarindoshlik munosabati bo'lganligi sababli ularning ifodalovchilari bo'lgan (*bola*) va (*ota*) so'zi egalik shakli bilan bog'langanda, XGM «qarindoshlik» bo'ladi. *Ilhomning kitobi* birikuvida uch xil XGM yuzaga chiqadi: «Ilhom yozgan kitob», «Ilhomga qarashli kitob», «Ilhom haqidagi kitob».

EK ning ikkinchi OGMsi bog'liq qurshovda – aniqlanmish vazifasida harakat nomi, sifatosh, ba'zan fe'ldan yasalgan ot kelgan so'z birikmalarida voqelanadi. Bunday birikmalarda aniqlanmish harakat-holat ma'nosida, qaratqichli aniqlovchi esa foil/subyekt ma'nosiga ega bo'ladi: *Sitoraning kelishi, Muniraning aytgani* kabi.

EK ning uchinchi OGMsi so'z birikmalari tuzish, so'zlararo sintaktik aloqani o'rnatish uchun xizmat qiladi. Misollar: *Astrobodning bir kuni bir yilga teng*. (Oyb.) *Oyguning yo'qligidan bo'ldi*.

EK shakllarining sintaktik vazifa bajarishi – otli birikma hosil qilish vazifasi asosida tadqiqotchilar turkiy tillar so'z birikmalari tizimida ham, gap qurilishida ham alohida qurilish – 'ossesiv (qarashlilik) qurilishi mavjudligini qayd etadi va 'ossesiv qurilish nominativ qurilishga qarama-qarshi qo'yiladi. Haqiqatan ham, istagan turdagi gap qaratuvchi birikma variantiga ega bo'lishi mumkin: *qizlardan bitta – qizlarning bittasi, molga qul – molning quli, vatan uchun kurash – vatan kurashi, qizil gul – gulning qizili*.

EK ning sintaktik funksiyasi ayrim so'zlar tarkibida butunlay so'nib ketadi: *kechasi, o'rni, qaysi* kabi.

Kelishik kategoriyasi. Kelishik kategoriyasi (qisq. KK) morfologik kategoriya sirasida ustuvor sintaktik tabiati bilan ajralib turadi. U EK bilan birgalikda sintaktik shakllarning soʻz birikmasiga xos guruhini tashkil etib, gapga xos kesimlik kategoriyasidan farqlanadi. KKning UGMSi – «sintaktik qurilmada oldingi soʻzni keyingi soʻzga bogʻlash». Bu bilan u EK ga qarama-qarshi tursa, feʼlning oʻzgalovchi kategoriyasi, bogʻlovchilar va koʻmakchilarga yaqin turadi. Ammo ulardan farqli jihatga ega. Koʻmakchidan morfologik koʻrsatkich (qoʻshimcha) ekanligi bilan farqlanadi. Koʻmakchilar grammatik maʼno ifodalash, soʻzlarni bir-biriga bogʻlash vazifasini bajarsa-da, leksik birlik hisoblanadi. Oʻzgalovchi kategoriya shakllaridan barcha mustaqil soʻzni sintaktik aloqaga kiritish, soʻzning lugʻaviy maʼnosiga taʼsir etmasligi bilan ajraladi. Holbuki, oʻzgalovchi kategoriyasi faqat feʼlga xos va feʼllarning lugʻaviy maʼnosiga taʼsir etishi bilan lugʻaviy-sintaktik mohiyatga ega. Shuning uchun ular «feʼl kelishiklari» deb ham yuritiladi. Bogʻlovchilardan esa tobe aloqa uchun xizmat qilib, soʻz birikmalariga xosligi hamda grammatik koʻrsatkich (qoʻshimcha) ekanligi bilan farqlanadi.

KK olti shaklli sistema boʻlib, ularning har biri oʻziga xos maʼnoviy va sintaktik xususiyatlar yaxlitligidan iborat.

	Kelishik	Qoʻshimcha	Misollar
	Bosh kelishik	-o	<i>Kitob, yaxshi, oʻn, men, borish</i>
	Qaratqich kelishigi	-ning	<i>Kitobning, yaxshining, oʻnning, mening, borishning</i>
	Tushum kelishigi	-ni	<i>Kitobni, yaxshini, oʻnni, meni, borishni</i>
	Joʻnalish kelishigi	-ga	<i>Kitobga, yaxshiga, oʻnga, menga, borishga</i>
	Oʻrin-payt kelishigi	-da	<i>Kitobda, yaxshida, oʻnda, menda, borishda</i>
	Chiqishi kelishigi	-dan	<i>Kitobdan, yaxshidan, oʻndan, mendan, borishdan</i>

Darslik va qoʻllanmalarda BK kesim vazifasidagi soʻzni ham shakllantiradi deyiladi: *Otam – oʻqituvchi. Dil qulfi – til* kabi. Biroq bunda [oʻqituvchi], [til] soʻzshakllari kesim vazifasida boʻlib, boshqa boʻlaklarga mutlaq hokim. KKning sintaktik mohiyati esa «sintaktik qurilmada oldingi soʻzni keyingi soʻzga bogʻlash». Bu mohiyat nuqtai nazaridan kelishiklarga munosabatda boʻladigan boʻlsak, kesimda bosh kelishikni qidirish – mantiqsiz. Chunki:

a) kesimlik kategoriyasi tarkibi murakkab boʻlsa-da, unda kelishik shakli mavjud emas;
 b) KK umumturkumiy kategoriya ekan, unda kesim vazifasidagi barcha mustaqil soʻzlarda kelishikni qidirishga toʻgʻri kelgan boʻlar edi;

v) KK sintaktik mohiyati «oldingi soʻzni keyingi soʻzga bogʻlash» ekan, kesim eng oxirgi soʻz boʻlib, undan keyin bogʻlanadigan birlik yoʻq;

g) ayrim tadqiqotlarda bunday paytda kelishik maʼnosi va vazifasi oʻta darajada kuchsizlashadi, deyiladi. Aslida bunda kuchsizlashish shu darajadagi, kelishik mohiyati mutlaq voqelanmaydi – «koʻrinmaydi». Bu esa ushbu pozitsiyada kelishikni qidirmaslikni taqozo qiladi.

Tilshunoslar turkiy tillarda «bosh kelishikdagi soʻz gapning xohlagan boʻlagi boʻlib kela olishi»ni taʼkidlashadi. BK ning bu xususiyati boshqa kelishiklarning oʻrnini almashtira olishi bilan belgilanadi. Ammo bu imkoniyat chegaralangan. KK sistemasi ikki mikrosistemadan iborat: BK, qaratqich kelishigi (qisq. QK), tushum kelishigi (qisq. TK) va joʻnalish kelishigi

(qisq. JK), **yrin-payt** kelishigi (qisq. O'PK), chiqish kelishigi (qisq. ChK). BK birinchi mikrosistemaga mansub bo'lganligi uchun uning QK va TK ni almashtirishi bemalol. JK, O'PK va ChK ga nisbatan bu imkoniyat nihoyatda chegaralangan. Masalan, *ikki kundan keyin – ikki kun keyin, qishloqqa ketdi – qishloq ketdi, oqshomda ketdi – oqshom ketdi.*

Qaratqich kelishigi. QK uch xil qo'llanadi: *kitobning varag'i, mening uyim, qoshin qarosi.* QK ko'rsatkichini olgan so'z – qaratqich, u bog'langan so'z – qaralmish. Qaratqich-qaralmish munosabati ancha barqaror bo'lib, bu QK ko'rsatkichining so'z birikmasidagi o'rni ancha barqarorligi bilan belgilanadi.

QK *shuning uchun, shuning singari* kabi birikuvlarda so'z birikmasi hosil qilmaydi, balki so'zning ajralmas qismiga aylanadi.

QK ni olgan so'z EK ni olgan so'z bilan birga qo'llanadi. Bunday qurilishli so'z birikmalari – [QKdagi ism + EKdagi ism] so'z birikmasi umumiy qolipining voqelanishi.

QK ning keltirilgan uch xil ko'rinishi nutq ko'rinishi, bog'lanuvchi so'zlarning lug'aviy ma'nosiga bog'liq ravishda yuzaga chiqadi.

Tushum kelishigi. TK ning morfologik ko'rsatkichi – [-ni]. Varianti – ([-n], [-i]). TK dagi so'z faqat fe'l bilan bog'lanadi. Fe'llar TK dagi so'zga munosabatiga ko'ra, ikkiga ajraladi: o'timli fe'l va o'timsiz fe'l. TK ham ko'p holda BK bilan o'rin almashadi: *kitobni o'qidi – kitob o'qidi, olmani yedi – olma yedi.* TK bilan shakllangan so'z gap tarkibida so'z kengaytiruvchisi – to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Novdalarni bezab g'unchalar, tongda aytdi hayot otini.*(H.Olim.)

Jo'nalish kelishigi. JK ko'rsatkichi – [-ga]. JK semantikasiga yo'nalganlik, xoslik, tenglashtirish kabi ma'no turi xos. Bu ma'nolar birikuvchi so'zlarning xususiyatidan kelib chiqib o'zgarib ketaveradi: *ukamga olmoq, maktabga bormoq.* Birinchi birikmada «atalganlik» ma'nosi (*uka*) va (*ol*), ikkinchi birikmada «yo'nalganlik» ma'nosi (*maktab*) va (*bormoq*) so'zlarining lug'aviy va grammatik ma'nosiga bog'liq. JK UGMdagi kategorial ma'no esa «oldingi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash».

O'rin-payt kelishigi. O'PK ko'rsatkichi – [-da]. O'PK KK UGMsini «oldingi so'zni keyingi so'zga hol va to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi. O'PK va JK «yo'nalganlik» va «o'rinlashganlik» yondosh ma'nosi bilan farqlanadi.

O'PK ning BK bilan o'rin almashishiga misol: *Sitora 1998 yil (da) tug'ildi.* Bunday almashish kam uchraydi. O'PK qo'llanishida so'zda makon, zamon, obyekt, vosita kabi ma'nolar yuzaga chiqadi: 1. *Munira kom'g'yuterda yozdi* (vosita). 2. *Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda* (payt). (H.Olim.) *Hammasi muqaddas kitoblarda aytilgan* (makon).

Chiqish kelishigi. ChK yagona ko'rsatkichga ega: [-dan]. Bu qo'shimcha ko'rsatish olmoshlariga qo'shilganda bir (n)tovushi orttiriladi: *u+dan=undan, shu+dan=shundan.* Aytilganidek, BK bilan ChK ning o'rin almashishi nihoyatda cheklangan: *nondan yeng-non yeng, choydan iching-choy iching* kabi. ChK dagi so'z gap tarkibida hol, to'ldiruvchi, ega, kesim vazifasida keladi. Ega va kesim vazifasida kelganda ChK mohiyati voqelanmagandek tuyuladi. Misollar: *Munirada shu kitoblardan bor. Xijolati vazifani bajarmaganidan.* E'tibor qilinsa, bunda lisoniy qisqaruv mavjud: *Munirada shu kitoblardan (bir nechyasi) bor. Hijolati vazifani bajarmaganidan(dir).* Birinchi gapda aslida *bir nechyasi* so'zshakli ega, ikkinchi gapda *-dir (turur)* kesim bo'lgan.

ChK TK bilan ham o'rin almashishi mumkin. Bunda semantikada farq seziladi: *nondan yeng-nonni yeng, choydan iching-choyni iching.* ChKning QK bilan o'rin almashishida ham shunday hol kuzatiladi: *o'quvchilardan biri – o'quvchilarning biri.*

Savol va topshiriqlar:

1. Lugʻaviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalarga nimalar kiradi?
2. Lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar deganda nimani tushunasiz?
3. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?
4. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishiga misol ayting.
5. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishiga taʼsir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillarga misol keltiring.

HOZIRGI O'ZBEK TILIDA SO'Z TURKUMLARI. MUSTAQIL SO'ZLAR.

REJA:

1. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari.
2. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh.
3. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari: o'zgaruvchi va o'zgarmas turkumlar, g'ayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid).
4. Mustaqil so'z turkumlari tartibi.

Tayanch so'zlar: *turkum, umumiy grammatik ma'no, tasnif tamoyillari, morfologik tasnif, semantik tasnif, sintaktik tasnif, mustaqil so'z turkumlari, yordamchilar, oraliqdagi so'zlar, o'zgarmas turkumlar.*

So'z leksika uchun ham, grammatika uchun ham asosiy va zaruriy birlik. Modomiki, so'z turkumlari o'zida u yoki bu belgisiga ko'ra ajratilgan so'z guruhlari ekan, guruhga ajratishga doir muammolarni leksika, morfologiya va sintaksis bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar o'zlaricha hal etadi. Bunday ilmiy bahslar, avvalo, turkumlarga ajratish mezonlari, ajratiluvchi guruhlar soni va ularning tarkibi masalasi. Boshqacha aytganda, tilshunosligimizda asosiy e'tibor so'z turkumlari tasnifiga qaratilib, boshqa bir muhim masala – so'z turkumlarining o'zaro munosabati, ularning kesishuv nuqtalari, yaqinlashuvi va uzoqlashuvi ko'pincha nazardan chetda qoladi.

So'z turkumi soni va tarkibini aniqlashda dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi, o'zbek tilshunosligida ham, so'zlarning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatini inobatga olish keng tarqalgan. Biroq amaliyotda so'z turkumlarini ajratishda, asosan, ularning semantik xossasiga tayanish urf bo'lgan. Ayrim tilshunoslar tomonidan tasnifda ma'noviy belgi bosh va yagona asos sifatida qaraladi. Ba'zilar esa mezon sifatida mazkur uch belgini tan olgani holda so'zlarni ma'noviy va sintaktik belgilari asosidagina guruhlashadi. So'z turkumlarining bir-biriga o'tishi, leksik va leksik-grammatik omonimiya masalasi esa bunda har xil qarama-qarshilik va ikkilanishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

So'z guruhlariaro munosabatlarning ochilishi u yoki bu belgi asosida so'z turkumining muayyan turini ajratishga, tasnifini berishga olib keladi. Shuning uchun mantiqiy qarama-qarshilikdan qochish maqsadida formal mantiqning borliq hodisasini tasniflashga qo'yadigan asosiy talabidan biri bo'lgan «tasnifni faqat bir mezon asosida amalga oshirish, tasnifning ikki belgisini bir paytning o'zida qo'llab, ularni qorishtirmaslik» qoidasiga qat'iy rioya qilish lozim.

Shunday qilib, so'zlar semantik, morfologik va sintaktik belgisi asosida tasnif qilinishi maqsadga muvofiq. Bu uch belgi har bir so'zda dialektik birlikni tashkil etadimi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Boshqacha aytganda, ma'lum bir semantikada ma'lum bir morfologik belgi va sintaktik xususiyat mujassamlashganmi? Masalan, predmetni ifodalovchi so'z (ya'ni predmetlik ma'nosi) son, kelishik, egalik ma'nolariga, shuningdek, subyekt, obyekt vazifalariga egami? Dalillar shuni ko'rsatadiki, ular subyekt, obyekt vazifalarida keladi. Shu bilan birgalikda, atributiv vazifada kelib, predmetning belgisini (*tilla uzuk, qum soat*), belgining belgisini (*tovushdan tez, yovdan xavfli*) bildiradi. Belgi ma'noli so'z egalik, kelishik affikslarini olishi, gapda subyekt, obyekt vazifalarida kelishi mumkin (*Olmaning qizili 'ishdi, gullarning oqidan terdi* kabi.)

Semantik-morfologik-sintaktik belgilar birligi asosida tasniflash tarafdorlari bunda yo omonimiya, yo substantivatsiya (otlashish) hodisasini ko'radilar. Chunki bu so'zlarda belgi ham, predmetlik ham mushtarak.

So'zlarning bayon etilgan semantik xususiyatlari, ya'ni «belgilik» va «predmetlik» ma'nosining birligi shuni ko'rsatadiki, so'zlarning egalik, kelishik, kesimlik affikslari hamda ma'lum bir sintaktik vazifa bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi yo'q. Takror bo'lsa-da, aytish joizki, egalik, kelishik, kesimlik affikslari, shuningdek, gapda ma'lum bir sintaktik vazifa bajarish biror so'z turkumi uchun xususiylashmagan. To'g'ri, ayrim so'zlar faqat predmetni bildirsa-da, belgi ifodalamaydi (masalan, atoqli otlar), ba'zilar esa predmetga ishora qilmasdan, faqat belgi, miqdor (masalan, [ko'p], [oz], [bir],[ikki]) ifodalashi mumkin. Bu yuqoridagi fikrga monelik qila olmaydi. Chunki ular juda oz miqdorda bo'lib, ular «predmetlik va belgilik mushtarakligi maydoni»ning chekkasidan o'rin oladi. Chegaradan o'rin egallovchi bunday so'zlar tasnifda, albatta, qiyinchilik tug'diradi. Shu boisdan ular sunhiy ravishda u yoki bu turkumga kiritib yuboriladi. Holbuki, bunday birliklarning o'rni ajratilayotgan so'z turkumlarining sarhadida. Shu boisdan tilshunos L.V.O'erba shunday yozadi: «Faqat guruhlar markazidagi birliklar aniq. So'z turkumlari chegarasidagi oraliq birliklar esa hamisha u yoq-bu yoqqa tebranib turadi. Ana shu noaniq, xira va tebranib turuvchi holat tilshunosning diqqatini ko'proq o'ziga jalb etmog'i lozim».

Agar so'zda semantik, morfologik va sintaktik belgi butunlikni tashkil etmas ekan, bunda ular tasnif asosi bo'lib xizmat qila olmaydi. Zero ziddiyatsiz bo'lish, guruhlash faqat bir asosda amalga oshiriladi. Shuning uchun ayrim manbalarda, darslik va qo'llanmalarda mualliflar so'zlarni uch belgi birligi asosida tasnif qilishib, asosan, ulardan biriga yetakchi, asosiy mezon sifatida tayanishadi, shu bilan birgalikda, bir tasnifning o'zida tasnif asosini bir necha marta almashtirishadi. Deylik, o'zbek tilidagi so'zlar tasnifida morfologik belgi yetakchilik qiladi. Shu boisdan taqlidlar mustaqil so'zlarning barcha belgilariga ega bo'lsa-da, morfologik o'zgarmas so'z bo'lganligi uchun nomustaqil so'zlar sirasiga kiritib yuborilgan. Yoki gap bo'laklari sintaktik belgi asosida tasnif etiladi, biroq anhanaviy yondashuvda ergash gapli qo'shma gaplar bo'linishida tasnif sintaktik belgi asosida boshlanib, semantik belgi bilan yakunlanadi.

Ta'kidlash kerakki, qayd qilingan uch mezondan hammasi ham so'z guruhlarini belgilashda bir xil mavqega ega emas. Bu, avvalo, so'zlarning sintaktik vazifalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki biror bir sintaktik vazifani bajarish imkoniyati barcha mustaqil so'z turkumida mavjud. Bu vazifa so'z turkumlarini farqlash uchun emas, aksincha, ularni tenglashtirish uchun xizmat qiladi. Sintaktik vazifa nuqtai nazaridan mustaqil va yordamchi so'zlar ajraladi, xolos. Ammo bunda ham yordamchi so'z vazifasida qo'llanadigan ot yoki fe'l haqida gap ketganda chalkashlik vujudga keladi. Nomustaqil so'zlarning ichki tasnifida ularning sintaktik vazifalarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero muayyan sintaktik munosabatni ifodalash ularning mohiyatini, kategorial ma'nosini tashkil etadi.

Morfologik tasnifda so'zlarning ikki muhim jihati e'tiborga olinadi: so'zlarning shakl yasalishiga potensial imkoniyati va muayyan grammatik kategorial ma'no ifodalanishining ma'lum bir so'z guruhlari bilan bog'liqligi.

Birinchi jihatga ko'ra morfologik o'zgaruvchi va o'zgarmas so'z farqlansa, ikkinchi jihatga ko'ra, so'zlarning morfologik guruhlari (so'z turkumlari) ajratiladi.

So'zlarning semantik tasnifi. Bunda so'zlar quyidagi guruhlarga ajraladi:

- a) mustaqil lug'aviy ma'noli so'z (fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);
- b) nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z (olmosh va so'z-gap);
- v) lug'aviy ma'nosiz so'z (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama).

Olmosh anglatadigan ma'no u almashtirayotgan so'zning ma'nosi. Shu boisdan u nomustaqil lug'aviy ma'noli so'z sifatida baholanishi lozim. So'z-gap (tasdiq-inkor, taklif, undov va modal so'z) esa hatto bir butun gap vazifasida ham kela oladi. Bu – uning lug'aviy

ma'nosiz so'zdan farqi, biroq kontekst yordamida lug'aviy ma'no anglatadi. Masalan, - *Uyga bor. –Mayli.* gapida *mayli* so'z-gapi *boraman* so'zi anglatgan lug'aviy ma'noga teng nutqiy ma'noga ega. Biroq bu ma'no mustaqil emas.

So'zlarning morfologik tasnifi. Bu tasnifga binoan, so'zlar, aytilganidek, ikki guruhga ajraladi:

- a) o'zgaruvchi leksema; b) o'zgarmas leksema.

O'zgaruvchi leksema lug'aviy shakl hosil qiluvchilarni qabul qila oladi. O'zgarmas so'z esa bunday xususiyatga ega emas. Bu tasnifda so'zlarning o'rni quyidagicha

Leksemalar	
O'zgaruvchi	O'zgarmas
Fe'l Ot Sifat Son	Taqlid, ravish, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, so'z-gap

O'zgaruvchi turkum uchun tasniflovchi grammatik shakl mavjud. Masalan, otlarda son, subyektiv baho shakllari, fe'llarda nisbat, o'zgalovchi, harakat tarzi, sifatlarda daraja. O'zgarmas so'z bunday shaklga ega emas.

Bu tasnifda olmoshga o'rin berilmagan, chunki u o'zi ishora qiluvchi barcha mustaqil so'z turkumiga xos o'zgarish tizimiga ega. Shuning uchun olmoshning ot-olmosh, fe'l-olmosh, sifat-olmosh, son-olmosh kabi turi mavjud. Ot-olmosh sonlanadi (son kategoriyasiga ega bo'ladi), fe'l-olmosh nisbatlanadi, tarzlanadi, o'zgalanadi, sifat-olmosh darajalanadi, son-olmosh son shakllarini qabul qiladi.

Leksemalarning sintaktik tasnifi. Leksemalarning sintaktik tasnifida, asosan, ularning nutqda boshqa leksemalar bilan bog'lana olish-olmasligi, gap bo'lagi bo'lib kela olish-olmaslik xususiyati o'z aksini topadi:

- 1) gap bo'lagi bo'lishga xoslanmagan so'z: undov, modal, so'z-gap;
- 2) gap bo'lagi bo'lishga xoslangan so'z: fe'l, ot, sifat, son, ravish, taqlid, olmosh;
- 3) sintaktik aloqa vositasi bo'lishga xoslangan so'z: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

So'z-gap boshqa so'z bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi, o'zi mustaqil gap bo'lib kelish qobiliyatiga, ya'ni ajralganlik xossasiga ega. Mustaqil va yordamchi so'z esa bog'lanish xususiyatiga ega bo'lib, bulardan yordamchilar gapda alohida bo'lak bo'lib kela olmaydi, balki sintaktik jihatdan bog'lash vazifasini bajaradi. Mustaqil leksema esa mustaqil ravishda gap bo'lagi bo'lib kela oladi.

O'zbek tili leksemalarining semantik-morfologik-sintaktik belgilar majmuidan iborat serqirra mohiyatini jadvalda quyidagicha berish mumkin (23-jadval):

	Leksema turlari	Ma'noviy belgilari	Morfologik belgilari	Sintaktik belgilari	Ajralishning asosiy belgisi
	Fe'l	Harakat-holatni atash mus-taqil leksema-lari	Nisbatlanuvchi, o'zgalanuvchi, tarzlanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi	Morfologik va Ma'noviy
	Ot	predmet va predmetlikni atash mustaqil leksema-lari	Sonlanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Morfologik va Ma'noviy
	Sifat	Belgini atash mustaqil leksemalari	Darajalanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi	Morfologik va Ma'noviy
	Son	Miqdorni atash mustaqil leksemalari	Tartiblanuvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi	Morfologik va Ma'noviy
	Ravish	O'rin- payt , tarz-	O'zgarmaslik	Cheklanmagan gap bo'lagi	Morfologik va

		tusni atash mustaqil leksemalari		bo'lib kela olish	Sintaktik	
	Taqlid	Tovush yoki ko'rinishga taqlid mustaqil leksemalari	O'zgarimaslik	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Ma'noviy	
	Olmosh	Ishora qiluvchi mustaqil leksemalar	O'zgaruvchi	Cheklanmagan gap bo'lagi bo'lib kela olish	Ma'noviy	
	Ko'makchi		O'zgarimaslik	So'zni so'zga bog'lovchi, gap bo'lagibo'laolmaydiganso'zlar	Ma'noviy va sintaktik	
	Bog'lovchi		O'zgarimaslik	So'zni va gapni bog'lovchi, gap bo'lagi bo'laolmaydiganso'z	Sintaktik	
0	Yuklama		O'zgarimaslik	Gap bo'lagi bo'la olmay-digan so'z	Ma'noviy	
1	So'z-gaplar	Modal	Munosabatni atash leksemalari	O'zgarimaslik	Ajraluvchilik (gap bo'laklari bilan munosa-batga kirisha olmaslik)	Ma'noviy va sintaktik
		Undov	His-hayajonni tasvirlash leksemalari	O'zgarimaslik	Ajraluvchilik	Ma'noviy va Sintaktik
		Tasdiq va inkor	Tasdiq-inkor ma'noli leksemalar	O'zgarimaslik	Ajraluvchilik	Ma'noviy va Sintaktik
		Taklif so'zlar	Taklif ma'noli leksemalar	O'zgarimaslik	Ajraluvchilik	Ma'noviy va Sintaktik

O'zbektilidaso'z turkumlarimazkurbelgilariasosida quyidagiko'rinishdatartiblanadi:

I. Mustaqil so'zlar. 1. Fe'l. 2. Ot. 3. Sifat. 4. Son. 5. Ravish. 6. Taqlid. 7. Olmosh.

II. Yordamchi so'zlar. 8. Ko'makchi. 9. Bog'lovchi. 10. Yuklama.

III. Oraliq so'zlar. So'z-gaplar.

Savol va topshiriqlar:

1. So'zlarni turkumlash tamoyillari haqida gapirib bering.
2. So'zlarni tasniflash asoslari haqida gapiring.
3. Mustaqil so'z turkumlari qaysilar?
4. Mustaqil so'zlarning o'rganilish tarixiga sharh bering.
5. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplarini ayting.
6. O'zgaruvchi va o'zgarimas turkumlar haqida ma'lumot bering.
7. G'ayrioddiy ma'noli turkumlarni izohlang

FE'L SO'Z TURKUMI.

REJA:

1. Fe'ning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari.
2. Fe'ning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'ning lug'aviy-grammatik guruhlari.
3. Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari.

Tayanch so'zlar: *fe'l, UGM, XGM, OGM, lug'aviy grammatik guruhlar, o'timli, o'timsiz, tuslanish, nutqiy ko'rinish, qo'shma fe'l, juft fe'l, takroriy fe'l, to'liqsiz fe'l, fe'ning tasniflovchi kategoriyalari, nisbat kategoriyasi, grammatik ma'no, bo'lishli-bo'lishsizlik, kategoriya*

Fe'l va uning UGMsi. Fe'ning UGMsi – «ish-harakat va holatni jarayon sifatida ifodalash». Holat ifodalash boshqa so'z turkumiga ham xos. Biroq fe'lda u bir tusdan boshqasiga o'tish tarzida. Masalan, *Daraxtlar yam-yashil* gapida sifat-kesim (*yam-yashil*) turg'un holatni ifodalamoqda. *Daraxtlar ko'kardi* gapida esa holat jarayon sifatida, bir tusdan ikkinchisiga o'tish tarzida yuz bermoqda.

Ish-harakatning barchasi ham zamon bilan bog'liq holda yuz bersa-da, gapda ulardagi zamon ifodalanmasligi mumkin. *Daraxtlar ko'kardi* gapidagi fe'lda zamon lisoniy ifodasiga ega. *Ishga borish* gapidagi fe'lda esa bunday xususiyat lisoniy voqelanmagan.

O'zbek tilidagi fe'llar leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra ikki asosiy guruhga ega: a) mustaqil fe'l; b) nomustaqil fe'l.

Mustaqil fe'lga quyidagi xususiyat xos:

1) lug'aviy ma'no asosidagi harakatni ifodalaydi va shu boisdan gapda biror bo'lak vazifasida keladi;

2) biror so'zni boshqarib (*kitobni o'qidi*) yoki biror so'z tomonidan boshqarilib (*o'qilgan kitob*) keladi;

3) harakatning obyektga munosabatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) o'timli fe'l; b) o'timsiz fe'l.

O'timli fe'l bildirgan harakat obyekt tushunchasi bilan bog'lanadi va bunda obyektни ifodalovchi birlik tushum kelishigidagi so'z bo'ladi: [*ol*], [*o'qi*], [*boshqar*]. O'timsiz fe'l bunday xususiyatga ega bo'lmaydi: [*yig'la*], [*uxla*], [*cevin*]. O'timli-o'timsizlik fe'ning mohiyatida, lisoniy tabiatli bo'lishi ham, grammatik shakl vositasida hosil qilinishi ham mumkin. Masalan, [*uxla*], [*yig'la*], [*bor*], [*ket*], [*kel*] fe'lida o'timsizlik ma'nosi fe'ning o'zak-negizidan anglashiladi va u lisoniy tabiatli. [*Yuvinoq*], [*sevinmoq*], [*burilmoq*], [*qirilmoq*] fe'lidagi o'timsizlik esa nutqiy, grammatik vosita yordamida vujudga kelgan. (Bu haqda «Nisbat kategoriyasi» mavzusida so'z yuritiladi);

4) fe'l ifodalagan harakat obyektiv borliq hodisasi bo'lib, uni tilda ifodalashda bevosita inson, so'zlovchi ishtirok etadi. Tilda ifodalangan harakatda, demak, inson munosabati ham mavjud bo'ladi. Bunday munosabat fe'l mayli deb yuritiladi;

5) harakat real yoki irreal bo'lishi ham mumkin. Bunga ko'ra, bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar farqlanadi;

6) har qanday harakat bajaruvchi bilan ham bog'lanadi. Bajaruvchi aniq, noaniq, bitta yoki bir nechta bo'lishi mumkin. Ish-harakatning bajaruvchiga munosabat nuqtai nazaridan tavsifi fe'l nisbatlari deb yuritiladi;

7) harakat zamon bilan bog'lanishi mumkin. Mantiqan zamondan tashqaridagi harakat yo'q. Yuqorida tilga olingan (*borish*) fe'lida zamon bevosita ifodalanmagan. Lekin uni gap

ichida olsak (*Ishga borish lozim*), uning kelasi zamonda yuz beradigan harakat ekanligi mantiqan anglashilib turadi. Demak, har qanday fe'lda yo grammatik, yo mantiqiy zamon ifodalanadi. Modomiki, til qurilishini o'rganayotgan ekanmiz, biz uchun grammatik zamon ahamiyatli. Shu boisdan zamonli va zamonsiz fe'lni farqlaymiz;

8) aytilganidek, borliqda harakat, albatta, bajaruvchi bilan bog'lanadi. Biroq uning tildagi ifodasida grammatik shaxs mavjud bo'lmasligi mumkin. Masalan, *Halim keldi* gapida grammatik shaxs mavjud. U kesimlik shaklida yuzaga chiqqan. Biroq *Halim kelgach* qurilmasida mantiqiy shaxs mavjud bo'lsa-da, u o'z ifodasiga ega emas. Chunki qurilma *men kelgach, sen kelgach* tusini olsa ham, (*kelgach*)so'zshaklida bajaruvchi qaysi shaxsda ekanligi noaniqligicha qoladi. (*Halim*), (*men*), (*sen*) mantiqiy bajaruvchi, grammatik emas. Bu nutqdagi tuslangan va tuslanmagan fe'lni farqlashni taqozo qiladi.

Nomustaqil fe'llar bevosita lug'aviy ifodali harakat ma'nosiga ega emas. Masalan, *qaror qildi, o'qib chiqdi, ishlayotgan ekan* hosilalarida (*qildi*), (*chiqdi*), (*ekan*)birliklari oldinda turgan so'zlarning lug'aviy ma'nosini yo yangilagan, yo modifikatsiya qilgan. Biroq bu fe'llardan ham qandaydir harakat uqilmoqda. Bu harakat derivatsion, grammatik harakat, lekin lug'aviy emas. Aniqrog'i, ular o'zlaridan oldingi so'zlarning ma'nolariga harakat, jarayon tusini bermoqda.

Nomustaqil fe'l mohiyat e'tibori bilan uchga bo'linadi:

a) yordamchi fe'l; b) ko'makchi fe'l; v) to'liqsiz fe'l.

Yordamchi fe'l yangi lug'aviy birlik hosil qiladi – so'z yasaydi, ko'makchi fe'l harakat tarzi shaklining bir qismi bo'lib, fe'l lug'aviy ma'nosini nutqqa xoslaydi – modifikatsiya qiladi, to'liqsiz fe'l esa fe'l va fe'l bo'lmagan so'zning zamonini ko'rsatadi.

Fe'ning asosiy LMGlari. LMGda markaz va qurshov leksemalari. Fe'llar anglatgan qator ma'nolariga ko'ra turli mazmuniy guruhlariga bo'linadi. Bunda harakatga xos yaratish, buzish, o'zgartirish, so'zlash, sezish, yo'naltirish, holatga xos ruhiy-'sixologik, tafakkur bilan bog'liq fe'llar farqlanadi. Bularndan xarakterlilarini ko'rib o'tamiz.

Harakat fe'li jonli va jonsiz predmetga xos harakatni ifodalaydi. Ular yurish, ta'sir etish, zarb berish kabi ko'rinishda bo'lishi mumkin. Qo'l, oyoq, yuz, og'iz, gavda bilan bog'liq harakatda harakatlanuvchi obyekt yaqqol ko'rinishda turadi. Oyoq bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: [yurmoq], [kezmoq], [yo'rg'alamoq], [ildiramoq], [la'anglamoq], [gandiraklamoq], [do'konglamoq], [tentiramoq], [te'kilamoq], [te'moq], [toptamoq], [de'sinmoq], [tisarilmoq]; qo'l bilan bog'liq harakatni ifodalovchi fe'l: [urmoq], [solmoq], [ushlamoq], [silamoq], [tirnamoq], [sha'aloqlamoq], [chimchilamoq], [uqalamoq], [qitiqlamoq], [changallamoq], [mushtlamoq], [chertmoq], [hovuchlamoq], [chapak chalmoq], [axsa qilmoq];

Yuz, gavda, og'iz, lab, quloq, burun va h. bilan bog'liq harakat ham mavjud.

Nutq fe'llari insonning gapirish faoliyati bilan bog'liq harakatlarni ifodalaydi: [gapirmoq], [so'zlamoq], [aytmoq], [demoq], [bidirlamoq], [to'ng'illamoq], [g'o'ldiramoq], [vaysamoq], [vaqillamoq], [javramoq], [bobillamoq], [javob bermoq], [vag'illamoq]kabi.

Holat fe'llari. Inson tabiatiga xos jismoniy va ruhiy holat turlixususiyatga ega. Holatni to'rtga bo'lish mumkin:

a) ichki holat (ruhiy kechinmalar bilan bog'liq): [eslash], [unutish], [yodlash], [tubanlashmoq];

b) tashqi holat (ichki holatning namoyon bo'lishi bilan bog'liq): [xafa bo'lmoq], [shodlanmoq], [esankiramoq], [dovdiramoq], [g'azablanmoq];

v) jismoniy holat (inson tanasi bilan bog'liq): [holsizlanmoq], [kuymoq], [kuchlanmoq], [zaiplashmoq];

g) ijtimoiy holat (jamiyat bilan bog'liq): [*boyimoq*], [*kambag'allashmoq*], [*ko'tarilmoq*], [*urilmoq*], [*quvg'in bo'lmoq*].

Natijali faoliyat fe'llari tizimi [*yasamoq*], [*qurmoq*], [*bunyod etmoq*], [*hosil bo'lmoq*], [*chizmoq*], [*yoqmoq*], [*bar'o qilmoq*], [*arralamoq*], [*parchalamoq*], [*sayqal bermoq*], [*randalamoq*], [*sindirimoq*], [*emoq*], [*o'chirmoq*]kabi birliklarni o'z ichiga oladi.

Tafakkur fe'llari sirasiga insonning fikrlash qobiliyati bilan bog'liq o'ylamoq, fikrlamoq, xayol surmoq, tafakkur qilmoq, o'yga botmoq, ko'z oldiga keltirmoq, bir qarorga kelmoq, xulosaga kelmoq kabilar kiradi.

Munosabat fe'llari qatori [*erkalamoq*], [*suymoq*], [*yaxshi ko'rmoq*], [*parvona bo'lmoq*], [*rahmi kelmoq*], [*xushomad qilmoq*], [*yon bosmoq*], [*maftun bo'lmoq*], [*ehzozlamoq*]kabi ijobiy xarakterdagi munosabat fe'llari, [*beti qursin*], [*xudo olsin*], [*qorasi o'chsin*], [*baloga giriftor bo'lsin*], [*juvonmarg bo'lgur*] kabi salbiy xarakterdagi munosabat fe'llaridan tashkil topadi.

Fe'l ma'noviy guruhlarida ham markaz va qurshov leksemalari farqlanadi. Masalan, ma'nodosh fe'llarda bosh (dominanta) so'z, uyadoshlik paradigmasida uya (gi'eronim) markaz leksemi hisoblansa, boshqa ma'nodosh va uyadosh (giponimlar) qurshov leksemi deyiladi. [*Kulmoq*] fe'li dominanta sifatida bunga ma'nodosh boshqa leksemalarni, [*buzmoq*] esa buzishning turli ko'rinishini ifodalaydigangiponim leksemi uyushtirib turadi. So'zlar yirikroq butunliklarga birlashtirilganda, markaz leksemasigina bu butunlikdan joy oladi. Qurshov leksemalari esa uning «soyasi» sifatida quyida qolaveradi. Masalan, [*kulmoq*], [*yig'lamoq*], [*xursand bo'lmoq*] leksemalari o'z atrofida ko'plab fe'llarni birlashtirgan. Lekin ular bu uch leksema mansub tizimga kira olmaydi, quyi bosqichda qoladi.

Fe'lda so'zshaklning turlari. Fe'lda ham, boshqa turkumda bo'lgani kabi, so'zshakllar nol shaklli, sintetik, sintetik-analitik, takroriy ko'rinishda bo'ladi.

Nutqda fe'lning moddiy (nol ko'rsatkichdan boshqa) grammatik shakldan xoli qilingan qismi har doim kelasi zamon, buyruq mayli, aniq nisbat, ikkinchi shaxs, birlik ma'nosini ifodalaydi: (*bor*), (*kel*), (*o'qi*), (*yoq*), (*sev*), (*ayt*), (*ishon*) kabi. Bunday so'zshakllar *nol shaklli* deyiladi. Yuqorida aytilganidek, nol shakl masalasi o'zbek tilshunosligida o'z yechimini kutayotgan muammolardan.

Grammatik shakli qo'shimcha tusida bo'lgan fe'l *sintetik shaklli* so'zshakl deyiladi: (*o'qiyman*), (*bordim*), (*kelya'man*), (*yoqayotirman*), (*shoshib*), (*kelgach*), (*kelgan*)kabi. Bunda grammatik shakl fe'l o'zak-negiziga «yo'ishgan» holda bo'ladi.

Fe'llar nomustaqil fe'l bilan shakllanganda, albatta, sintetik-analitik ko'rinishda bo'ladi. Masalan, (*o'qib chiqdi*), (*ayta boshladi*), (*borgan ekan*)kabi. Bunda ham «yo'ishgan», ham «ajralgan» grammatik shakl yaxlitlikni tashkil qilganligi uchun u *sintetik-analitik shakl* atamasi bilan yuritiladi.

Takroriy shakllarni faqat takroriy deyish unchalik to'g'ri emas. Chunki bunda takrorlanayotgan fe'l avval sintetik shakl qiyofasiga kiradi, so'ngra takroriy shaklga aylanadi. Masalan, (*aytdi-aytdi*), (*o'qidi-o'qidi*), (*bordi-bordi*)kabi. Misol: **aytib-aytib** charchadi, **cho'ib-cho'ib** o'ynadi va h. Bunda takrorlanuvchi fe'l nisbat, o'zgalovchi, kesimlik shaklini olgan va undan keyin takrorlangan.

Ayrim manbalarda fe'lning *juft so'zshakl* turi ham ajratilib, unga (*aytdi-qo'ydi*), (*topshirdi-qo'ydi*)tipidagi misol kiritiladi. Bunga qo'shib bo'lmaydi. Chunki juftlanayotgan fe'lning ikkalasi ham mustaqil bo'lsa va ularning juftlanishidan yangi grammatik ma'no uqilsagina, uni so'zshakllarning juftligi deyishga asos bo'lur edi. Bunda esa juftlikning ikkinchi qismi ko'makchi fe'l sifatida grammatik ma'no ifodalash uchungina xizmat qilmoqda.

Qo'shma fe'l. Qo'shma fe'l tarkibiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

a) ism+fe'l;

b) fe'l+fe'l.

Juft fe'l. Juft fe'l grammatik shakliga ko'ra ikki ko'rinishda bo'ladi:

a) biri ravishdosh, ikkinchisi boshqa shaklda: [*aylanib-o'rgilmoq*], [*elib-yugurmoq*], [*yayrab-yashnamoq*], [*o'ynab-kulmoq*], [*qo'llab-quvvatlamog*];

b) har ikki qismi bir xil shaklda: [*aylanib-o'rgilib*], [*o'ylamay-netmay*], [*aralashib-quralashib*], [*achib-bijib*], [*tejab-tergab*], [*qisinib-qimtinib*], [*yuvib-tarab*], [*yayrab-yashnab*].

Tilshunosligimizda fe'l ibora bilan qo'shma fe'l chegarasi aniq oydinlashtirilmagan.

Juft fe'llar tarkibiy qismining qo'llanishiga ko'ra quyidagi shakllarda bo'ladi:

1) qismlari yakka holda ishlatiladigan juft fe'llar:

a) qismlari o'zaro sinonim: [*hormay-tolmay*], [*qo'llab-quvvatlamog*];

b) qismlari o'zaro antonim: [*kelib-ketib*], [*o'lib-tirilib*], [*kirib-chiqib*], [*o'tirib-turib*];

v) qismlarining ma'nosi yaqin: [*aylanib-o'rgilmoq*], [*eb-ichmoq*], [*o'ynab-kulmoq*], [*oshirib-toshirib*], [*yuvib-tarab*].

2) ikkinchi qismi yakka (mustaqil) ishlatilmaydigan fe'l: [*aldab-suldab*], [*yig'lab-siqtab*], [*yamab-yasqab*], [*qolgan-qutgan*].

FE'LNING TASNIFLOVCHI KATEGORIYALARI

Fe'l tasniflovchi kategoriyalari haqida umumiy ma'lumot. Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari faqat shu turkumga xos grammatik shakllar sistemasi. Ular nisbat, o'zgalovchi, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyalari. Fe'l kesimlik yoki nokesimlik vazifasida bo'lishidan qathi nazar, ushbu shakldan birida bo'lishi shart. Ular fe'l leksemaning lug'aviy ma'nosini modifikatsiya qilish vazifasini bajaradi. Tasniflovchi shakllar orasida nisbat fe'l leksemani modifikatsiya qilish darajasi jihatidan boshqalaridan ustuvor. Shu boisdan nisbat fe'lni boshqa so'z turkumidan ajratib turuvchi asosiy morfologik belgi. O'zgalovchi, nisbatdan farqli o'laroq, fe'lning nokesimlik vazifasi uchun xoslangan. O'zgalovchi kategoriyasining umumlashgan grammatik ma'nosi – fe'lni kesim vazifasidan tashqarida boshqa, ya'ni hokim so'z bilan bog'lash vazifasini bajarishi.

Tarz ma'nosi fe'lda ifodalanishi ham, ifodalanmasligi ham mumkin. Masalan, (*o'qidi*)fe'lida u nol darajada bo'lsa, (*o'qib chiqdi*)so'zshaklida namoyon bo'lgan. Bo'lishli-bo'lishsizlik shakli haqida ham shunday fikrni aytish mumkin. Biroq bo'lishli-bo'lishsizlik shakli bilan kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan tasdiq-inkor kategoriyasini farqlash lozim. Tasdiq-inkor kesim vazifasida keluvchi barcha so'z uchun xos bo'lsa, bo'lishli-bo'lishsizlik kesimdan boshqa vazifadagi fe'lning barchasi uchun xos bo'lgan grammatik hodisa. Boshqacha aytganda, bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lning nokesimlik, tasdiq-inkor esa barcha mustaqil so'zning kesimlik shaklidan biri.

Nisbat kategoriyasi haqida umumiy tushuncha. Nisbat kategoriyasi harakatning subyekt (bajaruvchi)ga munosabatini ifodalaydi. Bu munosabat maxsus grammatik shakl bilan yuzaga chiqadi. Masalan, *Shoir shehr yozdi* gapida ega bevosita ish-harakatning bajaruvchisi bo'lib, bajaruvchi va harakat munosabati nol shaklli aniq nisbat bilan ifodalangan; *o'qituvchi bolaga kitobni o'qitdi* gapida harakatning bevosita va bilvosita bajaruvchisi (o'qituvchi bilvosita, bola esa bevosita bajaruvchi) farqlangan. *Dovul chalindi* gapida harakat bajaruvchisi noaniq, majhul. Demak, nisbati o'zgarishi bilan fe'lning bajaruvchisida ham o'zgarish yuz beradi. Nisbat kategoriyasi fe'lning bo'sh subyekt valentligini to'ldirib, muayyanlashtirib uni nutqqa moslaydi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'l nisbatining beshta ko'rinishi ajratiladi: *aniq nisbat*, *o'zlik nisbati*, *orttirma nisbat*, *birgalik nisbati*, *majhul nisbat*.

Aniq nisbat. Bu nisbatda subyektga munosabat nol shakl orqali ifodalanadi va shakl UGMsi «harakatning ega bilan ifodalangan shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishi yoki bajarilmasligini bildirish»dir: (*bildi*), (*ko'rdi*), (*so'radi*), (*aytdi*), (*qaytdi*) kabi. Bu nisbatdagi fe'l o'timli (*oldi*) yoki o'timsiz (*uxladi*) bo'lishi mumkin.

Nol shakl UGMsida o'zi mansub kategoriyaning mohiyatini boshqalariga nisbatan to'laroq aks ettiradi. Ma'lumki, fe'lning barcha shakllarini ikkiga – kategoriya ichidagi shakllarning o'zaro ziddiyatida aniq bir belgiga ega bo'lgan belgili shakllarga (masalan, aniq nisbatdan boshqa nisbat shakllari) va bu ziddiyatda aniq belgiga ega bo'lmagan shakllarga (masalan, aniq nisbat shakli) ajratish mumkin. Birinchi guruh shakllar o'zlari mansub kategoriyaning UGMsidan aniq bir ko'rinishni «xususiylashtirib» oladi. Ikkinchi guruh shakllarida xususiylashma noaniq bo'ladi. Ikkinchi guruh shakllari (bizningcha, aniq nisbat) o'zi mansub kategoriyaning umumiy namoyandasi bo'ladi. Shuning uchun ular matn va sharoit talabi bilan boshqa shakllar ma'nosini ifodalashi, aniq nisbat ham belgisiz shakl sifatida boshqa nisbat shakllari o'rnida bema'lol qo'llanaverishi mumkin. Yuqorida bunga aniq nisbatdagi fe'l (masalan, (*hayajonlanmoq*)) dan o'zlik nisbati ma'nosi uqilib turishi misolida amin bo'lgan edik.

O'zlik nisbati. O'zlik nisbati asosan [-(i)n], ba'zan [-(i)l] ko'rsatkichi yordamida o'timli fe'ldan hosil bo'ladi. [-(i)sh]affiksi o'zlik nisbati hosil qilishda kammahsuldir: (*kerishdi*), (*joylashdi*), (*qorishdi*) kabi so'zshakllardagina buni kuzatish mumkin. O'zlik nisbati UGMsi – «harakatning subyekt va obyektini birlashtirish, o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantirish».

Ayrim holda grammatik shakl o'zlik nisbatiniki bo'lsa-da, bu shakl harakatning bajaruvchiga qaytishini, bajaruvchi ham harakat obyektini ekanini bildirmaydi: *Bir mahal G'ulomjon tuynukdan erinib chiqayotgan tutunga qarab so'zlandi.* (M.Ism.) *So'ng uzun do'nglik ortiga o'tib, ko'rinmay ketdi.* ('.Qod.) *Yigit ko'zini yashirishga joy topolmay qiynaldi.* (S.Ahm.) *Davlatbekovning tug'ilgan qishlog'i Bodomzor bu yerdan o'n bir chaqirim 'astda.* ('.Qod.) O'zlik nisbati shakli o'timli fe'lni o'timsiz fe'lga aylantiradi.

Semantikasida ma'noviy siljish ro'y berayotgan o'zlik nisbati shakliga ega fe'llar bu nisbatdan xoli qaralishi lozim: *Yuzlari semizlikdan tirsillagan Arabboy kerilgan bir holda so'radi.* ('.Tur.) *Bu qishloqda Avazning eng ochilib gaplashadigan tengdoshi shu Zamonali edi.* ('.Qod.) Bunday hol ayrim mualliflarning ba'zan nisbatni so'z yasalishi sifatida qarashiga, ba'zan izohli lug'atlarda bosh so'z (leksema) sifatida berishlariga sabab bo'ladi.

Orttirma nisbat. Orttirma nisbat shakli quyidagilar:

[-dir (-tir)]: (*chizdir*), (*yondir*), (*urintir*);

[-gaz (-giz, -g'az, -g'iz, -kaz, -kiz, -qaz, -qiz)]: (*ko'rgaz*), (*kirgiz*), (*turg'iz*), (*yutqiz*), (*o'tqaz*), (*ketkiz*), (*yurg'az*);

[-(i)l]: (*o'qit*), (*ishlat*), (*tugat*), (*boshlat*), (*yurit*), (*kirit*);

[-iz]: (*oqiz*), (*tomiz*), (*emiz*);

[-ir]: (*bitir*), (*uchir*), ('*ishir*), (*qochir*), (*ochir*), (*shoshir*), (*oshir*), (*botir*), (*qotir*);

[-ar]: (*chiqar*), (*qaytar*);

[-sat]: (*ko'rsat*).

Orttirma nisbat UGMsi «harakat bajaruvchisini orttirish, jarayonga «ortiqcha» bajaruvchini kiritish va o'timsiz fe'lni o'timli fe'lga aylantirish». Orttirma nisbatda ish-harakatning subyektini ortib, ular bevosita va bilvosita subyektga ajraladi: *Halim o'qidi. Halim ukasini o'qitdi.* Birinchi gapda subyekt bitta. Ikkinchi gapda esa ikkita bo'lib, [*Halim*] bilvosita, [*ukasi*] bevosita bajaruvchilar. Bevosita subyekt unchalik ahamiyatli bo'lmaydi, shuning uchun u ko'p holda ifodalanmay qolaveradi.

Orttirma nisbat shaklli fe'l semantikasida ma'noviy siljish ro'y berib, unga xos morfema ajralmaydigan holga kelib qolishi ham mumkin: [tuzatmoq][surishtirmoq], [solishtirmoq], [yaratmoq], [uyg'on], [yupan], [erkalatmoq], [(dalil,misol) keltirmoq] tipidagi fe'l ham shular jumlasidan.

Orttirma nisbat shakli o'timsiz fe'lni o'timliga aylantiradi.

Majhul nisbat. Majhul nisbat [-i]l va [-i]n shakllari yordamida hosil qilinadi:(yuvildi), (tozalandi), (aytildi), (gapirildi), (olindi) kabi. Bu nisbatli fe'l «subyektsizlashadi», aniqrog'i, obyekt ustuvorlashib, ega vazifasiga o'tadi, mantiqiy obyekt grammatik ega maqomini oladi: *Bu yerda chetan bilan o'ralgan mol qo'rasi bor edi.* (‘.Qod.) *Boboxo'ja domla ishdan bo'shatildi.* (‘.Tur.)

O'zlik va majhul nisbat omonimik munosabatda. Masalan, (osildi), (tashlandi), (to'kildi) fe'llarining o'zlik yoki majhul nisbatda ekanligi qurshovda ma'lum bo'ladi.

Birgalik nisbati. Birgalik nisbat [-(i)sh]affiksi yordamida hosil qilinib, uning UGMsi «harakatni bajarishda bajaruvchining birgalashuvi»dir.

Birgalik nisbati asos fe'l boshqaruviga oddiy vositali to'ldiruvchini ko'makchili vositali to'ldiruvchiga aylantirish darajasida o'zgarish berishi mumkin.

Birgalik nisbat shaklida «birgalik yordamlashish» va «birgalik-ko'plik» oraliq grammatik ma'nosi farqlanadi. «Birgalik-ko'plik» ma'nosi uchun fe'llarning o'timli-o'timsizligi ahamiyatsiz: *Kattalar o'sha yerda. Arz qil, yordam berishadi, yo'l-yo'riq ko'rsatishadi.* (‘.Tur.) «Birgalik-yordamlashish» ma'nosi voqelanishi uchun esa shakl o'timli fe'llarni tanlaydi: *Bola dadasiga yer haydashdi, ekin ekishdi.* (S.Nur.)

Ba'zan ko'plik shakli ham nutqiy ortiqchalik sifatida birgalik nisbat shakli ustiga «qavatlanadi»: *Sharofat xolaning so'zlariga zavqlanib kulishdilar.* (N.Saf.) *Ona-bola uzoq yig'lashdilar, ko'z yoshlari bitguncha bo'zlashdilar.* (A.Qod.)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, nisbat kategoriyasi UGMsi «harakatning bajaruvchiga munosabatini ifodalash» bo'lib, bu kategorial ma'noga «o'timli-o'timsizlikka munosabat» ma'nosi yondosh ma'no sifatida qorishadi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi – fe'lning asosiy belgisidan biri. Chunki fe'l nutqda yo bo'lishli, yo bo'lishsiz shaklda bo'ladi. Bo'lishli shakl yuz bergan /berayotgan/beradigan, bo'lishsiz shakl esa yuz bermagan/bermayotgan/bermaydigan harakatni ifodalaydi. Bo'lishli-bo'lishsizlik ma'nosini ifodalashda geterogen (har xil) tabiatli, ya'ni turli sathga mansub lisoniy birliklar ishtirok etadi. [-ma], [-may], [-maslik] morfologik ko'rsatkichidan tashqari, [na] nomustaqil so'zi ham ishtirok etadi. Ayrim adabiyotda [yo'q], [emas] inkor ifodalovchi so'zlarni ham shu siraga kiritadilar. Bu fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki zikr etilgan so'zlar fe'l kesim vazifasida kelgandagina inkor ifodalaydi va bu ma'noni ifodalash uchun fe'l bilangina cheklanmaydi. To'g'ri, nutqimizda *kelgani yo'qligini bilmayman* tipidagi qurilmalarda [yo'q] so'zi ishtirok etadi. Biroq bu qurilma *Kelgani yo'q* predikativ sintagmasining transformatsiyasi. Demak, baribir, [yo'q] so'zi kesimlikning inkor shakli bo'lib qolaveradi.

[Emas] inkor shakli haqida ham shunga o'xshash fikrni aytish mumkin. Ba'zan undan qiyoslanayotgan ikki harakatdan sifatdosh, ravishdosh yoki harakat nomi bilan ifodalangan harakatning inkorini ifodalash uchun foydalanilishi aytiladi: *Kulib emas, jiddiy gapirdi. Qarashi emas, kulishi chiroyli.* Bunday qurilmalar ham predikativ sintagmaning qisqaruvi natijasi: *Kulib gapirdi emas, jiddiy gapirdi. Qarashi chiroyli emas, kulishi chiroyli.*

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining UGMsi «harakatning sodir bo'lish/bo'lmasligini ko'rsatish»dir. Bu kategoriyaning semantik qiymati bo'lib, uning sintaktik tomoni kuchsiz.

Chunki u o'zi birikayotgan so'zning birikish imkoniyatiga juda oz ta'sir qiladi (ya'ni uning *hech, hech qachon* birliklari bilan birikuviga olib keladi, xolos).

Bo'lishlilik nol shakl orqali ifodalanadi. Bu nol shakl ham boshqa kategoriyalar nol shakli kabi xususiyatga ega bo'lib, bo'lishsizlikni ham ifodalashi mumkin. Masalan, *Yozadi-ya, yozadi* («yozmaydi» ma'nosida).

[-*ma*] affiksi fe'lning tushlangan va sifatdosh shaklida bo'lishsizlikni ifodalash uchun ishlatiladi: 1.*Sevgi menga bo'ylama, Mehring bilan siylama.* (M.Yusuf.) 2.*Bu yerlarga nega keldim men, qiziqmasam unut chiroyga.* (A.Ori'). 3.*O'qimagan odam, yurmagan mashina.*

Bo'lishsizlik fe'lning harakat tarzi shakllarida uch xil qo'llanadi:

- 1) yetakchi fe'lga qo'shiladi: (*yoymay tur*);
- 2) ko'makchi fe'lga qo'shiladi: (*yoza ko'rma*);
- 3) har ikkalasiga qo'shiladi: (*yoymay qo'yma*).

Uchinchi ko'rinishda shakliy-ma'noviy nomuvofiqlik yuz berib, bo'lishsiz shakl bo'lishlilikni ifodalaydi.

[-*may/masdan*] bo'lishsizlik ko'rsatkichi fe'lning ravishdosh shakliga xos. Fe'lning harakat nomi uchun bo'lishsiz shakl [-*maslik*] ko'rsatkichi: *ketish – ketmaslik, aytish – aytmaslik, ko'rinmoq – ko'rinmaslik* kabi.

Demak, bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining UGMsi «harakatning sodir bo'lish/bo'lmasligini fe'l birikuvchanligiga kuchsiz ta'sir ko'rsatish asosida ifodalash» bo'lib, bu UGM[0], [-*ma*], [-*may/masdan*], [-*maslik*]ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lga nisbatchalik mutlaq va doimiy belgi emas. Chunki nisbatini yo'qotgan fe'llar (*ko'ra, osha*) fe'llikdan chiqib ketadi. Lekin fe'lning ayrim shakllari, xususan, maqsad ravishdoshi (*o'qigani, borgani*), ayrim harakat tarzi shakllari (*yiqilayozdi, tugatayozdi*) to'laqonli fe'l bo'lsa-da, bo'lishsiz shaklda yuzaga chiqmaydi. Bu bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi fe'l tasniflovchi kategoriyalari sirasida nisbat kategoriyasidan keyin turishini bildiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe'lning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini tushuntiring.
2. Fe'lning umumiy grammatik ma'nosini tavsiflang.
3. Fe'lning qanday lug'aviy-grammatik guruhlari mavjud?
3. Fe'lning tasniflovchi kategoriyalari deganda nimalarni tushuntiring.
4. Fe'lning nisbat kategoriyasi va uning shakllariga tavsif bering.
5. Fe'lning bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi tarkibini tushuntiring.

FE'LNING O'ZGALOVCHI KATEGORIYASI VA UNING SHAKLLARI

Reja:

1. Fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari.
2. Sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, ravishdosh.
3. Fe'lning harakat tarzi kategoriyasi. Ularning shakllari tizimi, kategoriya umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Tayanch so'zlar: *o'zgalovchi kategoriya, sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi, infinitiv o'ram, sifatdoshli qurilma, grammatik shakllar sinkretikligi, polifunksionallik.*

Fe'lning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari. Fe'lga xos shunday grammatik shakllar borki, ular fe'lni kesimlikdan boshqa turkumga ([-(a)y], [-(i)b], [-gach], [-guncha], [-gancha], [-ganda], [-gani], [-may/masdan]) shakllari ravishga, [-gan], [-ayotgan], [-adigan/ydigan] sifatga, [-moq], [-ish], [-uv] otga) xos vazifalarga moslaydi. Shunga ko'ra, ular uch guruh – ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi shakllariga ajratiladi. Bu shakllar fe'lga nutqda o'zga turkum xossalarini «yo'ishtirganligi» uchun bir butun holda *o'zgalovchikategoriyasi* tamasi bilan nomlanadi.

Chunonchi, sifatdosh shakllari bir-biridan zamon kategoriyasi ma'nosi asosida farqlansa, demak, qayd qilingan shakllar uning alohida shakli emas, balki bir sifatdoshning zamon kategoriyasi ma'nolari asosida farqlanuvchi ko'rinishi – varianti. Bunday holni ravishdosh shakllarida ham kuzatish mumkin. Chunki ravishdosh shakllarining bir-biridan zamon, tasdiq/inkor, payt, maqsad kabi qator ma'no bilan farqlanishi zamon, tasdiq/inkor, mayl kategoriyalari ma'nosining tajallilanishi evaziga sodir bo'ladi. Bunday holni boshqa kategoriyalarda ham ko'rish mumkin. Masalan, (*yo'zay*), (*yo'zgin*), (*yo'zsin*) kabi so'zshakllardagi grammatik ko'rsatkich buyruq-istak maylining turli shakllarimi yoki bir shaklning shaxs/son kategoriyasi ma'nosi bilan farqlanuvchi variantlarimi, degan savolga javob aniq. Demak, ayonki, garchi buyruq-istak mayli shakllari qatorida olti va undan ko'p shakl, aniqrog'i, ko'rinish mavjud bo'lsa ham, ularning har biri mayl umumiy ma'nosini xususiylashtirishga emas, balki uni shaxs-son kategoriyasi ma'nosi bilan murakkablashtirgan holda voqelantirishga xizmat qilayotganligi uchun, aniqrog'i, shakllar bu mayl uchun substantsial bo'lmagan ma'no asosida farqlanayotganligi uchun buyruq-istak mayli alohida kategoriya sifatida qaralmaydi.

Ko'rinadiki, ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi o'zaro o'zgalovchi kategoriyasining «fe'lni boshqa so'zlarga bog'lash va fe'lga otga xos vazifalarini berish» UGMsini «fe'lni fe'lga bog'lash» (ravishdosh), «fe'lni otga bog'lash» (sifatdosh) va «fe'lga ot vazifasini berish» (harakat nomi) tarzida xususiylashtiradi. Ularning ichki shakllari esa boshqa kategoriyalar ma'nolari asosida farqlanadi va bu tizim (paradigma)lar kategorial ahamiyatga ega emas.

Demak, o'zbek tilida ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi kategoriyalari emas, balki turli ko'rinishlarga ega bo'lgan uch shakldan iborat bitta o'zgalovchi kategoriyasigina mavjud.

Ravishdosh shakli va uning variantlari. «Fe'lni fe'lga bog'lash» UGMsiga ega bo'lgan ravishdosh shakli [-(a)y], [-(i)b], [-gach], [-guncha], [-gancha], [-ganda], [-gani], [-may/masdan] kabi variant shakliga ega. Bu variant shakllar o'zaro quyidagi tajalli ma'nolar asosida xarakterlanadi:

[-(a)y] –davomli harakatning holat tusini ifodalash;

[-(i)b] –davomli/davomsiz harakatga holat tusini ifodalash;

[-*may/masdan*] – bo'lishsiz harakatga holat tusini berish.

[-*gach*] –harakatning boshlanish paytini ko'rsatish;

[-*ganda*] –harakatning sodir bo'lish paytini ko'rsatish;

[-*guncha*] –harakatning tamom bo'lish paytini ko'rsatish;

[-*gancha*] –harakatlarning bir paytdaligini ko'rsatish;

[-*gani*] –harakatga maqsad ma'nosini berish;

[-*may/masdan*] –bo'lishsiz harakatga holat tusini berish.

Aytilganidek, barcha variant shakllar uchun «fe'lni fe'lga bog'lash» sintaktik vazifasi umumiy.

Ko'rinadiki, variant shakllardan uchtasida turli xil «holat», qolgan oltitasida esa har xil «payt» ma'nosi ifodalangan.

[-(*a*)y], [-(*i*)b]shaklli ravishdosh bajaradigan vazifasining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu shaklli ravishdosh ko'pincha [*boshlamoq*], [*chiqmoq*], [*qolmoq*], [*ko'rmoq*], [*yubormoq*] kabi fe'l bilan birikib keladi. Ko'p hollarda ravishdoshli birikuvlar fe'lning harakat tarzini hosil qilish uchun xizmat qiladi: (*o'qib chiqdi*), (*berib yubordi*). Bunda faqat shakl mavjud bo'lganligi uchun mazkur ko'rsatkichli so'zshakl (*o'qib*, *berib*) ni shakl va ma'no yaxlitligi sifatida ravishdosh deb bo'lmaydi.

Ravishdosh shakllari ma'noviy munosabatini kuzatish natijasida amin bo'lish mumkinki, [-*gani*] va [-*guncha*] hokim fe'l ifodalagan harakatdan keyin sodir bo'luvchi jarayonni anglatadigan ravishdosh hosil qiluvchi shakl sirasiga kiradi. Modallikning kuchli darajada ifodalanishi va harakatlar bajaruvchilarining umumiyliigi belgisi bilan [-*gani*] shakli bu belgiga ega bo'lmagan [-*guncha*] shaklidan farqlanadi.

payt ma'nosini namoyon qilganda [-(*i*)b] va [-*gach*] shaklli ravishdoshlar harakat bajaruvchisiga munosabat jihatdan qarama-qarshi turadi. Mazkur ma'noni ifodalashda [-(*i*)b] shaklli ravishdosh bilan undan keyin keluvchi hokim fe'lning bajaruvchisi bitta bo'ladi. *Ikromjon maxorkasini o't oldirib bo'lib*, *javob berdi*. (S.Ahm.) [-*gach*] shaklli ravishdoshli qurilmada esa ravishdosh va hokim fe'l bajaruvchisi turlicha bo'lishi mumkin. *Ikromjon maxorkasini o't oldirib bo'lgach*, (Ikromjon yoki boshqa kimdir) *javob berdi*.

Ravishdosh shakllarining paradigmatic munosabati quyidagicha:

1. «Fe'lni fe'lga bog'lash» umumiy sintaktik vazifasi bilan birlashuvchi ravishdosh shakllari «hokim fe'ldan anglashilgan harakatning sodir bo'lish paytini ifodalash» belgisi ostida ajraladi. [-*a*/y], [-(*i*)b], [-*gancha*], [-*may/masdan*], [-*gani*] shakllarida bu belgi majhul. [-*gach*], [-*guncha*], [-*ganda*] shakllarida esa ifodalangan.

2. [-*a*/y], [-(*i*)b], [-*gancha*], [-*may/masdan*], [-*gani*]shakllarining «ravishdosh va u bog'langan hokim fe'l ifodalagan harakatlarning bir vaqtdaligini ko'rsatish» belgisiga munosabati turlicha. Mazkur belgi [-*gancha*], [-*a*/y] shakllarida ifodalangan. Chunki bu shaklli ravishdosh va undan keyingi hokim fe'l anglatgan harakatlar bir vaqtda ro'y beradi: *kutgancha o'tirardi*, *kuta-kuta charchadi* kabi.[-*gani*]shaklli ravishdosh va u bog'langan fe'l anglatgan harakat turli vaqtda ro'y beradi: *ko'rgani keldi*, *aytgani ketdi* kabi. Shuning uchun ular mazkur belgiga salbiy munosabatda deyiladi. [-(*i*)b], [-*may/masdan*]shakllarida belgi yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin. Qiyoslang: *shoshilib gapirdi*, *shoshilmasdan gapirdi* (harakatlar bir vaqtda yuz bergan), *o'qib javob berdi*, *o'qimasdan javob berdi* (avval o'qish, keyin javob berish harakati yuz bergan). Bu hol ushbu shakllarning mazkur belgiga majhul, noaniq munosabatda ekanligini ko'rsatadi.

3. [-*a*/y], [-*gancha*]shakllari «ravishdosh ifodalagan harakatning takroriy emasligi» belgisi bilan farqlanadi. Bu belgiga munosabat [-*gancha*] shaklida ijobiy va [-*a*/y]shaklida

majhul. Bu quyidagilar bilan izohlanadi. **O'qigancha** kelardi birikuvida ravishdosh ifodalagan harakat takror-takror yuz bermaydi. *Keliso'ni qo'ya cho'di* birikuvida[-a/y] shakli bir martalik harakatni ifodalaydi. *O'qiy-o'qiy charchadi* birikuvida esa ravishdosh ifodalagan harakat takrorlanuvchi, davomiy. [-a/y]shaklli ravishdosh, odatda, takror qo'llanadi, ayrim hollarda takror bo'lmagan holda ishlatilishi mumkin.

4. [-gach], [-guncha], [-ganda]shakllari o'zaro «harakatning chegarasini ifodalash» belgisi bilan farqlanadi.[-gach] shaklli ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe'l ifodalagan harakatdan oldin yuz beradi: *borgach, aytaman*. [-guncha]shaklli ravishdosh ifodalagan harakat hokim fe'l ifodalagan harakatdan keyin yuz beradi: **borguncha aytaman**. [-ganda] shaklli ravishdosh ifodalagan harakat bilan hokim fe'l ifodalagan harakat bir paytda yuz beradi:**ko'rganda ko'rishguncha**.

Ravishdosh shakllarining tavsiflangan alohida ma'nolari uning UGMsi tarkibidagi yondosh ma'no hisoblanadi.

Sifatdosh shakllari va uning turlari. O'zgalovchi kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan sifatdosh nutqda fe'llarni otlarga (ba'zan fe'llarga) bog'lash vazifasini o'tashga ixtisoslashgan. Bu vazifa – barcha sifatdosh shakllari uchun mutlaq substantsial mohiyat.

Sifatdoshlar tabiatan «fe'lni fe'lga bog'lash» belgili noto'liq ziddiyatning majhul, noaniq uzvi. Bu ziddiyatda ravishdosh kuchli a'zo hisoblanadi. Sifatdosh, asosan, fe'lni otga, qisman fe'lga (masalan,**mast qiladigan kulishi, dilni vayron qiladigan yig'lashi** kabi) bog'lash vazifasini bajaradi. Shuningdek, bu shakl ba'zan analitik, 'erifrastik shakllar tarkibida ham fe'lni fe'lga bog'lashi mumkin.

Sifatdoshlarning sintaktik imkoniyati asosida uning ma'noviy xususiyati yotadi. Bu ma'noviy xususiyat – fe'l anglatgan harakat yoki harakat natijasini narsa/predmetning belgisi sifatida nutqda voqelantrish. Shuning uchun tilshunoslar sifatdoshni sifat va fe'l oralig'ida turgan so'z sifatida baholashadi. Mana shu jihati bilan ular ravishdoshdan tubdan farq qiladi. Ravishdoshlar o'zgalashish jarayonida fe'lning lug'aviy ma'nosini o'zgartirmay, unga faqat tobelovchi sintaktik vazifa yuklasa, sifatdoshlar fe'ldagi dinamik belgini barqarorlashtirib, uning lug'aviy ma'nosini ko'proq modifikatsiya qiladi.

Manbalarda sifatdoshning quyidagi shakllari ajratiladi:

[-gan]; [-(a)r]; [-(u)vchi]; [-mish]; [-ajak]; [-asi/gusi].

[-(a)r] shakli mavjud darslik va adabiyotlarda umumzamon, doimiylik ma'nosini ifodalovchi (*aytar gap, ketar odam*) sifatdosh shakli sifatida qaraladi. Lekin bu shaklning kammahsulligi va uni olgan sifatdosh ko'proq sifatga yaqin turishi o'zbek tilshunoslari tomonidan ehtirol etilgan. Chunki «uning yordamida sifatdosh hosil bo'lishi o'zbek tilida juda kam uchraydi. Mazkur ko'rsatkich yordamida qo'llanuvchi ayrim so'zlar fe'ldan ko'ra sifatlariga juda yaqin turadi: **oqar suv, so'nmas hayot** kabi. Hozirgi-kelasi zamon fe'lining keladi, ishlaydi va keladigan, ishlaydigan tipidagi shakli kelib chiqqach, bu shakl yordamida yasaluvchi sifatdosh hozirgi-zamon fe'lga aylangan» («O'zbek tili grammatikasi, I tom). Demak, [-(a)r] shaklini tarixiy sifatdosh shakli sifatida qarashga to'la asos bor.

[-mish]o'zbek tili tarixida tom ma'nodagi sifatdosh bo'lib, bu shaklga «'erfekt kesim orqali anglashilgan harakatga nisbatan amalga oshirilgan, sodir bo'lgan harakat» ma'nosini ifodalash xos. Lekin til taraqqiyotining keyingi bosqichi va hozirgi vaqtda o'zbek tili uchun me'yor emasligi bilan xarakterlanadi. O'g'uz tillari va o'zbek tilining o'g'uz shevalariga xos bo'lgan bu shakl o'zbek tilida uchratmasligi uni sifatdosh shakli sifatida qarashga imkon bermaydi.

[-(u)vchi] shakli o'zbek struktur tilshunosligida sifatdoshdan keskin farq qiluvchi ismi foil (harakat bajaruvchi) hosil qiluvchi sifatida baholanganligi uchun unga sifatdosh shakllari qatoridan o'rin berilmadi.

[-ajak], [-asi/gusi]shakllari – to'la arxaiklashgan sifatdosh ko'rsatkichi.

Demak, tom ma'nodagi sifatdosh shakli sifatida mazkur qatorda [-gan]qoladi. Ma'lumki, [-gan]zamon ma'nosini ko'rsatuvchi va [-gan] shaklining varianti sifatida qaraluvchi [-yotgan], [-adigan/ydigan] shakliga shu ma'nosi bilan o'tmaydi. Har uchala shakl zamon ma'nosi bilan farqlanganligiva bu zamon kesimga nisbatan belgilanuvchi nisbiy zamonga aylanganligi sababli, ularni sifatdosh shaklining zamon bilan farqlanuvchi ko'rinishi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Demak, sifatdosh shakli[-gan], [-yotgan], [-adigan/ydigan]ko'rinishiga ega.

Sifatdoshning bu uch ko'rinishi o'zaro «fe'lni otga va qisman fe'lga bog'lash» UGMsiga birday ega bo'lganligi sababli quyida ularning faqat ma'noviy tomoniga e'tibor qaratiladi.

[-gan] ko'rsatkichi bilan shakllangan sifatdoshning ma'noviy xususiyati asosida keyingi fe'ldan anglashilgan harakatdan ilgari sodir bo'luvchi harakatni predmetning atributiv belgisi sifatida ifodalash yotadi. Lekin sifatdosh ifodalagan harakat nutq momentigacha sodir bo'lmagan bo'lishi mumkin. Masalan, *Jon xotin, men borguncha shu xatni olib borgan bolani o'ldirib yubor.*(Ert.)

To'rt holat fe'li – *yot, tur, o'tir, yur* fe'llariga qo'shilganda ham shakl ushbu ma'no bilan bo'ladi. Bu, albatta, fe'lning lug'aviy ma'nosiga bog'liq holda yuz beradi.

[-yotgan]shaklining ma'noviy mohiyati davomiy harakatni narsa/shaxsning atributiv belgisi sifatida berish. Misollar: *Nay ovozi kelayotgan te'aning oldiga yetdim.* (S.Ayn.) *U ho'l o'tin vishillab yonayotgan o'choqqa tikildi.* ('.Tur.) Bu shakldagi davomiylik, hozirgi zamon ma'nosi, asosan, shakldagi -yot formantining ma'noviy xususiyati asosida. Chunki yot fe'li kesimdan anglashilgan harakat bilan bir vaqtda yuz bergan davomiy harakatni ifodalaydi. Ma'lumki, [-gan] shakliga bajarilgan, o'tgan zamonga oid harakatni ifodalash xos bo'lib, [-yotgan] shaklli sifatdoshda zamon va davomiylik ma'nosini ifodalashni -yot formanti butunlay o'z zimmasiga olgan va [-gan] shakli hissasiga faqat atributiv belgi ekanlikni ko'rsatish va bog'lash vazifasi qoladi.

[-adigan/ydigan]shaklining ma'noviy mohiyati doimiy harakatni narsaning atributiv belgisiga aylantirish. Bu shaklning bunday xususiyatga egaligi uning tarkibiy qismi bo'lgan [-adi] formantining qadimda holat fe'li [-ardi] bo'lganligiga borib taqaladi. Holat esa, albatta, davomiy. Xuddi [-yotgan] shaklida bo'lgani kabi, [-adigan/ydigan] shaklida ham asosiy ma'noni ifodalash mashuliyati shaklning -adi qismiga yuklatilgan bo'lib, -gan qismida esa xarakatni turg'unlashtirish va fe'lni hokim so'zga bog'lash vazifasi qoladi. Misollar: 1. *Eng yaxshio'qiydiganzehrli bolalarni doskaga chiqarish kerak.* 2. *Bu akam bilan Ustaxo'janing katta o'g'lituradigan xona ekan.*

Sifatdosh shakllarining ma'noviy munosabatlari quyidagicha. Shakl UGMsida kategorial ma'no «fe'lni fe'l yoki otga bog'lash» bo'lib, undagi yondosh ma'no «fe'lga sifatlik (atributiv) belgisini berish»dir. Shakl turlari «tegishli keyingi fe'ldan anglashilgan harakatdan oldin sodir bo'lish» belgisi asosida farqlanadi. [-gan] shaklida mazkur belgi ijobiy. [-yotgan], [-adigan/ydigan]shakl turlarining bu belgiga munosabati majhul. Chunki ularning asosiy xususiyati tegishli fe'ldan anglashilgan harakatdan keyin yoki u bilan bir vaqtda sodir bo'lish bo'lsa-da, ba'zan kontekst talabi bilan oldin yuz bergan harakatni ifodalashi ham mumkin. Misol: *Ishlayotgan kishilarni keyinchalik mukofotga taqdim etasiz.*[-adigan/ydigan]shakl

turining «doimiylik» belgisi ham uni mazkur belgiga befarq, majhul, noaniq munosabatli qilib qo'yadi.

Demak, ma'lum bo'ladiki, sifatdosh ham ravishdosh kabi o'z mikrosistemi ichida sifatdoshlik (harakatni barqarorlashtirish, fe'lni otga va qisman fe'lga bog'lash) belgilarini muayyanlashtirish, ixtisoslashtirish jihatidan emas, balki o'zga kategoriyalarning zamon, tarz kabi ma'nolarini ifodalashga ixtisoslashishi jihatdan farqlanadi. [-gan], [-yotgan], [-adigan/ydigan] qo'shimchalari turli xil sifatdosh emas, balki o'zgalovchi kategoriyaning shakli sifatida namoyon bo'ladigan bitta sifatdosh shaklining boshqa kategoriyalarga xos tajalli ma'nolar bilan farqlanuvchi ko'rinishlari.

Harakat nomi shakli va uning turlari. O'zbek tilshunosligida harakat nomi shakli sifatida quyidagi ko'rsatkichlar farqlanadi: [-moq]; [-(i)sh]; [-maslik]; [-(u)v]; [-ganlik]; Bu shakllar sirasida [-(u)v], [-ganlik] shakllarining keng istehmolli va jonli nutqqa xos emasligi ularni to'la ma'nodagi harakat nomi shakli sifatida qarashga monelik qiladi.

[-moq] shakli nisbatan kam qo'llanadi va harakat nomining adabiy til ko'rinishi, lug'at shakli sifatida qaraladi: *Bosmachilarning vahshiyliги odamlarga ma'lum: odamlarnikesmoq, osmoq, tiriklay kuydirmoq.* (S.Ahm.) Bu harakat nomining boshqa shakllardan uslubiy qo'llanilishi bilangina farqlanadi.

[-(i)sh] affiksli harakat nomi quyidagi ma'noga ega:

a) harakatning nomi, atamasi: **Ketishi ham, ketmasligi ham noma'lumligini aytdi.** (Mirm.)

b) ish, mashg'ulot ma'nosi: (*shudgorlash*), (*o'g'itlash*), (*ishlash*);

v) odatdagi ot ma'nosida: (*cho'ish*), (*jilmayish*), (*kelish*), (*ketish*).

Bu shakl [-lik] qo'shimchasi bilan ko'p hollarda tilning diniy nutq ko'rinishida uchraydi: (*aytishlik*), (*kelishlik*), (*borishlik*) kabi.

Harakat nomining bo'lishsiz shakli [-maslik] ko'rsatkichi orqali hosil qilinadi: (*bormaslik*), (*kelmaslik*) kabi.

Harakat nomi otga xos barcha sintaktik vazifada kela oladi.

O'zgalovchi kategoriya shakllari bo'lmish ravishdosh, sifatdosh va harakat nomi ma'noviy va sintaktik jihatlarining darajasi bilan farqlanadi. Bu darajali ziddiyatning belgisini «lug'aviy ma'noni o'zgalash» tashkil etadi. Bu ravishdoshda kuchsiz, sifatdoshda o'rtacha va harakat nomida kuchli. Agar belgi «sintaktik munosabatni ifodalash» tarzida bo'lsa, ravishdosh kuchsiz, sifatdosh yana o'rtacha, ravishdosh kuchli a'zo sifatida yuzaga chiqadi. Demak, sifatdoshda ma'noviy va sintaktik o'zgalash o'zaro muvofiq.

Fe'ning harakat tarzi kategoriyasi. fe'ning nokategorial shakllari tizimi.

Harakat tarzi kategoriyasi. Formal o'zbek tilshunosligida harakat tarzi shakllari morfologik kategoriya sifatida qaralmas va bu hodisaga nisbatan *ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi*, *ko'makchi fe'l* atamaları qo'llanar edi. Birinchidan, harakatning tarzi faqat ko'makchi fe'l bilangina emas, [**ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l**] morfologik qolipi hosilasi asosida yuzaga chiqadi. Ko'makchi fe'l ushbu shaklning bir qismi, xolos. Shu boisdan ilmiy tadqiqot, darslik va grammatikalarda ko'makchi fe'l ma'nosi haqida so'z ketganda, uning ravishdosh shakli yordamida yuzaga chiqishi ta'kidlanadi. Ikkinchidan, *ko'makchi fe'li so'z qo'shilmasi* atamasidagi *qo'shilma* unsuri so'z birikmasidan teng munosabatlilik belgisi asosida farqlanuvchi *so'z qo'shilmasi* (*olma va anor*, *kitob va daftar*, *gulu lola*) sintaktik hodisasi bilan nisbiy omonimlik kasb etadi. Holbuki, harakat tarzi sintaktik emas, balki morfologik hodisa.

Uchinchidan, harakat tarzi shakllari morfologik kategoriyaga berilgan ta'rifga «sig'adi».

Tilda ikki tur qolip ajratiladi:

1) derivatsion qolip; sintaktatik qolip.

Biroq tekshirishlarda [**ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l=harakat tarzi**] qoliplari e'tibordan chetda qoldiriladi. Ma'lumki, [**ravishdosh shakli+fe'l**] qolipi orqali fe'lli birikishlar ham yuzaga keladi va bu qolip ko'plab nutqiy hosilani birlashtiradi. Mazkur so'z birikmalariga shakldosh turuvchi va umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan harakat tarzi shakli qolipi ham lisoniy morfologik qolip sifatida ajratilishi mumkin. Masalan, *o'qiy oladi, borib ko'rva topa qol* misollaridagi farqlar e'tibordan soqit qilinganda, lisoniy morfologik umumiylik sifatida [**ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l**] qolipi tiklanadi. Bunda lisoniy morfologik qolip o'zining shakliy va mazmuniy tomoniga ham ega bo'lib, [**ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l=harakat tarzi**] qolipining chap qismi uning shakliy tomonini tashkil etsa, o'ng qismi esa uning mazmuniy tomoni.

[**ravishdosh shakli+ko'makchi fe'l**] qolipi barcha harakat tarzi shakllari uchun yagona lisoniy morfologik qolip bo'lsa-da, ichki bo'linishlarda esa kichik qoliplarga ajraladi:

1) birikish doirasi tor harakat tarzi shakllari: [-a/y+bor], [-(i)b+bit (bitir)], [-(i)b+et], [-a/y+ket], [-(i)b+o'l], [-a/y+ko'r], [-(i)b+boq], [-(i)b+boshla], [(i)b+ur], [-a/y+tur], [-(i)b+tuga];

2) birikish doirasi keng harakat tarzi shakllari: [-a/y+boshla], [-(i)b+yot], [-(i)b+tur], [-(i)b+yur], [-(i)b+o'tir], [-(i)b+bor], [-(i)b+kel], [-(i)b+bo'l], [-(i)b+chiq], [-(i)b+o't], [-a/y+ol], [-(i)b+ol], [-(i)b+ber], [-(i)b+qol], [-a/y+qol], [-(i)b+qo'y], [-(i)b+ket], [-(i)b+yubor], [-(i)b+tashla], [-(i)b+sol], [-a/y+sol], [-(i)b+tush], [-(i)b+ko'r], [-(i)b+qara], [-a/y+bil], [-a+yoz], [-a/y+ber].

Endi esa o'zi birikuvchi fe'l leksemalarga qo'shilib, soddalashish holatidagi harakat tarzi shakllarini kuzatamiz:

1) qo'shimchalashayotgan harakat tarzi shakllari: [-a/y+ber], [-a+yoz], [-a/y+ol], [-(i)b+yubor];

2) qo'shimchalashgan harakat tarzi shakli: [-a/y+yot]. Shuningdek, nutqda yetakchi fe'llarga ravishdosh shakllarisiz juftlashgan holatda birikuvchi ko'makchi fe'llar soni 6 ta bo'lib, ular quyidagilar: [ol], [ber], [qol], [qo'y], [ket], [tashla]. Nutqda (yozdi-oldi), (aytdi-qo'ydi) juftlashuvchi shakllari bilan birgalikda *tashladi-vordi* kabi ko'makchi fe'l ham uchrab turadi. Bunday misollar, asosan, so'zlashuv uslubiga xos.

Harakat tarzi kategoriyasining ichki bo'linishlari. Harakat tarzi shakllarining UGMsini ochishda, kategorial xususiyati va paradigmatic munosabatini oydinlashtirishga ularning tarkibli, ya'ni [qo'shimcha+fe'l leksema] tuzilishga ega ekanligi ham ma'lum darajada monelik qilishi tabiiy. Chunki bunda masalani murakkablashtiruvchi bir necha holat mavjud:

1) shaklda uni o'ziga biriktirayotgan leksemaning ham, ravishdosh shaklining ham, shuningdek, ko'makchi fe'lning ma'nolari ham qorishgan holda voqelanib, umumiy tarz ma'nosining ko'rinishini murakkablashtirishi;

2) harakat tarzi shaklini hosil qilishda ishtirok etayotgan ko'makchi fe'llar ma'nolarining mustaqil qo'llanishidagi lug'aviy ma'nolari bilan aloqasining mavjudligi va bu aloqaning turli daraja va ko'rinishda ekanligi;

3) ravishdosh ko'rsatkichining ham, ko'makchi fe'lning ham ma'noviy murakkabligi, serqirra mohiyatligi harakat tarzi shaklining ham ko'p ma'noviligini keltirib chiqarishi va shaklni ayni bir ma'no ifodalovchi vosita sifatida muayyan paradigmaga kiritish imkoniyatining cheklanganligi.

Ma'lum bo'ladiki, harakat tarzi shakllari garchi "tarz" umumiy grammatik ma'nosi ostida birlashsa-da, ularni boshqa grammatik kategoriyalarda bo'lgani kabi, shakllardan kelib

chiqqan holda paradigmatic tahlil qilish imkoni cheklangan. Shu boisdan harakat tarzi shakllari paradigmasi lisoniy tizim sifatida tahlilga tortilar ekan, “xususiylikdan umumiylikka” yo’nalishida emas, balki “umumiylikdan xususiylikka” tamoyili asosida ish ko’rmoq lozim bo’ladi.

Harakat tarzi shakllarining XGMLari ham bevosita nutq bilan bog’liq bo’lib, ular faqat nutqiy hosilalardagina o’zining XGMLarini yuzaga chiqaradi. Harakat tarzi shakllarining UGMsi esa bevosita kuzatishda berilmagan bo’lib, tayyorlik, umumiylik, majburiylik, barqarorlik kabi xususiyatga ega. Harakat tarzi shakllarining UGMsi xususiyliklarning umumiy xossalari sifatida mazkur xususiyliklarda yashaydi va ular orqaligina nutqda reallashadi.

Harakat tarzi shakllarining xususiylashuvi umumiy grammatik ma’noning muayyan xossalari asosida shakllanadi. Har qanday hodisa ko’plab mohiyatlar zarrasidan iborat bo’lganligi sababli, nutqda qo’llanilgan muayyan so’zshaklda turli UGMning XGMsi sifatida yuzaga chiqqan zarralar mavjud bo’lib, ular nutqiy alohidalik sifatida so’zshakllarda shunday zich birlashganki, ko’p holda ularni bir-biridan ajratish qiyin.

Miqdorani ellikdan ortiq shaklni o’z ichiga qamrab olgan harakat tarzi shakllari, aytilganidek, “tarz” umumiy grammatik ma’nosi ostida birlashadi. Bu umumiylik muayyan nutqiy qo’llanishgacha bir necha oraliq bosqichni bosib o’tadi. Birinchi bo’linishi ikki a’zoli bo’ladi:

a)“jarayonlilik”; b)“qobiliyat”.

Ikkinchi bo’linish – oraliqlanishda “jarayonlilik” oraliq ma’nosi:

a)“ish-harakatning boshlanishi”; b)“ish-harakatning davomiyligi”; v)“ish-harakatning tugallanganligi” oraliqlanishlariga ega bo’ladi. “Qobiliyat” oraliq ma’nosi: a)“qodirlik”; b)“sinash” parchalariga bo’linadi. O’z navbatida ikkinchi oraliq ma’nolar yana parchalanadi.

Ma’lumki, o’zbek tilida shu kungacha eng katta morfologik paradigma sanalgan zamon kategoriyasi 18 a’zodan iborat. Hajman undan-da katta bo’lgan, qariyb 50 ga yaqin a’zoni o’z ichiga olgan harakat tarzi shakllari paradigmasini “tarz” umumiy grammatik ma’nosi ostida birlashtirish mumkin.

Harakat tarzi kategoriyasi fe’l tasniflovchi kategoriyalari sirasida nisbat va bo’lishli-bo’lishsizlikdan keyin joylashadi. Chunki fe’lning bu kategoriyaga munosabati doimiy emas. Aniqrog’i, barcha fe’llarda tarz ma’nosidan biri voqelanishi shart emas.

Savol va topshiriqlar:

1. Fe’lning mustaqil so’z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini tushuntiring.

2. Fe’lning umumiy grammatik ma’nosini tavsiflang.

3. Fe’lning qanday lug’aviy-grammatik guruhlari mavjud?

3. Fe’lning tasniflovchi kategoriyalari deganda nimalarni tushuntiring.

4. Fe’lning o’zgalovchi kategoriyasi va uning shakllariga tavsif bering.

5. Fe’lning harakat tarzi kategoriyasi tarkibini tushuntiring.

4-SEMESTR

1-mavzu: OT SO`Z TURKUMI

REJA:

1. Ot va uning o'rganilish tarixi.
2. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari.
3. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlari.
4. Otning tasniflovchhi kategoriyasi.
5. Otning nokategorial shakllari.

Tayanch so'zlar: *ot, UGM, XGM, OGM, LGG, tasniflovchi kategoriya, son kategoriyasi, sintetik usul, analitik usul, leksik usul, morfologik usul, leksik-morfologik usul, mantiqiy ko'plik, grammatik ko'plik, nokategorial shakllar, noparadigmatik affiks, kichraytirish, erkalash, xoslik, leksik tabiatli morfemalar, ko'makchilar, kichraytrish, erkalash, qarashlilik.*

Kim, nima, qayer so'roqlariga javob bo'lib, mavjudot, narsa, joy, voqea, jarayonni atovchi leksik birlik – ot. «Borliq yoki uning parchasini predmet sifatida atash» - ot turkumining UGMsi. Bunda *predmet* tushunchasi mantiqiy emas, balki grammatik mohiyatga ega. Mantiqan jonsiz va bevosita sezgi a'zosiga ta'sir etuvchi narsa predmet deyiladi. Grammatikada esa u keng ma'noda tushuniladi, «mavjudlik» mohiyatiga ega deb qaraladi.

Ot so'z turkumi sifatida o'ziga xos morfologik paradigmaga, yasalish tizimiga, xoslangan sintaktik pozitsiyalariga ega.

Otning UGM parchalanishiga ko'ra turlari. Otni ma'no jihatidan turlicha tasnif qilish mumkin. Bu o'rinda ularning grammatik xususiyatini muayyanlashtiruvchi semantik belgi asosga olinadi. Ot quyidagi xususiyatiga ko'ra tasnif qilinadi:

1. Bir turdagi predmetdan birining nomini yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra.

2. *Kim* yoki *nima* so'roqlariga javob bo'lishiga ko'ra.

3. Sanalish-sanalmasligiga ko'ra.

Ot borliqdagi bir turdagi predmetdan birining yoki shu turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirishiga ko'ra *atoqli* va *turdosh* otga bo'linadi.

Atoqli va turdosh ot. Atoqli ot bir xil predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatishga xizmat qiladigan ikkilamchi nom. Masalan, *bola* bir turdagi predmet(shaxs) ning umumiy va birlamchi nomi. *Sherzod* ana shu bir xil predmet(shaxs)dan birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan va *bola* atamasidan keyin qo'yilgan ikkilamchi nom.

Atoqli ot quyidagi lug'aviy mavzuviy to'da (LMT) ga ega:

1. Kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: [*Ikrom*], [*Otabek*]; [*Jumaev*], [*Xudoynazarov*]; [*Imomzoda*].

2. Jo'g'rofiy nom: [*O'zbekiston*], [*Dehqonobod*], [*Hisor*], [*Tanxozdaryo*].

3. Tashkilot, muassasa, korxon nomi: [*Qarshi universiteti*], [*Xalq tahlimi vazirligi*], [*Nasaf ziyosi*»jurnali].

4. Samoviy yoritqichlar nomi: [*Mushtariy*], [*Zuhro*], [*Yupiter*], [*Yarqiroq*].

5. Tarixiy hodisa nomi: [*Mustaqillik kuni*], [*Loy jangi*], [*Boston choyxo'rligi*].

6. Hayvon nomi: [*Boychibor*], [*Brendi*], [*Yo'lbars*].

7. Mahsulot nomi: [*Siltama*] (go'shtli ovqat), [*Qoraqum*] (shokolad) [*Chiyal yaxnasi*].

8. Ilohiy tushunchani ifodalovchi nom: [Alloh], [Do'zax], [Iso], [Buroq].

Atoqli ot matndan, nutq vaziyatidan uzilgan holda atash ma'nosiga ega bo'lmaydi, faqat kontekstda reallashadi. Masalan, [Sanam] so'zining atoqli yoki turdosh ekanligi shu so'zni qurshab turgan so'z yordamida anglashiladi. Bu jihatdan atoqli ot olmoshga o'xshab ketadi.

Atoqli otning aksariyati turdosh ot va boshqa turkum so'zi asosida vujudga kelgan. Turdosh otdan: [Asal], [Dilshoda], [Rayhon], [Anor]; fe'ldan: [Sotiboldi], [O'lmas], [Itolmas], [Turdi]; sifatdan: [Shirin], [Buyuk], [Aziz], [Ulug']; sondan: [Etmishboy], [Saksonboy]kabi.

Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomini bildiruvchi ot *turdosh ot* deyiladi. Turdosh ot ot turkumiga kirgan so'zning asosiy qismini tashkil etadi: [tog'], [qishloq], [mashina], [sevgi], [muhabbat]. Turdosh otda predmetlik va belgilik xususiyati yaxlitlashgan holda mavjud bo'ladi. Chunki har qanday narsa – belgi-xususiyat majmui.

Atoqli va turdosh ot nafaqat lug'aviy semantikasi, balki grammatik xususiyati bilan ham farqlanadi. Masalan, atoqli ot, asosan, birlik sonda qo'llanadi. Ko'plik son shaklida butunlay boshqa ma'no bo'yog'iga ega bo'ladi: **Farhodlar keldi kanal qazmoqqa.** (Turs.)

Turdosh ot atoqli otdan hosil bo'lishi ham mumkin: [muslimka], [xosiyatxon], [rentgen], [am'er].

Turdosh ot ifodalangan tushunchaning xarakteriga ko'ra:

- a) muayyan;
- b) mavhum otlarga bo'linadi.

Muayyan va mavhum ot. Sezgi a'zosibilan sezish mumkin bo'lgan predmetni atovchi – ot muayyan ot. Muayyan otni bevosita sanash mumkin. Shuning uchun bunday ot sanoq son bilan munosabatga kirishadi. Shuningdek, shaxsiy baho shakli, ko'plik qo'shimchasini olishi mumkin: (*beshta daftar*), (*yuzlab odam*), (*o'g'ilcha*), (*qizgina*).

Muayyan ot quyidagi LMTga ega:

1. Modda nomi: [oltin], [kumush], [qum], [suv].
2. Shaxs tavsifi nomi: [yigit], [chol], [o'zbek], [tojik], [cho'loq], [kasal], [ota], [ona].
3. Buyum nomi: [qalam], [kitob], [cho'mich], [kosa], [gilam], [sholcha].
4. O'simlik nomi: [daraxt], [buta], [o't], [jiyda], [ildiz].
5. O'rin-joy nomi: [qishloq], [shahar], [sahro], [adir].
6. Miqdor nomi: [misqol], [tonna], [botmon], [chaqirim].
7. Tashkilot va muassasa nomlari: [maktab], [idora], [do'kon], [bozor].
8. Vaqt-payt nomi: [kun], [fasl], [tong], [kecha].

Bu har bir LMT o'z ichida bir necha lug'aviy-ma'noviy guruh (LMG) ga bo'linib ketadi. Masalan, shaxs tavsifi nomi quyidagi LMGga ajraladi:

1. Shaxsni yosh jihatdan tavsiflovchi LMG: [chol], [qari], [o'smir], [o's'irin].
2. Shaxsni qarindoshlik jihatdan tavsiflovchi LMG: [o'a], [ona], [singil], [egachi].
3. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflovchi LMG: [ishchi], [dallol], [dehqon], [suvchi].
4. Shaxsni istiqomat jihatdan tavsiflovchi LMG: [qishloqi], [toshkentlik], [shaharlik].
5. Shaxsni tashqi belgilari jihatdan tavsiflovchi LMG: [bukri], [novcha], [akana];
6. Shaxsni ruhiy holati jihatdan tavsiflovchi LMG: [jinni], [ovsar], [dovdir], [ezma].
7. Shaxsni ijtimoiy jihatdan tavsiflovchi LMG: [boy], [kambag'al], [xasis], [ziqna].

Boshqa LMT ham shunday LMGga bo'linadi. Masalan, «Hayvon nomi» LMTsi LMG lari: «qoramol» LMG, «ot» LMG, «qo'y» LMG, «echki» LMG, «it» LMG, «eshak» LMG, «tovuq» LMG va h.

Muayyan ot LMG lari nisbatan barqaror va o'ta keng, deyarli cheklanmagan va o'zgaruvchan qurshovdan iborat. LMG markazidagi leksemalar o'zaro giponimik, **partonimik**, graduonimik, funksionimik, ierarxionimik munosabatlarda yashaydi. Masalan, [*araxt*] leksemasi quyidagi jins-tur munosabati: [*qayin*], [*tol*], [*o'rik*], [*terak*], [*majnuntol*], [*archa*]. Funksionimik asosda tuzilgan LMG ancha oz: [*qalam*], [*ruchka*].

Shaxs tavsifi oti esa keng graduonimik munosabatga egaligi bilan ajralib turadi.

Mavhum ot turli narsada mavjud bo'lgan bir xil yoki o'xshash sifatni bir alohidalik tarzida ifoda etadi. Masalan, [*olma*], [*qovun*], [*shakar*], [*qand*] otining muhim sifat belgisi «shirinlik» bo'lsa, [*shirinlik*] mavhum otida yuqoridagi narsalarda mavjud bo'lgan umumiy belgi bir alohidalik sifatida beriladi. Shuning uchun muayyan va mavhum otning farqli tomoni faqatgina ularning haqiqiy ([*kitob*], [*olma*], [*eshik*]) yoki xayoliy ([*sevgi*], [*ishq*], [*shirinlik*]), umumiy va yakka narsani ifodalashi emas, balki belgi, sifat ma'nosining qay usulda talqin etilishi ham.

Ot birlik shaklda bir turdagi predmetlarning o'zini (*yakka ot*) yoki predmet to'dasini (*jamlovchi ot*) bildirishiga ko'ra ham farqlanadi.

Yakka va jamlovchi ot. Bir turdagi predmetning o'zini bildiruvchi ot yakka ot deyiladi: [*kitob*], [*uy*], [*daraxt*]. Jamlovchi ot birlik shaklda ham predmetlar majmuini anglatadi: [*armiya*], [*ko'pchilik*], [*xalq*]. Lekin bunday ot semantik ko'plikda bo'lsa-da, grammatik birlikda deyiladi.

Ot leksemalar turkumi bayonida bunday leksemalarga sonlash, nisbatlash, turlash paradigmalarining morfemalari, shuningdek bir necha noparadigmatik morfemalar qo'shilishi ta'kidlandi. Ot leksemashakllar ana shu morfemalarning ot leksemaga ma'lum qoida asosida birin-ketin qo'shilishi bilan hosil qilinadi. Ot leksemashakllarning (OL) eng sodda tarkibi "leksema -sonlovchi-turlovchi" ko'rinishiga ega. Ot leksemashaklning ana shu qolipda tuzilgan ko'rinishi nutqda eng ko'p ishlatiladi. Ushbu qolipda qatnashadigan morfemalar paradigmasini chizmada quyidagicha ko'rsatish mumkin: Ko'rinadiki, bu qolip asosida ot leksemashaklning leksema va morfemalar bilan to'ldirilgan ko'rinishi yuzaga keladi: birlik kelishik va ko'plik kelishik: *kitob*, *kitobning*, *kitobni*, *kitobdan*, *kitobga*, *kitobda*; *kitoblar*, *kitoblarning* va b.

Ot leksema predmet ma'nosini anglatadi turib yuqoridagi sonlash va turlash paradigmalarining ko'rsatkichlarini olgan holda leksemashaklga aylanadi. Ot leksema sonlovchi qo'shilishi uchun asos – sonlash asosi bo'ladi, sonlovchi qo'shilgan leksema esa turlovchi qo'shilishi uchun asos – turlash asosi bo'ladi: k i t o b l a r n i ot leksema morfema, sonlovchi, ko'plik shakli morfema, turlovchi, tushum asos, sonlash asosi kelishigi shakli t u r l a s h a s o s i o t l e k s e m a s h a k l Bu qolipda qaysi turlovchining qatnashuvini boshqa bir leksema bilan sintaktik bog'lanish belgilaydi (Bu haqda o'z o'rnida gapiriladi). Sonlovchi odatda obyektiv voqelikka ko'ra tanlab qo'shiladi. Shu bilan birga qaysi sonlovchining qo'shilishi ot leksemaga, uning ma'no turiga bog'liq. Bu yerda leksema bilan unga qo'shiladigan sonlovchi morfema orasidagi zich sintagmatik munosabat mavjud bo'lib, leksemaning unga qaysi sonlovchi qo'shilishini va bunda qanday ma'no ifodalanishini belgilashi ochiq ko'rinadi. Shuni hisobga olib avval ot leksemalarning ma'no turlari bilan tanishish lozim.

Ot leksemalar ma'no turlariga bir necha nuqtayi nazardan tasnif qilinadi. Ot leksemalarni eng yirik tasniflash *kim*, *nima* so'roqlari asosida amalga oshiriladi: *kim* so'rog'iga javob bo'ladigan ot leksemalar kishi otlari deyiladi: *o'qituvchi*–, *talaba*–, *makler*– kabi; ot leksemalarning qolgan qismi *nima* so'rog'iga javob bo'lib, narsa otlari deyiladi: *imtihon*–, *iqtisod*–; *qush*–, *qo'zi*– kabi.

Sharq olamida, shu jumladan o'zbeklarda borliq kishi va nokishi deb ikkiga ajratiladi; shunga ko'ra nokishi tushunchasi ostiga jonsiz predmetlar bilan birga jonli predmetlar ham mansub deb tushuniladi. Ko'rinadiki, o'zbek tilida ot leksemalarning kishini va nokishini anglatishiga ko'ra tasniflanishi rus tilidagi jonli va jonsiz deb tasniflashdan farq qiladi.

Bir turdagi predmetlarning barchasini nomlashi yoki bittasini atashi, ajratib ko'rsatishiga ko'ra ot leksemalar turdosh ot va atoqli ot deb tasnif qilinadi. Bunday tasnif yuqoridagi tasnifga parallel holda amalga oshiriladi. Turdosh ot turni turdan ajratadi: *qalam-*, *bin-* kabi. Atoqli ot aniq bir kishi yoki predmetning atamasi bo'lib, bir turdagi predmetlardan birini boshqalaridan farqlashga xizmat qiladi. Atoqli otlar o'z navbatida bir necha ma'no turiga ajratiladi: 1) leksik ma'no anglatmaydigan, shartli tamg'a sifatida ishlatiladigan atoqli otlar: a) kishi ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi: *Abror Hidoyatov-*, *Komil Yashin-*, *Aleksandr Sergeyevich Pushkin-* kabi. Bunday atamalar asli leksik ma'no anglatgan, atoqli otga aylanganidan keyin esa leksik ma'no anglatishi so'ngan; shunga ko'ra bunday atoqli otlar leksemalar qatoriga shartli ravishda kiritiladi; b) uy hayvonlariga qo'yiladigan ismlar: *Olapar-*, *Mosh-* kabi; d) hozir ma'nosini izohlab bo'lmaydigan geografik nomlar: *Hadra-*, *Quva-* kabi. *Mirzacho'l-*, *Yangiyer-* kabi joy nomlari tarkibidagi qismlar o'z leksik ma'nosini yo'qotmagan, shu tufayli bunday geografik nomdan leksik ma'no anglashiladi; e) tashkilot, muassasaga shartli birkirilgan kishi yoki narsa nomlari: *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU-*, *"G'uncha" nomli kinoteatr-* kabi. Bu yerda *nomidagi* leksemashaklini kishi atoqli otidan keyin, *nomli* leksemashaklini esa boshqa hollarda ishlatish lozimligini unutmash kerak; kishi atoqli otidan keyin *nomli* leksemashaklini *Navoiy nomli ko'cha* tarzida ishlatish xato, *Navoiy nomidagi ko'cha-* yoki *Navoiy ko'chasi-* deb ishlatish to'g'ri. 2) Atoqli otlarning quyidagi turlarida leksik ma'no o'z kuchini saqlaydi: a) davlat tashkilotlari, idora va muassasalarning nomlarida; bular odatda turg'un birikmaga teng bo'ladi: *O'zbekiston Respublikasi-*, *O'zbekiston Milliy universiteti-* kabi; b) gazeta, jurnal, kitob nomlari: *"Ma'rifat"*, *"Jahon adabiyoti"*, *"Ikki eshik orasi"* kabi va b. Atoqli ot turdosh ot yoki boshqa turkum leksemasi (leksemashakli) asosida yuzaga keladi, lekin atoqli otlarning ko'pida ularning asl ma'nosini tiklash, izohlash imkoniyati yo'qolgan bo'ladi, tarixiy-etimologik izlanishlar bilangina ularning asl ma'nosi izohlanadi. Masalan, *Chorsu-* atoqli otining qanday ma'noli qismlardan tuzilganini, shunga ko'ra asli qanday ma'no anglatganini hozirgi o'zbek tili asosida izohlab bo'lmaydi. Bu leksema asli tojikcha *chahor-* ("to'rt") sanoq soni va *so'* ("yo'nalish") turdosh ot leksemasidan tarkib topgan bo'lib, asli «to'rt yo'nalish» ma'nosini anglatgan; keyinchalik ana shunday to'rt yo'l (ko'cha) boshlanadigan joyning atoqli otiga aylangan. Bu leksema hozirgi tojik tilida turdosh ot sifatida mavjud; o'zbek tiliga *o'* tovushini *u* tovushiga almashtirib qabul qilingan (chunki *o'* tovushi o'zbek tilida ikkinchi va undan keyingi bo'g'inda kelmaydi): *chorso'-* > *chorsu-* (*chahor*leksemasi *chor-* shakliga tojik tilining o'zida o'tgan).

Atoqli otlarning bir qismida ular asosida yotgan leksik ma'noni bemalol izohlash mumkin. Masalan, *Olmos-* atoqli oti «shaffof, yaltiroq qimmatbaho tabiiy tosh» ma'nosini anglatuvchi *olmos-* turdosh otining, *O'tkir-* atoqli oti «yaxshi kesadigan» ma'nosini anglatuvchi sifatning, *Tursin-* atoqli oti *tur* fe'lining «yasha-» ma'nosi bilan hosil qilingan buyruq mayli III shaxs shaklining kishiga nom sifatida qo'yilishidan iborat.

Turdosh otlar o'z navbatida ma'no turlariga quyidagicha ajratiladi: 1. Dona otlari va jam otlari: *yigit, qiz-*; *yigit-qiz-* kabi. Predmetlarni jamlab anglatish juft leksemalarga xos xususiyat bo'lib, shu jihati bilan nojuft otlarga zid qo'yiladi. 2. Jisimiy (konkret) va fikriy (abstrakt) otlar: *daraxt-*, *mikrofon-*; *jahl-*, *ozodlik-* kabi. Jisimiy otlar anglatadigan predmetni odatda ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'ladi; fikriy otlar anglatadigan predmet tasavvur qilinadi. 3. Yakka

otlar va noyakka otlar: *qaldirg'och-*, *xizmatchi-*; *ko'z-*, *etik-* kabi. Noyakka otlar o'z navbatida quyidagi ma'no turlariga ajratiladi: 1) yakka-qo'sh predmetni anglatadigan otlar: *quloq-*, *qo'l-* kabi. Bunday ot yakka predmetni ham, qo'sh predmetni ham anglatish uchun ishlatiladi; muhim belgisi - qo'sh predmetni anglatishi; 2) yakka-ko'p predmetni anglatadigan otlar: *soch-*, *kiprik-* kabi. Bunday otlar yakka predmetni ham, ko'p predmetni ham anglatadi; muhim belgisi ko'p predmetni anglatishi; 3) predmetni to'da sifatida anglatadigan otlar: *o'rmon-*, *olomon-* kabi. Bunday ot doim bir qancha predmetni yaxlit to'da sifatida anglatadi. 4. Sanaladigan predmetlarning oti va sanalmaydigan predmetlarning oti deb ajratiladi. Turdosh otlarning asosiy qismini sanaladigan predmet otlari tashkil qiladi; sanalmaydigan predmetni anglatadigan otlar oz bo'lib, asosan modda nomlariga to'g'ri keladi; *qum-*, *muz-*, *tutun-* kabi.

Ot leksemalarning yuqorida tasvirlangan turlari ma'lum darajada ularning grammatik tabiatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tuslanish kishi otlariga mansub bo'lib, narsa otlari o'z mohiyatini saqlab turib tuslanmaydi, faqat III shaxsda ishlatiladi: *talabaman*, *talabasan*, *talaba*; lekin *imtihon-* faqat III shaxs shaklida ishlatiladi. Leksema bilan morfemaning o'zaro ta'siri quyida sonlash morfemalari misolida tasvirlanadi.

1. Kishi atoqli otlari bir kishining ismi sifatida sonlash paradigmasining asosan birlik shaklida ishlatiladi. Bunday atoqli otga *-lar* affiksi qo'shilganida sof ko'plik («bir necha») ma'nosi emas, balki «ma'lum bir kishi va uning qurshovidagi boshqa kishilar» ma'nosi ifodalanadi: *Komilalar-*, *Kattayevlar-* kabi. Kishi turdosh otlarining asosiy qismini dona otlari tashkil qiladi, bunday otlar sonlash paradigmasining har ikki shaklida ishlatilaveradi. Ayrim kishi turdosh otlari sonlash paradigmasining faqat birlik shaklida ishlatiladi: a) mavhum noyakka otlar: *xaloyiq-*, *odamzod-*, *cho'ponlik-* kabi; b) faqat yakka shaxsga nisbat beriladigan otlar: *dada-*, *ota-*, *ona-* (o'z ma'nosida) kabi. *Ollo-* leksemasi ham birlik shaklida ishlatiladi.

2. Kishi turdosh otlarining jam (juft) turi o'z ma'nosiga ko'ra sonlash paradigmasining ko'plik shaklida ishlatiladi: *yigit-qizlar-*, *qiz-juvonlar-*, *singillar-*, *oshna-og'aynilar-* kabi.

1. Narsa atoqli otlari sonlash paradigmasining faqat birlik shaklida ishlatiladi: a) planeta nomlari: *Yupiter-*, *Mars-*, *Quyosh-*, *Yer-*, *Oy-* kabi; b) joy nomlari: *Toshkent-*, *Zangota-*, *Hadra-* kabi. Bunday atoqli otlar *-lar* affiksi bilan ishlatilsa, «shunday ataladigan joy va uning atrofi» ma'nosi ifodalanadi; v) tashkilot, idora, gazeta, jurnal nomlari: *O'zbekiston Milliy universiteti-*, *"Ma'rifat" gazetasi-*, *"G'uncha" kinoteatri-* kabi.

2. Narsa turdosh otlari asosan sonlash paradigmasining har ikki shaklida ishlatiladi. Bunday otlarning quyidagi ma'no turlari odatda faqat birlik shaklida ishlatiladi: a) *un-*, *guruch-*, *yog'-* kabi oziq-ovqat mahsulotlarining nomlari; b) *oltin-*, *kumush-*, *mis-* kabi ma'dan nomlari; d) *qum-*, *muz-* kabi sanalmaydigan jism nomlari. Bu uch tur narsa otlari *-lar* affiksi bilan ishlatilsa, «turli xil», «mo'l» ma'no qirradi ifodalanadi; e) *yurak-*, *bosh-* kabi har kishida bitta bo'ladigan a'zoning nomlari; bunday otga *-lar* affiksi qo'shilsa, «kuchaytirish» ma'nosi ifodalanadi; f) mavhum otlar: *aql-*, *dil-*, *iloj-*, *ishonch-*, *kayfiyat-*, *oriyat-*, *sukunat-*, *qiyamat-*, *g'azab-*, *halovat-* kabi; g) *haq[i]da*, *to'g'ri[si]da*, *ust(i)da*, *old(i)da* kabi ko'makchi otlar; h) jam (juft) mavhum otlari: *kuch-qudrat-*, *sihat-salomatlik-* kabi va b.

Yuqoridagi tasvirdan ayon bo'ladiki, leksemaning ma'no jihati bilan sonlash paradigmasi orasida zich sintagmatik munosabat mavjud: sonlash paradigmasining shakllari ot leksemaning ma'no jihatiga monand holda qo'shiladi va shu asosda turli ma'no qirralari ifodalanadi. Ushbu ot leksemashakl qolipida leksemaning oxirgi tovushi bilan morfemaning bosh tovushi orasida ham zich sintagmatik munosabat voqe bo'ladi: leksema oxiridagi *g*, *g'* tovushi bilan morfema boshidagi *g* tovushi o'zaro ta'sir qilib, *kk*, *qq* tovushlariga aylanadi, natijada *g* fonemasining *k* allofonemasi, *g'* fonemasining *q* allofonemasi voqe bo'ladi: *barg*□*ga* > *barkka* (*bargga*

yoziyadi), *pedagog*□*ga* > *pedagogka* (*pedagogga* yoziyadi), *bog*‘□*ga* > *boqqa* (*bog*‘*ga* yoziyadi), *cho*‘g‘□*ga* > *cho*‘*qqa* (*cho*‘g‘*ga* yoziyadi) kabi. O‘zaro ta'sir leksema oxiridagi *d* tovushi bilan morfema boshidagi *d*, *g* tovushi orasida ham yuz beradi, natijada *d* fonemasining *t* allofonemasi, *g* fonemasining *k* allofonemasi voqe bo‘ladi: *daromad* □*dan* > *daromattan* (*daromaddan* yoziyadi), *daromadga* > *daromatka* (*daromadga* yoziyadi) kabi.

Otning morfologik belgilari va tasniflovchi kategoriyalari. Ot morfologik o‘zgaruvchi so‘z sifatida o‘ziga xos morfologik paradigmalarga ega. Son va subyektiv baho shakllari otning asosiy tasniflovchi grammatik shakllari hisoblanadi.

Son kategoriyasi. O‘zbek tilida bu kategoriya dastlab A.G‘ulomovning “O‘zbek tilida ko‘plik kategoriyasi” asarida (1944) o‘rganilgan.

Otlarda ziddiyat holda bo‘lgan birlik va ko‘plik ma‘nosi va bu ma‘noni ifodalovchi shakllar sistemasi grammatik son kategoriyasini tashkil etadi.

Mantiqiy va grammatik sonni aralashtirmaslik kerak. Masalan, jamlovchi ot ([*xalq*], [*qo‘shin*], [*poda*], [*suruv*]) mantiqan predmet jamini bildiradi, lekin grammatik jihatdan birlikda deb qaraladi.

Son kategoriyasining ikki: [-*lar*] affiksi bilan yasaluvchi shakli va shunga oppozitsiyada bo‘lgan nol ko‘rsatkichli shakli bor. Bularan [-*lar*] affiksi otning ko‘plik shaklini yasaydi, birlik shakl esa nol ko‘rsatkichli shakli.

[-*lar*] shaklining ko‘plikni ifodalashi masalasida barcha tilshunoslar hamfikr. Ammo nol ko‘rsatkichli shakl masalasida har xil qarash bor.

Ko‘p holda nol shakl faqat birlik ma‘nosining ifodalovchisi sifatida qaraladi. Ba‘zilar esa u na ko‘plik, na birlik ifodalashini ta‘kidlab, bu shaklning son kategoriyasi tarkibidagi o‘rniga shubha bilan qaraydi. Zero nol shakl miqdoriy grammatik ma‘no anglatishdan mahrum ekan, unda [-*lar*] shakli bilan aynan bir xil qurshovda o‘rin almashishini qanday tushunish kerak? Unda *Askar o‘rab oldi o‘ngdan-u so‘ldan* (Mirt.) gapida mantiqan (*askarlar*) so‘zshakli ishlatilgan bo‘lur edi.

Demak, [-*lar*]va nol shakl – hozirgi o‘zbek tilida miqdor anglatuvchi grammatik ko‘rsatkich. Bu ular sof miqdor anglatadi, degani emas, albatta. Miqdor belgisi bu shakllarda kategorial ma‘no bo‘lsa, unda sifatiy yondosh va boshqa hamroh ma‘no ham mavjud.

Quyida [-*lar*] shaklining OGMLarini sanaymiz.

«Ko‘plik» [-*lar*] shakli eng ko‘p ifodalaydigan ma‘no. Bunda [-*lar*] UGMsining kategorial ma‘nosi «ko‘plik» bo‘lsa, unga dialektik yondosh bo‘lgan ma‘no – «miqdoriy noaniqlik» va «sifatiy bo‘linuvchanlik». Ya‘ni grammatik ma‘no «bo‘linuvchan noaniq ko‘plik». Demak, «ko‘plik» ma‘nosi ifodalanganda, albatta, o‘z-o‘zidan «noaniqlik» va «bo‘linuvchanlik» ma‘nosi yuzaga chiqishi shart. Bunga misol: *Bog‘da shirin-shirin olmalar bor*. Olmaning ko‘pligi ayon. Ammo uning nechtaligi noaniq va bu ko‘plik bo‘linuvchan (olma+olma+olma...).

«Jamlik» ma‘nosi ba‘zan sezilar-sezilmas, ya‘ni bo‘linuvchanlik xususiyatini saqlagan holda (a) yuzaga chiqsa, ayrim holda, xususan, turg‘unlashib qolgan izofada (b) yaqqol yuzaga chiqadi: a) *kishilar orzusi, qushlar bayrami*; b) *ishchilar sinfi, o‘qituvchilar ro‘znomasi, kitoblar uyi*.

[-*lar*] shaklining «bog‘liqlik yoki o‘xshashlikka asoslangan ko‘plik»ni ifodalashi quyidagi misolda k‘yiradi: 1. *Avazlarga g‘isht quyib berdim* (Avaz va u bilan bog‘liq oila a‘zolariga). 2. *Avvalgi sarvigullar o‘qishni tugatishdi* (Sarvigulga o‘xshaganlar).

[-*lar*]ning miqdoriy va sifatiy belgisi ayrim holda unga makon va zamon o‘lchovida taxminiylikni ifodalash imkonini beradi. Masalan, 1. *Adashmasam, uni urib burnini qonatganimda uch yoshlarda edik*. 2. *O‘n yillar ilgari kamina ham shu qizlar yoshida edim*.

[-lar] ning kuchaytirilgan ma'no ifodalashi: *Tillarimga ko'cholmaydi bo'g'zimdagi ovozim*. Bunday kuchaytirish [-lar]ning «ko'plik» ma'nosiga bog'liq. Chunki ko'p narsa mantiqan kuchli bo'ladi. Ya'ni til aslida «bitta». Uni kuchli qilib ko'rsatish uchun ko'plik shakli berilmoqda.

Quyida nol [0] shakl OGMLarini sanaymiz.

1. «Birlik» ifodalash [0] shaklning asosiy vazifasi. Bu ma'no ko'rsatish olmoshlari, bir so'zi, aniqlovchilar bilan munosabatga kirishganda yuzaga chiqadi: *Bir radiosi bor, sandiqdek keladi*. (O'.Hosh.)

2. [0] shakl jamlik ifodalaganda narsalarning bo'linmas, yaxlit birligi anglashiladi: *Gadoning dushmani gado bo'ladi*. (A.Ori'.)

3. [0] shakl matnda aniq va noaniq ko'plik ifodalashi mumkin. Masalan, *Ermon buvaning aytishiga qaraganda, o'n pud ko'sakni chuvish zimmamizga yuklatilgan edi*.

Aytilganlar asosida son kategoriyasi shakllari uchun quyidagi UGM larni ko'rsatamiz:

[0] shakli UGMsi – «bo'linmas sifat, aniq/noaniq miqdor ifodalash».

[-lar] shakli UGMsi – «bo'linuvchan/bo'linmas sifat va aniq/noaniq miqdor ifodalash».

Bu UGM o'z o'rnida kategorial va nokategorial qismga bo'linadi. «Miqdor» kategorial, «bo'linuvchan/bo'linmas sifat» yondosh, «tur», «xil», «kuchaytirish», «hurmat» kabilar – kategorial ma'no bilan dialektik bog'lanmagan hamroh ma'no.

Grammatik miqdor ma'nosini ifodalovchi morfemaga sonlovchi deyiladi; bunday morfemalar tuzumiga sonlash morfemalari paradigmasi deyiladi. Sonlash morfemalari ot leksemaga bevosita qo'shiladi: "leksema + sonlovchi": *olim + olim+lar-*, *fasl + fasl + lar-* kabi.

Mantiqiy miqdor bilan grammatik miqdor o'zaro farq qiladi. Mantiqan atoqli ot yakka predmetni ataydi: *Sobir-*, *Chilonzor-* kabi. Ayni shu ism bilan bir necha predmet atalishi mumkin, lekin shunda ham ism har gal yakka predmetni ataydi.

Turdosh ot esa turning nomi sifatida mantiqan bittadan ortiq (ko'p) predmetni nomlaydi. Shu bilan birga turdosh ot yakka predmetni anglatib ham keladi. Masalan, *ko'chat-* leksemasi bitta ko'chatni ham, ko'p ko'chatni ham bildiradi. Ko'rinadiki, atoqli otning yakka predmetni atashi bunday ot leksemaning semantikasiga bog'liq: turdosh ot leksemaning yakka yoki ko'p predmetni anglatishi esa, leksemaning semantik xususiyatidan tashqari, nutq vaziyatiga, leksik qurshovga bog'liq.

Otlarni yakka predmetni anglatishiga qarab birlik shaklida, ko'p predmetni anglatishiga qarab ko'plik shaklida deyish mumkin emas. *Sobir-*, *ko'chat-* leksemalari yakka yoki ko'p predmetni bildirishidan qat'i nazar sonlash paradigmasining ayni bir shaklida – birlik shaklida. Shunday ot leksemalar

ham boriki, o'z semantik xususiyatiga ko'ra doim bittadan ortiq predmetni anglatadi: *xalq-*, *qo'shin-* kabi; lekin bunday leksemalar sonlash paradigmasining birlik shaklida deyiladi. Xullas, ot leksemaning o'z semantik xususiyatiga ko'ra yakka yoki ko'p predmetni anglatishi – boshqa hodisa, sonlash paradigmasining birlik yoki ko'plik shaklida bo'lishi – boshqa hodisa.

Odatda *daraxt-* birlik shaklidagi, *daraxtlar-* ko'plik shaklidagi ot leksema deyiladi; bunda sonlash paradigmasi asosida yondashiladi. Mantiqan esa *daraxtlar-*emas, *daraxt-* ko'p. Chunki *daraxt-* shakli yakka predmetni ham, shu turga mansub barcha predmetlarni ham bildiradi, bunda miqdor tushunchasi chegaralanmagan bo'ladi. *Daraxtlar-* shaklida *-lar* morfemasi miqdor tushunchasini chegaralaydi: daraxtning qandaydir to'dalari, xillari tushuniladi. Shu jihatdan yondashsak, turdosh ot leksemada predmetning ko'pligini leksemaning o'zi bildiradi, *-lar* morfemasi esa "chegaralanganlik"semasini va unga zid qo'yib belgilanadigan morfema esa "chegaralanmaganlik"semasini ifodalaydi.

Haqiqatda, o‘zbek tilida yakkani ifodalovchi maxsus morfema yo‘q, turdosh ot leksema ma‘lum kontekstda-gina yakka predmetni bildirib keladi, alohida olinganda esa miqdor ma‘nosini ifodalashi jihatidan noaniq bo‘ladi. Asli *bola-* kabi leksema «miqdor» ma‘nosini ifodalashi jihatidan betaraf bo‘lgan, “bitta” ma‘nosi *-lar* morfemasining «bir necha” ma‘nosiga zidlanishda yuzaga kelgan.

Demak, *bola-* shaklidagi ot leksemasi miqdor ma‘nosini ifodalashi jihatidan betaraf, ana shunday betaraflik bunday shakldagi leksemaga bitta va bittadan ortiq miqdorni bildiradigan sifatlovchi keltiraverishga yo‘l qo‘yadi: *bitta bola- - bir necha (ko‘p) bola-* kabi. Xullas, *bolalar-* ko‘plik shakliga zid qo‘yish asosida *bola-* birlik shakli yuzaga kelgan.

Hozirgi o‘zbek tilida *-lar* affiksi omomorfema bo‘lib, sonlash paradigmasining a‘zosi sifatida bir necha ma‘nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Ushbu affiks nisbatlash paradigmasining, tushlash paradigmasining ayrim morfemalari tarkibida ham ishlatiladi. Boshqa morfem paradigmalari tarkibida qatnashadigan *-lar* affiksini sonlash paradigmasining a‘zosi *-lar* affiksiga nisbatan omonim deyish mumkin. Bulardan tashqari nisbatlash morfemalari asosida yuzaga kelib, hurmat ma‘nosini ifodalaydigan *-lar* morfemasi ham mavjud.

Ot turkumi leksemasiga mansub uch paradigma – egalik, kelishik va sondan tashqarida turadigan, o‘zaro paradigmatic munosabat hosil qilmaydigan morfemalar ham anchagina. Bular orasida affikslar ham, affiksoidlar ham, leksik tabiatli morfemalar ham mavjud.

Ot turkumi leksemasiga qo‘shiladigan neparadigmatik affikslar quyidagilar:

1) kichraytirish (shu asosda erkalash) ma‘nosini ifodalovchi *-cha, -choq(-chak)* affikslari: *qizcha-, kitobcha-, toychoq-, qo‘zichoq-, kelinchak-, tugunchak* kabi;

2) “iliq munosabat”ni ifodalovchi *-gina* affiksi: *bolaginam, onaginang o‘rgilsin* kabi. Bu affiks “faqat” ma‘nosini ifodalovchi *-gina* yuklamasi bilan omonim: *bolam-gina, onang-gina* kabi;

3) “hurmat” ma‘nosini ifodalovchi *-lar* affiksi: *ona+m+lar+ni* kabi;

4) “xoslik” ma‘nosini ifodalovchi *-niki* affiksi: *ona +m+niki, Shohista + niki* kabi;

5) “o‘ringa nisbat berish” ma‘nosini ifodalovchi *-dagi* affiksi: *uy+lar+imiz+dagi, qishloq+lar+dagi, tog‘a+ miz + niki + dagi* kabi;

6) substantiv shakl yasovchi *-lik* affiksi: *qaysi qavat +da + lig +i + ni* kabi. Bu affiksning ish doirasi ancha keng: *kel + moqchi + lig + i +ni, bor + lig + i + ni, yaxshi + lig + i + ni* kabi. Asli bu *-lik* affiksi *ekan* yordamchisiga qo‘shiladi, bu yordamchi ellipslanishi oqibatida undan oldingi qismga qo‘shilib keladi: (*qaysi*) *qavatda ekanligini qavatdaligini* kabi.

Kichraytirish-erkalash paradigmasi [*-cha*], [*-gina*], [*-(a)loq*] shakllaridan iborat bo‘lib, ular quyidagi ma‘noni ifodalaydi:

[*-cha*]:

a) shaxs va predmetning kichik ekanligini: (*kitobcha*), (*qalamcha*);

b) erkalash ma‘nosini: (*o‘g‘ilcha*), (*qizcha*);

v) kamsitish ma‘nosini: (*domlacha*), (*odamcha*).

[*-gina*]:

a) kichraytirish: (*qizgina*), (*bolagina*);

b) achinish: (*bechoragina*);

v) erkalash: (*bolaginam*).

[*-(a)loq*] qo‘shimchasi ayrim otlarga qo‘shilib, erkalash ma‘nosini bildiradi: (*bo‘taloq*), (*qizaloq*), (*toyloq*).

Shaxsiy munosabat (erkalash) shakllari ([*-jon*], [*-xon*], [*-oy*], [*-bonu*]) shaxs bildiruvchi atoqli va turdosh otga qo‘shilib, erkalash, suyish ma‘nosini ifodalaydi: (*Ahmadjon*), (*xolajon*),

(*Gulnoraxon*), (*Shirinabonu*) Ot turkumi leksemasiga «iliq munosabat» ifodalovchi *-jon*, *-boy* (*-voy*), *-xon*, *-oy* affiksoidlari qoʻshiladi: *buvijon-*, *Olimjon-*, *Ravshanboy-*, *Komilaxon-*, *Tursunoy-* kabi. Bu affiksoidlar ayrim kishi atoqli otlarida ularning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadi: *Oyxon-*, *Oʻgʻiloy-* kabi.

Ot turkumi leksemasiga qoʻshiladigan leksik tabiatli morfemalar deb koʻmakchilarni koʻrsatish lozim.

Otning tuzilishiga koʻra turi. Ot tuzilishiga koʻra *sodda* va *murakkab* boʻladi. Sodda ot bir oʻzakli boʻladi: (*kitob*), (*daftar*), (*odam*), (*ishchi*). Murakkab ot oʻz oʻrnida uchga boʻlinadi: a) *juft ot*; b) *takroriy ot*; v) *qoʻshma ot*.

Savol va topshiriqlar:

1. Ot soʻz turkumiga taʼrif bering.
2. Ot sozʻ turkumining oʻzbek tilshunosligida oʻrganilish tarixi haqida soʻzlang
3. Otning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini sanang.
4. Otning umumiy grammatik maʼnosi nima?
5. Otning lugʻaviy-grammatik guruhlariga izoh bering.
4. Otning tasniflovchi kategoriyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Otning nokategorial shakllari qaysilar?

2-mavzu: SIFAT SO'Z TURKUMI

REJA:

1. Sifat va uning o'rganilish tarixi.
2. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari.
3. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar.
4. Sifatning tasniflovchi kategoriyasi va nokategorial shakllari
5. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.
6. Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.

Tayanch so'zlar: *sifat, belgi, LGG, asliy sifat, nisbiy sifat, daraja kateoriyasi, analitik usul, sintetik usul, sintetik-analitik usul, kuchaytirma sifat, ozaytirma sifat.*

Asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiruvchi darajalanuvchi so'z sifat deyiladi: *qizil qalam, oq kabutar, yaxshi gapirmoq.*

Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, *Gul – qizil* deganda turg'un (statik) belgi, *Gul qizardi* deganda esa o'zgaruvchi (dinamik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, *qizg'ish – qizil – qi' – qizil*. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q. Sifat gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, qisman kesim, hol vazifasida keladi.

Shu asosda sifatning UGMsini «asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildirib, gapda asosan sifatlovchi aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelish» ko'rinishida tiklash mumkin.

Belgi tushunchasi o'z ichiga rang-tus, hajm-shakl, xarakter, vazn, maza kabini qamrab oladi. Belgining xususiyatiga ko'ra sifat ikkiga bo'linadi: *asliy sifatlar* va *nisbiy sifat*.

Asliy sifat predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: *[qizil], [sariq], [katta], [ko'p], [oz]*.

Nisbiy sifatlar belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o'rin va harakatga nisbatan ifodalaydi: *moddiy yordam, siniq 'iyola, burchakdagi o'tirgich*. Nisbiy sifatda darajalanish, qiyoslanish bo'lmaydi. Lekin u daraja belgisiga ega bo'lgan ravishdan asosan predmet belgisini bildirishi bilan farqlanadi.

Asliy sifatning barchasida daraja shakllari, ayrimida ozaytirma va kuchaytirma shakl bor.

Asliy sifat bildirgan belgining darajasi har xil bo'lishi mumkin. *Daraja kategoriyasi* (DK) sifat ifodalagan belgining shu nuqtai nazaridan tavsifini beradi.

Sifat LMGLari. Darslik va qo'llanmalarda sifatning 9 ta LMG ajratiladi:

1.Xususiyat bildiruvchi sifat. 2.Holat bildiruvchi sifat. 3.Shakl bildiruvchi sifat. 4.Rang-tus bildiruvchi sifat. 5.Maza-ta'm bildiruvchi sifat. 6.Hid bildiruvchi sifat. 7.O'lchov bildiruvchi sifat. 8.O'rin bildiruvchi sifat. 9.**payt** bildiruvchi sifat.

Quyida ularning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

Xususiyat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning xarakter-xususiyatini ifodalashda ko'p qo'llanadi: *[yoqimtoy], [badjahl], [muloyim], [dilkash], [yaxshi], [yomon], [loqayd]*kabi. Xarakter-xususiyat ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

Holat bildiruvchi sifat narsa/mavjudotning holat yoki vaziyatini turg'un belgi sifatida ifodalaydi. Holat bildiruvchi sifat o'z o'rnida yana ichki guruhlariga bo'linadi:

- 1) tabiiy holat bildiruvchi sifat: [go 'zal], [mo 'min], [o 'ktam], [cho 'loq], [bukri];
- 2) jismoniy holat bildiruvchi sifat: [bardam], [baquvvat], [tetik], [yosh].
- 3) ruhiy holat bildiruvchi sifat: [xafat], [g'amgin], [mahyus], [xursand], [shod];
- 4) iqtisodiy holat bildiruvchi sifat: [boy], [badavlat], [kambag'al], [nochor];
- 5) harorat holatini bildiruvchi sifat: [iliq], [salqin], [sovuq], [issiq];
- 6) tozalik holatini bildiruvchi sifat: [toza], [ozoda], [kir], [musaffo], [isqirt];
- 7) eskilik, yangilik holatini bildiruvchi sifat: [yangi], [eski], [ko'hna], [juldur];
- 8) ho'l-quruqlik holatini bildiruvchi sifat: [ho'l], [quruq], [nam], [namxush];
- 9) tinch va notinch holatni bildiruvchi sifat: [tinch], [jim], [jimjit], [sokin], [osuda], [osoyishta], [bezovta];
- 10) yetilganlik holatini bildiruvchi sifat: [xom], ['ishiq], [g'o'r], ['uxta];

Shakl bildiruvchi sifat. Bu turdagi sifat narsa/predmetning tashqi ko'rinishini ifodalaydi: [novcha], [yassi], [uzunchoq], [dumaloq], [ya'aloq], [aylana].

Rang-tus bildiruvchi sifat: [oq], [qora], [qizil], ['ushti], [sariq], [zangor].

Maza-ta'm bildiruvchi sifat: [shirin], [achchiq], [nordon], [taxir], [sho'r].

Hid bildiruvchi sifat: [xushbo'y], [badbo'y], [qo'lansa].

O'lchov bildiruvchi sifat: [keng], [tor], [uzun], [yaqin], [katta], [og'ir].

O'rin bildiruvchi sifat: [ichki], [tashqi], [devoriy], [qishloqi].

Payt bildiruvchi sifat: [kuzgi], [yozgi], [qishki], [chillaki], [erta'ishar].

Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Sifat leksemaga shakl o'zgarishi xos emas; lekin sifat leksema ot leksemaga to'g'ridan to'g'ri bog'lanmaydi. Sifat leksema bilan (SL) sifat leksemashakl (SLsh) o'zaro qism bilan butun munosabatini aks ettiradi: Sifat leksemashakl yuzaga kelishi uchun sifat leksema ma'lum bir sintaktik vazifa bajara oladigan shaklga kirishi lozim. Sifat leksema bajaradigan birlamchi sintaktik vazifa — sifatlovchi bo'lish. Demak, sifat leksemashakl yuzaga kelishi uchun sifat leksemaga 'sifatlovchi' sintaktik semasi qo'shiladi, shunga ko'ra "sifat leksema + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = sifat leksemashakl qolipi haqida gapirish mumkin. Sifat leksemashakl nutqda asosan ana shu ko'rinishda namoyon bo'ladi: jirkanch hasharot, otashin nutq, ozg'in barmoqtarini, sevimli ashulasini, quvnoq kulgi bilan, qalin sochlarini, qoloq xo'jaliklarni, katta qurilishlar, kechki shabada, kulrang osmon, shirin suhbat, qaynoq suv, loyqu daryo, yengil kuy, yovvoyi o' tlar va b.

Sifat leksema fe'l leksemaga bog'lanib, hollovchi vazifasida kelganida sifat leksemaga 'hollovchi' sintaktik semasi qo'shiladi: "sifat leksema 'hollovchi' sintaktik semasi = sifat leksemashakl". Demak, sintaktik vazifa bilan bog'liq holda sifat leksemashaklning ikkilamchi qolipi voqe bo'ladi. Bunday qolip asli ravish leksema uchun birlamchi qolip hisoblanadi: yaxshi tozalanmagan, shavqatsiz qovjirata boshladi, qattiq dahshatga soldi, sirli ko'rindi kabi.

Sifatlovchi vazifasida kelgan leksemashaklning ot sifatlanmishi tushirilgani (ellipslangani) natijasida sifatlanmishga qo'shiladigan morfema sifatlovchiga qo'shiladi, bunday holatda sifat leksemashakl ot leksemashakl qolipida namoyon bo'ladi, otlashish yuz beradi. Buning asosiy ko'rinishlari quyidagicha:

1. SL + S + Tr:

- 1) SL++Tr: a) SL+0 I+ning: nokasning va'dasi, b) SL + + ni: chalasavod bir n o d o n n i, d) SL + 0 I + dan: b a l a n d d a n tushib, m a y d a - c h n y d a d a n kabi; 2) SL + lar + Tr: a) SL + lar + 0 II: b e m o r l a r yo'q edi, keksalar bir chekkada, ba'zilar bosh egib, b o sh q a I a r ham kabi;

b) SL + lar + ni: к е к с а I a r n i, d) SL + lar + ga: b o s h q a I a r g a, g) SL + lar + dan: b o s h q a l a r d a n kabi; 3) SL + lar + dagi: yaqin-yiroqlardagi; 4) SL + lar + (0 II + uchun\). boshqalar uchun;

5) SL + lar + (0 II + day): eski qadrdonlarday; 6) SL, + lar + Nch + Tr: qishloqning k a z o - k a z o l a r i ; bularning h a m m a s i, bularning h a m m a s i d a n kabi.

4- §. Sifat leksema kesim vazifasida kelganida sifat leksemashaklning birinchi qolipi asosida quyidagicha qoliplar tuziladi:

1) Tuslovchi qo'shiladi: (SL + 'sifatlovchi' semasi) + Ts. Bu qolip nutqda asosan III shaxs tuslovchisi qatnashgan holda uchraydi, chunki ega bo'lak ko'pincha ot leksemashakl bilan ifodalanadi: Masala ravshan; Ko'chalar jimjit, kimsasiz; Yo 'liar o 'ydim-chuqur, chang; ust-boshi g'ijim, iflos kabi. Quyidagi misolda ega bo'lak I shaxs kishilik olmoshi bilan ifodalangani sababli kesimga ham I shaxs tuslovchisi qo'shilgan: Men tirikman. Ba'zan kesim vazifasidagi leksemashaklga yuklama qo'shiladi, lekin bu yuklama leksemashakl tarkibiga, demak, lekmemashakl qolipi tarkibiga kirmaydi: Yosh-da, baribir yosh kabi.

2) Bog'lama vazifasida kelgan bo'l- ko'makchi fe'li qo'shib, turli shakllarda ishlatiladi: ish qizg'in bo'lgani uchun, urushdan bir ko'zi ko'r bo'lib kelgan, Odamlar betoqat b o'la boshladi, undagi o'zgarishdan mamnun bo'lib kabi. Bu yerda sifat leksemashaklning "(SL + 'sifatlovchi' sintaktik semasi) + bo'l- + shakl hosil qiluvchi" qolipi haqida gapirish mumkin.

3) edi, ekan, emas affiksoidlari va ularga odatda III shaxs tuslovchisi qo'shiladi: (SL + 'sifatlovchi' sintaktik semasi) + edi || ekan || emas ekan: Toshxo'ja kamgap emas ekan kabi.

Belgining sifat leksema anglatadigan rangga moyilligini ifodalaydigan -sh, -mtir affikslari qo'shilgan sifat leksema "(sifat leksema + sh \ mtir) + 'sifatlovchi' sintaktik semasi = leksemashakl" ko'rinishida namoyon bo'ladi; demak, bu yerda sifat leksemashaklning birinchi qolipi shakl yasovchi morfemali sifat leksema bilan tuziladi: ko'kish kastum, sarg'ish pichanzor, ko'kimtir rangga kirgan, qoramtir tusga kirgan kabi. Sariq- leksemasiga -sh affiksi qo'shilganida: a) Oldin leksema oxiridagi q tovushi g ' tovushiga almashadi, natijada q fonemasining g ' allofonemasi yuzaga keladi: sariq + ish > sarig'ish-; b) Shundan keyin ikkinchi bo'g'indagi i tovushi talaffuz qilinmay qo'yadi, natijada i fonemasining nol ko'rsatkichli allofonemasi yuzaga keladi: sarig'ish- > sar[i]g'ish- > sarg'ish-. Bu yerdagi tovush o'zgarishlari leksema bilan morfema orasidagi zich sintagmatik munosabat natijasida voqe bo'ladi.

Hozirgi o'zbek tilida sarg'ish- leksemasiga o'xshash bo'lib qolgan qizg'ish- leksemasining tarkibi asli boshqacha izohlanadi: tarixan 'qizil tusga kir-' ma'nosini anglatgan qiz- fe'l leksemasiga -g'it affiksini qo'shib qizg'usifat leksemasi yasalgan va unga 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan -sh affiksi qo'shilgan: (qiz + g'u = qizg'u-) + sh = qizg'ush-; keyinchalik i va n tovushlari / tovushiga almashgan: qizg'ush- > qizg'ish-. Demak, qizg'ishleksemasi hozirgi o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: qishg'ish barg-; qizg'ish tusli novdalar- kabi.

1. Sifat leksemaga 'biroz' ma'nosini ifodalaydigan -roq affiksini qo'shib tuzilgan leksemashakl har uch sintaktik vazifada keladi: 1) sifatlovchi vazifasida: kattaroq baliqlarni, bu bo'shangroq yigit bilan kabi; 2) hollovchi vazifasida: yana-da yaqinroq seza boshladi, mahkamroq ushlab olib, bezovtaroq gursillay boshlaganini kabi; 3) kesim vazifasida: hammasidan ortiqroq bo'ladi; salobatliroq, ulug'vorroq edi kabi.

2. Sifat leksemaga 'iliq munosabat' ma'nosini ifodalaydigan -ginu affiksini qo'shib tuzilgan leksemashakl sifatlovchi va hollovchi vazifalarida keladi:

1) sifatlovchi vazifasida: kattagina tovuq katagi, kichkinagina o'choqboshi, chog'roqqina bir xona kabi; 2) hollovchi vazifasida: mujmalgina javob berdi, tuzukkina y o g 'a boshladi kabi.

Leksemaga ushbu affiks qo'shilishida asos bilan affiks orasida tovush jihatidan zich sintagmatik munosabat voqe bo'ladi: κ fonemasi bilan tugaydigan leksemaga bu affiksning -kim allomorfemasi, -q fonemasi bilan tugaydigan leksemaga -qina allomorfemasi qo'shiladi; demak, bu yerda sintagmatik munosabat natijasida g fonemasining k, q allofonemalari yuzaga keladi, g fonemasi $g \text{ — } \kappa \text{ — } q$ zanjiri tarzida namoyon bo'ladi.

Sifat leksemashakllar quyidagicha tuzilishlarga ham ega:

1. Sifat leksema oldidan 'kuchaytirish' ma'nosini ifodalaydigan eng, juda, g'oyat kabi affiksoidlardan birini keitirish bilan tuziladi:

1) sifatlovchi vazifasida keladi: eng baxtiyor damlar, juda chiroyli xotin, g 'oyat asabiy holatda kabi;

2) hollovchi vazifasida keladi: juda sovuq qarshi oldi;

3) kesim vazifasida keladi: o 'zidan juda norozi edi kabi.

2. Sifat leksema oldidan uning bosh qismini qo'shib tuziladi. Noto'liq takror deb yuritiladigan bu hodisaning ko'rinishlari sifat leksemalar bayonida tasvirlandi; bu yerda sintaktik vazifasini aytib misol keitirish kifoya: 1) asosan sifatlovchi vazifasida keladi: sap-sariq qirlar, oppoq paxta gardi kabi;

2) hollovchi vazifasida keladi: oppoq yaraqlab turgan, tuppa-tuzuk ishlagan kabi.

3. Sifat leksemani takrorlab tuziladi: "leksema + ayni shu leksema". To'liq takror deb yuritiladigan bu hodisa odatda 'shunday belgisi bor bir necha' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: 1) sifatlovchi bo'lib keladi: yirik-yirik tomchilar kabi; 2) asosan hollovchi bo'lib keladi: chuqur-chuqur nafas ola boshladi, qattiq-qattiq chiriqlar edi kabi.

Daraja kategoriyasi (qisq. DK) «sifatda belgi darajasi» UGMsiga ega. Daraja turli (geterogen) shakl yordamida hosil qilinadi: (*chiroyli*) – (*chiroyliroq*) – (*juda chiroyli*).

Asliy sifatda belgining darajasini ifodalashga ko'ra uch daraja ajratiladi:

a) oddiy daraja; b) orttirma daraja; v) ozaytirma daraja.

Oddiy daraja hech qanday vositasiz yuzaga chiqadi. Unda DK UGMsi «belgining ortiq-kamligiga munosabat bildirmaslik» tarzida yuzaga chiqadi: (*yaxshi*), (*qattiq*), (*semiz*), (*keng*), (*baland*), (*to'g'ri*), (*yumshoq*) kabi.

Orttirma daraja belgining me'yoriy holatdan ortiqligi, kuchliligini ifodalab, DK UGMsini «belgining me'yordan ortiqligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Orttirma daraja maxsus morfologik shaklga ega emas. DK ifodalovchisining geterogenligi ushbu darajada yaqqol ko'zga tashlanadi. Orttirma daraja quyidagi usullar bilan hosil qilinadi:

1. **Fonetik usul.** Uning bir necha ko'rinishi bor: a) (*qo'-qora*), (*ya'-ya'aloq*), (*dum-dumaloq*); b) urg'uli tovushning cho'zilishi: (*u'zun*), (*bala'nd*), (*chiro'yli*).

2. **Leksik usul.** (*juda kuchli*), (*g'oyatda qo'rqinchli*), (*nihoyatda baland*).

Belgining ortiq darajasi analitik shaklda ham ifodalanadi. Bu shakl ikki uzvli, birinchi uzvini chiqish kelishigi shaklida qo'llash orqali hosil qilinadi: (*uzundan uzoq*), (*shirindan shirin*).

Ozaytirma daraja DK UGMsini «belgining me'yordan kamligini ifodalash» ko'rinishida xususiylashtiradi. Bu ma'no ikki usul bilan yuzaga chiqadi:

1. **Leksik usul:** (*sal durust*), (*bir oz yaxshi*), (*xiyol ochiq*).

2. **Morfologik usul:** (*kattaroq*), (*ko'proq*), (*ozroq*);

Eslatma. Rang-tus bidiruvchi ayrim sifatda qo'llanuvchi [-(i)sh], [-(i)mtir] affikslari belgining kuchsiz darajasini bildirmaydi. Masalan, (*oqish*)so'zi oq rangning, (*qoramtir*) so'zi qora rangning kuchsiz darajasi emas, balki oq, qora bo'lmagan, ularga o'xshash bo'lgan rang turlari.

Sifat turkumidasintaktik kategoriyakengbo'lmagan voqelanishga ega.

Egalik kategoriyasi. Sifat turkumi EK UGMsini «keyingi sifatni oldingi soʻzga bogʻlash va mansublik, xoslik maʼnosini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi soʻzning semantikasiga bogʻliq ravishda turli-tuman grammatik maʼno ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi sifatni oldingi soʻzga bogʻlash» kategorial maʼno xususiylashmasi sifatida oʻzgarmay qolaveradi. Quyida sifat turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi oʻziga xosliklarni koʻrib oʻtamiz.

Egalik affiksi oʻzi birikkan soʻzning boshqa soʻz bilan bogʻlanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EK dagi soʻz QK dagi soʻz bilan keladi: *olmaning qizili, odamning aqllisi*.

EK dagi soʻz baʼzan ChK dagi soʻz bilan ham birga qoʻllanilishi mumkin: *odamlardan aqllisi*.

EK dagi soʻzda affiks maʼnosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga oʻtib ketadi: *(odamning) yaxshisi*.

EK ning birlik va koʻplik shakli qoʻllanilishda farq bor. Koʻpincha miqdor bildiruvchi oʻzakka birlik son shakli qoʻshilmaydi: *aqllingiz, koʻpimiz*. Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: *nodoni, rangdori*.

Savol va topshiriqlar:

1. Sifat soʻz turkumiga taʼrif bering.
2. Sifat soʻz turkumining oʻzbek tilshunosligida oʻrganilish tarixi haqida soʻzlang
3. Sifatning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini sanang.
4. Sifatning umumiy grammatik maʼnosi nima?
5. Sifatning lugʻaviy-grammatik guruhlariga izoh bering.
4. Sifatning tasniflovchi kategoriyasi deganda nimani tushunasiz?
5. Sifatning nokategorial shakllari qaysilar?

3-mavzu: SON SO'Z TURKUMI.

REJA:

1. Son vauning o'rganilishtarixi.
2. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi.
3. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.
4. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

Tayanch so'zlar: *son, son turlari, sonning LGGi, grammatik shakl, dona son, miqdor son, tartib son, jamlovchi son, kasr son, numerativlar.*

«Predmetlarning sanog'i va asosan aniq miqdori uchun ishlatiladigan so'z» - sonning so'z turkumi sifatidagi UGMsi. Sanaladigan predmet uchun ishlatilganda ularning sanoq va miqdorini anglatadi. Son so'z turkumi sifatida predmet ifodalovchisi bilan munosabatga kirishib, shu jihati bilan sifat va ravish turkumiga yaqin turadi. Biroq aniq miqdor bildiruvchi bu so'zlar predmetning noaniq miqdorini bildiruvchi [oz], [ko'p], [mo'l] kabi sifatdan ajralib turadi. Sifat raqam bilan ifodalanmaydi. Son esa noaniq miqdorni bildirganda ham raqam bilan beriladi: *uch-to'rt kun (3-4 kun)*. Bu esa ular anglatgan miqdor noaniqligi ham nisbiy ekanligidan dalolat beradi.

Songa oid so'z matematik son ma'nosida esa faqat sonning nomini bildiradi. Demak, predmet nomini anglatuvchi so'z bilan munosabatda namoyon bo'ladigan ma'nosi bilan son so'z turkumini tashkil etadi.

Sonning grammatik xususiyati. Son morfologik va sintaktik xususiyatining o'ziga xosligi bilan boshqa turkumlardan ajralib turadi.

1. Sonda o'ziga xos morfologik ifodasiga ega bo'lgan quyidagi grammatik xususiyat mavjud:

-sanoq songa [-(*i*)nchi] affiksining qo'shilishidan predmetning tartibiga ko'ra munosabatini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: *birinchi, o'ninchi*.

-sanoq songa [-ov], [-ala] affiksining qo'shilishidan predmetning guruhini, to'dasini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: (*ikkovi*), (*uchalasi*).

-sanoq songa [-ta+cha], [-lab] affiksining qo'shilishidan predmetning taxminiy hisobini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: (*o'ntacha*), (*yuzlab*).

-sanoq songa [-ta+dan] affiksining qo'shilishidan predmetning taqsimini ifodalovchi grammatik ma'no hosil bo'ladi: (*ikkitadan*), (*o'ntadan*).

2. Hisob so'zi ([*juft*], [*gramm*], [*dona*], [*metr*]) bilan qo'llanilishi uning o'ziga xosligini belgilovchi muhim belgidan biri.

3. Sintaktik kategoriya cheklangan voqelanishga ega.

4. Sonlar yasalish xususiyatiga ega emas. Biroq sondan boshqa so'z turkumi yasaladi: [*birlashmoq*], [*ikkilanmoq*] (fe'l), [*beshlik*] (ot) kabi.

Son quyidagi sintaktik xususiyatga ega.

1. Son otdan oldin kelib, asosan, aniqlovchi vazifasini bajaradi.

2. Sonlar cheklangan darajada bo'lsa-da, gapning barcha bo'lagi vazifasida kela oladi.

3. Son ot oldida aniqlovchi vazifasida kelganda, u bilan birga ajralmas birikmani vujudga keltiradi: *ikki talaba kelmadi* birikuvida *ikki talaba* ajralmas birikma bo'lib, bitta bo'lak, *ikki* so'zi esa bo'lakning bo'lagi vazifasida kelgan.

4. Son va sifatni aniqlovchi sifatida qo'llashga to'g'ri kelganda avval son, keyin sifat joylashadi: *uchta ahlochi talaba, beshta ilg'or terimchi*.

Sonning LMT va LMGlari hamda ularga xos lug'aviy shakl hosil qiluvchi vositalar. Son ma'no va grammatik xususiyatiga ko'ra dastlab ikki LMT ga bo'linadi: «miqdor son» LMTsi va «tartib son» LMTsi. «Miqdor son» LMTsi predmetning miqdorini, «tartib son» LMT si esa tartibi, sirasiga ko'ra xususiyatini bildiradi.

Bu LMTlar o'zaro quyidagi munosabatga ega:

-miqdor son ichki LMGlarga ega. Tartib son LMTsi bir vaqtning o'zida LMG ham;

-miqdor sonlar hisob so'zi bilan qo'llana oladi, tartib son esa bunday xususiyatga ega emas;

-miqdor sonlar juftlasha oladi, tartib sonda esa bunday xususiyat yo'q;

-miqdor sonlarga (*beshdan bir*), (*uchga bir*) kabi birikmali qo'llanish xos, tartib songa esa xos emas;

-miqdor sonlar ko'plik shaklini olganda taxminiy miqdor bildiradi (*uchlarda keldi*), tartib son esa bunday holda otlashib ketadi: *birinchilar – birinchi odamlar*.

«Tartib son» LMGsi. Tartib son predmetning aniq tartibini, ketma-ketlikdagi o'rini bildirish, shuningdek, boshqasidan farqini ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Tartib son sanoq songa [*-(i)nchi*]affiksining qo'shilishidan hosil bo'ladi.

[*-(i)nchi*]affiksi o'rnida ba'zan [*-lamchi*]shakli ham ishlatiladi. Masalan: **Birlamchi**, *g'alamis odamlarning gapiga quloq solmanglar*, **ikkilamchi**, *o'zlaring bilasizlar, mardikorlikka ketganlar ko'pi bilan olti-etti oylarda qaytishadi...*(A.Qah.)

Tartib son fe'l bilan bog'langanda miqdorni ham anglatadi: *Bu gapni birinchi eshitishim*. (S.Ahm.)

Tartib sonlar oy kunining tartibini bildirganda vaqt ifodalovchi otlardan oldin keladi: *ikkinchi aprel, yigirma uchinchi aprel, o'n sakkizinchi mart, yigirmanchi noyabrg'* kabi. Bu rus tilining ta'siri, albatta. Sof o'zbekcha oy kuni hisobi *a'relning ikkinchi kuni, noyabrning yigirmanchi kuni* tarzida bo'ladi.

Tartib sonning otlashgan va otlashmagan holatini farqlash lozim. *Odamlarning birinchisi, o'quvchilarning beshinchisi* birikuvida sondagi egalik qo'shimchasidan oldin tushirilgan otni qo'yib bo'lmaydi. Demak, bu son otlashmagan. *Birinchi kitobni sen olasan, ikkinchisini men gapida ikkinchi* tartib soni otlashgan.

«Miqdor son» LMTsi va uning LMGlari. Miqdor son predmetni sanash, donalash, taqsimlab yoki taxminlab ko'rsatish uchun ishlatiladi. Uning quyidagi LMGlari ajratiladi: «sanoq son» LMG, «dona son» LMG, «chama son» LMG, «jamlovchi son» LMG, «taqsim son» LMG.

«Sanoq son» LMG. Sanoq son predmetni sanash, donalab ko'rsatish uchun ishlatiladi: *Xatni o'qiyotganimda, kampir ikki qo'lini tizzasiga tirab, jimgina quloq solib o'tirdi*. (S.Ahm.) **Uch do'st yarim tunga qadar suhbatlashib o'tirishdi**. (Yo.Shuk.)

Sanoq son morfologik ko'rsatkichga ega emas.

Sanoq son ot bilan sintaktik munosabatga kirishganda mustaqil va nomustaqil sintaktik mavqeda bo'la oladi. Mustaqil mavqeda aniqlanmishdan ayricha so'roqqa javob bo'lib, alohida

bo'lak maqomiga ega bo'ladi: *Besh* (aniql.) *kishi* (ega) *so'z'ladi* (kesim). Nomustaqil mavqeda tarkibiy qism sifatida yuzaga chiqadi: *Besh kishi* (ega) *kelishdi* (kesim).

Sanoq son qo'shma sifat hosil qilishi mumkin: *beshtashar bola, uch chaqirimli yo'l*.

Sanoq son sirasida *bir* so'zi qo'llanish va vazifasi jihatidan qator o'ziga xoslikka ega.

1. «Miqdor» ma'nosi: *Yana bir gapni ayting*. (S.Nur.)
2. «Noaniqlik» ma'nosi: *Biro'zbek yigiti so'zlay boshladi*. (Oyb.)
3. «Harakat belgisi» ma'nosi: *Mashina bir la'anglab, ilgarijadi*. (S.Ahm.)
4. «Mo'ljal» ma'nosi: *Ertaga bir dam oling*.
5. «Bir xil» ma'nosi: *Tiling bilan ko'nglingni bir tut*.
6. «Kuchaytirish» ma'nosi: *Yomg'ir bir yog'di*.
7. «Navbatma-navbat» ma'nosi: *Bola bir bizga qaraydi, bir otasiga qaraydi*.
8. «O'xshashlik» ma'nosi: *U mening birim*.
9. JK da «birgalik» ma'noli ravishga o'tadi: *birga ishlamoq*.
10. ChK da «to'satdan» ma'noli ravishga o'tadi: *birdan qichqirib yubordi*.
11. [-day] shakli bilan ravish bo'lib keladi: *birday*.
12. [-ov] affiksini olib «gumon» ma'noli olmosh: *Birov keldi*.
13. [-or/-on] affiksini olib keladi: *birorta, bironta*.
14. [-gina] yuklamasi bilan «chegaralash» ma'nosi: *birgina*.
15. Fonetik o'zgargan [ham] yuklamasi bilan «kuchaytirish» ma'nosi: *biram*.
16. [-oq] elementi bilan bog'lovchi vazifasida: *biroq*.

Shuningdek, [bir] so'zi [rov], [as], [nafas], [zum], [payt], [yil], [vaqt], [oy], [kun]([birrov], [bir as], [bir nafas]), [necha], [muncha], [sidirg'a], [oz], [muncha], [qadar] ([bir necha], [bir oz], [bir muncha]), [nima], [narsa] ((bir nima), (bir narsa)), [qator], [talay] ((bir qator), (bir talay)), [xil] (bir xil), [ba'zi], [har], ((ba'zi bir), (har bir)) so'zi bilan birga kela oladi.

Bir so'zi takrorlanib kela oladi:(*bir-bir*)(«tartib bilan» ma'nosida), [*birma-bir*](«batafsil» ma'nosida), [*birdan-bir*](«yagona» ma'nosida), (*bir-biridan*)(«o'zaro» ma'nosida), (*bir-biriga*)(«biri ikkinchisiga» ma'nosida).

O'zbek tilida [bir] so'zi [ilk], [yakka], [yolg'iz], [yagona] so'zi bilan ma'nodoshlik kasb etadi.

Sanoq sonning hisob so'zi bilan qo'llanilishi. Sanoq son o'lchov birligini ifodalovchi so'z bilan birga qo'llanilishi ham mumkin: [gektar], [tanob], [tosh], [bosh], [tu'] kabi. Bunday so'z *hisob so'zi* (numerativ) deyiladi. Hisob so'zi, odatda, ot turkumidan bo'ladi va alohida LMG ni tashkil etadi.

Hisob so'zi o'zi birikkan son bilan birga ajralmas sintaktik birlikni tashkil etib, gapda bir sintaktik pozitsiyadan o'rin oladi.

Hisob so'zi qadimdan o'zbek tilida faol qo'llangan. Bugungi kunda ularning ayrimi butunlay istehmoldan chiqib ketgan yoki juda kam ishlatiladi. Ularga [qadoq], [jon], [tanob], [gaz], [sarjin], [aysa], [taxta], [enlik], [so'lkavoy], [tosh], [ud], [mahal], [yumaloq](choy), *mehnat kuni* (uch mehnat kuni).

[Gektar], [gradus], [kilovatt-soat], [kubometr], [metr] (*santimetr, millimetr*), [minut], [par], [achka], [sotix], [tsentner], [*mehnat kuni*] kabi hisob so'zi o'zbek tiliga XX asrda kirib kelgan.

Hisob so'zi tizimi ochiq sistema.

Hisob so'zi LMG si quyidagi mikrosistemalardan tashkil topadi:

1. predmetni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [bosh], [nafar], [dona], [nusxa], [tuʻ], [jon].

2. predmetni butun yoki toʻdaning qismi sifatida hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [burda], [varaql], [luqma], [parcha], [ʻoy], [siqim], [tilim], [tomchi], [toʻgʻram], [chaqmoq], [chimdini], [shingil], [qultum].

3. predmetni toʻdalab, guruhlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [bogʻ], [gala], [guruh], [dasta], [toʻda], [toʻp], [shoda], [quchoq], [hovuch].

4. predmetni juftlab hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [juft], (**par**).

5. predmetning ogʻirlik oʻlchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [gramm], [kilogramm], [litr], [ʻud], [tonna], [tsentner], [misqol], [qadoq], [botmon], [kosa], [ʻiyola], [qoʻ], [qoshiq], [quti].

6. predmetning uzunlik va masofa oʻlchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [qadam], [qarich], [quloq], [metr], [tosh], [chaqirim], [kilometr].

7. Yosh hisobini bildirish uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [yashar], [yoshdagi], [yoshli].

8. Vaqt oʻlchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [asr], [yil], [kun], [kecha-kunduz], [oy], [hafta], [daqiqqa], [soniya].

9. Qiymat oʻlchovini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [soʻm], [tiyin], [miri], [ʻaqir], [dinor], [dollar], [evro], [rublgʻ].

10. Harakat miqdorini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob soʻzi: [marta], [karra], [qatla], [dafha], [sidra].

«**Dona son**» LMG. Dona son [-ta] qoʻshimchasi va [dona], [nafar], [bosh]kabi hisob soʻzi bilan hosil qilinadi. [-ta] qoʻshimchali dona son predmetning miqdorini donalab koʻrsatish uchun ishlatiladi: **Bitta bargni uzib Zokir otaga uzatdi.** (A.Qah.)

Bu affiks har qanday son oʻzagiga qoʻshilib kela oladi: (toʻqqizta), (oʻn toʻrtta), (uch yuzta), (etti yuzta). Undan keyin koʻplik shakli qoʻshilmaydi.

Egalik affiksining dona son qoʻshilishidagi oʻziga xoslik shundaki, bunda III shaxs birlik ((bittasi), (oltmish oltitasi))va boshqa shaxsning koʻplik (sizning beshtangiz, bizning oʻntamiz) shakli faol.

Dona son feʻl oldida kelganda tarz maʼnosini ifodalab, gapda hol boʻlib keladi: **Men bitta gapiraman.** Yuklama olib «chegaralab, ayirib, donalab, kamaytirib koʻrsatish» maʼnosini ham ifodalaydi: (toʻrttagina), (uchtagina).

Dona son koʻrsatkichi [nafar], [bosh], [jon], [dona] soʻzi bilan maʼnodoshlik munosabatida boʻladi: *bitta – bir dona, oʻnta – oʻn nafar, beshta – besh jon* kabi.

«**Chama son**» LMG. Chama son[-tacha], [-lab], [-larcha] qoʻshimchasi, sonning juft shakli, [taxminan], [qariyb], [taqriban], [chamasi], [yaqin], [kamida], [ortiq]/moʻl(roq) kabi ravish va boshqa turkum soʻzi orqali hosil qilinadi: *oʻnta ishchi, millionlab yurtdoshlar, oʻnlarcha mashina, soat oʻn birlar, uch-toʻrt kun, taxminan oʻnta, yuzga yaqin, kamida besh mingta, sakson besh mingdan ortiqroq.*

Hisob soʻzi bilan kelgan son[-cha] qoʻshimchasi bilan chama maʼnosini beradi: *uch yilcha burun, besh kilometrcha.*

«**Jamlovchi son**» LMG. Jamlovchi son bir turdagi predmetning miqdoriy yigʻindisini ifodalaydi va *sakkiz* sonidan quyi turuvchi songa qoʻshiladi. Ular quyidagicha hosil qilinadi:

1) [ikki], [uch], [toʻrt], [besh], [olti], [etti] soniga [-ov/-ovlon]affiksi qoʻshiladi: (*ikkov(lon)*), (*uchov(lon)*), (*toʻrtov(lon)*), (*beshov(lon)*), (*oltov(lon)*), (*etov(lon)*) (Bu shaklli son haqida soʻz turkumlarining koʻchishi muammosi haqida fikr bildirilgan edi). Jamlovchi son EK da kelishi mumkin: (*beshovimiz*), (*ikkovi*). Bu hodisa otlashuv sanalmaydi.

2) [ikki], [uch], [to'rt]so'zi [-ala]qo'shimchasini olib jamlash ma'nosini ifodalaydi: (ikkala), (uchala), (to'rtala), (beshala).

«**Taqsim son**» LMG. Taqsim son LMG [-tadan] lug'aviy shakli orqali hosil qilinadi:(*bittadan*), (*o'ntadan*). Taqsim son gapda ot yoki fe'l oldidan kelishi mumkin: *o'ntadan olma, beshtadan oldi*.

Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turi. Son butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra uch turga bo'linadi:

- 1) butun son;
- 2) kasr son;
- 3) aralash son.

Butun son narsa-miqdori yoki sanog'ini uning butun holatida ifodalaydi:[*bir*], [*yuz*], [*ikki ming*].

Kasr son butunning bo'lagini, ulushini ifodalaydi:(*ikkidan bir*), (*chorak*), (*yarim*).

Aralash son butun va kasr sonning birligidan tashkil topadi:(*bir butun uchdan ikki*).

Sonning butun yoki qismni ifodalashiga ko'ra turlarga bo'linishini LMGga ajratishdan farqlash lozim.

Shunga muvofiq, son turkumi KK, EK va kesimlik kategoriyasini o'z doirasida voqelantiradi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ot so'z turkumiga ta'rif bering.
2. Sifat so'z turkumining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi haqida so'zlang
3. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini sanang.
4. Sifatning umumiy grammatik ma'nosi nima?
5. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlariga izoh bering.
6. Sifatning tasniflovchi kategoriyasi deganda nimani tushunasiz?
7. Sifatning nokategorial shakllari qaysilar?

4-mavzu: RAVISH SO'Z TURKUMI.

REJA:

1. Ravish va uning o'rganilish tarixi.
2. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida.
3. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Tayanch so'zlar: *ravish, belgi, turkumlik belgisi, o'zgarmaslik, daraja kategoriyasi, ravish LMGlari, ravish turlari, derivatsiya, qo'shma ravishlar.*

Ravish turkumi muammoli masalalardan bo'lib kelgan. Uni o'rgangan olim V.V.Vinogradov «mustaqil so'zning hech bir guruhiga sig'may qolgan so'z ravish turkumiga yig'ilgan» deb haqqoniy baho bergan edi. Uning ma'no va vazifasi ot, sifat, son, olmoshga yaqin turishi arab va Yevro'a tilshunosligida qayd etilgan. Sharq va g'arb tilshunosligi ravishni ma'no va vazifasi jihatidan emas, balki boshqa birortasiga xos bo'lmagan belgi – o'zgarmaslik belgisi bilan ismdan farqlaydi. Biroq o'zbek tili grammatik qurilishining tavsifiga bag'ishlab yozilgan ko'plab ilmiy adabiyot va darslikda ravishning o'zgarmaslik tabiati inobatga olinmagan. Tilshunoslar o'zbekcha ravishni rus tilidagi «narechie»ning muqobili sifatida talqin qilishgan, natijada [*kecha*], [*kunduz*], [*tong*], [*oqshom*] kabi payt oti, [*atrof*], [*o'rta*], [*u yerda*], [*bu yerda*], [*old*], [*orqa*] kabi o'rin oti, [*oz*], [*mo'l*], [*butun*], [*to'la*] kabi miqdor sifati, [*keyin*], [*'ast*], [*baland*], [*yuqori*] kabi o'rin sifati ravish turkumi doirasida o'rganilgan.

«Asosan harakatning, qisman predmetning belgi, miqdor yoki holatini bildiruvchi o'zgarmas so'z» – ravishning so'z turkumi sifatidagi UGMSi.

Ravish o'zgarmas so'z turkumi sifatida. Ravish – mustaqil ma'noli o'zgarmas so'z. U belgi, miqdor yoki holatni, o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi va bu jihatidan ot, sifat, songa yaqin turadi. Ulardan farqli jihati shundaki, so'z o'zgartiruvchi, shakl yasovchi qo'shimcha bilan birika olmaydi. Masalan, ot ko'plik, sifat daraja shaklini qabul qiladi. Masalan, [*tongda*], [*oqshomda*], [*kunduzlari*], [*ko'proq*], [*ozroq*], [*balandroq*] kabi. Ayrim til birligida uchraydigan EK, KK shakli ravishning o'zak qismida soddalashgan, ya'ni o'zak bilan yaxlit holga kelib qolgan: [*birdan*], [*zimdandan*], [*to'satdan*], [*kechasi*], [*birga*]. Bundan tashqari qadimgi davrda keng istehmolida bo'lgan [*-ra*] (jo'nalish kelishigi) ([*so'ngra*], [*uzra*]), [*-a*], ([*qayta*], [*ko'tara*]), [*-in(-un)*] ([*birin-ketin*], [*ostin-ustun*]) qo'shimchasi ham ravish tarkibida qotib qolgan. Ravish turkumini talqin qilishda o'zgarmaslik xususiyatini e'tiborga olish uning so'z turkumi sifatidagi xususiyatini belgilashda qator qarama-qarshilikka nuqta qo'yadi.

Ilmiy manba, darslik va qo'llanmalarda [*eng*], [*juda*], [*nihoyat*], [*g'oyat*], [*lang*], [*g'irt*] kabi so'z kuchaytiruv ravishi deb qaraladi. Holbuki, bu shakllar ravish oldidan kelib belgi ma'nosini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuning uchun keyingi yillarda ayrim tadqiqotchilar bu unsurlarning ravish emasligini, chunki ravish kabi mustaqil lug'aviy ma'nodan xoliligini ta'kidlashib, kuchaytiruv yuklamasi sirasida o'rganish lozimligini uqtiradi.

Ravish LMGlari. Ravish holat, miqdor-daraja, o'rin, payt, maqsad, sabab LMGlari bo'linadi. Payt **ravishi.** payt ravishi harakatning vaqti, payti, muddatini bildiradi: [*endi*], [*saharlab*], [*hali*], [*doim*], [*indin*] kabi. U gapda ko'pincha hol, ba'zan kesim bo'lib keladi: **Bugunerta turib tongni ko'rdim.** (Uyg'.) **Bugunning hakami ertadir.** (A.Xud.)

O'rin ravishi. O'rin ravishi harakatning yuz berish o'rnini bildiradi: [*olg'a*], [*ilgariga*], [*oldinga*].

Eslatma. O'rin ravishini o'rin otidan farqlamoq kerak. Bunga o'rin otlarining morfologik o'zgarishi asos qilib olinadi: (*atrofimiz*), (*o'rtada*), (*o'rtadan*), (*ichkarida*), (*o'ngdan*), (*chapda*), (*oldida*), (*u yerdan*) kabi.

Holat ravishi. Holat ravishi harakatning bajarilish usuli, tarzini bildiradi. Shu boisdan ular tarz-tus ravishi deb ham yuritiladi: [*bexosdan*], [*astoydil*], [*majburan*], [*qavatma-qavat*], [*mardlarcha*], [*yigitlarcha*].

Miqdor-daraja ravishi. Miqdor-daraja ravishi miqdoriy sifat va darajani ifodalaydi: [*ko'plab*], [*sal*], [*qarich-qarich*], [*arang*], [*xiyol*], [*yana*] kabi. Miqdor-daraja ravishi songa yaqinlashadi. Biroq son bilan «noaniq miqdor» belgisi ostidagi noto'liq ziddiyatda belgili a'zo sifatida yuzaga chiqadi.

Maqsad ravishi. Fe'ldan anglashilgan harakatning maqsadini ifodalaydi: [*atay*], [*atayin*], [*ataylab*], [*azza-bazza*], [*jo'rttaga*], [*qasddan*].

Sabab ravishi fe'ldan anglashilgan harakatning sababini ifodalaydi: [*noiloj*], [*noilojlikdan*], [*bekordan-bekorga*], [*chor-nochor*].

Eslatma. Boshqa turkumda bo'lgani kabi ravishning ham ko'p ma'noliligi ularni LMGga ajratishda qiyinchilik tug'diradi. Masalan, [*nari-beri*]ravishi o'rinni ham (*Stollarni nari-beri surdik*), holatni ham (*U nari-beri nonushta qildi*) ifodalaydi.

Ravishda derivatsiya. Tilshunosligimizda ravish yasalishi munozarali. Chunki ravishning asosiy qismi – asli boshqa turkumga mansub soddalashgan, yaxlitlashgan leksema. Shu boisdan aksariyat tilshunoslar ravish yasalishini inkor etishib, ravishlashish (boshqa turkum so'zining ravishga o'tishi) mavjudligini tan olishadi.

Yuqorida sanab o'tilgan ravishlar tarkibiga diqqat qilinsa, ularda turli so'z yasash qolipi mavjudligi ma'lum bo'ladi: [*arabcha ot+an*], [*ot+chasiga*], [*ot+ona*], [*ot+larcha*] [*ot+lab*] kabi.

Qo'shma ravish esa [*olmosh+ot*] (*har gal, har zamon*), [*ravish+ot*] (*hali zamon, hali beri*), [*son+ot*] (*bir yo'la, bir dam*) qolipi mahsuli.

Boshqa turkumdagi takroriy so'z ravish bo'lishi mumkin: *yuzma-yuz, quruqdan-quruq* kabi. Tilshunoslar ravish turkumining yasalish sistemasiga ega emasligini [*-an*], [*-ona*] qo'shimchasining arabcha va tojikcha so'z tarkibida uchrashini, [*-larcha*], [*-chasiga*], [*-lab*] kabining grammatik ma'no ifodalashi bilan va [*-iga/-siga*], [*-chasiga*]kabi so'zning sanoqli darajada ekanligi bilan izohlaydi. Ravish gapda ko'pincha fe'lga bog'lanib hol, otga bog'lanib sifatlovchi vazifasida keladi. Bu ravish – UGMsining tarkibiy qismi.

Ravishning tuzilishiga ko'ra turlari. Ravish tuzilishiga ko'ra *sodda* va *murakkab* turga bo'linadi.

Sodda ravish bir o'zakli bo'ladi: [*bugun*], [*indin*], [*ertaga*], [*ertalab*]. Murakkab ravish o'z o'rnida uchga bo'linadi: a) *juft ravish*; b) *takroriy ravish*; v) *qo'shma ravish*. Juft ravish ikki so'zning juftlashishidan tashkil topadi: [*yana-tag'in*], [*eson-omon*]; [*ochin-to'qin*], [*oldinma-keyin*], [*qishin-yozin*]; [*uzil-kesil*], [*ura-sura*], [*unda-bunda*]; [*ora-sira*], [*ora-chora*], [*ro'y-rost*], [*sal-'al*], [*chala-chul'a*], [*emin-erkin*], [*oz-moz*], [*huda-behuda*]; [*azza-bazza*], [*a'il-ta'il*], [*eran-qaran*], [*o'lda-jo'lda*].

Takroriy ravishda bir o'zak takrorlanadi: [*galma-gal*], [*zinhor-bazinhor*], [*to'g'ridan-to'g'ri*], [*es-es*], [*o'qtin-o'qtin*], [*ahyon-ahyonda*].

Qo'shma ravish birdan ortiq mustaqil so'zning qo'shilishidan hosil bo'ladi: [*bir yo'la*], [*bir muncha*], [*bir talay*]; [*bajonudil*], [*baholiqudrat*], [*baqadrihol*]; [*har yili*], [*har yoq*], [*har dam*]; [*shu zahoti*], [*shu asnoda*].

Ravish leksemalarning o'ziga-gina xos shakl yasovchi affiks yo'q. Quyida tasvirlangan affikslar boshqa turkum leksemalari qatori ravish leksemaga ham qo'shiladi:

1. Ayrim ravish leksemalarga xuddi sifat leksemalarda bo'lganidek –roq shakl yasovchisi qo'shiladi: tezroq gapir-, sekinroq yur-, kechroq kel- kabi. Bu yerda ham -roq affiksi 'me'yordan oz' ma'nosini emas, balki 'biroz', 'nisbatan' ma'nosini ifodalaydi. Masalan, tezroq yur-birikmasida tezroq ravishi 'biroz tez' ma'nosini anglatadi; -roq affiksi harakat o'zi sust bo'lsa, biroz tezlatishni, harakat o'zi jadal bo'lsa, yana ham tezlatishni bildiradi. Demak, o'lchov — harakatning tez yoki sekin kechimi.

2. Ayrim ravish leksemalarga, ot va sifat leksemalarda bo'lganidek, 'iliq munosabat' ifodalovchi -gina affiksi qo'shiladi: tezgina kel-, sekingina shivirla-, kechagina ket- kabi.

3. Ayrim ravish leksemalar oldidan, xuddi sifat leksemalarda bo'lganidek, juda, g'oyat, eng kuchaytiruv morfema-affiksoidini keitirish bilan ravish leksema anglatadigan belgi kuchli darajada ifodalanadi: juda tez gapir-, eng sekin yur- kabi.

Leksemashakllarning, birikmashakllarning ravishga aylanishi. Turli turkum leksemalari har xil shakl hosil qiluvchi affikslami olgan holda ravishga aylanadi:

1. Oldin, keyin (ketin), kechin, ertan, kechqurun, ostin-ustun kabi leksemalar oxiridagi -n (-in, -un) qismi asli qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lgan instrumental kelishigining qo'shimchasi bo'lib, hozirgi o'zbek tiliga yuqoridagi bir necha ravish leksema tarkibida yetib kelgan. Bu affiks hozirgi o'zbek tilida kelishik qo'shimchasi deb qaralmaydi, shunga ko'ra oldin kabi leksemalar tarkibidagi bu qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birliklar bir butun holda ravish leksemaga teng deb qaraladi.

2. Hozirgi o'zbek tiliga o'zlashgan majburan, taxminan, qisman, tasodifan, vijdonan, ruhan, haqiqatan, qat'iyan kabi arabcha leksemashakllar oxiridagi -an qismi asli tushum kelishigi qo'shimchasi bo'lib, o'zbek tilida bunday qism affiks sifatida ajratilmaydi, bunday birlik bir butun holda ravish deb qaraladi (Arab tilida turlanish sifat leksemaga ham xos, qat'iyan misolida shu holat aks etgan).

Ot turkumi bayonida shakl yasovchi deb talqin qilingan -day (-dek) affiksoidi adabiyotlarda ravish yasovchisi deb ham keltiriladi. Bu yerda ham -day asli shakl yasovchi vazifasini bajaradi, o'xshatish ma'nosini ifodalaydi:

a) ot leksemaga qo'shilib keladi: chamanday, yashinday, qushday, toshday, o'qde'k kabi;

b) sifat leksemaga qo'shilib keladi: boyagiday, avvalgiday, bekorchiday, farqsizdek kabi;

d) yo'q leksemasiga qo'shilib keladi: yo'qday;

e) olmoshga qo'shilib keladi: sizday, bunday kabi (Olmoshga bundaqa, shunaqa shaklida ham qo'shiladi); f) hatto -gan sifatdosh shakliga ham qo'shiladi: achingandek, chochigandek kabi.

Bu affiksoidning bayramdagidek kabi -dagi shakl yasovchisidan keyin qo'shilishi uning ravish leksema yasovchisi emasligini qat'iy tasdiqlaydi.

Demak, -day affiksoidi turli turkum leksemalariga qo'shilib, o'xshatish ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi; bu affiksoid bilan leksema yasalmaydi.

Serunum ravish yasovchi deb -lab affiksi ko'rsatiladi. Bu affiks og'irlik o'lchovi otlariga [yuz tonnalab, botmonlab kabi), vaqt o'lchovi otlariga (haftalab, oylab, yillab kabi), payt otlariga (kechalab, saharlab, azonlab kabi), harf-, bo'g'in- kabi otlarga [harflab, bo'g'inlab) seriya sifatida qo'shiladi, demak, bu affiks — tom ma'noda leksema yasovchi emas, balki shakl yasovchi. Faqat ataylab, dastlab kabi ayrim ravish leksemalarda-gina bu affiks o'zi qo'shilgan asosdan ajratilmaydigan holga kelgan. Xuddi shunday holat ma'no taraqqiyoti yo'li bilan ertalab-leksemasida ham voqe bo'lgan: Bu leksema payt otiga aylangan, shunga ko'ra ertalabdan kabi kelishik qo'shimchasini olib ham ishlatiladi.

Bu yerda tasvirlangan -lab affiksi bilan -lab chama son yasovchisi orasida o'xshashlik kuchli: o'nlab — bir necha o'n, haftalab = bir necha hafta. Lekin donalab, harflab, bo'g'inlab kabi leksemalarda asos anglatadigan leksik ma'noga bog'liq holda bu affiks bilan boshqacha — 'har birini alohida' kabi ma'no ifodalanadi. Dastlab ravishi hozirgi o'zbek tilida ma'noli qismlarga ajralmaydi.

Adabiyotlarda -cha affiksi ham ravish yasovchi deyiladi. Avvalo bu affiksning millat, xalq nomiga qo'shib ishlatilishini ajratib baholash kerak: o'zbekcha, inglizcha kabi. Istagan millat, xalq nomiga qo'shib ishlatilaveradigan bu affiks 'shu millatga, xalqqa mansub' ma'nosini ifodalaydigan shakl yasovchi deb baholanishi lozim. -cha affiksi ko'pincha, o'g'rincha kabi leksemalarning doimiy tarkibiy qismiga aylangan: Hozirgi o'zbek tilida ko'pin, o'g'rin mustaqil ishlatilmaydi. Boshqa birliklarda -cha affiksi ajratiladi va o'zi qo'shilgan leksemaning ma'nosiga bog'liq holda bir necha ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: a) 'holat' ma'nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi sifat leksemaga, fe'l leksemaning -gan sifatdosh shakliga qo'shiladi: yashirincha, yangicha, atroflicha, avvalgicha; shoshilganча, istaganча, yugurganча kabi; b) 'biroz' ma'nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi ravish leksemaga qo'shiladi: keyinча, hozirча kabi; d) 'bilan' ma'nosi ifodalanadi: yaxshilikча kabi; e) 'qadar' ma'nosi ifodalanadi; bunda -cha affiksi olmoshga qo'shiladi: sizча, shunchа kabi. Yuqorida tasvirlangan holatlarning deyarli barchasida -cha affiksi asli leksema yasovchi deb emas, balki shakl yasovchi deb baholanishi to'g'ri. Bu fikmi bizningча, o'zicha kabi misollar qat'iy tasdiqlaydi: Leksema yasovchi turlovchidan, nisbatlovchidan keyin qo'shilmaydi.

1. Ravish yasovchi deb -larcha ko'rsatkichi ham keltiriladi: qahramonlarcha, aybdorlarcha, vaxshiylarcha, mardlarcha kabi. Bu yerda 'o'xshash' ma'nosini ifodalaydigan -cha affiksi -lar ko'plik shakli yasovchisidan keyin qo'shiladi; -dek shakl yasovchisiga sinonim bu affiks (qahramonlarcha = qahramonlardek kabi) shakl yasovchiga teng.

2. Ochiqchasiga, ojarchasiga, harbiychasiga kabi misollarda ravish yasovchi deb -chasiga ko'rsatkichi ajratiladi; aslida esa bu ko'rsatkich tarkibidagi -cha qismi — shakl yasovchi, -si, -ga qismlari esa — shakl o'zgartiruvchi affikslar. Demak, bu ko'rsatkichni ham leksema yasovchi deb bo'lmaydi.

3. Ilgarilari, avvallari, kechqurunlari kabi misollar tarkibidagi -lari ko'rsatkichi -lar ko'plik affiksi va -i nisbatlovchisidan iborat; demak, bu yerda ham leksema yasovchi haqida gapirib bo'lmaydi.

Alohida guruhni makon kelishigi affiksi bilan shakllangan ravishlar tashkil qiladi:

1) Jo'nalish kelishigi affiksi: a) payt ravishi leksemasiga qo'shiladi: ertaga, indinga kabi; b) sifat leksemaga qo'shiladi: to'g'riga, bekorga kabi. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin olg'a, zo'rg'a, jo'rttaga misollarida kelishik affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi.

2) Chiqish kelishigi affiksi: a) ravish leksemaga qo'shiladi: hozirdan, tezdан kabi; b) sifat leksemaga qo'shiladi: yangidan, chindan, yolg'ondan kabi; d) ot leksemaga qo'shiladi: tubdan, yoddan kabi; e) bir soniga qo'shiladi: birdan. Yuqoridagi misollarda kelishik affiksi aniq ajraladi, lekin to'satdan, qo'qqisdan misollarida kelishik affiksi hozirgi o'zbek tilida ajralmaydi. 3) O'rin kelishigi affiksi tezda misolida ravish leksemaga, kunda misolida ot leksemaga, boshda misolida belgi ma'nosi bilan ishlatilgan ot leksemaga qo'shilgan. Yuqoridagi misollardan uzoqda, orqada kabilami farqlash kerak: Bu yerda asli itzoq yerda kabi birikmashaklning ikkinchi a'zosi bo'lib keladigan yer(joy) ot leksemasi ellipslanadi, natijada kelishik affiksi birinchi a'zo vazifasida kelgan sifat leksemaga qo'shiladi. 4) Ayrim hollarda ikki ravish leksema ayni bir asosga boshqa-

boshqa

kelishik ko'rsatkichini qo'shish bilan shakllanadi: birga, birdan; tezda, tezdin kabi. Bunday hodisani ayni bir asosning uch makon kelishigida turlanishi hodisasidan ajratish kerak: o'ngga, o'ngdan, ongda kabilar uch ravish leksema emas, balki o'rin otining uch kelishik shaklida ishlatilishiga teng; bunday o'rin oti, masalan, o'ngni kabi boshqa kelishik shaklida ham ishlatilaveradi.

Ravish leksema yasovchisi sifatida -(s)iga ko'rsatkichi ham keltiriladi. III shaxs nisbatlovchisi va jo'nalish kelishigi affiksidan iborat bu ko'rsatkich: a) ravish leksemaga qo'shiladi: birakayiga, birdaniga kabi; b) sifat leksemaga qo'shiladi: yalpisiga, tikkasiga, sidirg'asiga, baravariga, ko'ndalangiga, rostakamiga, yolg'ondakamiga kabi. Qanaqasiga, shunaqasiga misollarida sifat olmoshga qo'shilgan. Uzunasiga, qatorasiga misollarida bu ko'rsatkich -asiga shaklida qo'shilgan. Bir misolda tojikcha pirovard fe'l shakliga -ida ko'rsatkichi qo'shilgan: pirovardida.

Yuqoridagi tasvirlardan ayon bo'ladiki, -lay(in) ko'rsatkichidan boshqa maxsus ravish yasovchi affiks hozirgi o'zbek tilida yo'q. Ravish leksemalar tarkibida qatnashadigan ko'rsatkichlar asli shakl yasovchi, shakl o'zgartiruvchi affikslarga teng. Bunday affikslami leksema yasovchi deb bo'lmaydi. Bu yerda ravish leksema yasalishi haqida emas, balki biror turkum leksemasining ma'lum bir shakl hosil qiluvchini olgan holda ravish leksemaga aylanishi haqida gapirish to'g'ri. Ravishga aylanish yangi leksik ma'noning vujudga kelishi bilan voqe bo'ladi. Quyidagi tasvirlar ham ravishga aylanish hodisasini aks ettiradi.

Ravishlarda ikki leksemaning juft holda ishlatilishi anchagina uchraydi; bunda asosan 'umumlashtirish' ma'nosi ifodalanadi:

- 1) Holat ravishlari juft holda ishlatiladi: ochin-io'qin, ochiq-oydin, to'lato'kis, eson-omon// omon-eson, uzil-kesil, apil-tapil kabi;
- 2) Payt ravishlari juft holda ishlatiladi: yozin-qishin, erta-kech, tun-kun, avval-oxir kabi. Ayrim juft leksemalardan 'chama', 'taxmin' ma'nosi ifodalanadi: erta-indin, bugun-erta kabi;
- 3) O'rin ravishlari juft holda ishlatiladi: ostin-ustun, oldin-keyin (oldin-ketin); nari-beri kabi;
- 4) Fe'l leksemalar juft holda ishlatiladi: ag'dar-to'ntar kabi;
- 5) Fe'l leksemalar -b ravishdoshi shaklida juft holda ishlatiladi; ozib-yozib kabi;
- 6) Naridan-beri, uzundan-uzoq kabi birinchi qismiga chiqish kelishigi affiksini qo'shib juft ravish hosil qilish ham mavjud.

Ravishlarda ayni bir leksemani takrorlab ishlatish hodisasi taraqqiy etgan bo'lib, quyidagicha ko'rinishlarga ega:

1. Aynan takrorlanadi: 1) Ravish takrorlanadi: oz-oz, ko'p-ko'p, astaasta, sekin-sekin, zo'rg'a-zo'rg'a, tez-tez kabi. 2) Ravishdosh shakli takrorlanadi: a) -a ravishdoshi shaklida: qayta-qciyta, bora-bora kabi; b) -b ravishdoshi shaklida: borib-borib, turib-turib kabi. 2. Oraga -ma/ba- qo'shib takrorlanadi: yakkama-yakka, yo'lma-yo'l, ketma- ket, uchma-uch, navbatma-navbat, orqama-orqa, yuzma-yuz, damma-dam (dam-badam shaklida ham ishlatiladi), nomma-nom (nom-banom shaklida ham ishlatiladi), qadamma-qadam (qadam-baqadam shaklida ham ishlatiladi), zinhor-bazinhor kabi. Zo'rma-zo'raki misolida takror oxiriga -aki ko'rsatkichi qo'shilgan. -ra qo'shib ishlatish juft ravishlarda ham uchraydi: oldinma-keyin kabi.
3. Sifatdosh bo'lishli, bo'lishsiz shaklda takrorlanadi: ko'rar-ko'rmas, bilinar-bilinmas kabi. Bunday takror qo'yarda-qo'ymay tarzida ham tuzilgan.
4. Birinchi qismga chiqish kelishigi affiksi qo'shib, o'ziga xos sintaktik qurilma hosil bo'ladi: kamdan kat, to'g'ridan to'g'ri, ochiqdan ochiq, yildan yil, kundan kun kabi. Hech narsadan hech narsasiz misolida qurilma oxiriga -siz affiksi qo'shilgan.

5. Birinchi qismiga chiqish kelishigi affiksi, ikkinchi qismiga jo'nalish kelishigi affiksi qo'shiladi, natijada o'ziga xos sintaktik qurilma hosil bo'ladi: yildan yilga, kundan kunga, bekordan bekorga, uyoqdan buyoqqa kabi.

6. O'z-o'zidan, o'z-o'zicha, bitta-bittalab, yo'l-yo'lakay, bora-borguncha, unda-bunda, unchamuncha kabi takror shakllari ham uchraydi.

7. Oz-moz, onda-sonda kabi ikkinchi qism oldiga tovush orttirib takrorlash ham mavjud.

8. Bab-baravar misolida to'liqsiz takror aks etgan.

Bir qancha ravishlar asli birikmashakidan o'sib chiqqan: 1) bir talay kabilarda birikma shu shaklida ravishga aylangan; 2) bir boshdan, bir zumda, bir onda, bir pasda, bir pasga, har holda kabilarda birikma makon kelishigi shaklida ravishga aylangan; 3) bir yo'la, bir yo'lasini, har yoqlama kabilarda birikma -a, -asi, -lama affiksi qo'shilgan holda ravishga aylangan; 4) bugun, biroz, birmuncha kabilarda bu кип, bir oz, bir muncha birikmasi yaxlitlanib ravishga aylangan.

Xullas, ravish leksema asosan biror turkum leksemashaklining, shuningdek biror birikmashaklning ma'no taraqqiyoti yo'li bilan ravishga aylanishi natijasida hosil bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Ravish so'z turkumiga ta'rif bering.
2. Ravish soz' turkumining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi haqida so'zlang
3. Ravishning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini sanang.
4. Ravishning umumiy grammatik ma'nosi nima?
5. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlariga izoh bering.
6. Ravishning tasniflovchi kategoriyasi deganda nimani tushunasiz?

5-mavzu: TAQLID SO'ZLAR

REJA:

1. Taqlid va uning o'rganilish tarixi.
2. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarishlik taqlidning grammatik belgisi sifatida.
3. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Tayanch so'zlar: *taqlidlar, mustaqil so'zlar, oraliqdagi so'zlar, morfologik o'zgarish, o'zgarishlik, aqlid so'zlarning LGGlari.*

Taqlid va uning UGMsi. Taqlid o'zbek tilida bir guruhni tashkil etadi va mustaqil so'z sirasidan o'rin olgan. Buning bir nechta ilmiy asosi bor.

Birinchidan, turkiy tillarda taqlid miqdoran ko'p va ma'no jihatdan rang-barang.

Ikkinchidan, ulardagi tovushlar tizmasi ma'lum obyektiv voqelikdan xabar berib turadi.

Uchinchidan, taqlid gap tarkibida ma'lum bir sintaktik pozitsiya egallaydi.

Taqlid – o'zbek tilining muhim ifoda vositasi. Ularning ifoda tomoni mazmun tomoni bilan tabiiy bog'lanishga ega. Bu quyidagi so'z qatorini qiyoslash asosida hosil bo'ladi:

1) *taq-tiq/tuq-tuq/to'q-to'q/taq-taq;*

2) *liq-liq/luq-luq/lo'q-lo'q/laq-laq;*

3) *tirs-tirs/tars-tars/tars-turs;*

Ko'rinadiki, fonetik qiyofasi tor unli va qattiq undoshdan iborat bo'lgan taqliddagi belgi darajasi keng unli va qattiq undoshdan iborat taqlid ifodalagan belgidan 'ast. Bu taqliddagi shakl va mazmunning tabiiy bog'lanishini ko'rsatadi.

Taqlid jamiyatning har bir a'zosi tushunadigan turli ma'noga ega. Masalan, *taq-tiq/tuq-tuq/to'q-to'q/taq-taq* taqlidi orqasida nimadir yotgani va ma'lum bir borliq hodisasini ifodalayotgani shu til jamiyatining barcha a'zolari uchun tushunarli.

Taqliddagi ma'noviy g'ayrioddiylik uni boshqa mustaqil so'z turkumidan ajratib turadi. Biroq ma'noviy g'ayrioddiylik faqat taqlidgagina xos emas. Buni olmoshda ham kuzatish mumkin. Chunki ularning ma'nosi faqat matn tarkibidagina anglashilib, shu boisdan «ichi bo'sh» so'z sifatida baholanadi. Ammo «ma'noviy bo'shlik» olmoshni mustaqil so'z sifatida qarashga monelik qila olmagan. Demak, bu nomustaqil so'z sifatida qarab kelingan taqlidning ham «mustaqillashuvi»ga to'siq bo'la olmasligi kerak.

Taqlid morfologik jihatdan o'zgaruvchan, bu bilan to'la ma'nodagi mustaqil so'z bo'lgan ravishdan ham ustun turadi: *odamlarning g'ovur-g'uvuri, eshikning taqir-tuquridan* kabi.

Taqlid cheklanmagan muchalanuvchanlikka ega:

1. Kesim: *Atrof g'ala-g'ovur.*

2. Ega: *Taqir-tuqur tinmadi.*

3. Hol: *Shabada g'ir-g'ir esadi.*

4. To'ldiruvchi: *Odamlarning vag'ir-vug'uridan quloqlar bitgudek.*

5. Aniqlovchi: *Mahallada duv-duv gap.*

Demak, taqlid «borliq hodisalariga taqlidning lisoniy ifodasi» UGMsiga ega.

Ko'rinadiki, o'zbek tilidagi taqlid semantik-morfologik-sintaktik jihatdan mustaqil so'z maqomiga ega.

Taqlidning LMTlari. Taqlidning ayrimi tovushga taqlidni ifodalasa, ikkinchi bir xili ko'rinish-holatga taqlidni ifodalaydi. Shu boisdan «tovushga taqlid» va «ko'rinishga taqlid» LMTlari farqlanadi.

I. «Tovushga taqlid» LMT. Bu LMT a'zolari kishi, jonivor, narsa va hodisalar paydo qilgan tovushga taqlid qilish natijasida paydo bo'ladi. LMT o'z o'rnida ikkiga bo'linadi:

1. «Fiziologik tovushga taqlid» LMG: [qah-qah], [xur-xur], [xir-xir], [miyov-miyov].
2. «Fizik tovushga taqlid» LMG: [tap-tup], [taqir-tuqur], [tipir-tipir].

II.«Ko'rinishga taqlid» LMT. Tovushga taqlid so'z eshitish bilan bog'liq hodisani ifodalasa, ko'rinishga taqlid so'zi ko'rinish bilan bog'liq hodisalarni aks ettiradi. Bu LMT ham o'z o'rnida:

1. «Harakatni ifodalovchi taqlid» LMG: [dik-dik], [lik-lik], [lapang-lapang], [ship-ship].
2. «Tashqi ko'rinishni ifodalovchi taqlid» LMG: [hil-hil], [jiq-jiq], [mo'lt-mo'lt].
3. «Yorug'likni ifodalovchi taqlid» LMG: [lip-lip], [jimir-jimir], [yalt-yult], [yilt-yilt].

Taqlidning tuzilishiga ko'ra turlari. O'zbek tilida taqlid juft va takroriy ko'rinishda bo'ladi.

Juft taqlid: [g'arch-g'urch], [taq-tuq], [vag'ir-vug'ur], [g'ing-ping], [alang-jalang], [apir-shapir].

Takroriy taqlid: [guv-guv], [duv-duv], [shartta-shartta], [cho'lp-cho'lp], [shaqa-shaq], [guppa-guppa].

Eslatma. Taqlid [etmoq, [demoq], [qilmoq]fe'li bilan kelganda qo'shma fe'l vujudga keladi: [guv-guv etmoq], [duv-duv qilmoq], [cho'l'-cho'l' qilmoq].

Voqelikdagi turli tovushiarning, harakat-holat ko'rinishlarining til tovushlari vositasidagi ramziy ifodasiga tasvir birliklari turkumi deyiladi. Tavsir birliklari tovush tasviri birliklariga va harakat-holat ko'rinishi tasviri birliklariga ajratiladi: o'xo'-o'xo', qu-qu, qitir-qitir; alang-jalang, hil-hil, milt-milt kabi.

Adabiyotlarda bunday birliklar ko'pincha taqlid(iy) so'zlar deb nomlanadi. Aslida taqlid — boshqa, tasvir — boshqa hodisa. Kishi biror hayvonning, masalan, mushukning tovushini taqlid qilib qaytarishi mumkin, lekin mushuk chiqaradigan tovushning o'zida taqlid qilish yo'q; kishi o'z tilidagi tovushlar vositasida mushuk chiqaradigan tovushning ramziy ifodasini hosil qiladi. Harakat-holat ko'rinishining ramziy tovush ifodasiga nisbatan esa taqlid izohi umuman to'g'ri kelmaydi. Demak, bunday biriiklarni bir butun holda tasvir birliklari deb nomlash to'g'riroq. Voqelikdagi turli tovushlar deganda til tovushlaridan boshqa tovushlar tushuniladi. Kishi bu tovushlarni eshitib, o'z tilidagi tovushlar vositasida tasviriy ifodasini hosil qiladi. Bunday tasviriy ifoda voqelikdagi tovushning aynan o'zi bo'lmaydi. Masalan, miyov tasvir birligi mushukning miyovlashiga aynan teng emas, albatta; shunga ko'ra ramziy ifoda deyiladi. Kishi voqelikdagi harakat-holatning turli ko'rinishini ko'rib, til tovushlari bilan ularning ramziy tasvirini hosil qiladi. Bu yerdagi tovush ramzi o'ta shartli bo'ladi.

Tasvir birliklarining ifoda jihati bo'lib til tovushlari xizmat qiladi; mazmun jihati — ular bog'lanadigan voqelikning nomi ekanligi. Masalan, miyov tasvir birligi mushuk chiqaradigan tovushning, yalt-yult tasvir birligi uning turlicha tovlanishining nomi bo'lib xizmat qiladi. Lekin tasvir birligi leksik ma'no anglatmaydi, faqat voqelikning nomi bo'lish vazifasini bajaradi. Shu jihati bilan leksemalardan farqlanadi.

Tasvir birliklarining ko'p qismini tovush tasviri birliklari tashkil qiladi va quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

- 1) kishi yo'talganda, kulganda, hayajonlanganda va boshqa holatlarda chiqaradigan tovushning ramziy ifodalari: o'xo'-o'xo', xa-xa-xa, hiring-hiring kabi;
 - 2) hayvon, parranda, hasharot chiqaradigan tovushning ramziy ifodalari: moo (qoramolning ma'rashi), baaa (qo'yning balashi), vov-vov (itning vovullashi), qag'-qag' (qarg'aning qag'illashi) kabi;
 - 3) jonsiz narsalarning urilishi, sinishi kabilar tufayli hosil bo'ladigan tovushning ramziy ifodalari: gup-gup, taraq-turuq, biqir-biqir, giildur-guldur, g'iyq, pirr kabi.
- Turli harakat-holatda voqe bo'ladigan ko'rinishlarni ifodalaydigan tasvir birliklari anchagina bo'lib, bular ham yuqoridagicha ma'no turlariga ajratiladi: 1) kishi harakat-holatining ramziy ifodalari: hang-mang, alang-jalang, lapang-lapang kabi;
- 2) hayvon, parranda, hasharot harakat-holatining ramziy ifodalari: dikang- dikang, lip-lip, g'imir-g'imir kabi;
 - 3) jonsiz narsalar holatining ramziy ifodalari: yalt, yilt-yilt, lov kabi.

Tasvir birliklari tovush tuzilishi jihatidan asli bir bo'g'inli bo'lib, asosan CVC tovush tizimiga ega: vij, gum, dik, do'q, jiz, paq, pop, shaq kabi.

Oxiri ikki konsonant bilan tugaydigan bir bo'g'inli tasvir birliklari ham anchagina: gurs, shilt, yalt, yarq, qars, qirs kabi.

Tovush tasviri birliklarida tovushning cho'ziqligi asosan oxirgi tovushni cho'zib aytish bilan (yozuvda shu harfni takror yozish bilan) ifodalanadi: gurr, pirr, sharr, maaa kabi.

Tasvir birligi ifodalaydigan tovush yoki holatning takrorlanishi shu tovush ramzini takror ishlatish bilan bildiriladi: ak-ak, big '-big', dag '-dag', dir-dir, lip-lip, milt-milt kabi. Ba'zan uch takror ham uchraydi: xa-xa-xa, ququ-qu, g'it-g'it-g'it kabi.

Takrorlanadigan tovush yoki holat har xil ekanini ifodalash uchun oldingi qism tarkibidagi a tovushi ikkinchi qismda n tovushiga almashtiriladi: bag'-bug', qars-qurs, paq-puq, shalp-shulp, yalt-yult, g'arch-g'urch kabi.

Ikki bo'g'inli tasvir birliklari ham anchagina bo'lib, bular odatda takrorlanib ishlatiladi: bidir-bidir, jivir-jivir, dikang-dikang, diring-diring, hiring-hiring kabi. Bunday tasvir birliklari oxiridagi -ir, -ing qismi kengaytiruvchi element deyiladi; quyidagi tasvir birliklarida bunday qism aniq ajralib turadi: biqir-biqir, dukur-dukur, do'qir-do'qir, ho'ngir-ho'ngir kabi.

Ikki bo'g'inlilarda takrorlanadigan tovush har xil ekani bu yerda ham ovoz tovushni almashtirish bilan ifodalanadi: tapir-tupur, tasir-tusur, shatir-shatur, g'ajir-g'ujur kabi.

Bir tur tovushdan ikkinchi tur tovushga tezda o'tilishi takrorlanadigan qismlarning birinchisi oxiriga a tovushini qo'shib ifodalanadi: dukura-dukur, tasira-tusur, shaqira-shuqir kabi.

Xullas, tasvir birliklari — o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadigan alohida turkum. Tasvir birligi oxiriga -ir, -ing qismini qo'shish bilan, takrorlanadigan qismlarda ovoz tovushni almashtirish bilan, takrorlanadigan qismlar orasida a tovushini orttirish bilan ma'lum bir grammatik ma'nolar ifodalanadi; shunga ko'ra bu hodisalarni shakl yasalishi deb baholash mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Taqlid so'z turkumiga ta'rif bering.
2. Taqlid so'z turkumining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi haqida so'zlang
3. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini sanang.
4. Taqlidning umumiy grammatik ma'nosi nima?
5. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlariga izoh bering.

6-mavzu: OLMOSH SO‘Z TURKUMI

REJA:

1. Olmosh va uning o‘rganilish tarixi.
2. Olmoshning o‘ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so‘z turkumi sifatidagi o‘ziga xos grammatik xususiyatlari.
3. Olmoshlarning matndagi o‘rni. Sintaktik imkoniyatlari.

Tayanch so‘zlar: *olmosh, mustaqil so‘zlar, ishora so‘zlar, ichi bo‘sh so‘zlar, yordamchi so‘zlar, turlanish, kesimlik kategoriyasi, ismlar, olmosh LMGlari.*

Ma‘lumki, so‘zlar ma‘noviy belgisiga ko‘ra uch tipga bo‘linadi:

a) mustaqil ma‘noli so‘z (fe‘l, ot, sifat, son, ravish, taqlid);

b) bo‘sh - ishora ma‘noli so‘z (olmosh);

v) yordamchi ma‘noli so‘z (ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama, ko‘makchi fe‘llar).

“Ishoraviylik” ramzi bilan ataluvchi olmosh boshqa leksemalardan ajralib turadi. O‘zbek tilshunosligida olmoshning doirasi va vazifasi zo‘rma-zo‘rakilik bilan ancha chegaralanib “ot, sifat, son o‘rnida qo‘llanuvchi so‘z” sifatida o‘ta tor tushunilgan. Vaholanki, bu bilan olmoshning nafaqat ot, sifat, son, balki fe‘l, ravish, taqlid, undov, gap va, hatto, matnni almashtira olish, ularga ishora etish xususiyati hisobga olinmagan. Olmosh guruhiga [*men*], [*sen*], [*u*], [*biz*], [*siz*], [*ular*]kabi shaxsga; [*kim*], [*nima*], [*bu*], [*ana*], [*mana*], [*mana bu*] kabi predmetga; [*qanday*], [*bunday*], [*shunday*]kabi belgiga; [*buncha*], [*shuncha*], [*qancha*] kabi miqdorga; [*qachon*] kabi paytga; [*qaer*] kabi o‘ringa; [*shunday bo‘lmoq*], [*qanday qilmoq*] kabi harakat-holatga ishora qiluvchi leksema kiradi. Shuni aytib o‘tish joizki, olmosh hamma vaqt ham qandaydir bir so‘zni “almashtirib”, uning o‘rnida kelavermaydi. Misollar: 1. *Kim mehnat qilsa, u rohat ko‘radi.* 2. *Men kecha keldim. Sen buni bilasan.* 3. *Nima qilsam ham men o‘zim bilaman.* 4. *Hamma mehmonlar biznikida.* 5. *Barcha mushkulotlar oson bo‘ldi* kabi gaplarda kishilik, belgilash, o‘zlik olmoshi hech bir so‘zni almashtirmagan.

Arab tilshunosligida olmosh alohida so‘z turkumi sifatida berilmagan, balki har bir so‘z turkumi ichida “yashirin ma‘noli so‘z” (*zamirlar*) sifatida alohida guruhlariga ajratilgan. Chunonchi, [*kitob*], [*daftar*], [*Abbos*]– aniq ma‘noli ot bo‘lsa, [*men*], [*sen*], [*kim*]– yashirin ma‘noli ot (zamid otlar) dir. Yoxud [*oq*], [*qizil*], [*chiroyli*]— ma‘lum ma‘noli sifat hisoblansa, [*bunday*], [*shunday*]kabilar “zamid sifat” dir.

Olmoshlar shaxs, predmet, belgi yoki miqdorga xos bo‘lgan umumiy (mavhum) ma‘noni anglatadi. Olmosh bildiruvchi ma‘no nutq jarayonida aniq yuzaga chiqadi. Ular o‘zlari almashtiruvchi so‘z kabi morfologik jihatdan o‘zgaradi.

Olmosh qaysi so‘z turkumi o‘rnida qo‘llansa, shu turkumga xos sintaktik vazifani bajaradi: ***O‘qituvchi*** darsga kirdi. ***U*** o‘quvchilar bilan salomlashdi. Olmosh o‘zidan oldin aniqlovchi talab qilmaydi: *Hamma xursand va shod. U kitobni o‘qidi.* Olmosh ifoda etadigan ishoraviy ma‘nosiga ko‘ra quyidagi ma‘no guruhiga bo‘linadi:

1. Kishilik olmoshi.
2. Ko‘rsatish olmoshi.
3. O‘zlik olmoshi.
4. Belgilash olmoshi.
5. So‘roq olmoshi.
6. Gumon olmoshi.
7. Bo‘lishsizlik olmoshi.

I. Kishilik olmoshi shaxs olmoshi deb ham yuritiladi, chunki shaxsga ishora qiladi. Shaxs olmoshining qo'llanishida ayrim o'ziga xoslik bor. Shaxs o'z ma'nosidan tashqari ko'chgan holda qo'llanishi mumkin. Chunonchi:

1. *Biz* olmoshi II shaxs ko'plikdagi *siz* olmoshi o'rnida qo'llanadi: *Qani, endi biz ishga tushaylik*. Bunda tashviq ma'nosi anglashilib turadi.

2. Ko'plikni ifodalovchi olmosh birlik uchun qo'llanadi: *Bu ishni biz uddaladik*. Ushbu gapda *men* o'rnida ishlatilgan *biz* maqtanish, kibr ma'nosini ifoda etmoqda.

3. *Men* o'rnida *biz* olmoshi ishlatilib, kamtarlikni ifodalashi mumkin: ***Biz bu maqolada echimini kutayotgan muammoni olib chiqdik***.

4. *Sen* o'rnida *siz*, *u* o'rnida *ular* olmoshi ishlatilib, hurmat ma'nosini ifodalaydi: ***Siz bugun darsda faol ishtirok etdingiz. Men buvimni yaxshi ko'raman. Ular ham meni sevadi***.

5. *Siz* olmoshi, ko'pincha, birlik sonda hurmat ma'nosida qo'llanilganligi sababli ikkinchi shaxs ko'plik sonda *sizlar* shakli ishlatilishi mumkin: ***Sizlar kelajagimiz***.

6. Kishilik olmoshiga [-lar] qo'shimchasi qo'shilganda turli ma'no voqelanadi:

- *Senlarga aytya'man* (kamsitish ma'nosi).

- *Sizlarda insof bormi?* (ko'plik ma'nosi).

7. O'zbek tilida III shaxs ko'plik olmoshi, aslida birlik sondagi olmoshning ko'plik shaklidir: *u+lar*.

II. Ko'rsatish ma'nosini anglatuvchi olmosh ([*bu*], [*shu*], [*mana*], [*ana*], [*u*], [*o'sha*], [*hov*] va boshqa) shaxs, predmet, belgini alohida ko'rsatish, ta'kid ma'nosi uchun xizmat qiladi. Ular ifodalovchi (ishoraviy) nom ham turlicha:

-shaxs yoki predmetga ishora qiladi: - *Siz o'shami?* (A. Qod.)

-belgiga ishora qiladi: *Menda ham shunaqa kitoblar bor*.

-vaqtga ishora qiladi: *Shu-shu Fotima kelmay qoldi*.

-o'ringa ishora qiladi: *Siz - unda, biz - bunda*.

III. O'zlik olmoshi. Bu olmosh turi «ta'kid», «tegishlilik» ma'nosini anglatadi: *Mening o'zim bilaman*. «O'xshatish» ma'nosi ham matndagi *o'z* so'zi orqali ifodalanadi: *Onasining o'zi*. «Umumiylik», «noaniqlik» kabi ma'no - *O'zim*. (*shunchaki*) turdagi gapda ro'yobga chiqadi.

IV. So'roq olmoshi shaxs, predmet, belgi, harakatni aniqlash maqsadida ishlatiladi. Ular quyidagiga bo'linadi:

-shaxsga nisbatan qo'llanuvchi olmosh ([*kim*], [*kimlar*]);

-voqea-hodisa, predmetga nisbatan qo'llanuvchi olmosh ([*nima*], [*nimalar*]);

-belgini aniqlashga qaratilgan olmosh ([*qanday*], [*qanaqa*]);

-sabab va maqsadni aniqlashga qaratilgan olmosh ([*nega*], [*nima uchun*], [*nechuk*]);

-miqdorga nisbatan ishlatiluvchi olmosh ([*necha*], [*qancha*]);

-harakat-holatga nisbatan qo'llanuvchi olmosh ([*nima qildi*], [*nima bo'ldi*]);

-o'rin ma'nosini ifodalovchi so'roq ([*qani*], [*qaerda*]);

-**payt** ma'nosini ifodalovchi so'roq ([*qachon*], [*qachonga*]).

Bunday olmosh faqat so'rash ma'nosini yuzaga chiqarmaydi, ma'noni bo'rttirish ([*kimki*], [*nimaki*]), ritorik so'roq (*Men sizga nima dedim?!*), taajjub (*Buning nimasi yomon?!*) kabi ma'noni ham ifoda etadi.

V. Belgilash olmoshi. [*Har*] so'zi belgilash olmoshi bo'lib, ko'pincha, so'roq olmoshi bilan birikib keladi va qo'shma belgilash olmoshi yasaydi. Jamlilik ifodalovchi olmosh predmet, shaxs, belgiga nisbatan yig'indini, to'dani ifodalaydi: [*hamma*], [*yal'i*], [*har kim*], [*barcha*], [*bari*], [*butun*].

VI. Gumon olmoshi muayyan predmet, shaxs, belgi yoki harakat xususida o'ta mavhum tushunchani bildiradi. So'roq olmoshi bilan qo'shib keladigan [*alla-*]va [*-dir*] birligi ushbu olmoshga noaniqlik ma'nosini kiritadi.

VII. Bo'lishsizlik olmoshi ma'no jihatdan tasdiqqa nisbatan zidlikni bildiradi va [*hech*]so'zi bilan hosil bo'ladi. Bu olmosh gapni (fikrni) inkorga aylantiradi: [*hech nima*], [*hech kim*], [*hech qachon*], [*hechmahal*].

Til tarixida ham, hozir ham ba'zan juda ko'tarinki, tantanavor nutqda kamtarinlik uchun, manmanlik qilmaslik maqsadda [*men*] kishilik olmoshi o'rnida [*kamina*], [*faqir*], [*banda*] so'zi qo'llaniladi. Bular tilshunosligimizda *ot-olmosh* nomini olgan.

Olmosh – nutqni o'rinsiz takrordan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasi. U gapda turli sintaktik vazifada kela oladi: 1. *Mening o'zimbuni yukni ko'tara olmas edim.* 2. *Vazifamiz — shu.* 3. *Qanday kishi xor bo'lur?* 4. *Bahor keldi seni so'roqlab.*

Olmoshning tuzilishiga ko'ra turi quyidagi jadvalda berilgan (24-jadval):

24-jadval

Olmosh	Sh a k l l a r				
	Sodda		Qo'shma	Juft	Takroriy
1. Kishilik	<i>men, sen</i>	<i>Meniki</i>	-	-	-
2. Ko'rsatish	<i>bu, shu</i>	<i>bular, shunisi</i>	<i>ana bu, mana u</i>	<i>u-bu</i>	<i>o'sha-o'sha, shu-shu</i>
3. O'zlik	<i>O'z</i>	<i>o'zim, o'zlari</i>	-	-	<i>o'z-o'zini</i>
4. So'roq	<i>kim, nima?</i>	<i>Kimga, nimalar</i>	<i>nima uchun, nima maqsadda</i>	-	<i>kim-kim, nima-nima?</i>
5. Belgilash	<i>hamma, bari</i>	<i>Hammamiz</i>	<i>har kim, har nima</i>	-	<i>barcha-barcha, butun-butun</i>
6. Bo'lishsizlik	<i>hech</i>	-	<i>hech kim, hech nima</i>	-	-
7. Gumon	-	<i>birov, kimdir</i>	<i>allakim, allanima</i>	-	-

Jadvalda olmoshning "yasama" shaklini berishda tilshunos olim G'. Zikrillaev fikriga tayanib, lug'aviy shakl qo'shimchasi inobatga olindi.

Olmoshdashaxs, hurmat, miqdor, munosabat ma'nosining mujassamligi va ularning nutqda rang-barang usulda namoyon bo'lishi tilshunosligimizda aniqlangan. Masalan, kishilik olmoshidan [*men*], [*biz*] so'zlovchi, [*sen*], [*siz*] tinglovchi, [*u*], (*ular*) o'zga shaxs bildiradi. Miqdor ma'nosining ifodalanishi jihatidan [*men*], [*sen*] birlikni; [*biz*], (*sizlar*), (*senlar*), (*bizlar*) ko'plikni; [*siz*], (*ular*) birlikka ham, ko'plikka ham betaraf ma'noni anglatadi. Hurmat ma'nosi II, III shaxs olmoshiga xos. Munosabat ma'nosi kishilik olmoshining kelishik qo'shimchasini olib o'zgarishida yuzaga chiqadi. Kishilik olmoshiga egalik ma'nosi ham xos. Ushbu olmosh qaratqich kelishigida egalik ma'nosini bildiradi: *bizning universitet*. O'zbek tilida egalik ma'nosi

kishilik olmoshiga [-niki] qo'shimchasini qo'shish bilan ham ifodalanadi: *meniki, bizniki, seniki* kabi. Yuqoridagi ma'nolarning ifodalanish tarzini boshqa LMGda ham kuzatish mumkin.

Olmosh derivatsiyasi. Olmosh o'ziga xos so'z yasash tizimiga ega. U – affiksatsiya va Kompozitsiya usuli. Ko'rsatish, belgilash-jamlash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari sirasida yasalmalari ham mavjud. Shuningdek, o'zga turkum so'zlaridan derivatsiyaning boshqa ko'rinishlari asosida ham olmosh vujudga kelgan: [*birov*], [*butun*], [*yal'i*], [*jami*], [*falonchi*] kabi.

Affiksatsiya usuli. Affiksatsiya usuli gumon olmoshida uchraydi. Bu usul bilan asosan olmoshdan olmosh yasaladi.

Yasash asosiga qo'shib, olmosh hosil qiluvchi affiksning so'z yasash darajasi ham turlicha: [-*alla*], [-*dir*]. Bu affiksning har biri turli derivatsion qolip tarkibida olmosh yasaydi: [-*alla*+*so'roq olmoshi/narsa* = 1) *asodan anglashigan narsa/predmetning gumonligi*] qolipi hosilalari quyidagicha: [*allakim*], [*allanima*], [*allanarsa*], [*allakim*], [*allaqaer*] kabi.

[*so'roq olmoshi*+ - *dir*= 1) *asodan anglashigan narsa/predmetning gumonligi*] qolipi quyidagi olmoshlarni beradi: [*kimdir*], [*nimadir*], [*qaerdadir*], [*qachondir*], [*qaysidir*] kabi.

Kompozitsiya usuli. Bu usul vositasida qo'shma (ko'rsatish, so'roq, belgilash, bo'lishsizlik), juft (ko'rsatish) va takroriy (ko'rsatish, so'roq, belgilash) olmoshlar yasaladi

Olmosh	Qo'shma	Juft	Takroriy
2. Ko'rsatish	<i>ana bu, mana u</i>	<i>u-bu</i>	<i>o'sha-o'sha, shu-shu</i>
4. So'roq	<i>nima uchun, nima maqsadda</i>	-	<i>kim-kim, nima-nima?</i>
5. Belgilash	<i>har kim, har nima</i>	-	<i>barcha-barcha, butun- butun</i>
6.Bo'lishsizlik	<i>hech kim, hech nima</i>	-	-

O'zbek tilida olmoshning yasalishi masalasi munozarali. Olmoshning yasash xususiyati tadqiqi tilshunosligimiz oldida turgan vazifalardan.

Savol va topshiriqlar:

1. Olmosh so'z turkumiga ta'rif bering.
2. Olmosh so'z turkumining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi haqida so'zlang
3. Olmoshning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini sanang.
4. Olmoshning umumiy grammatik ma'nosi nima?
5. Olmoshning lug'aviy-grammatik guruhlariga izoh bering.

7-mavzu: SO‘Z TURKUMLARINING KO‘CHISHI.

REJA:

1. So‘z turkumlarida ko‘chish hodisasi.
2. Transpozitsiya hodisasi.
3. Konversiya hodisasi
4. Polifunksionallik.

Tayanch so‘zlar: *ko‘chish, transpozitsiya, konversiya, polifunksionallik, semantika, lisoniy hodisa, nutqiy hodisa, sema, gibrid so‘z, sinxron va diaxron aspekt.*

Ma‘lumki, nazariy yondashuvda leksemaning atash (denotativ) semasi deganda borliqdagi harakat/holat, narsa-predmet, miqdor, belgi xususiyatini atovchi, nomlovchi sema tushuniladi. Bu semaning har birini mustaqil so‘z turkumi – fe‘l «harakat/holatni atash» semasi, ot «narsa-predmetni atash», son «miqdorni atash», sifat va ravish «belgini atash» semasi sifatida bevosita xususiylashtiradi. Atash semasi obyektiv borliq parchasiga muvofiq kelgani bois leksema sememasi tarkibidagi boshqa semalar (vazifa, ifoda)dan muhimroq ahamiyatga ega.

So‘z turkumining ko‘chishi – transpozitsiya deganda, ma‘lum bir turkumga mansub so‘zning o‘ziga xos bo‘lgan atash, vazifa semasini kuchsizlantirib, boshqa so‘z turkumiga xos semantik va grammatik belgiga ega bo‘lishi tushuniladi. Turkiy tillarda so‘z turkumi bir-biridan qathiy chegaralanmaydi, ular uzviy aloqada, bir butun sistemani tashkil etadi. Bu sistema qismlari dialektik mantiqdagi «oraliq uchinchi» qonuniyatidan kelib chiqqan holda *g i b r i d* so‘z sifatida baholanadigan, har ikki siraga xos semantik-grammatik belgini o‘zida saqlovchi, bir turkumdan ikkinchi turkumga ko‘chish bosqichida turuvchi so‘zlar bilan uzviy bog‘lanadi.

Mustaqil so‘zlar orasidagi o‘zaro munosabat va ularning bir-biriga ko‘chishi leksema sememasidagi taraqqiyot natijasida yuzaga kelib, ko‘chishning nutqiy va lisoniy lashgan ko‘rinishi farqlanadi. Nutqiy ko‘chishda nutqiy ko‘chma ma‘no ifodalanadi. Masalan, *Birni ko‘rib fikr qil, birni ko‘rib shukr qil* gapida son turkumiga mansub (*bir*) so‘zi vaqtincha ot turkumi vazifasida kelmoqda va bu o‘tkinchi, nutqiy hodisa. Lisoniy ko‘chishda so‘z bir turkumdan boshqa turkumga butunlay o‘tib ketadi, transpozitsiya hodisasi yuz beradi. Transpozitsiya deyarli barcha mustaqil so‘z, hatto mustaqil va yordamchi so‘zlar orasida ham kuzatiladi:

1) [*odam*], [*kishi*], [*inson*] otlari (*zerikib ketdi odam* (men), *hayron qolasan kishi* (men), *dardimni eshitadigan inson* (hech kim) *topilmadi*), [*bir*] soni (*bir kishi* (kimdir)), [*ba‘zi*] sifati (*ba‘zilar* (allakimlar) *unday deydi, ba‘zilar bunday*) olmoshga;

2) [*yigit*], [*qiz*], [*o‘g‘il*], [*qari*], [*er*], [*xotin*], [*ko‘r*], [*issiq-sovuq*] (*issiq-sovug‘idan xabar olmoq*) sifatlari, [*bordi-keldi*], [*keldi-ketdi*], [*oldi-berdi*], [*ur-yiqit*] juft fe‘llari, [*o‘qish*], [*yo‘zish*], [*o‘tmish*], [*qilmish*], [*qidiruv*] harakat nomi shakllari, [*o‘qituvchi*], [*bog‘lovchi*], [*kuzatuvchi*] sifatdoshlari, [*uch*], [*etti*], [*yigirma*], [*qirq*] sonlari otga;

3) [*kelajak*], [*bo‘lajak*] sifatdoshlari, [*tilla*], [*kumush*], [*taxta*] (*tilla uzuk, asal bola*) otlari sifatga;

4) [*charchamasdan*] (*ishlaysan*), [*o‘ylamasdan*] (*gapirdi*), [*indamasdan*], [*bilinar-bilinmas*] sifatdoshlari, [*osha*], [*o‘ta*], [*ura*], [*qayta*], [*qo‘yarda-qo‘ymay*], [*ura-sura*] ravishdoshlari, [*erta*], [*indin*], [*kecha*], [*kech*], [*kechqurun*], [*savat-savat*], [*navbatma-navbat*] otlari ravishga;

5) [*bir*] soni, [*yakka*], [*yolg‘iz*] sifatlari yuklamaga;

6) [*haqiqatdan*], [*chamasi*], [*mazmuni*] otlari, [*yaxshi*], [*so'zsiz*], [*tuzuk*], [*to'g'ri*], [*tabiiy*]sifatlari, [*qani*], [*qalay*] olmoshlari modal so'zga;

7) [*bir*] soni, [*ba'zan*] ravishi, [*ham*] yuklamasi, [*bilan*] ko'makchisi bog'lovchiga;

8) [*ost*], [*ust*], [*old*], [*orqa*], [*tomon*], [*tag*], [*te'a*], [*ich*], [*ora*], [*qosh*], [*lab*], [*yoqa*], [*og'iz*]otlari, [*qarab*], [*boshlab*], [*ko'ra*], [*deya*], [*deb*], [*o'xshab*] ravishdoshlari, [*boshqa*], [*bo'lak*], [*o'zga*] sifatlari, [*avval*], [*oldin*], [*ilgari*], [*keyin*], [*so'ng*] ravishlari ko'makchiga ko'chganligi tegishli adabiyotlarda qayd etilgan. Sanalanganlarning ayrimi bugungi kunda lisoniydashgan, ayrimi hali o'tish bosqichida - nutqiy hodisa sifatida qaralmoqda. Masalan, mavjud grammatikalarda son turkumining tasnifiy belgilari sanalar ekan, predmetning sanog'i, tartibini bildirishi, (*qancha*), (*nechta*), (*nechanchi*) so'rog'idan biriga javob bo'lishi, ot turkumiga mansub so'z bilan erkin aloqada bo'lishi va gapda, asosan, sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelishi ta'kidlanadi. Son lug'aviy mazmun guruhiga kiruvchi jamlovchi son shaklida son umumiy grammatik ma'nosidan chetlashish kuzatiladi.

Ayni paytda jamlovchi sonning [-*ov*], [-*ala*], [-*ovlon*], [-*ovlab*], [-*ovlashib*] shakllari ajratiladi. Qayd etilganlardan [-*ovlab*], [-*ovlashib*] shakllari, bizningcha, jamlovchi son shakli emas, balki jamlovchi son o'zagidan yasalgan ravishdosh shakli: *ikki+ov+lash+ib*.

Demak, so'nggi ikki shakl jamlovchi son shakllari sirasidan chiqariladi. Asosiy shakl sifatida [-*ov*], [-*ala*], [-*ovlon*] ko'rsatkichi ajratilishi mumkin. Ma'lumki, bundan [-*ov*], [-*ala*]shakli boshqa son ma'no turidan farqlanib, deyarli har doim egalik shakli bilan qo'llanadi. [-*ovlon*] shaklli jamlovchi son atash semasi bugungi kunda miqdor emas, balki «qanchadir miqdordagi shaxs» deb qaraladi: *Oltovlon ola bo'lsa, og'zidagin oldirar*. [-*ov*], [-*ovlon*] shaklli son ot bilan birikmaydi, gapda sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelmaydi, sonning so'roqlariga javob bo'lmaydi, hatto mazkur shakl hosil bo'ladigan qolip ham nihoyatda unumsiz bo'lib, barcha son o'zaklaridan jamlovchi son shakli hosil qilinmaydi. Ular ko'proq otga xos tasnifiy belgini o'ziga qabul qilmoqda. [-*ala*] shakli esa sonlik belgisini ham o'zida birmuncha saqlab turibdi: *Uchala bola ham qo'shni qishloqdan ekan*. Jamlovchi son shakllaridagi semik taraqqiyotni chizmada quyidagicha aks ettiramiz:

[-*ala*] - [-*ov*] - [-*ovlon*]

Ko'rib o'tilganidek, ushbu shakllar orasida [-*ala*] shaklida sonlik belgilari birmuncha saqlangan, [-*ovlon*] shaklida otlik belgisi yaqqol, [-*ov*] shaklida har ikki jihat uyg'un bo'lib, mazkur shakllarga gibrid birlik sifatida qarash mumkin. [-*ov*]shakli jamlovchi son shakli orasida, jamlovchi son shaklli so'z esa ot va son so'z turkumi orasida «oralik uchinchi» maqomiga ega bo'ladi.

Demak, aytish mumkinki, so'z turkumi orasida muntazam aloqa mavjud, bu aloqa til tizimining doimiy o'zgarish, taraqqiyotdagi jonli jarayon ekanligidan dalolat beradi. Shu boisdan ayrim so'zlarning qaysi turkumiga mansubligi ularning semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tegishli tadqiq usullari bilan tadqiq qilish asosida belgilanishi lozim. Bu tilshunosligimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Grammatik kategoriyalarning o'ziga xos bo'lmagan funksiyada, ya'ni birlamchi funksiyasidan boshqa funksiyada kelishi transpozitsiya hodisasi hisoblanadi. Bu hodisa, ayniqsa, sintaksis bilan chambarchas bog'langandir. Transpozitsiya har qanday tilning sintaktik imkoniyatlarini kengaytiradi². Ammo shunday muhim hodisaga lingvistikada hali yetarlicha e'tibor berilgani yo'q.

² Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложений. – М., 1977.– С.171.

Transpozitsiya hodisasi rus tilshunosligida ko'pincha morfologiya va so'z yasalishi doirasidagina o'rganiladi. Ko'pgina tadqiqotchilar bir so'z turkumining ikkinchi so'z turkumiga o'tishini transpozitsiya hodisasi hisoblaydilar. Ular bunga derivatsiyaning sintaktik usuli deb qaraydilar va uni leksik derivatsiyaga qarama-qarshi qo'yadilar³. Jumladan, V.V.Bogdanov fikricha, yasalmaning ma'nosi asos qismning ma'nosi bilan bir xil bo'lgan, faqat undan boshqa turkumga mansubligi bilan (boshqa sintaktik funksiyada kelishi bilan ham) farqlanuvchi derivatsiya usuli transpozitsiyadir. Olim konversiya hodisasini ham transpozitsiyaning bir turi sifatida izohlaydi.

Biz transpozitsiya bilan konversiya hodisalarini differentsiatsiya qilish tarafdorimiz. Konversiya termini ostida bir so'z turkumining ikkinchisiga til vokabulyarida o'tishini, transpozitsiya termini ostida esa bir so'z turkumining ikkinchisiga kontekstda - nutqda o'tishini tushunamiz. Birinchi holat diaxroniya mahsuli, til hodisasi bo'lsa, ikkinchisi sinxroniyaga oid bo'lib, nutqiy hodisadir.

Transpozitsiya hodisasi faqat so'z yasalishi va morfologiya sathidagina emas, balki sintaksis sathida ham ko'plab uchraydi. Sintaktik konstruktsiyalarning o'ziga xos bo'lmagan funksiyada qo'llanilishi natijasida boshqa xuddi shu funksiyada kelishga xoslangan sintaktik konstruktsiyalar bilan bir sin'aradigmani hosil qiladilar. Xususan, o'zbek tilida ayrim inkor konstruktsiyalar o'z funksiyasida (inkor ma'noni ifodalash) emas, balki ikkilamchi funksiyada (tasdiq ma'no ifodalash) qo'llanadilar. Natijada bunday sintaktik konstruktsiyalarning tasdiq va inkor belgisiga ko'ra oppozitsiyasi neytrallashadi. Quyida ana shunday hodisalarga qisqacha to'xtalamiz.

I.1. Ravishdoshning *-b (-ib)*, *-guncha* (va uning fonetik variantlari) formalaridan ifodalangan ergash gapning kesimi yoki ravishdosh oborotlar tasdiq-inkor belgisiga ko'ra oppozitsiyaga kirishganda,

-b (-ib)-may

-masdan

-guncha-maguncha

kabi oppozitiv qatorlarni hosil qiladi. Bu ularning doimiy oppozitsiyasidir. Ayrim hollarda oppozitsiya a'zolaridagi ana shunday doimiy munosabat buzilishi mumkin. Bu vaqtda tasdiq va inkor qatorga mansub a'zolarida oppozitiv belgi yo'qolib, bir tasdiq mazmun atrofida birlashadi va mazmunan bir paradigmani hosil qiladi. Tasdiq va inkor qatorlar o'zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo'ladilar. Masalan:

Qora qishda tuy qilmay, battar bo'lgur, nokas gov

Qora qishda tuy qilib, }

(A. Oripov).

Yuqoridagi qora qishda to'y qilmay konstruktsiyasinnng ikkilamchi funksiyada qo'llanilayotganini gapning keyingi *battar bo'lgur* qismi ko'rsatib turadi. Agar shu qism gapdan olib tashlansa, u vaqtda ravishdosh oborot doimiy oppozitsiyasini saqlaydi. Qarang:

(Men) qora qishda to'y qilmay, nokas gov — (Men) qora qishda to'y qilay, nokas gov.

Demak, yuqoridagi ravishdosh oborotning transpozitiv holatda qo'llanilayotganini kontekst belgilaydi.

³ Курилович Е. Очерки по лингвистике. – М., 1962.– С.57-70; Богданов В.В. Семантико-синтаксическая организация предложений. – ЛГУ, 1977.– С.171; Арутюнова Н.Д. Очерки по словообразованию в современном испанском языке. – М., 1961. – С.90; Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. – М., 1973. – С.192; Кубрякова Е.С. Основы морфологического анализа. – М., 1974. – С.227.

2. *Voy o'lmasam* konstruktsiyasi hozirgi o'zbek tilida o'zining doimiy oppozitiv qatoridan chiqib, voy o'lay konstruktsiyasi bilan bir paradigmani hosil qiladi va hayajon ma'nosini ifodalaydi. Masalan:

Voy o'lmasam, bu yoqda ka'-katta yigit bor demaysiz-a,

Voy o'lay, Masturaxof o'a (O. Yoqubov).

Voy o'lay konstruktsiyasi ham, o'z navbatida, simmetriya taqozo etgan *o'lmay* konstruktsiyasi bilan o'iozitiv munosabatini yo'qotadi. Har ikki oppozitiv munosabatning buzilishiga ham tarkibida voy leksemasining qatnashuvi va buning natijasida har ikkisining ham ikkilamchi ma'noni ifodalashga o'tishi sababchi bo'lgan. Agar voy leksemasini tushirib qoldirsak, konstruktsiyaning hayajon ma'nosi yo'qoladi va simmetrik oppozitiv munosabati tiklanadi.

3. $N_n^{4*} + tushmagur$ konstruktsiyasi aslida $N_n + tushgur$ konstruktsiyasining tasdiq-inkor belgiga ko'ra oppozitiv a'zosi bo'lsa ham, ammo hozirgi o'zbek tilida bu oppozitiv a'zolar mazmunan neytralizatsiyalashib, bir semantik paradigmani hosil qiladi. Masalan:

Handalagi tushmagur sal kam bir qo' bo'ldi (O. Yoqubov).

Handalagi tushgur

Bu konstruktsiyalarning neytrallashuviga har ikki formaning ham ikkilamchi ma'no tashishga o'tganligi sabab bo'lgan.

4. Gaplarning kesimi bor so'zidan ifodalangan bo'lsa, yo'q so'zi bilan, fe'llardan ifodalangan bo'lsa, -ma markeri bilan tasdiq va inkor belgiga ko'ra oppozitsiyaga kirishadi. Masalan:

...bor...yo'q

...keldi...kelmadi

Ammo bor va yo'q so'zlari hamda fe'llar -mi yuklamasini olib so'roq gapning kesimi vazifasida kelganda, yuqorida ko'rsatilgan oppozitsiya neytrallashadi va oppozitsiya a'zolari bir semantik paradigmaga mansub bo'ladilar. Masalan:

Mening do'stinga 'alamut yoqib koldi...Shundan topilmaydimi?

Shundan topiladimi?

(O'. Umarbekov),

Bunday grammatik konstruktsiyalarning neytrallashuviga grammatik vosita (-mi yuklamasi) sababchi bo'lmoqda. Agar -mi yuklamasi kontekstdan tushirib qoldirilsa, yuqoridagi konstruktsiyalar yana o'zlarinnng doimiy oppozitsiyalarini tiklaydi.

II. Ayrim hollarda bir oppozitsiyaning inkor a'zosi o'z mazmunini yo'qotib, o'ziga yaqin bo'lgan ikkinchi oppozitsiyaning tasdiq a'zosi bilan bir semantik paradigmani hosil qiladi. Bu vaqtda inkor a'zo transpozitiv holatda qo'llangan bo'ladi. Bunday hodisalar ham neytrallashuvning bir turi sifatida qaralishi mumkin.

1. Kesim buyruq maylidagi fe'llardan ifodalangan gailar tasdiq-inkor belgisiga ko'ra -ma inkor markeri yordamida 'rivativ oppozitsiyaga kirishadi. Tasdiq forma markerga ega bo'lmasligi, inkor formaning esa ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Masalan:

Men o'qiyMen o'qimay

Sen o'qiginSen o'qimagin

U o'qisinU o'qimasin

Bunday oppozitsiya a'zolari ham mazmun, ham forma jihatidan o'zaro simmetrikdir. Ammo ayrim hollarda oppozitsiya a'zolari o'rtasidagi ana shunday simmetrik holatning

⁴ *N-эгалик формасини олган от символи

buzilishi, asimmetriyaning vujudga kelishi mumkin. Bunga konstruktsiya tarkibidagi ayrim leksik elementlar ham sababchi bo'ladi. Xususan, yuqorida ko'rsatilgan konstruktsiya ergash gapli qo'shma gapning ergash gapi funksiyasida kelib, tarkibida *qancha*, *qanchalik*, *kim*, *nima*, *qaer* kabi so'roq olmoshlari ishtirok etsa, bu vaqtda, garchi ergash gap ifoda plani jihatidan inkor formada tursa ham, ammo mazmun planiga ko'ra yuqorida ko'rsatilgan simmetrik oppozitsiya munosabatidan chiqadi. Masalan:

Sharq bozorlarining o'ziga xos fazilati bor. Mol qanchalik ko'p bo'lmasin, davr qanchalik notinch bo'lmasin, hammasi tartibli (O'.Umarbekov).

Yuqoridagi gapda *Mol qanchalik ko'p bo'lmasin, davr qanchalik notinch bo'lmasin konstruktsiyalari* simmetrik munosabat taqozo etganidek mol ko'p bo'lsin, davr notinch bo'lsin konstruktsiyalariga qarama-qarshi qo'yilayotgani yo'q, ularning korrelyativ a'zosi emas. Demak, u o'zining birlamchi ma'nosidan boshqa ma'noda qo'llanilaya'ti. Mazmunan to'siqsiz konstruktsiyalar oppozitsiyasidagi tasdiq forma bilan bir paradigmani hosil qiladi va u bilan o'zaro erkin almashinish distributsiyasi munosabatida bo'ladi. Solishtiring:

tasdiq qator	inkor qator
T ₁ Mol qanchalik ko'p bo'lsa ham, ...	Mol unchalik ko'p bo'lmasa ham, ...
T ₂ Mol qanchalik ko'p bo'lmasin, ...	

Bu jarayonni shunday ko'rsatish mumkin:

tasdiq qator	inkor qator:	neytrallashuvga olib keluvchi vosita
<i>Mol ko'p bo'lsa ham,</i> ...	<i>Mol ko'p bo'lmasa ham,</i> ...	qancha,
<i>Mol ko'p bo'lsin</i>	<i>Mol ko'p bo'lmasin</i>	qanchalik

Yuqoridagi konstruktsiyalarni transpozitsiyaga uchratayotgan vosita qancha, qanchalik so'roq olmoshlaridir. Chunki bu olmoshlar belgining ortiqligini, harakatning takroriyligini ko'rsatuvchi semaga ega bo'lib, shu semaga ega bo'la oladigan so'zlargagina bog'lana oladi. Shuning uchun ham qanchalik belgining ortiq miqdorini ifodalovchi *ko'p* so'zi bilan bog'lanib keladi. Ko'p leksemasining o'zi xam qanchalik leksemasi bilan birgalikda kesimning (uning qanday formada turishidan qathi nazar) tasdiq ma'no ifodalashini taqozo etadi. Inkor mazmunni ifodalash uchun esa *qanchalik* leksemasini mazmunan unga zid bo'lgan unchalik leksemasi bilan almashtirishga to'g'ri keladi. Solishtiring:

Qanchalik (qancha) ko'p bo'lmasin, ... Unchalik (uncha) ko'p

Qanchalik (qancha) ko'p bo'lsa ham, ... bo'lmasa ham, ...

Gap tarkibida neytrallashuvga olib keladigan boshqa so'roq olmoshlari ham qatnashishlari mumkin. Masalan:

Kimga qarasa ham, ko'zlarini, lablarida kulgi o'ynardi

Kimga qaramasin, }

(U.Umarbekov).

Yoki:

Qaerda bo'lmay, nima demay, deyarli doimo uning

Kaerda bo'lsam ham, nima desam hamqiyofasi ko'z oldimda turardi }

(U.Umarbekov).

Ammo shuni aytish kerakki, yuqoridagi holatlarda so'roq olmoshlarining o'zi ham so'roq ma'nosida emas, balki ikkilamchi funksiyada - umumlashgan predmet, o'rin va boshqa ma'nolarda qo'llanilgan bo'ladi.

Demak, *⁵ron_{bon} 1+V *masin* tipidagi konstruktsiyalarda tasdiq-inkor belgisiga ko'ra oppozitsiya neytrallashgan bo'lib, bu hodisaga konstruktsiya tarkibida ikkilamchi funksiyadagi 'ron_{bon} ning qatnashuvi va buning natijasida butun konstruktsiyaning transpozitiv funksiya bajarishga o'tishi sababchi bo'lgan.

Xullas, o'zbek tilining sintaksis sathida xilma-xil transpozitsiya ko'rinishlari mavjuddir. Shulardan biri tasdiq-inkor belgisiga ko'ra oppozitsiyaga kirishuvchi konstruktsiyalarning neytrallashuvidir.

Neytrallashish faqat fonologik sath uchungina xos bo'lib qolmay, sintaktik sath uchun ham xarakterlidir. Sintaktik neytrallashuv fonologik neytrallashuvdan farqli ravishda ikki xil ko'rinishga ega:

1) oppozitiv a'zolarining mazmunan bir xil bo'lib qolishi;

2) bir oppozitsiyaning inkor a'zosi bilan ikkinchi oppozitsiyaning tasdiq a'zosining mazmunan bir xil bo'lib qolishi.

Sintaktik konstruktsiyalarning yuqoridagidek neytrallashuviga shu konstruktsiyalar tarkibida kelgan leksik, grammatik vositalar, kontekst sababchi bo'ladi va bu vositalar, albatta, sintaktik konstruktsiyani ikkilamchi funksiyada qo'llanilish uchun xizmat etgan bo'ladi.

Konversiya (lot.aylanish, o'zgarish). So'zning fonetik va morfologik jihatdan o'zgarmas, bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumiga o'tishi, shu yo'l bilan yangi so'z hosil bo'lishi: *chol, o'g'il, qiz, uzil-kesil* kabi. Boshqa turkumlarga xos so'zlar konversiya yo'li bilan sifatga o'tishi mumkin. Bu sifatlashuv deyiladi. Sifatlashuv tarixiy jarayon bo'lib, boshqa so'z turkumlari uzoq davro'tishi bilan sifatga aylanib boradi. Sifatlashuv hodisasi lisoniy tabiatga ega.

Juft va takroriy otlarning sifatlashuvi: *mosh-guruch, yo'l-yo'l, rang-barang, xilma-xil.*

O'zak holdagi fe'llarning sifatlashuvi: *daydi, qari, chalkash, yanglish, tutash, aralash.*

Harakat nomi shaklidagi juft fe'llar: *olmoq-solmoq*. Kesimlik shaklidagi fe'llar: *oldi-qochdi, kuydi-'ishdi, tug'di-bitdi, iliguzildi, ichakuzdi, su'raqoqdi.*

Konversiyadagi substantivatsiya, adyektivatsiya, pronominalizatsiya kabi bu hodisani ham verbalizatsiya (verbal bo'lmagan hodisaning verbal hodisa vazifasiga o'tishi) deb yoki **paralingvistik** hodisaga o'tgan deb hisoblash kerak.

Savol va topshiriqlar:

1. So'z turkumlarida ko'chish hodisasini tushuntiring.
2. Transpozitsiya hodisasiga izoh bering.
3. Konversiya hodisasi va transpozitsiyaning farqini tushuntiring.
4. Polifunksionallik nima?
5. Ko'chishning *lisoniy hodisa, nutqiy hodisa, sema, gibril so'z, sinxron va diaxron aspekt.*

⁵ * Pron_{bon} -сўроқ олмошларининг символи, V-феъл символи.

8-mavzu: SINTAKTIK SHAKL HOSIL QILUVCHI KATEGORIYALAR VA ULARNING TURLARI.

REJA:

1. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari.
2. Egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi.
3. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi.

Tayanch soʻzlar: *kategoriya, sintaktik shakl, kesimlik kategoriyasi, kelishik, egalik, turlovchi, nisbatlovchi, bogʻlamalar.*

Ot turkumidasintaktik kategoriyalarkengqoʻllanishga ega. Xususan, KK va EK voqelanishi uchun bu turkumda cheklanmagan imkoniyat mavjud. Ammo unda kesimlik kategoriyasining voqelanishi nisbatan chegaralangan.

Egalik kategoriyasi. Ot turkumi EK UGMsini «keyingi otni oldingi soʻzga bogʻlash» tarzida xususiylashtiradi. Matn va birikuvchi soʻzning semantikasiga bogʻliq ravishda turli-tuman grammatik maʼno ifodalanishi mumkin. Lekin «keyingi otni oldingi soʻzga bogʻlash» kategorial maʼno xususiylashmasi sifatida oʻzgarmay qolaveradi. Ot turkumining EK UGMsini xususiylashtirishidagi oʻziga xosliklarni koʻrib oʻtamiz.

Ot turkumida EK ning ishlatilishida ikki holat bor:

1. Egalik affiksi oʻzi birikkan soʻzning boshqa soʻz bilan bogʻlanishida ishlatiladi. Bu vaqtda EK dagi soʻz QK dagi soʻz bilan keladi: *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi*. Kishilik olmoshi va EK qoʻshimchasi shaxs va sonni ifodalaydi. Shu boisdan QK dagi olmosh tushirib qoldirilishi mumkin: (*kitobim*), (*nutqing*);

EK dagi soʻz baʼzan ChK dagi soʻz bilan ham birga qoʻllanilishi mumkin: *talabalardan biri*. Bunda koʻpincha qaralmish miqdor yoki belgi ifodalovchi soʻz bilan ifodalangan boʻladi.

2. Egalik affiksi QK ni talab qilmaydi. Bunda ham ikki holat farqlanadi:

a) erkin birikmada bosh kelishikdagi soʻzni boshqaradi: *Navoiy koʻchasi, Dehqonobod tumani*;

b) EK dagi soʻzda affiks maʼnosi va vazifasi kuchsizlanib, ravishga oʻtib ketadi: [*kechasi*], [*kunduzi*]; modalga oʻtadi: [*chamasi*], [*yaxshisi*].

EK ning birlik va koʻplik shakli qoʻllanilishida farq bor. Koʻpincha miqdor bildiruvchi oʻzakka birlik son shakli qoʻshilmaydi: (*beshovimiz*), (*barchangiz*). Bu jihatdan III shaxs egalik affiksi farqlanadi: (*barchasi*), (*beshovi*).

Kelishik kategoriyasi. BK dagi ot *kim, nima, qaer* soʻroqlariga javob boʻlib, quyidagi vazifada keladi:

Ega: 1. *Ilhom* - eng yosh oʻqituvchi. 2. *Darvoza teʼasiga sandiq* qoʻyilgandi.

Hol: *Shu kuni Abdulla allamahalgacha xayol surib yotdi.* (Oʻ.Umar.). *Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda.* (Maq.)

Vositasiz toʻldiruvchi: *Murotali qazib qoʻygan chuqurlarga koʻchat* oʻtqazardi. (Sh.Rash.) *Bir kishi ariq qaziydi, ming kishi suv ichadi.* (Maq.)

Qaratuvchi aniqlovchi: *Koʻk yuzini yulduzlar band etdi.* (J.Abd.) *Choʻl qovunlari* 'ishay-*'ishay deb turibdi.* (S.Ahm.)

Sifatlovchi: *Shu payt elektr* qoʻngʻiroq asta jiringladi. (H.Gʻul.)

Izohlovchi: *Daryodan oʻtilgan kun generalpogodin harbiy Kengashga chaqirildi.* (I.Rah.)

Ot kesim (*Otam - ishchi*), undalma (*Siz baxtlisiz, Olimjon aka*), atov gap (*Ko'm-ko'k dala*) vazifasida kelganda, uni BK da deyish to'g'ri emas. Aytilganidek, bunda kelishik UGMsiga xos vazifa yuzaga chiqmagan.

QK dagi otida KK UGMsi «otni qaratqich aniqlovchi vazifasida keyingi so'zga bog'lash» tarzida xususiylashadi: *Mohidil inson tabiatining naqadar murakkabligiga yanada chuqurroq tushuna bordi.* (J.Abd.)

Manbalarda QK ning belgili va belgisiz ko'rinishi farqlanadi. BK ning KK shakllari o'rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya «belgisiz QK» ni BK sifatida qarashni taqozo qiladi. Masalan, *nonning uvog'i* – QKda, *non uvog'i* – BKda.

TK dagi ot gapda ish-harakatni qabul qilgan predmetga obyekt tusini beradi va tushum kelishigi affiksini qabul qilgan ot vositasiz to'ldiruvchi vazifasida keladi. «Otga obyekt tusini berish va uni fe'lga vositasiz to'ldiruvchi sifatida bog'lash» – TK UGMsining ot turkumidagi xususiylashuvi.

Manbalarda TK ning ham belgili va belgisiz ko'rinishi farqlanadi. BKning KK shakllari o'rnini bemalol almashtira olishi haqidagi nazariya «belgisiz TK» ni ham BK sifatida qarashga olib keladi. Masalan, *nonni yemoq* – TK da, *non yemoq* – BK da.

Demak, QK va TK da ta'kidlash va ajratish ma'nosi bo'lib, unga ehtiyoj bo'lmaganda BK qo'llanadi.

ChK KK UGMsini umuman «oldingi so'zni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» tarzida, ot turkumida esa «oldingi otni keyingi fe'lga o'rin-payt holi va vositasiz to'ldiruvchi vazifasida bog'lash» ko'rinishida xususiylashtiradi.

Ot turkumida ChK ko'makchi bilan kelishi mumkin: *taomdan keyin, ishdan so'ng.*

ChK dagi otning vazifalari:

a) vositali to'ldiruvchi: *Gulnorning o'zidan so'rab ko'rarmiz?* («Saodat».)

b) o'rin holi: *Eshigi ochiq narigi xonadan 'ianino ovozi eshitilmoqda edi.* ('.Qod.)

v) sabab holi: *Yulduz taajjubidan o'zini bosolmadi.*(M.Muh.)

g) payt holi: *Ikkalasi yoshlikdan birga o'sishgan.* (M.Qor.)

d) ko'makchilar bilan birga ajratilgan bo'lak vazifasi: *Qamishka'aliklar odamlarni nomlari bilan atashdan ko'ra, xususiyatlari bilan ta'riflaydilar.*(A.Qah.)

ChK o'z vazifasini yo'qotishi mumkin: [*birdan*], [*to'satdan*], [*qo'qqisdan*].

Ma'nosi kuchsizlanishi va gap qisqarishi natijasida kesim vazifasida tuslovchi olishi mumkin: *Qishloqdanmisizlar?* Qisqaruv hodisasi ChK dagi so'zning ega bo'lib kelishini ham ta'minlaydi: *Bu kitoblardan menda ham bor.*

JK dagi ot ish-harakat yo'nalgan predmetni anglatadi: *maktabga, ishga, zavodga, ukamga.* Uning invariant affiksi [-ga] bo'lib, nutqda turli fonetik, 'oetik, dialektal variantga ega bo'ladi: *kurakka, tu'roqqa, buyona, qayg'a.*

JK ko'makchi bilan sinonimik munosabatga kirishadi: *uyga ketdi - uy tomon ketdi, ukasiga oldi – ukasi uchun oldi.*

JK ChK, TK va O'PK lari vazifalarini ham bajaradi: *Biz hashamatli bino oldiga(da) to'plandik. Bu gapga(ni) tushunmadim. Ko'rsatishga(dan) uyaldim.*

JK dagi ot gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Mohidil shoshilinch safarga otlana boshladi.* (J.Abd.) *Dildor Nafisaning o''oq chaqnoq ko'zlariga havaslanib boqdi.* (H.G'ul.)

b) o'rin holi: *Bahor ko'zi to'la yoshni yashirmoq uchun eshikka yugurdi.* (Sh.Rash.) *Nayman cho'llariga, to'qaylariga chinakam bahor keldi.* (S.Ahm.)

v) payt holi: *S'ort musobaqalari bahorga qoldirildi.* («Qashq.»).

g) maqsad holi: *Baloning oldini olmoqqa ne choralar ko'rmoq lozim?* (J.Abd.) *Bahor 'o'latni kuzatishga yasanib chiqqan edi.*(Sh.Rash.)

d) sabab holi: *O'z vaqtida davolanmaganimga juda afsuslanaman. Sitora s'ortda katta muvaffaqiyat qozonganiga xursand bo'ldi.*

e) miqdor-daraja holi: *Ro'zievaDilshoda do'kondan besh so'mga turli o'quv qurollari sotib oldi.*

Qisqargan qoliqli gaplarda kesim vazifasida keladi: *Kitob hammaga. Bilim ommaga.*

Ko'rinadiki, JK ot turkumida KK UGMsini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtiradi.

O'PKot turkumida KK UGMsini «oldingi otni keyingi fe'lga vositali to'ldiruvchi va hol vazifasida bog'lash» tarzida xususiylashtirib, ish-harakatning bajarilish o'rni, vaqti, sharoiti, holati, sababi, maqsadi kabi tajalli ma'noni ifodalaydi. O'PK [-da] ko'rsatkichiga ega:[qishloqda], [yozda], [hovlida].

O'PK dagi so'zlar uyushib kelganda oldingilarida qy'shimcha tushib qolishi mumkin:*Na sada daraxtlari osti, na machitlar, na doim bazm qiziydigan gavjumda biror shar'a eshitasiz.* (J.Abd.)

O'PK gapda:

a) vositali to'ldiruvchi: *Botirda bog'bonlikka mehr bolalikda uyg'ondi.* (N.Saf.)

b) o'rin holi: *Katta-katta ko'chalarda yursin.* (O'.Umar.)

v) payt holi: *O'sha kezlarda Yolqin akam otda g'o'zani kulg'tivatsiya qilar edi.* ('.Qod.)

g) tarz holi: *Qiz horg'in, parishon holda uyga qaytdi.*(Oyb.)

d) maqsad holi: *Biz yangi maktab binosi qurilishi masalasida keldik.* (J.Abd.)

e) kesim: *Olimjonning ikki ko'zi ko'm-ko'k g'o'zalarda.* (Sh.Rash.). *Katta izzatda, kichik xizmatda.* Bunda ham sintaktik qisqaruv yuz bergan.

O'PK gap bo'laklariga xoslanganda anglashiladigan ma'no u birikayotgan so'zning lug'aviy xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, [ko'cha] so'zida o'rin ma'nosi bor, shuning uchun (ko'chalarda) so'zshakli gapda o'rin holi vazifasida, o'sha kezlarda birikuvidan payt anglashiladi, shu boisdan bu birikma O'PKda payt holi bo'lib kelgan. Demak, O'PK substansial mohiyatining voqelanishida tajalli ma'noning roli katta.

Savol va topshiriqlar:

1. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalarga nimalar kiradi?
2. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalarning grammatik xususiyatlarini ayting.
3. Egalik shakllarining grammatik xususiyatlarini ayting.
4. Kelishik shakllarining grammatik xususiyatlarini ayting.
5. Kesimlik kategoriyasigrammatik xususiyatlarini ayting.

9-mavzu: KESIMLIK KATEGORIYASI MURAKKAB KATEGORIYA SIFATIDA.

Reja:

1. Kesimlik shakllari paradigmasi. Ularning umumiy grammatik ma'nosi. Kesimlik shakllarining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari.
2. Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi.
3. Kesimlik kategoriyasi grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Bog'lama.

Kesimlik kategoriyasi. Aytilganidek, aloqa-munosabat (sintaktik) kategoriyalari so'z turkumiga emas, balki gap bo'laklariga, so'zning sintaktik mavqeiga xos. Aniqrog'i, so'z ma'lum bir turkumga xos bo'lganligi uchun emas, balki qaysi gap bo'lagi vazifasida kelayotganligiga, gapda qanday sintaktik vazifa bajarayotganligiga qarab aloqa-munosabat shaklini qabul qiladi. Biroq bunda so'z turkumining ko'proq qaysi gap bo'lagi vazifasiga xoslanganligi ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ot turkumi ko'proq tobe mavqeda kelib, ega, to'ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi vazifalarini bajaradi. Kesim vazifasida kelishga esa fe'l turkumi xoslangan. SHuning uchun bu bir qarashda kelishik otga, kesimlik shakli esa fe'lga xosdek tasavvur uyg'otadi. Bu – grammatik illyuziya. Aslida barcha mustaqil so'z turkumining barcha gap bo'laklari vazifasida kela olishi haqidagi «aksioma» mazkur shakllarning so'z turkumlariga munosabatini yaqqol namoyon qiladi.

So'z turkumining gap bo'laklari vazifasiga xoslanishi turlicha ekan, aloqa-munosabat shaklining ularning har biridagi voqelanishi o'ziga xos. Quyida har bir so'z turkumi misolida bu o'ziga xoslik tahlil etiladi.

Aloqa-munosabat shaklining fe'lda voqelanishini kesimlik kategoriyasidan boshlash maqsadga muvofiq. Zero fe'l – kesim vazifasida kelishga eng ko'p xoslangan so'z turkumi.

Kesimlik kategoriyasi. Ma'lumki, kesim gap bo'lagi sifatida dunyodagi barcha tillarning sintaktik sistemasida alohida o'rin tutadi. Uning mavqei turkiy tillarda, ayniqsa, muhim.

Turkiyshunoslikda ham, o'zbek tilshunosligida ham kesimlik kategoriyasini maxsus morfologik kategoriya sifatida ko'rsatish urf bo'lmoqda. Zero u aloqa-munosabat shakllari sirasida to'liq sintaktik funktsiya bajarishi bilan ajralib turadi. Turkiy tillarning asosiy xususiyati shunda. CHunki aloqa-munosabat kategoriyalari sirasidagi kelishik va egalik so'zlarni bog'lashga xizmat qilsa va ko'p hollarda gap bo'laklarini belgilamasa, kesimlik shakllari so'zlarga alohida sintaktik vazifa beradi. Boshqacha aytganda, «gap bo'laklarini shakllantirish» belgisi ostidagi ziddiyatda kesimlik kategoriyasi bu belgiga to'liq egaligi bilan ajralib turadi. Egalik kategoriyasi esa gap bo'laklarini belgilamaydi, balki faqat so'zning sintaktik munosabatini ko'rsatadi. Kelishik kategoriyasi bu belgiga majhul munosabatda. CHunki, masalan, o'rin-payt kelishigidagi so'z hol vazifasida ham, boshqa vazifada ham bo'lishi mumkin. Qiyoslang: Akam *shaharda* yashaydi (*shaharda* - hol). *SHaharda* yashaydigan akam *keldi* (*shaharda* - aniqlovchining tarkibiy qismi, hol emas). Bosh kelishikdagi so'z ega vazifasida ham (*Akam keldi*), egadan boshqa vazifada ham (*Akamo'qigan kitob*) kela oladi. SHuningdek, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari ham muayyan gap bo'lagini shakllantirmaydi.

Kesimlik kategoriyasining ma'nolari murakkab bo'lib, ular quyidagilardir:

- a) tasdiq/inkor ma'nosi;

- b) mayl ma'nosi;
- v) zamon ma'nosi;
- g) shaxs ma'nosi;
- d) son ma'nosi;
- e) kesimni shakllantirish va uni gapning egasi va hol bilan bog'lash.

Demak, kesimlik kategoriyasida beshta ma'noviy xususiyat va bir sintaktik vazifa mujassam. «Tasdiq/inkor, mayl-munosabat, zamon, shaxs, son, ma'nosini ifodalab, kesimni shakllantirish va uning gap kengaytiruvchilari (ega, hol) ga sintaktik munosabatini ko'rsatish» - kesimlik kategoriyasining UGMsi.

Kesimlik kategoriyasi shakllari uchun shaxs, son, zamon, mayl, tasdiq/inkor ma'nolarini yaxlit ifodalash xos bo'lib, bu ma'no bir qo'shimcha bilan ham, bir necha qo'shimcha bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *kitobni o'qi* gapida (*o'qi*) so'zshakli ikkinchi shaxs, birlik, hozirgi-kelasi zamon, tasdiq ma'nolari voqelangan bo'lib, bitta nol shakl bilan yuzaga chiqqan. *Otam – ishchi* gapida ham shunday hol kuzatiladi. *Kitobni o'qimadingiz* gapida shaxs-son ma'nosi (*-ingiz*), inkor ma'nosi (*-ma*), zamon ma'nosi (*-di*) shakli bilan alohida-alohida ravishda ifodalangan.

Kesimlik kategoriyasi. Boshqa so'z turkumi bilan fe'l orasida tuslanishda, kesimlik bilan shakllanishda jiddiy farq borligini aytib o'tgan edik. Bu fe'lning kesimlik vazifasini bajarish imkoniyati boyligi, kesim vazifasiga ko'proq xoslanganligi tufayli unda mazkur ma'noni ifodalovchi vositalarning keng rivojlanganligi bilan belgilanadi.

Aytilganidek, kesimlik murakkab kategoriya, uning tarkibiy qismlari tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyasi. Bu kategoriyalar kesimlik kategoriyasining alohida shakllari emasmi, ularning har birini kategoriya sifatida baholashga asos bormi degan savol tug'ilishi tabiiy. Chunki bunga o'xshash hol o'zgalovchi kategoriya misolida kuzatilgan edi. Mahlumki, kategoriya shakllari bir substantsial ma'noni xususiylashtirishi kerak edi. Kesimlik kategoriyasining substantsial mohiyati murakkab, undagi tasdiq-inkor, mayl, zamon, shaxs-son ma'nosi nisbiy alohidalikka ega. Shuningdek, bu kategoriyalarning ichki shakllari boshqa kategoriyalar ma'nolari asosida emas, balki o'zlari tegishli kategoriyalar ma'nolarini xususiylashtiradi. Masalan, zamon kategoriyasi shakllari zamon ma'nosini xususiylashtiradi (o'tgan, hozirgi, kelasi). Shaxs-son kategoriyasi (birinchi, ikkinchi, uchinchi shaxs birlik va ko'plik) shakllari shaxs-son ma'nosinigina xususiylashtiradi. Bunda «begona» kategoriya tajallisi kuzatilmaydi. Demak, kesimlik kategoriyasi ichki kategorial sistemalardan iborat yaxlitlik. Yaxlitlikning mohiyati shundaki, bu ichki kategoriyaning birortasi ikkinchisiz yashay olmaydi.

Kesimlik kategoriyasi murakkab ekan, uning tarkibiy qismlarining yuzaga chiqishida uch holat farqlanadi:

- a) kesimlik ma'nosining yig'iq ifodalanishi: *Yoz. Boray. O'qigin. O'qituvchiman. SHifokorsiz;*
 - b) kesimlik ma'nosining yoyiq ifodalanishi: *Yozmasaydingiz. O'qituvchidirman;*
 - v) kesimlik ma'nosining tafsiliy ifodalanishi: *O'qisa bo'ladi. Ishchi edim. Yog'sa kerak.*
- Quyida bu ichki kategoriyalarning har birini alohida-alohida ko'rib o'tamiz.

1. *Tasdiq-inkor kategoriyasi* (qisq. TIK) kesimdan anglashilgan fikrning tasdiq yoki inkorini ifodalaydi. TIKning UGMsi – «tasdiq, inkor ma'nosini ifodalash bilan gap kesimni shakllantirishda ishtirok etish, uning hol valentligiga tahsir qilish».

Tasdiq-inkor ma'nosini ifodalashda nolg' shakl (tasdiq), [-ma] bo'lishsizlik shakli, [emas], [na], [yo'q] so'zi (inkor) ishtirok etadi. Misollar: *Majlis yarim kechagacha cho'zildi.*

(O.Mux.) *Uzoqdan Navoiyning qorasi ko'ringunga qadar u amirning kelishiga ishonmagan edi.* (Oyb.) *Na xotin, na farzand ko'rmagan, kimsasiz bechora bir yigit.* (Uyg'.) *Mening farzandim yo'q, gulbog'larim yo'q.* (S.Nur.)

Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasini TIKdan farqlash lozim. Bo'lishli-bo'lishsizlik fe'lga xos va uning nokesimlik shakli. Bunda bo'lishsizlik shakli bo'lgan [-ma] ko'rsatkichining o'rnini aniq bilish lozim. Bu shakl boshqa (masalan, [-gan] shakli sifatdosh shakli sifatida boshqa paradigmadan, kesimni shakllantirishi bilan boshqa paradigmadan joy olganligi kabi) grammatik shakllardek ko'p vazifali (polifunksional). U gap kesimi tarkibida kesimlik kategoriyasining UGMSidagi «gap kesimini shakllantirish» ma'nosini xususiylashtirganligi bilan bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasidagidan boshqa bir qirrasini namoyon qiladi. Bu serqirra mohiyatli, ko'p funktsiyali lisoniy birliklar kabi [-ma] shakli ham birdan ortiq paradigmadan o'rin olishini ko'rsatadi.

2. *Mayl kategoriyasi.* Mayl kategoriyasi (qisq. MK) «kesimdan anglashilgan voqelikning borliqqa munosabatini ifodalash va gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish» UGMSiga ega. MK UGMSida mayl kategorial ma'nosiga har doim zamon kategoriyasi ma'nosi yondosh.

MK ifodalayotgan munosabat rang-barang bo'lishi mumkin. SHuning uchun uning quyidagi turi ajratiladi:

- a) *xabar mayli;*
- b) *shart mayli;*
- v) *buyruq-istakmayli;*
- g) *maqsad mayli.*

Xabar mayli harakat/holat yoki hodisani uning bajarilish vaqti bilan ifodalaydi. Unda bajarilish haqida xabar mavjud. SHuning uchun bu mayldagi fe'l, albatta, biror zamon shaklida bo'ladi: *keldi, kelyapti, keladi.*

Xabar mayli biror ko'rsatkichga ega emas. U fe'lning zamon ko'rsatkichi orqali yuzaga chiqadi. Xabar mayli va zamon ma'nosi yig'iq ifodalanishga ega.

SHart mayli [-ca], [-ca edi], [-ganda edi], [-gan ekan] shakllari orqali hosil qilinadi: *borsam, borsang, borsa, borsangiz, borsalaringiz, borsangizlar, borsalar; borganda edi* va h. Misollar: *Mana bu kanal bitsa, yangi yer ochilsa, paxta ham ko'payadi.* (A.Qah.) *Ertoev bir nimani sezmasa, bunchalik talvasaga tushmas edi.* (O.Yoqub.) *Bizning bunday ulug' kunga erishganimizni otamiz ham ko'rganda, qanday quvonar edi.* (Iboxon.) *Men ham doim qishloqda turganimda, mashinani o'rganib olardim.* (H.Naz.) *Tuzalsa edi, odamlardek yura olsa, boshiga ko'tarardi.* (S.Ahm.) *Qaerdaki ma'naviy-mahrifiy ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan ekan, u yerda muvaffaqiyat qo'lga kiritiladi.* («O'zb.ov.») *Ishlab chiqqan mebellarimiz uylaringizni qanchalik yaxshi bezatar ekan, biz shunchalik xursand bo'lamiz.* («Qarshi univers.») *Istiqlol mendan fermer bo'lishni talab qilgan ekan, men bu vazifani ahlo darajada uddalashga vahda beraman.* («Qashq.»)

[-ca] shaklining «shart» ma'nosidan tashqari ifodalaydigan yana qator ma'nolari («payt», «istak», «iltimos», «sabab», «to'siqsizlik» kabi) mavjud, ular shart mayli doirasida qaralmaydi.

Buyruq-istak mayli shakllarining asosiy xususiyati – so'zlovchining istagi bilan bog'liq holdagi harakatga undash, shu harakatga dahvat etish, qo'zg'atishni ifodalash. U [-ay], [-gin], [-sin], [-aylik], [-ing] shakllari orqali yuzaga chiqadi: (*boray*), (*borgin*), (*borsin*), (*boraylik*), (*boring(izlar)*) kabi. Ifodalovchilar birlik va ko'plikda, shaxs va sonda farqlanadi.

Buyruq-istak maylida:

a) sof buyruq, dahvat, iltimos;

b) istak ma'nolari qorishadi.

Birinchi ma'no ikkinchi (*yo'qoling*), (*yondiring*), (*kuldirmagin*)) va uchinchi shaxsga (*borsin*, *borsinlar*), ikkinchi ma'no esa so'zlovchining o'ziga qarata (*boray*, *aytay*) ifodalanadi.

Buyruq-istak mayli ifodalovchilari bundan boshqa ma'nolarni («to'siqsizlik», ma'no kuchaytirish va h.) ifodalashi ham mumkin. Ammo unda mayli UGMsi tajallisi bo'lmaganda mayli ma'nosi doirasida o'rganilmaydi.

Maqsad mayli subyektning kesimdan anglashilgan harakatni bajarish maqsadini, niyatini, mo'ljalini bildiradi: (*bormoqchiman*), (*bormoqchisan*), (*bormoqchi*); (*bormoqchimiz*), (*bormoqchisiz*), (*bormoqchilar*).

Maqsad mayli ma'nosi [-*moqchi*], [-*moqchi edi*] ko'rsatkichlari yordamida ifodalanadi: *U hozir hammaning kallasini g'ovlatgan shum xabarni yo hech o'ylamayapti, yoki bu gapning menga sira daxli yo'q, deb ko'rsatmoqchi.* (A.Mux.) *Domlanning yer olgani rost, buni Saidiyga bildirmoqchi emas edi.* (A.Qah.)

1. *Zamon kategoriyasi.* «Payt valentligiga tahsir etish orqali kesimni shakllantirishda ishtirok etish va undan anglashilgan voqelikning nutq momentiga munosabatini ifodalash» - zamon kategoriyasi (qisq. ZK) ning UGMsi. Fe'lda bu UGMdagi *voqelik* uzvi harakat *tarzi* ko'rinishida xususiylashadi.

Voqelikning nutq momentiga munosabatiga qarab uch xil zamon farqlanadi:

a) nutq momentigacha bo'lgan voqelik – *o'tgan zamon*;

b) nutq momentidagi voqelik – *hozirgi zamon*;

v) nutq momentidan keyin bo'ladigan voqelik – *kelasi zamon*.

SHu boisdan zamon UGMsining uchta xususiy ko'rinishi farqlanadi:

1) *o'tgan zamon*;

2) *hozirgi zamon*;

3) *kelasi zamon*.

Ularni ifodalovchi shakllar ham shunga muvofiq uch guruhga ajratiladi.

O'tgan zamon. Hozirgi o'zbek tilida o'tgan zamon fe'li bir necha shakl yordamida ifodalanadi:

[-*di*] (*o'qidim*, *o'qiding*, *o'qidi*);

[-*gan*] (*o'qiganman*, *o'qigansan*, *o'qigan*);

[-(*i*)*b-*] (*o'qibman*, *o'qibsang*, *o'qibdi*);

[-*edi/ekan/emish*] (*yo'zgan edim*, *ishlayotgan edi*, *ishlagan eding*, *ishlar edilar*, *ishlamoqchi edim*).

Mazkur shakllarni qabul qilgan fe'l turli ma'no ifodalaydi. Masalan:

a) [-*di*]: «so'zlovchi ko'rgan, bilgan harakatning nutq momentigacha bajarilganini aniq, qathiy tarzda ifodalash»: *Barno yo'q ekan, bir oz kutdi, kelavermagach, o'tirishga sabri chidamay, idoradan chiqdi.* (O. Yoq.);

b) [-*gan*]: «so'zlovchi va tinglovchi o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmagan harakatni ifodalash»: *Kapalagini uchirib yuborgan.* (H.Naz.); «harakatning bajarilganligi va uning hozir ham mavjudligi»: *O'rinda ham gaplashaveramiz, sen juda charchagansan.* (I.Rah.);

v) [-(*i*)*b-*]: «harakatni bevosita kuzatmaganlik, undan keyin xabardor bo'lganlik»: *O'zim ko'rdim, tosh chap yelkasiga tushibdi*; «to'siqsizlik»: *Ustidan oshirib o'q otibman-u, kiprik qoqmaydi-ya!* (A.Qah.)

g) [edi]: «harakat holatning hozir emas, balki o'tgan, avvalgi vaqtga oidligi»: *Suv endi yerga singmay, muzlab qolgan edi.* (A.Qah.)

Bunday ma'nolar qatorini yana ancha davom ettirish mumkin. Biroq keltirilgan qo'shtirnoq ichidagi ma'nolarga diqqat qilinsa, ulardagi umumiylik «haraktning o'tgan zamonga oidligi» bo'lib, qolgan farqlarning birortasi zamon UGMsiga daxldor emas. Masalan, «to'siqsizlik», «bevosita kuzatmaganlik», «o'zaro suhbatlashib turgan paytda bo'lmaganlik» kabilarning zamon ma'nosiga mutlaqo tegishli joyi yo'q. Demak, ularni zamon doirasida tahlil etish ortiqcha. SHu boisdan *o'tgan zamon hikoya fe'li, o'tgan zamon davom fe'li* atamalaridagi «*hikoya*», «*davom*» unsurlarini zamonga daxlsiz hodisalarning ZKni murakkablashtiruvchi hodisa sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Zamon ma'nosiga boshqa ma'noning qorishuvini ham grammatik illyuziyaning bir ko'rinishi sifatida baholash mumkin.

O'tgan zamon shakli kesimning payt valentligini hol vazifasidagi o'tgan zamon ma'noli so'zshakllar bilan to'ldiradi: *kecha keldi, o'tgan yili o'qigan, bultur bajargan edim* kabi.

Hozirgi zamon. Zamonning bu turi ZK UGMsini «haraktning nutq momentida yuz berayotganligini ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Ma'nolardagi «davomiylik», «tugamaganlik» unsurlari undagi boshqa kategoriya tajallisi bo'lib, zamonning substantsial ma'nosiga daxli yo'q. «Davomiylik», «tugallanmaganlik» UGMdagi kategorial ma'no bilan zich holatdagi yondosh ma'no.

Bu zamon ma'nosi:

[-yap-];

[-yotib-];

[-yotir];

[-moqda]

affikslari bilan ifodalanadi.

SHakllar orasidagi farq sof uslubiy asosda. Aniqrog'i, [-yap-]jumumslubiy va keng istehmolliligi, [-yotib-]va [-yotir]dialektal va poetik xususiyati bilan, [-moqda]shakli kitobiy uslubga xosligi bilan xarakterlanadi. Ularda zamoni ifodalashda farq sezilmaydi. Qiyoslang: (*o'qiyapman*), (*o'qiyotirman*), (*o'qiyotibman*), (*o'qimoqdaman*).

[Yot], [tur], [yur], [o'tir] birliklari ko'makchi fe'l vazifasida kelib, hozirgi zamon shaklining analitik ko'rinishini hosil qiladi: *Hali dushmanlarimiz tinchigani yo'q, hushyorlikni qo'ldan berding, kallangga solaman deb poylab turibdi.* («Qashq.») *Hali kelishgani yo'q, o'zim ham xavotir olib o'tiribman.* (A.Qah.). *Quyoshki falakda kezib yuribdi, umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.* (G'.G'ul.) *Bo'liq yer «tayyorman» degandek ko'pchib yotibdi.* («Qashq.»)

Hozirgi zamon shakllari kesimning payt valentligini hozirgi zamon ma'noli so'zshakl bilan to'ldiradi: [bugun], [hozir] kabi. Bu so'zshakllar gapda hol bo'lib keladi.

Kelasi zamon. Mavjud darsliklarda grammatik illyuziya natijasida kelasi zamonning ikki ko'rinishi farqlanadi:

a)kelasi zamon aniqlik shakli;

b)kelasi zamon gumon shakli.

Yuqorida aytilgani kabi, ma'no turlaridagi «aniqlik» va «gumon» unsurlarining zamon substantsial mohiyatiga tegishli joyi yo'q. Bu ham boshqa kategoriya substantsial mohiyatining kelasi zamon UGMsidagi tajallisi.

Kelasi zamon ZK UGMsini «nutq momentidan keyin yuz beruvchi harakatni ifodalash» tarzida xususiylashtiradi. Bu zamon:

a) [-a], [-y] (*O'zbek qizlari sevgisini aytmaydi, bir umr pinhon tutadi.* (Sayyor) *Bolang uch-to'rt qiynaladi, keyin o'rganib ketadi.* (A.Qah.);

b) [-(a)r/mass] (*Balki zavod qurish uchun ovora bo'lishga to'g'ri kelmas.* (Oyb.) *SHu atrofda yurgandir, kelib qolar.* (S.An.)) affikslari orqali ifodalanadi. (SHu o'rinda aytib o'tish lozimki, darsliklarda zamon shakllari sanalganda, undan keyin albatta shaxs-son shakllari kelishi ta'kidlanadi. Bu o'rinda ZK kesimlikning dialektik bog'langan bir tarkibiy qismi bo'lganligi uchun hadeb zamon shaklidan keyin shaxs-son shakli bo'lishini ta'kidlab o'tirishni ortiqcha deb bildik. CHunki ular ajralmas.)

Kelasi zamon fe'lining [ekan], [emish] to'liqsiz fe'li bilan yasalgan eshitilganlik, keyin bilganlik ma'nosini ifodalovchi shakli gumon ma'nosini ifodalamasligi ta'kidlanadi: (*ishlar ekan*), (*kelar ekan*); (*ishlar emish*), (*kelar emish*)kabi. Bunda to'liqsiz fe'llarda zamon ma'nosi yo'q. Zamon shaklning [-ar] qismi orqali ifodalanadi.

Umuman olganda, to'liqsiz fe'llar fe'ldan boshqa so'zlar kesim vazifasida kelganda ularga zamon va modal ma'nolarni birgalikda beradi. Fe'llarni shakllantirganda esa sintetik-analitik shaklning affiks qismi zamon ifodalab, to'liqsiz fe'l zimmasiga modal munosabat ifodalashgina yuklatiladi. Qiyoslang: *ishchi ekan – ishchi bo'lgan ekan, o'qigan emish.* Keyingi ikki misolda [-gan]shakli zamon, to'liqsiz fe'llar modal munosabat ifodalagan.

Kelasi zamon shakllari kesimning payt valentligini kelasi zamon ma'noli hol vazifasidagi so'zshakllar bilan to'ldiradi: *ertaga, kelasi yil, kelajakda* kabi.

Affikslar ko'chma ma'nolarda ishlatilishi ham mumkin. *Hozir qorong'ida qayoqqa bordigu, nimayam qildik* (kelasi zamon). (P.Tur.) *SHundan so'ng, bilmadim, qancha vaqt shirin xayollar osmonida qanot qoqib yurdim* (hozirgi zamon). (Sayyor.) *Kecha dalada chunonam chekanka qilyaptiki, bamisoli usta sartarosh g'o'zani tarashlayapti deysiz* (o'tgan zamon).(S.Ahm.) *Bularni boshqa qismga yuborayapmiz* (kelasi zamon). (A.Ubay.)

Bunday ma'no ko'chishi nutqiy tabiatli.

SHaxs-son kategoriyasi. SHaxs-son kategoriyasi kesimlik kategoriyasi UGMsini «ega valentligini muayyanlashtirish orqali gap kesimini shakllantirishda ishtirok etish» tarzida xususiyashtiradi. Hozirgi o'zbek tilida shaxs-son ko'rsatkichlarining quyidagi turlari mavjud:

1.

a)

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I.	<i>borgan+man</i>	<i>borgan+miz</i>	<i>borib+man</i>	<i>borib+miz</i>
II.	<i>borgan+san</i>	<i>borgan+siz</i>	<i>borgan+san</i>	<i>borib+siz</i>
III.	<i>borgan+0</i>	<i>borgan+(lar)</i>	<i>borgan+di+0</i>	<i>borgan+di(lar)</i>

b)

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I.	<i>boryap+man</i>	<i>boryap+miz</i>	<i>bora+man</i>	<i>bora+miz</i>
II.	<i>boryap+san</i>	<i>boryap+siz</i>	<i>bora+san</i>	<i>bora+siz</i>
III.	<i>boryapti+0</i>	<i>boryapti+lar</i>	<i>boradi+0</i>	<i>boradi+(lar)</i>

v)

shaxs	Birlik	ko'plik
I.	<i>bormoqchi+man</i>	<i>bormoqchi+miz</i>

II.	<i>bormoqchi+san</i>	<i>bormoqchi+siz</i>
III.	<i>bormoqchi+0</i>	<i>bormoqchi+(lar)</i>

2. a)

shaxs	birlik	ko'plik	birlik	ko'plik
I.	<i>bordi+m</i>	<i>bordi+k</i>	<i>borgan edi+m</i>	<i>borgan edi+k</i>
II.	<i>bordi+ng</i>	<i>bordi+ngiz</i>	<i>borgan edi+ng</i>	<i>borgan edi+ngiz</i>
III.	<i>bordi+0</i>	<i>bordi+(lar)</i>	<i>borgan edi+0</i>	<i>borgan edi+(lar)</i>

b)

shaxs	birlik	ko'plik
I.	<i>borsa+m</i>	<i>borsa+k</i>
II.	<i>borsa+ng</i>	<i>borsa+ngiz</i>
III.	<i>borsa+0</i>	<i>borsa+(lar)</i>

3. a)

shaxs	Birlik	ko'plik
I.	<i>borgan+im yo'q</i>	<i>borgan+imiz yo'q</i>
II.	<i>borgan+ing yo'q</i>	<i>borgan+ingiz yo'q</i>
III.	<i>borgan+i yo'q</i>	<i>borgan+(lar)i yo'q</i>

b)

shaxs	Birlik	ko'plik
I.	<i>borayotgan+im yo'q</i>	<i>borayotgan+imiz yo'q</i>
II.	<i>borayotgan+ing yo'q</i>	<i>borayotgan+ingiz yo'q</i>
III.	<i>borayotgan+i yo'q</i>	<i>borayotgan+(lar)i yo'q</i>

4.

shaxs	Birlik	ko'plik
I.	<i>bor+ay</i>	<i>bor+aylik</i>
II.	<i>bor+0 \ bor+gin</i>	<i>bor+ing(giz)</i>
III.	<i>bor+sin \ bor+sin(lar)</i>	<i>bor+ishsin</i>

Nutqda shaxs-son shakllarining ko'chgan ma'noda qo'llanishi ham ko'p uchraydi. Bularni quyidagicha tartiblash mumkin:

a) uchinchi shaxs shakli birinchi shaxs ma'nosida: *Kamina aytdi – Men aytdim*;

b) uchinchi shaxs ko'plik shakli ikkinchi shaxs birlik («sizlash») ma'nosida: *Nima istasalar bor*;

v) ikkinchi shaxsning birlik shakli va birlik ma'nosida «sizlash» uchun qo'llanuvchi shakli umumshaxs ma'nosida qo'llanadi: *Qayta-qayta hidlaganingda yer mehriga to'yganday bo'lasan* (Sayyor);

g) gap ichida odam yoki kishi so'zi qo'llanganda uchinchi shaxs shakli ham umumshaxs ma'nosida qo'llana oladi: *Tashabbuskor yoshlarni ko'rib odam quvonadi* («Qashq.»);

Bunday qo'llanish sof nutqiy tabiatga ega.

Egalik kategoriyasi. Aytilganidek, EK – barcha mustaqil soʻz turkumi uchun umumiy kategoriya. Uning feʼl turkumida yuzaga chiqishiga misollar: *uning aytgani, bizning bormaganimiz, qizlarning kelgani.* Feʼlda EKning «keyingi mustaqil soʻzni oldingi mustaqil soʻzga bogʻlash» UGMsini «keyingi feʼlni oldingi mustaqil soʻzga bogʻlash» tarzida xususiyashtiradi.

Quyida EKning feʼlda voqelanish xususiyatidan ayrimiga toʻxtalamiz.

EK ikkinchi ahzosi [-gan] sifat-dosh shaklida keluvchi qurilmalar tarkibida voqelanadi: *nimalar boʻlayotganini, shabada yurmayotganidan, kimdir kelayotganini.* Misollar: *Uning zamirida katta tarbiya yotganini bilmay qolamiz.* (J.Abd.) *Bu gap asosan qaysi maqsadda aytilayotganini tushunishga urinardi.* (J.Abd.) *Mannop bilan Nodir ham tungi smenaga tushganligini bilgandan keyin...* (J.Abd.) Bunda tobe birlik bosh kelishikda: *katta tarbiya yotgani, gap aytilayotganini, Mannop bilan Nodir tushganligini.*

Bu qurilmalarni unga oʻxshab ketuvchi *reja bajarilganida* koʻrinishidagi qurilmadan farqlash lozim:

1) birinchi tur qurilmalarda bosh kelishikni qaratqich kelishigiga aylantirish mumkin: *yigit kelganini – yigitning kelganini.* Ikkinchi tur qurilmani bunday shaklga keltirib boʻlmaydi: *reja bajarilganida – rejaning bajarilganida.* Bunda [-ning] shakli ortiqcha;

2) birinchi tur qurilmada egalik affiksidan oldin *-lik* substantiv shakl yasovchisini qoʻshish mumkin (demak, bunda bosh kelishik emas, balki qaratqich kelishigi qatnashadi): *yigit – yigitning kelganligini.* Ikkinchi tur qurilmada [-lik] substantiv shakl yasovchisini qoʻshib boʻlmaydi;

3) birinchi tur qurilmada obyekt maʼnosi ifodalanib, u toʻldiruvchi yoki ega boʻlib keladi: *kelgani – nima?, kelganini – nimani?, kelganidan – nimadan?* Ikkinchi tur qurilmadan esa payt, shart maʼnolari ifodalanadi, shunga koʻra u oʻrin kelishiklaridan biri shaklini olib, hol boʻlib keladi: *reja bajarilganida.*

Ikkinchi uzvi harakat nomi boʻlgan qurilmalar: *Dushman samolyotlari oʻq yogʻdirib turishiga qaramay, hammasi roʻyobga chiqishiga, qalb boshqacha hissiyot bilan tepishini* kabi. Misollar: *Bularning hammasi keyin dilrabo qoʻshiqday boʻlib qolishini hali bilmaydilar.* (J.Abd.) *Koʻz oldida askarlar dushman ustiga balo-qazoday yopirilishlari kecha boshladi.* (J.Abd.)

Bu qurilmani ham unga oʻxshab ketuvchi *suv qaynashi bilan* kabi qurilmadan farq qilish lozim. Chunki bu birikmalarda ham bosh kelishigi mavjud:

1) birinchi tur qurilmalarda bosh kelishik shaklini qaratqich kelishigi shakliga almashtirish mumkin: *samolyotlarning oʻq yogʻdirib turishi, qalbning hissiyot bilan tepishi, hammasining qoʻshiqday boʻlib qolishi* kabi. Ikkinchi tur qurilmani bunday shaklga keltirib boʻlmaydi. Bunda [-ning] shakli ortiqcha boʻladi;

2) birinchi tur qurilmada obyekt maʼnosi ifodalanib, u toʻldiruvchi yoki ega boʻlib keladi: *turgani – nima?, turganini – nimani?, turganidan – nimadan?* Ikkinchi tur qurilma *suv qaynashi* bilanda taʼkidlangan xususiyat yoʻq.

Eslatma. *Men aytganim yoʻq, u borgani yoʻq* tipidagi qoʻllanishlarga nazar tashlansa, unda egalik maʼnosi yoʻqolib, shaxs-son maʼnosi kuchayganligi koʻrinadi. Aftidan, egalik qoʻshimchalari bu oʻrinda boshqa omillar va vositalar bilan birgalikda kesimni shakllantirishga xizmat qilgan. Bu misollardagi (*men*), (*u*) soʻzlarida [-ning] affiksi bordek tuyuladi. Ammo qolipning sinxron holatida ega va kesim orasida uni qidirish maʼqul emas. SHuning uchun uni EKga nisbat berib boʻlmaydi.

Bogʻlama. Kesimlik kategoriyasi ot turkumida oʻz mohiyatini cheklangan darajada namoyon qiladi. U bu turkumda ikki koʻrinishga ega boʻladi:

- a) hozirgi zamon ko'rinishi;
- b) o'tgan va kelasi zamon ko'rinishi.

Ko'p holda ot turkumida kesimlik kategoriyasi bog'lama vositasida yuzaga chiqadi.

Bog'lama kesimlik kategoriyasini ot va boshqa kesimlik vazifasiga unchalik moslashmagan so'zda yuzaga chiqaruvchi vosita. To'liqsiz fe'l [*bo'lmoq*], [*hisoblanmoq*], [*sanalmoq*], [*deyilmoq*] kabi mustaqil fe'l bog'lama vazifasini bajaradi.

Kesimlik kategoriyasining ot turkumidagi hozirgi zamon ko'rinishida quyidagi tusga ega bo'ladi:

ishchi+man *ishchi +miz*
ishchi+san *ishchi +siz*
ishchi+0 *ishchi +(lar)*

[-*man*], [-*san*], [-*miz*], [-*0*], [-*lar*] kesimlikning barcha ma'nosini yig'iq holda bir affiksda ifodalaydi. Bo'lishsiz shakli analitik usulda yuzaga chiqadi: (*ishchi emasman*), (*ishchi emassan*). Egaga urg'u berilganda, kesimlikning barcha ma'nosi nol shakl orqali ifodalanadi: *Men ishchi* (0). *Men yahudiy* (0) kabi.

O'tgan zamonda kesimlik ma'nosi bog'lama vazifasida keluvchi to'liqsiz fe'llar va bog'lamalashgan so'z bilan kesimlikning analitik ifodasini tashkil etadi:

ishchi+edim *ishchi +edik*
ishchi+eding *ishchi +edingiz*
ishchi+edi *ishchi +edi(lar)*

Bunda ikki shakl (*edi* va shaxs/son) kesimlikning to'rt tip ma'nosini ifodalaydi. To'liqsiz fe'l zamon, tasdiq, mayl ma'nosini yaxlit yuzaga chiqaradi.

Bo'l fe'li bog'lama vazifasida kelib uch zamonni ham ko'rsatishi mumkin:

ishchi+bo'laman (*bo'ldim*). Misollar: *Men shu zavodda uch yil ishchi bo'ldim* (o'tgan zamon). *Men shu zavodning tajribali ishchisi bo'laman* (hozirgi zamon). *Sen shu zavodda ishchi bo'lasan* (kelasi zamon). *sanaladi, hisoblanadi* so'zlari ham bog'lama vazifasini bajarib otga kesimlik kategoriyasini moslaydi.

Savol va topshiriqlar:

1. Kesimlik shakllari paradigmasini tavsiflab bering.
2. Kesimlik shakllarining umumiy grammatik ma'nosini tavsiflang.
3. Kesimlik shakllarining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlariga izoh bering.
4. Kesimlik kategoriyasi nima uchun murakkab kategoriya deyiladi?
5. Kesimlik kategoriyasining tarkibini tushuntiring.
6. Shaxs-son shakllariga tavsif bering
7. Zamon shakllariga tavsif bering.
8. Modallik shakllariga tavsif bering.
9. Kesimlik kategoriyasi grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvini tushuntiring.
10. Bog'lama nima?

10-mavzu: HOZIRGI O'ZBEK TILIDA YORDAMCHI SO'ZLAR. KO'MAKCHILAR

REJA:

1. Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.
2. Yordamchilarning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari.
3. Yordamchilar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Tayanch so'zlar: *mustaqil so'zlar, ma'noviy mustaqillik, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik vazifa, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, vazifadosh bog'lovchi, grammatik ma'no, grammatik vazifa, teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, sof bog'lovchilar, vazifadosh bog'lovchilar, bog'lovchi-yuklamalar, yuklama, grammatik ma'no, grammatik vazifa, so'z yuklamalar, qo'shimcha yuklamalar, o'zgarimaslik, ta'kid yuklamalari, so'roq-taajjub yuklamalari, inkor, sof yuklama, nisbiy yuklama..*

Ma'lumki, leksik sath birliklari ikki katta guruhga bo'linadi: mustaqil so'z va yordamchi so'z. Ular orasidagi zidlanishni «ma'noviy va vazifaviy nomustaqillik» tashkil etadi. Bu ziddiyat belgisiga ko'ra yordamchi so'z belgisi, mustaqil so'z esa belgisiz a'zo mavqei egallaydi. Yordamchi so'z hech qachon mustaqil qo'llanmaydi, bog'liq qurshovdagina kela oladi. Mustaqil so'z esa mustaqil qo'llanilish va ma'no ifodalash qobiliyatiga ega.

Leksemalarning ma'noviy tasnifida ilk bosqich belgisi “ma'noviy mustaqillik” emas, “ma'noviy nomustaqillik” bo'lishining sababi – mustaqil leksemaning bu belgiga nisbatan betarafligi. Chunonchi, katta guruhni tashkil etuvchi atoqli ot (*Temir, Anor, Gavhar*) guruhida, mavhum otda mustaqil ma'noning mavjudligi kishini shubhaga soladi. Mustaqil so'zda “ma'noviy mustaqillik” belgisi shartli. Assimilyatsiya tilshunoslikda boshqacha, biologiyada esa tamoman o'zgacha talqin etiladi. [*Loy*] so'zi adabiy tilda boshqa, otarchi nutqida esa boshqacha mohiyatini namoyon qiladi. Shungao'xshash hodisani sifat, fe'l, ravishda ham ko'plab uchratish mumkin. Bularning barchasi “ma'noviy mustaqillik” belgisi mustaqil leksemada nisbiy tushuncha, nisbiy belgi ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun leksemaning ma'noviy tasnifida ilk bosqichning belgisi – “ma'noviy mustaqillik” emas, balki “ma'noviy nomustaqillik”. Ushbu belgi asosidagi ziddiyatda ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kuchli (belgisi) a'zoni tashkil etadi. Sof ko'makchi, sof bog'lovchi, sof yuklama hech qachon mustaqil ma'noli so'z xususiyatiga ega bo'la olmaganligi tufayli uning guruhiga o'ta olmaydi.

Yordamchi so'zning “oraliq uchinchi” tabiatiga egaligi. Tilshunoslikda yordamchi so'zning leksema va qo'shimcha orasida “oraliq uchinchi” bo'lib, ham leksema, ham grammatik morfema xususiyatini o'zida mujassamlashtirishi aniqlangan. Ular shaklan leksema, mazmunan qo'shimcha (qiyos: *Kitobni akamga/akam uchun oldim.*) Shu tufayli bo'lsa kerak, til tizimida yordamchi so'zning o'rni turlicha baholanadi – ayrim olimlar ularni qo'shimchaga, ayrimi nutq bo'lakchasiga, ba'zisi yordamchi so'zga nisbat beradi. Yordamchi so'zning so'zmi, qo'shimchami yoki mustaqil so'zning yordamchi so'z bilan bog'lanishi so'z birikmasimi ekanligi hanuzgacha munozara mavzui bo'lib qolmoqda. Chunki yordamchi so'z guruhi ichida shunday birliklar borki, ular ham “ma'noviy mustaqillik”, ham “ma'noviy nomustaqillik” xususiyatiga ega (ot-ko'makchilar, yordamchi va ko'makchi fe'l). Chunonchi, [*tortib*] mustaqil so'z sifatida ravishdosh kabi qo'llaniladi: *Baliq qarmoqni bir tortib, qochibketdi.* Shu so'z

Farhod tog'idan tortib Shirin yayloviga qadar Sirdaryo bo'ylab tizilib ketgan etmish ming xalq bu sovuqlarni 'isand qilmaydi (Oyd.) gapida yordamchi so'z vazifasida kelgan. [Tortib]mustaqil va yordamchi ma'noga ega bo'lishiga qaramay, mustaqil leksema tipiga kiradi. [Uchun], [sayin], [uzra], [kabi], [va] ga o'xshagan yordamchi so'z aniq bir tushunchani ifodalay olmaydi, ammo turli munosabatni yuzaga chiqarib, yordamchi so'z guruhidan joy oladi. Yuqoridagilardan anglashiladiki, "alohida qo'llanila olish yordamchi leksemani mustaqil leksema bilan yaqinlashtirsa, turli-tuman munosabatni ifodalash kabi umumlashgan ma'no uni morfemaga, qo'shimchaga yaqinlashtiradi, leksema va morfema ziddiyatida "oraliq uchinchi" vazifasida keladi.

Yordamchi so'zni mustaqil s'yzga quyidagilar yaqinlashtiradi:

- a)shaklan alohida ajralib turish;
- b)lug'aviy ma'noning mavjudligi (ot-ko'makchi, fe'l-ko'makchida);
- v)ko'pincha ularning mustaqil so'zlarga yaqinlashishi, ulardan kelib chiqishi.

Yordamchi so'zning grammatik morfemaga o'xshash tomoni ularning morfema kabi mustaqil nominativ funktsiya bajarmasligi ([ammo], [va], [sayin], [kabi]), qo'shimchasimon shaklda bo'lishi ([-u], [-yu], [-da]; [-ki/-kim]; [-dek/-day], [-cha]) va boshqalar. Biroq yordamchi so'zning grammatik morfemadan farqli tomoni shundaki:

1) ular ajralgan holda gap bo'lagi, so'z birikmasi va gapda sintaktik xarakterdagi vazifa bajaradi. Bu xususiyat, ayniqsa, ko'makchi uchun xos.Chunonchi, 1. *Yaxshi bilan yursang etarsan murodga, Yomon bilan yursang qolarsan uyatga* (Maq.) 2. *To'lqinlarning kuchli nahrasi, Yulduzlarga qadar etardi.* (Uyg'.)

2) gap bo'lagi yoki gapni o'zaro bog'laydi. Bunday funktsiyada, asosan, bog'lovchi va yuklama keladi: 1. *Xonaga baland bo'yli, biroq oriqqina yigit salom berib kirdi.* (S.Ahm.) 2. *Saida bu gapni aytdi-yu, chiqib ketdi.* (S.Ahm.);

3) so'roq, inkor kabi gap ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi (yuklama).

Yordamchi so'z mustaqil so'z va so'z-gap oralig'ida «oraliq uchinchi» maqomini oladi. O'z navbatida, yordamchi so'z ham o'z ichida umumiy belgisiga ko'ra oraliq uchinchini ajratib chiqaradi. Ya'ni bog'lovchida bog'lash, yuklamada gap mundarijasiga ta'sir qilish mohiyatni belgilash darajasida bo'lsa, ko'makchida sanalgan har ikki belgi mushtarak. Bu uning «oraliq uchinchi»lik mavqeini ko'rsatadi.

Yordamchi so'zning shakliy xususiyatiga ko'ra turlari. Yordamchi so'z shakliy xususiyatiga ko'ra:

- a) qo'shimchasimon;
- b) sof yordamchi so'z;
- v) nisbiy yordamchi so'z ko'rinishiga ega.

Qo'shimchasimon yordamchi so'z har uchala yordamchi so'z tarkibida uchraydi. Ko'makchi orasida [-dek/-day], [-cha], bog'lovchi orasida [-ki/-kim]; [-u], [-yu], [-da] affikssimon yuklama – bog'lovchi, yuklama orasida [-mi], [-chi], [-a], [-ya], [-ku], [-oq/yoq], [-da], [-gina] kabi qo'shimchaga o'xshash yordamchi so'zni uchratish mumkin. Qo'shimchasimon yordamchi so'z shaklan qo'shimchaga o'xshaydi, ammo yordamchiso'z vazifasini bajaradi.Chunonchi, 1. *'o'latdek (kabi) dadil bir yigit bu ishdan hayiqsa, uyat bo'ladi.* (O.Mux.)2. *Shu payt o'g'ilchasi eshikdan yugurib keldi-da* (va), *dadasining quchog'iga otildi.* (Oyb.)3. *Bazmga Gulnoragina (faqat) kelmadi.* (S.Ahm)

Sof ko'makchi sirasiga [uchun], [bilan], [sari], [qadar], [kabi], [singari], [sayin], [orqali] so'zlari; sof bog'lovchi sirasiga [va], [hamda], [ammo], [lekin], [biroq], [balki], [yo],

[yoxud], [go'yo], [agar], [basharti], sof yuklama qatoriga[xuddi], [faqat], [axir], [hatto], [naq], [atigi] so'zi kiradi.

Nisbiy yordamchi so'z atamasi ostida boshqa turkumga mansub bo'lgan so'zning yordamchi vazifasida qo'llanilishi ([old], [orqa], [avval], [bo'ylab], [boshlab]) yoki tabiatida "shakldoshlik" mavjud bo'lgan birlik tushuniladi. Masalan, (*yolg'iz*) sifat turkumiga oid so'z-yuklama o'rnida (*Yolg'iz senga suyanaman*) ishlatiladi. Yoki **Vaqtida** *yomg'ir yog'adi*, **vaqtida** *qor gapida (vaqtida)* so'zining vazifasi bog'lovchiga yaqin. Bunga o'xshash misol nutqimizda ko'p. Yordamchi so'zning shakliy xususiyatiga ko'ra turini quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin (25-jadval):

25-jadval

Yordamchi so'z Turi	Sof yordamchi so'z	Qo'shimchasimon yordamchi so'z	Yarim yordamchi so'z
Ko'makchi	<i>kabi, singari, sari, sayin, dovur, uchun, orqali</i>	<i>-dek, -day, dayin, -cha</i>	<i>old, oldin, orqa, qarshi, avval, bo'ylab, ko'ra, qarab, tomon</i>
Bog'lovchi	<i>va, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, shuning uchun, agar, go'yo, toki, basharti, garchi, xoh, dam, yoki, yoxud, yo</i>	<i>-ki, (-kim), -u, -yu, -da</i>	<i>vaqtida, bir, ba'zan, gohida</i>
Yuklama	<i>axir, hatto, faqat, ham, naq, go'yo, go'yoki, atigi</i>	<i>-mi, -ku, -gina, -u, -yu, -da, -a, -oq, (-yoq), -dir</i>	<i>yolg'iz, ba'zan, bir</i>

Jadvaldan ko'rinib turganidek, yordamchi so'z mustaqil so'z hisobidan ortib boradi. Yordamchi so'zning boyishida yana bir yo'l – ularning ichki tomondan bir turdan ikkinchi turga o'tishi, aniqrog'i, "oraliq hodisa" xususiyatiga ega bo'lgan ko'makchi-bog'lovchi, bog'lovchi-yuklamaning mavjudligi. Masalan, [bilan], [deb], [deya] kabilar – ko'makchi-bog'lovchi. Ushbu ko'makchining bog'lovchi vazifasida kelishi ancha keng tarqalgan hodisa. *Ammo lekin bu ishni aysalga solish yaramaydi* gapida bog'lovchi-yuklama qo'llanilgan, ya'ni [ammo] bog'lovchisi kuchaytiruv yuklamasi vazifasida kelgan.

Bugungi kunda yordamchi so'zni har tomonlama o'rganish, uni lisoniy tahlil qilish ishlari tilshunosligimizda davom etmoqda.

KO'MAKCHI

Ko'makchi yordamchi so'zning bir ko'rinishi sifatida. Turkiy tillarda (jumladan, o'zbek tilida ham) ko'makchi ko'pdan buyon tilshunoslarning tekshirish obyekti bo'lib kelmoqda. O'zbek tilidagi ko'makchiga birinchi bo'lib mukammal ta'rifni A.N.Kononov bergan: "Ko'makchilar shunday bir gruppaga so'zlarki, ular ot bilan yoki obyekt bilan predikat orasidagi qurol-vosita, maqsad, sabab, payt, masofa, yo'nalish, o'xshatish kabi munosabatning yaratilishida xizmat qiladi". Sh.Shoabdurahmonov ham o'zining "Yordamchi so'zlar" asarida ko'makchiga shunday ta'rif bergan: "Ko'makchi obyektning obyektga yoki obyektning predikatga bo'lgan turli grammatik munosabatini ko'rsatuvchi yordamchi so'zdir". Darhaqiqat, ko'makchimustaqilsyozorasidagitobemunosabatniifodalashvakeshikma'nosinianiqlashtirish,

to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shuxususiyat bilan ko'makchibog'lovchi vayuklamadan farq qiladi. Ko'makchima'nov vazifa jihatidan kelishik qo'shimchasiga yaqin turadi. Shuning uchun ba'zan kelishik shaklidan anglashilgan ma'no ko'makchi bilan ham ifodalanadi (*Mashinada keldim – mashina bilan keldim. Ukamga oldim – ukam uchun oldim* kabi). Lekin ular kelishik affiksiga qaraganda ma'noni aniq, konkret ifodalaydi.

Ko'makchining shakli xususiyatiga ko'ra turlari. Ko'makchi shakli va bajaradigan vazifasi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) sof ko'makchi;
- b) yarim ko'makchi;
- d) qo'shimchasimon ko'makchi.

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan [*uchun*], [*bilan*], [*sari*], [*qadar*], [*kabi*], [*singari*], [*sayin*], [*orqali*] so'zi **sof ko'makchi**, ular tobe so'zni hokim so'zga bog'lashga xizmat qiladi. Sof ko'makchi boshqa so'zga birikkan holda turli munosabatni anglatadi. Jumladan, [*bilan*] ko'makchisio'zbek tilida asosan ko'makchi, ba'zan bog'lovchi vazifasida ishlatiladi. Shuning uchun bu ko'makchi turi yordamchi so'zdan birining o'rnida ikkinchisi qo'llanilishi nuqtai nazaridan *ko'makchi-bog'lovchi* atamasi ostida ham o'rganilmoqda. [*Bilan*] yordamchisining etimologiyasi haqida prof.A.N.Kononov V.V.Radlov, J.Deni kabi qator turkiyshunoslarning fikrini e'tiborga olib, uning [*birlan*] so'zidan kelib chiqqanini aytgan. [*Bilan*] yordamchisining [*birla*], [*birlan*], [*bila*], [*ila*], [*-la*] shakllari vazn, qofiya va uslub talabiga ko'ra ko'proq 'oeziyada uchraydi. Chunonchi, *Baxt ila to'lib-toshgan go'zal oy deraza tagida o'sgan daraxt barglarida mudrab yotadi.* (R.Tag.) Bu ko'makchi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

- 1) biror harakatning bajarilishida shaxs yoki predmetlarning birgaligini: *Ko'pchilik bilan odam o'zini kuchli sezadi;*
- 2) harakatni bajarishda vosita ma'nosini: *Shu gapning ustiga Ismat bobo hassasi bilan eshikni ochib kirib keldi* ('.Qod.);
- 3) payt ma'nosini: *Qo'ng'iroq chalinishi bilan o'qituvchi sinfga kirdi;*
- 4) sabab ma'nosini: *Ular: "Gulnor o'z ajali bilan o'ldi..."*, -*deyishdi.* (Oyb.);
- 5) harakatning bajarilishidagi holatni: *Onamning mehr bilan boqib turgan ko'zlarini bir umr unuta olmasam kerak.* (Oyb.)

[*Bilan*] ko'makchisi – keng tarqalgan yordamchi so'z. Uning bog'lovchilik, ko'makchilik tabiati olimlarimiz orasida tortishuv bo'lishiga sabab bo'lgan. Shu boisdan "... va, bilan, hamda, shuningdek so'zi hozirgi o'zbek adabiy tilida teng bog'lovchining biriktiruv bog'lovchi turiga kiradi" degan fikr ham ilgari surilgan. Ammo bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, bog'lovchi vazifasidagi [*bilan*] ning [*va*], [*ham*] biriktiruv bog'lovchisidan farqlanadigan o'ziga xos xususiyati bor:

- «birgalik» ma'nosi [*bilan*] yordamchisi uchun xos: *Chodir sahnasidan bir qiz bilan yigit chiqib o'yin qildi* (M.Ism.). Ushbu misoldagi [*bilan*] o'rnida [*va*] ni qo'llasak, yuqoridagi ma'no kelib chiqmaydi, balki qiz bilan yigitning alohida-alohida o'ynagani ma'nosi ifodalanadi.

- [*va*], [*ham*] bog'lovchilari uyushib kelgan fe'l kesimni bog'laydi, ammo [*bilan*] da bu imkoniyat chegaralangan. Qiyoslang: *Lola ishlaydi va o'qiydi. Lola ishlaydi ham o'qiydi.* Ammo *Lola ishlaydi bilan o'qiydi* tarzidagi gap nutqda ishlatilmaydi. [*Bilan*] ning grammatik vazifasi – bog'lovchi va ko'makchi vazifasida kela olishi; shunga ko'ra, [*bilan*] boshqa ko'makchidan farqlanadi. Shuning uchun [*bilan*] ko'makchisini *ko'makchi-bog'lovchi* termini bilan ataganimizda, uning barcha xususiyati qamrab olinadi. Bu ko'makchi turi gapda vosita ma'nosini bildirganda to'ldiruvchi, sabab, payt, harakatning bajarilish tarzini bildirganda hol vazifasida keladi.

[**Uchun**] ko'makchisi «atalganlik» (*Yo'lchi uchun keltirgan tugunchak yodiga tushdi* (Oyb.)), «maqsad» (*Hamma xalq ochdan o'lmaslik uchun bir amal-taqal qilib turibdi* (Oyb.)), «sabab» (*Kampirning ahmoqligi yo dushmaningizning ig'vosi uchun shundoq deyishga qandoq tilingiz bordi?* (A.Qah.)) «evaz» (*E'tiboringiz uchun rahmat*) kabi ma'noda qo'llanib, to'ldiruvchi, maqsad, sabab holi vazifasida keladi.

[*Kabi*], [*singari*],[*yanglig'*] ko'makchisi bir narsani boshqa narsaga o'xshatish, chog'ishtirish ma'nosini anglatadi. Masalan, *Ukam men kabi bechora... g'am chekib yotgandir* (Oyb.). [*Kabi*], [*singari*]ko'makchisi bilan [-*dek*], [-*day*]qo'shimchalarining ma'nodoshlik xususiyati tilshunoslarimiz tomonidan qayd etilgan. Formal tilshunoslikda bu affikslar ravish yasovchi qo'shimcha sifatida berilgan. [-*dek*], [-*day*] affikslari orqali yasalgan ravishlar harakat va holatning yasash asosida ifodalangan narsa yoki belgi-xususiyat bilan o'xshashligini, qiyoslashni bildiradi: *tog'-dek*, *ot-dek*, *lochin-day*, *qadimgi-day*, *ilgarigi-dek*, *avvalgi-dek*, *burungi-day*, *gul-day* kabi: *Qalandarov ertasiga kundagiday saharda idoraga chiqdi* (A.Qah.). *U go'yo tug'ilib o'sgan qishlog'ini ko'rmoqchiday boshini ko'tarib hayajon va sog'inch bilan uzoqlarga tikildi* (Oyb.) Bu o'rinda ham til hodisalarini izohlashda zo'rma-zo'rakilik yuzaga kelgan. Natijada nutqimizda tez-tez ishlatiladigan ushbu qo'shimchalar boshqacha talqin etilgan. Buni quyidagi oddiy qiyosda ko'rish mumkin (26-jadval):

26-jadval

[- <i>dek</i>], [- <i>day</i>] (qo'shimchasimon ko'makchi)	[<i>kabi</i>], [<i>singari</i>], [<i>yanglig'</i>] (sof ko'makchi)
1. <i>Oydek</i> go'zal qiz. 2. <i>Tog'dek</i> yuksak. 3. <i>Lochinday</i> dadil. 4. <i>Ilgarigidek</i> qadrdon bo'lib ketishgan. 5. <i>Gulday</i> ochilib menga bir bor qaramaysiz.	<i>Oy kabi</i> go'zal qiz. <i>Tog' kabi</i> yuksak. <i>Lochin singari</i> dadil. <i>Ilgarigi kabi</i> qadrdon bo'lib ketishgan. <i>Gul yanglig'</i> ochilib bizga bir bor qaramaysiz.

Oddiy mantiq [-*dek*], [-*day*] qo'shimchasi [*kabi*](*[singari]*, [*yanglig'*], [*misol*], [*misoli*]) sof ko'makchisiga sinonim ekanligini, [-*dek*], [-*day*] qo'shimchasida so'z yasash xususiyati yo'qligini ko'rsatib turibdi.

[-*dek*], [-*day*] qo'shimcha shaklidagi ko'makchi hamisha o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi va urg'uli bo'ladi, ko'pincha bir-birini almashtira oladi. Ular bitta ko'makchining ikki ko'rinishi.

[-*dek*], [-*day*] ko'makchi-qo'shimchasi o'zining eski adabiy o'zbek tilida keng qo'llangan [-*dayin*]ko'rinishiga ham ega. Bu ko'rinish hozir, asosan, ko'tarinki uslubda, shehriyatda qo'llaniladi: 1. *Oydayin ruxsoringga zoru intizorman o'zim*. 2. *Zihi sarv ustida yuzung qamardayin, Qani bir shoxi gul sen siymbardayin*. («Muhabbatnoma»)

[-*day*] ko'makchisi [*shunday*], [*bunday*], [*qanday*], [*unday*], [*allaqanday*] kabi olmosh; [*jinday*], [*qittay*], [*arziguday*], [*aytganday*], [*jo'jabirday*], [*o'lguday*], [*davangirday*]kabi ravish tarkibida yaxlitlanib, qotib, o'zakdan ajralmaydigan bo'lib qolgan.

[*Qadar*], [*dovur*] ko'makchisi hokim bo'lakka tobelanish munosabatini yuzaga chiqarar ekan, bunda o'rin, payt ma'nosini ifodalaydi. [*Qadar*]ko'makchisi [-*ga*] qo'shimchali ot va olmosh bilan qo'llanib, «chegara», «nihoya» ma'nosini bildiradi: *Tantanali yig'ilish boshlangunga qadar askiya, o'yin-kulgi davom etdi*. (Oyb.) [*Qadar*] ga ma'nodosh qo'shimchasimon ko'makchi sifatida [-*cha*] qo'shimchasining to'g'ri kelishi ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan: *Mehmonlar kechga qadar o'tirishdi – Mehmonlar kechgacha o'tirishdi*.

[*Orqali*] ko'makchisi harakatning biror vosita bilan bajarilishini bildiradi: *Anvar o'z istiqbolini yolg'iz muhabbat orqali ko'rar edi.* (A.Qod.) [*Bilan*] va [*orqali*] ko'makchilari vosita ma'nosini anglatishga ko'ra ma'nodoshlik hosil qiladi. Ammo bu ma'nodoshlik ma'lum kontekstdagina voqelanadi. O'rin ma'nosini ifodalagan otlar bilan birikkanda [*bilan*]va [*orqali*] ko'makchilari sinonim bo'ladi: *Katta yo'l orqali yurib borib chapga burildik – Katta yo'l bilan yurib borib chapga burildik.* Agar ko'makchi boshqarayotgan ot o'rin ma'nosini ifodalamas, bu ko'makchilar ma'nodoshlik kasb etmaydi. Chunonchi, *Yigitga deraza orqali to'yib-to'yib qarashga zor bo'lsa-da,...*(Oyb.)

[*Sari*] ko'makchisi harakatning yo'naltirilgan o'rni, payti ma'nosini anglatadi: *Hiro sari yurdik.* (Oyb.) *Ko'krak og'rig'im borgan sari battar bo'lya'ti.* (Oyb.) [*Sari*] ko'makchisi o'rin, tomon, payt ma'nosini bildirganda [*sayin*] ko'makchisi bilan ma'nodosh bo'ladi. Gapda payt, o'rin holi, to'ldiruvchi vazifasida keladi.

Ma'lumki, sistem tahlil jarayonida har bir narsaning mohiyati shu narsaning o'ziga o'xshash, ayni vaqtda undan farqli va unga zid boshqa narsalar bilan bo'lgan munosabati orqali ochiladi. Jumladan, o'zbek tilining lug'aviy tizimi mustaqil va yordamchi leksemaga bo'linadi. O'z navbatida, mustaqil leksema atash/nomlash vazifasini bajaruvchi atovchi leksema va ishora ma'noli leksema (olmosh) ga, yordamchi esa ko'makchi, bog'lovchi, yuklamaga, bularning har biri, o'z navbatida, yana boshqa guruhga pog'onali ravishda bo'linib ketaveradi. Tilimizning yordamchi so'z, mustaqil so'z va morfema tizimi izchil pog'onaviy (ierarxik) tuzilishga ega bo'lib, nisbiy va quyi pog'onalar o'zaro gipo-gi'eronimik (tur-jins) munosabati bilan bog'lanadi – har bir yuqori bosqich quyi pog'ona uchun gi'eronim mavqeida, quyi bosqich yuqori bosqichga nisbatan giponim mavqeida bo'ladi. Demak, so'z yoki morfema ma'lum bir pog'onadan o'tib, lisoniy birlik darajasiga etadi. Quyida ayrim yordamchi so'z (ko'makchi) ning umumlisoniy ma'nosini berishga harakat qilamiz:

[*Bilan*]-leksik sath birligi–ma'noviy nomustaqil – umumlashgan grammatik ma'noli – shaklan morfologik o'zgarmas – leksoid va affiksoid ko'rinishli – yakka qo'llanishli – sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

[*Kabi*]- leksik sath birligi – ma'noviy nomustaqil – umumlashgan grammatik ma'noli – shaklan morfologik o'zgarmas – leksoid ko'rinishli – yakka qo'llanishli – sintaktik bog'lash vazifasida kela oladigan lisoniy birlik.

Boshqa ko'makchiga ham shunga y'xshash ta'rif berish mumkin.

Nisbiy ko'makchi haqida. Mustaqil so'zning “nomustaqillik” belgisiga nisbatan mo'htadilligi sababli mustaqil so'z ichidan nisbiy yordamchi ajralib chiqadi. Nisbiy ko'makchi bir xususiyati bilan ma'noviy mustaqil, ikkinchi xususiyati bilan ma'noviy nomustaqil leksemaga o'xshab ketadi va oraliq uchinchi guruhini hosil qiladi. Leksema nomustaqil leksema sifatida voqelanganda, leksema sememasi o'z muayyanligini kuchsizlantiradi va semema grammatik ma'no sifatida voqelanadi. Chunonchi, quyidagi gaplarda berilgan [*ko'ra*] leksemasining ma'nolarini qiyoslashga harakat qilamiz: 1. *Yaxshi-yomonni ko'ra-ko'ra odamning yaxshimi, yomon ekanini tez ajratib oladigan bo'lib qolgan.* (A.Qah.) 2. *Qalandarovdan shikoyat boshlashdan ko'ra ko'proq bu noqulay ahvoldan chiqish uchun ...* (A.Qah.) 1-gapda qo'llanilgan [*ko'ra*] «ko'z bilan ko'rmoq, kuzatmoq» semasiga ega bo'lsa, 2-gapda «ko'rish» semasi kuchsizlangan va «chog'ishtirish, qiyoslash» grammatik ma'nosini voqelantirgan. 1-gapda qo'llanilgan [*ko'ra*] [*ko'rmoq*] fe'lining ravishdosh shakli bo'lsa, 2-gapda fe'l ko'makchi sifatida tobelanish munosabatini hosil qilgan. Qolgan nisbiy ko'makchilar ham xuddi shunday xususiyatlarga ega. [*Old*], [*oldin*], [*orqa*], [*ro'ara*], [*qarshi*], [*avval*],

[*keyin*], [*so'ng*], [*oxir*], [*tomon*], [*ost*], [*ust*], [*tag*], [*te'a*], [*yon*], [*uch*], [*ich*], [*o'rt*], [*ora*] kabi o'rin va payt ma'noli ot, [*bosh*], [*qosh*], [*lab*], [*og'iz*], [*oyoq*], [*qorin*] kabi tana a'zolari nomi, [*qariyb*], [*bo'ylab*], [*boshlab*], [*ko'ra*], [*deya*], [*deb*], [*atab*], [*o'xshab*] kabi ravishdosh ko'p holda ko'makchi vazifasida keladi va ko'makchi sirasining boyishiga sabab bo'ladi. Bunday holda bu so'zlar nisbiy yoki yarim ko'makchi sanalib, o'zi birikib kelgan so'z bilan birgalikda bir gap bo'lagi, ko'pincha, hol bo'lib keladi. Ko'makchidan [*bilan*], [*uchun*], [*kabi*], [*singari*], [*yanglig'*], [*sayin*], [*sari*], [*sababli*], [*orqali*], [*tufayli*], [*chog'li*], [*bo'ylab*], [*haqida*], [*to'g'risida*] kabilar o'zi birikib kelgan so'zga hech qanday qo'shimchasiz bog'lanadi; [*tomon*], [*qadar*], [*qarshi*], [*qaraganda*], [*doir*]; [*binoan*], [*qaramay*] kabi ko'makchi o'zi birikib kelgan so'zdan [-ga] qo'shimchasini qabul qilishni talab qiladi: *qonunga binoan*, *ukasiga qaraganda*, *baxtga qarshi*; *so'ng*, *keyin*, *boshqa*, *tashqari*, *buyon*, *avval*, *ilgari*, *boshlab* ko'makchisi [-dan] qo'shimchali so'z bilan birikadi: *bundan avval*, *o'qishdan keyin*, *tanaffusdan so'ng* kabi. Ko'makchining grammatik munosabatni yaratib, kelishik qo'shimchasiga o'xshash vazifani bajarishi haqida yuqorida qisman aytib o'tilgan edi. Darhaqiqat, ko'makchi shu xususiyati bilan ham boshqa yordamchi so'zdan farq qiladi. A.N.Kononov ta'biri bilan aytganda, ko'makchi ko'p holda kelishikning dubleti sanaladi. Masalan: *Ukamga oldim – Ukam uchun oldim. Siyohda yozdi – Siyoh bilan yozdi. Telefonda gaplashdi – Telefon orqali gaplashdi. Akamni gapirdi – Akam haqida gapirdi.*

Savol va topshiriqlar:

1. Yordamchi so'zlarning grammatik xususiyatlarini solishtiring, umumiy va farqli jihatlarini tushuntiring.
2. Tildagi leksikalizatsiya hodisasini tushuntiring.
3. Tildagi grammatikalashuv hodisasini tushuntiring.
4. Ko'makchilarning sintaktik xususiyatlarini tushuntiring.
5. Yordamchilar o'rtasidagi transpozitsiya hodisasini tushuntiring.
6. Sof va vazifadosh

BOG'LOVCHILAR

Reja:

1. Bog'lovchilarning xususiyatlari.
2. Bog'lovchilarning tiplari va turlari.
3. Bog'lovchilar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Tayanch so'zlar: *bog'lovchilar, teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, sof bog'lovchilar, vazifadosh bog'lovchilar, ko'makchi- bog'lovchilar, yuklama- bog'lovchilar, biriktiruv bog'lovchilari, zidlov bog'lovchilari*

Bog'lovchilarning xususiyatlari. Bog'lovchi ham ko'makchi kabi sintaktik aloqa vositasi sanalib, ulardan tobe munosabatni ifodalashdan tashqari, teng munosabatni ham hosil qilishi bilan ajralib turadi. Bog'lovchi gap bo'laklari, qo'shma gapning sodda gapga teng qismlari orasidagi turlicha aloqani, grammatik munosabatni ko'rsatadi. Bog'lovchining mohiyati, o'zbek adabiy tilidagi bog'lovchining turi, bu turga oid so'zlar tilshunosligimizda keng o'rganilgan. Mavjud adabiyotlarda bog'lovchining turi va bu turga qaysi so'z mansubligi masalasida turlicha nuqtai nazar bor, ya'ni bir tadqiqotda bog'lovchi deb berilgan birlik boshqasida yuklama qatoriga kiritiladi, ko'makchi deb berilgan birlik bog'lovchi deb tan olinadi. Bog'lovchiga oid so'zning aniq belgilanmasligi sababi ular lison-nutq jihatidan o'rganilmaganligida bo'lsa kerak.

Bog'lovchini ham ko'makchi singari shakliy jihatdan uch guruh (sof bog'lovchi, nisbiy bog'lovchi, qo'shimchasimon bog'lovchi) ga ajratib o'rganish lozim. Sof bog'lovchi guruhiga faqat bog'lovchi vazifasida qo'llaniladigan [*va*], [*hamda*], [*yo*], [*yoxud*], [*yoki*], [*ammo*], [*lekin*], [*biroq*], [*chunki*], [*shuning uchun*], [*agar*], [*ya'ni*]kabi yordamchi so'z xos. Qo'shimchasimon bog'lovchi guruhiga [*-ki* (*-kim*)], bog'lovchi va yuklama vazifasida kela oladigan [*-u/-yu*], [*-da*], [*-mi*] qo'shimchasi mansub. [*-u/-yu*], [*-da*] qo'shimchasining bog'lovchi vazifasini to'la-to'kis bajarishi qator manbada qayd etilgan, [*-mi*] qo'shimchasida ham bog'lovchilik xususiyati borligini 1.*Yomg'ir yog'dimi, hamma joy nam bo'ladi*, 2.*Karim keldimi, toppolon boshlanadi* tipidagi gaplar tasdiqlaydi. Ushbu gaplarda qo'llangan [*-mi*] qo'shimchasi ta'kid ma'nosini voqelantirgan holda sodda gaplarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajarmoqda. Nisbiy bog'lovchiga mustaqil so'z turkumidan o'sib chiqqan, "oraliq uchinchi" tabiatiga (ham mustaqil, ham yordamchi) ega bo'lgan [*ba'zan*], [*bir*], [*vaqtida*], [*hali*],[*goh*](*[goho]*) kabi so'zlarning takroriy shakli misol bo'ladi. Chunonchi, 1. **Ba'zan** *Qoratoyning ishxonasida, ba'zan choyxonada tunab yurdi.* (Oyb.) 2. *Ikki kundan beri goh savalab, goh shiddat bilan yog'ayotgan yomg'ir hammayoqni ivitib yubordi.* (A.Qah.) 3.**Vaqtida** *qor yog'adi, vaqtida yomg'ir.* Bu gaplarda qo'llanilgan [*ba'zan*], [*goh*](*[goho]*), [*vaqtida*] so'zlarining vazifasi bog'lovchiga juda yaqin.

1.*Salima tez qaytdi. U yangi xabar olib keldi.* 2.*Brigadada mehnat yaxshi uyushtirilmadi. Natijada hosil kam bo'ldi.* 3.*Azimboy ko'p zulm o'tkazdi. Oqibatda xalqning sabr kosasi to'ldi* gaplaridagi [*u*], [*natijada*], [*oqibatda*] so'zlari birinchi gapni ikkinchi gap bilan bog'lab kelmoqda. Demak, [*u*], [*natijada*], [*oqibatda*]so'zi ham nisbiy bog'lovchi sirasiga

kiritilsa to'g'ri bo'ladi. Ikkinchi gapning mazmuni birinchi gapsiz aniq emas. Yordamchi so'z nafaqat so'z, hatto gap va matn qismlarini ham bog'lashga xizmat qiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilidan darslik va qo'llanmalarda bog'lovchilarning vazifa jihatidan turlari quyidagicha belgilangan:

I. **Teng bog'lovchi.** 1. Biriktiruv bog'lovchisi: [va], [-u/-yu], [hamda]. 2. Ayiruv bog'lovchilari: [yo], [yoki], [yoxud], [goho], [dam]... dam, [bir... bir], [ba'zan... ba'zan]. 3. Zidlov bog'lovchisi: [ammo], [lekin], [biroq].

II. **Ergashtiruvchi bog'lovchi.** 1. Aniqlov bog'lovchisi: [ya'ni], [-ki/-kim]. 2. Sabab bog'lovchisi: [chunki], [shuning uchun], [zeroki]. 3. Shart bog'lovchilari: [agar], [agarda], [agarchi]. 4. Chog'ishtiruv bog'lovchisi: [go'yo], [go'yoki]. Teng bog'lovchi, ergashtiruvchi bog'lovchining ma'no va vazifa tomoni, imlo xususiyati formal tilshunoslik b'yyicha darslik va qo'llanmada atroflicha bayon etilgan.

Bog'lovchi leksemashakllar orasidagi, gapshakllar orasidagi sintaktik munosabatni ta'minlaydi va ma'lum bir grammatik ma'noni ifodalaydi. Bog'lovchilar sintaktik aloqaning qanday turini ifodalashiga ko'ra teng bog'lovchilar va ergash bog'lovchilar deb ikkiga guruhlanadi. Ergash bog'lovchilar qo'shma gapshakl qismlarini bog'laydi (Bular "Qo'shma gapshakl" bahsida tasvirlanadi). Teng bog'lovchilar sodda gapshakl tarkibidagi (shuningdek qo'shma gapshakl tarkibidagi) qismlarni o'zaro bog'laydi va quyidagi ma'no turlariga ajratiladi:

1. Biriktiruv bog'lovchilari:

1) Nutqda eng ko'p va bog'lovchisi ishlatilib, uyushiq qator bilan ifodalangan sintaktik bo'lak a'zolarini bog'laydi: a) sifatlovchida: *o'tkinchi va nohalol bir narsa* (Odil Yoqubov); *boshlang'ich va o'rta tahsil* (Abdulla Qahhor) kabi;

b) to'ldiruvchida: *o'zida g'ayrat va qanoat seza boshladi* (Asqad Muxtor); *Saidiyni beboshlik, yalqovlik va buzilishda ayblab..* (Abdulla Qahhor) kabi ;

d) hollovchida: *Bo'tana Amu .. b o' g' i q v a s i r I i shovullay boshladi* (Asqad Muxtor); *U boshini shunday tez va k u t i l m a g a n v a q t d a burdiki, ..* (Abdulla Qahhor) kabi;

e) egada: *Ko m i I v a a k a - u k a Z i y o d u l l a b i l a n I b o d u l l a n o t l a r n i .. yo'lakka boshladilar* (Hamid G'ulom) kabi;

f) kesimda: *yo'lovchi qa'yi q q a s a k r a b c h i q d i va .. e shka'kl a r n i e s h a b o s h l a d i* (Hamid G'ulom). *Saidiy o'ng'aysizlanar va Kenjaning aftini ko'rib, biron mojaro boshlanishidan q o' r q a r e d i* (Abdulla Qahhor).

2) Biriktiruv bog'lovchisi vazifasida bilan ko'makchisi ham ishlatilib, uyushiq qator a'zolarini bog'laydi: a) egada: *stol ustida jo'mragi uchgan choynak bilan stakan turardi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

b) to'ldiruvchida: *..maxdum Z i y o d u l l a b i l a n I b o d u l l a n i b o s h d a n o y o q k o'z d a n k e c h i r d i* (Hamid G'ulom) kabi.

2. Zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq.* Bu bog'lovchilar sinonim bo'lib, uyushiq qator bilan ifodalangan kesimning a'zolarini o'zaro zidlab bog'laydi; bu a'zolar anglatayotgan harakat-holatdan biri-gina amalga oshuvini bildiradi:

1) *ammo* bog'lovchisi: *Sherzod gapni nimadan boshlashni o'ylar, ammo jo'yaliroq so'z topolmay qiynalar edi* (O'tkir Hoshimov). *Bo'riboy buni sezdi, a m m o y o n b o s h l a b y o t g a n y e r i d a q i m i r e t m a d i* (Hamid G'ulom) kabi;

2) *lekin* bog'lovchisi: *G 'o'za sug'orishni juda yaxshi biladilar, l e k i n a m a l q i l m a y d i l a r* (Oybek) kabi;

3) *biroq* bog'lovchisi: *U .. q u r i l i s h t a s h k i l o t l a r i b o s h l i q l a r i n i n g k o'z l a r i g a q a d a l i b q a r a g i s i k e l a r, b i r o q h o z i r p a y t i e m a s l i g i n i s e z i b..* (Odil Yoqubov) kabi.

3. Ayiruv bog'lovchilari: *yo*, *yoki*; *goh goh* ..; *dam.., dam..*, kabi:

1) *yo*, *yoki* bog'lovchilari zidlab ayirish ma'nosini ifodalaydi: a) *yo* bog'lovchisi: *Gulni ko'rsa, t o m o sha qilish yo h i dl a sh o'r n i g a santimetr lab o'lch a y b o shla y d I* (Asqad Muxtor);

b) *yoki* bog'lovchisi: *Umarqul qizning so'zlarini e sh i t m a d i mi yo κ i o' z i n i e s h i t m a g anga soldimi, ..* (Hamid G'ulom) kabi;

2) *goh.., goh..; dam.., dam* bog'lovchilari zidlanuvchilarning galma-gal voqe bo'lishini ifodalaydi:

a) *goh.., goh..* bog'lovchisi: *Paxtasi terib olingan dalalar esa g o h j i g a r r a n g , g o h s u r m a d a y q o z a y i b ko 'rinar edi* (Asqad Muxtor) kabi;

b) *dam.., dam..*, bog'lovchisi: *.. hoziryotsa, azongacha d a u yo n -b o sh i g a , d a m b u yo n b o sh i g a ag'darilib azoblanishini biladi* (Asqad Muxtor) va b.

Bog'lovchi-yuklamaning mohiyati. Ayrim so'zning bog'lovchilik tabiatidan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, bog'lovchining miqdori, ularning mohiyati, turi hanuzgacha aniq belgilanganicha yo'q. Masalan, chog'ishtirish bog'lovchisiga [*go'yo*], [*go'yoki*] s'zi kiritiladi. Ammo bu so'z gap bo'laklari yoki gaplarni bog'lash uchun emas, balki o'xshatish, qiyoslash ma'noli qurilmalarda shu ma'noni ta'kidlash uchun xizmat qiladi, o'xshatish, qiyoslash ma'nosi esa boshqa vosita bilan ifodalanadi: *Beda orasi juda issiq, go'yo quyoshning butun olovi beda ichiga yashiringanday.* (Oyb.) *Nay sadosining mayin to'lqinlari tip-tiniq havoda yoyilarkan, go'yo hammayoq jonlangan kabi tuyuldi.* (Oyb.) Ushbu misollarda o'xshatish, qiyoslash [*-dek*]qo'shimchasi va [*kabi*] so'zi bilan ifodalanya'ti, [*go'yo*]esa shu ma'noni ta'kidlamogda. Demak, [*go'yo*] ta'kid yuklamasi hisoblanadi. [*Balki*] yordamchisi haqida ham shu fikrni aytish mumkin. [*Balki*] qo'llanishidagi ba'zi xususiyatiga ko'ra, zidlov bog'lovchisidan farq qiladi. Zidlov bog'lovchisi ko'pincha qo'shma gap qismlarini bog'laydi, [*balki*] yordamchisi bunday vazifani bajarmaydi: *Havo bulut bo'ldi, lekin (ammo, biroq) yomg'ir yog'madi.* Bu misolda zidlov bog'lovchisi o'rnida *balki* so'zini qo'llab bo'lmaydi. [*Balki*] so'zi gumon mazmunli gaplarda, zid mazmunli qismlarga ega gapda gumon, qarama- qarshilik ma'nosini ta'kidlash uchun qo'llanadi: *...toping, balki tanishlaringiz bordir.* (Oyb.) *Chunki biz Azizbek kabilardan xalqnigina emas, balki o'zimizni ham qiynatdirmog'damiz.* (A.Qod.) *Bu gap menga yoqmas, balki battar jahlimni chiqarardi.* O'z-o'zidan anglashiladiki, *balki* sof bog'lovchi bo'lolmaydi, bog'lovchi funksiyasini bajarayotgan yuklama sirasidan joy oladi. Qisqasi, bir turdan ikkinchi turga o'tish va bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi kabi oraliq hodisa hosil qilish – yordamchi so'z tabiatiga xos xususiyat, ularning ichki manba asosida boyishining bir yo'li. [*Ham... ham*]biriktiruv bog'lovchisi ta'kid qo'shimcha ma'no bo'yog'iga ega, [*na...na*] esa inkor ma'nosini ifodalaydi, [*-mi*]so'roq-taajjub yuklamasi esa gap tarkibida bog'lash funksiyasini bajaradi. Shuning uchun bular bog'lovchi-yuklama hisoblanadi. Misollar: 1. *Na so'zlarida ma'no bor, na ishlarida hayo.* (O.) 2. *Bir tovuqqa ham suv kerak, ham don kerak.* (Maq.) 3. *U bir gapni aytdimi, albatta, qiladi.*

Yuqorida aytilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'zbek tili bog'lovchisining ma'no va xususiyati tamomila boshqacha, ularni turkona tahlil qilish, bog'lovchi bilan bog'liq masalalar ilmiy hal etish bugungi kunda tilshunosligimiz oldida turgan bosh masaladan biri sanaladi.

Savol va topshiriqlar:

1. Yordamchi so'zlarning grammatik xususiyatlarini solishtiring, umumiy va farqli jihatlarini tushuntiring.

2. Tildagi leksikalizatsiya hodisasini tushuntiring.

3. Tildagi grammatikalashuv hodisasini tushuntiring.
4. Ko'makchilarning sintaktik xususiyatlarini tushuntiring.
5. Yordamchilar o'rtasidagi transpozitsiya hodisasini tushuntiring

YUKLAMALAR.

Reja:

1. Yuklamalar yordamchi soʻz turkumlari doirasida.
2. Yuklamalarning xususiyatlari, tiplari va turlari.
3. Yuklamalar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uygʻunligi.

1. Yuklamalar yordamchi soʻz turkumlari doirasida.

Yordamchi soʻzning funksional belgisi - “bogʻlash”. Shu belgi asosida koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama soʻz va gapni bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladi. Ammo bu vazifa bogʻlovchi va koʻmakchi uchun oʻzgarmas, barqaror. Yuklamaning oʻziga xos xususiyati shundaki, ular soʻz yoki gapga soʻroq, taʼkid, kuchaytiruv, ayirish-chegaralash, oʻxshatish kabi qoʻshimcha maʼno beradi va funksional “bogʻlash” belgisiga nisbatan beqaror, oʻzgaruvchan sanaladi, yaʼni “bogʻlash” belgisi unda boʻlishi ham, boʻlmasligi ham mumkin. Chunonchi, [na-na] yordamchisi teng bogʻlovchining bir turi sifatida inkor bogʻlovchisi sanalib kelgan. Tilshunos Gʻ.Abdurahmonov esa uni inkor bogʻlovchi deb atash bilan birga, yuklamalik xususiyatiga ham egaligini koʻrsatadi. Haqiqatan ham, bu yordamchi ham bogʻlovchilik, ham yuklamalik vazifasini bajaradi. Bogʻlovchi vazifasida kelganda ayrim teng huquqli boʻlak (komʼonent)larga inkor maʼnosini berib, ularni bogʻlaydi: *Na soʻzlarida maʼno bor, na ishlarida hayo.* (Oyb.) Bu yordamchi soʻz yuklama vazifasini bajarib, mazmunidan inkor anglashilgan gaplar tarkibida keladi va inkor maʼnosini koʻrsatadi: *Raisning erkatoʻy oʻgʻlina oʻqiydi, na biror joyda ishlaydi.*

[Goʻyo] yordamchisimazmunidan oʻxshatish yoki chogʻishtirish maʼnosi anglashilgan sodda va qoʻshma gap tarkibida ishtirok etadi. Sodda gapda koʻproq yuklamaga yaqin turadi: *Tursunoy goʻyo qalbi bilan ashulaga joʻr boʻlar edi.* (A.Mux.) *Kampirning yuzida goʻyo kulgiga oʻxshagan bir narsa aks etdi.* (A.Qah.) [Goʻyo] yordamchisi qoʻshma gapda sodda gap qismlarini biriktiruvchi grammatik vositaning biri sifatida xizmat qiladi, yaʼni qoʻshma gapda sodda gapdagi vazifasidan farqli oʻlaroq, faqat yuklamagina emas, balki bogʻlovchi-yuklama sanaladi: *Ertaga nikoh boʻladi, goʻyo men uning xotini.* (Oyb.) *Shunday baqirdiki, goʻyo butun xona larzaga kelgandek boʻldi.* (A.Qah.) *Aytdimi, qiladi. Qoʻydi-da, chiqdi* gaplarida ham [-mi], [-da] qoʻshimcha yuklamalarning bogʻlovchilik xususiyatini kuzatish mumkin. Demak, yuklamaning qoʻshma gap tarkibiy qismini oʻzaro bogʻlash vazifasi keng uchraydigan hodisa va bu tilshunosligimizda maʼlum darajada oʻrganilgan.

Yuklamaning tuzilish turlari. Koʻpgina leksoid yordamchi soʻzning affiksoid koʻrinishi mavjud, bu yuklamaga ham tegishli: [ham], [-am/-yam]; [uchun], [-chun]; [-u], [-yu]; [bilan], [-ila], [-la]shular jumlasidan. Yuklama shakliy jihatdan uch xil koʻrinishga ega:

1. Qoʻshimchasimon yuklama ([-mi], [-chi], [-a], [-ya]).
2. Sof yuklama ([xuddi], [faqat], [axir]...).
3. Nisbiy yuklama ([yolgʻiz], [baʼzan], [tanho], [bir]...).

Yuklamaning shakliy va vazifaviy turlari.Yuklama vazifaviy jihatdan quyidagi maʼno turiga boʻlinadi:

1. **Soʻroq yuklamasi:** [-mi], [-chi], [-a], [-ya], [nahotki]. Bu yuklama turli soʻz turkumiga qoʻshilib, soʻroq maʼnosini bildiradi. Baʼzan, soʻroq maʼnosidan tashqari, taajjub, hayrat maʼnosini ham ifodalaydi.

[-mi] yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi, [-chi], [-a], [-ya] yuklamasi esa o'zidan oldingi so'zdan chiziqcha bilan ajratib yoziladi: 1. *Kiyganingiz i'akmidi, kimxobmidi, Sevganingiz bizlardan ham ortiqmidi?* 2. *Opang-chi? Sen-chi? Men-a? Meni-ya?* 3. *Nahotki shu gaplarga ishongan bo'lsangiz.*

2. **Ayirish-chegaralash yuklamasi:** [*faqat/faqatgina*], [-gina/-kina/- qina].

Bu yuklama ayrim narsa va hodisani boshqasidan ajratish, harakatni chegaralash uchun qo'llanadi. [-gina] affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi: 1. *To'yga Sheraligina kelmadi, xolos.* 2. *O'ktam indamadi, faqat yuragida to'lqinlangan mehr bilan onasiga tikildi.* [*Faqat*] yuklamasining o'rnida [*yolg'iz*] so'zini ham qo'llash mumkin. Sifat so'z turkumiga oid bu so'z nisbiy yuklama hisoblanadi: *Sobir, yolg'iz senga suyandim (Sobir, faqat senga suyandim).*

3. **Ta'kid yuklamasi** ([-ku], [-da], [-u], [-yu]) gapda ifodalangan biror voqeani ta'kidlash uchun qo'llaniladi: *Sobir-ku keldi, Mahmud kelmadi-da!*

4. **Kuchaytiruv yuklamasi:** [*axir*], [*hatto*], [*hattoki*], [-oq/-yoq].

[-oq/-yoq] affiks yuklamasi o'zidan oldingi so'zga qo'shib yoziladi. Harakatning birin-кетин tezlik bilan davom etishini, boshlanish paytini, ta'kidlashni ko'rsatadi: *Gullarni ko'riboq ko'ngli yorishdi.* [*Axir*], [*hatto*], [*hattoki*] yuklamasi ham fikrni kuchli ta'kidlash, avvalgi voqeani eslatishni ifodalaydi: *Axir do'stimsan-ku!*

5. **O'xshatish-qiyoslash yuklamasi:** [*xuddi*], [*naq*], [*go'yo*], [*go'yoki*]. 1. *Bahorda bu bog'lar go'yoki kelindek yasanadi.* 2. *Chirildoqlarning mayin musiqasi hamma yoqni to'ldirgan, go'yo kechaning o'zi kuylaydi* kabi gapda yuklama-bog'lovchi vazifasini bajaradi.

6. **Inkor yuklamasi:** [*na*]. Takror holda ishlatilib, inkor ma'nosini ifodalaydi:

Na ko'kning fonari o'chmasdan,

Na yulduz sayr etib ko'chmasdan. (Uyg'.)

1. Ko'makchi, bog'lovchi va yuklama nutqimizning cheksiz imkoniyatini boyroq, ifodalarimizning yanada aniqroq va go'zalroq bo'lishini, jumalarning rang-barangligini ta'minlovchi muhim vositalardan.

2. Yordamchi so'z til tizimida mohiyatan mustaqil so'z bilan qo'shimcha oralig'ida turadi..

3. Bog'lovchi-yuklama, ko'makchi-bog'lovchi, ko'makchi-yuklama kabilar – til tizimida yordamchi so'z turkumiga xos bo'lgan “oraliq uchinchi”.

4. Tilimizda nisbiy ko'makchi, nisbiy bog'lovchi, nisbiy yuklama sirasi mustaqil so'zning yordamchilashishi evaziga boyib bormoqda.

6. Yuklama o'z mohiyati bilan modalga yaqin. Shu tufayli bu ikkisi ko'pincha birgalikda tasvirlanadi. Ammo modal so'z bilan yuklamani tenglashtirib bo'lmaydi. Yuklama:

1) rang-barang ma'noni ifodalaydi, shulardan ba'zilarigina modal ma'noga yaqin keladi;

2) ko'pincha mustaqil ishlatilmaydi, biror so'zga tirkalib keladi. Modal so'zlar esa:

a) gap tarkibida gap modalligini kengaytiruvchi, murakkablashtiruvchi vosita sifatida ro'yobga chiqadi. Boshqacha qilib aytganda, [**WRm**] gap qurilish qolipining (**Rm**) qismida mujassamlangan va xilma-xil vosita bilan ifodalanadigan tasdiq/inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, shart, qathiylik, istak, imkoniyat kabi ma'nolar gapning boshqa bo'laklari bilan tobehokimlik munosabatiga kirishmaydigan modal so'z, tasdiq/inkor so'zi vositasida kengaytiriladi: *Kanizak, aftidan, shuni aytmoqchi edi...* (A.Qah.)

b) mustaqil ravishda yakka o'zi bitta gap bo'lib kela oladi va modal so'z-gap deb yuritiladi. Bunday so'z-gapning barchasida kesimlik kategoriyasi ma'nosi so'zning lug'aviy ma'nosida mujassamlangan bo'ladi: *Kelasizmi? - Albatta.*

3) yuklama morfologiyada yordamchi so'z guruhida, modal so'z-gap doirasida o'rganiladi;

4) boshqa so'z guruhi kabi modal ham, yuklama ham o'ziga xos morfologik, sintaktik, ma'noviy belgiga ega. Modal bilan yuklamaning o'zgarishligi ularning morfologik belgisiga kiradi. Sintaktik jihatdan esa modal ajraluvchilik (ya'ni kirish so'z vazifasida kela oladi), yuklama esa muchalanmaslik (gap bo'lagi bo'la olmaslik) belgisiga ega. Semantik jihatdan modal so'z fikrning voqelikka munosabatini ifodalaydi va butun gapga taalluqli bo'ladi. Yuklama esa ta'kid, o'xshatish, kuchaytirish kabi qo'shimcha ma'no ifodalaydi. Yuklama ifodalagan ma'no butun gapga bevosita taalluqli bo'lmay, avvalo, o'zi tirkalib kelgan bo'lakning ma'nosini bo'rttirishga xizmat qiladi va shu bo'lak orqali butun gapga taalluqli bo'ladi.

Yuklama asosan gapshaklga bir butun holda, ba'zan biror sintaktik bo'lakka qo'shib, so'roq, ta'kid, taajjub kabi grammatik ma'nolarni ifodalaydi.

Yuklamalarning bir qismi ko'rinishi jihatidan affiksga o'xshaydi, shunga ko'ra affiks ko'rinishli yuklamalar deyiladi; bunday yuklamalardan **-mi**, **-gina** (**-kina**, **-qina**), **-oq/-yoq**, **-ov/-yov** yuklamalari leksemashaklga qo'shib yoziladi;

-chi, **-ku**, **-da**, **-e**, **-a/-ya**, **-u/-yu**, **-ey/-yey** yuklamalari esa chiziqcha bilan (yarim qo'shib) yoziladi. Yuklama leksemashakl tarkibiga kirmaydi, leksemashaklga qo'shiladi; shuni hisobga olib yuqorida sanalgan barcha yuklamalarni chiziqcha bilan yozish to'g'ri; faqat **-mi** (shuningdek **-dir** gumon yuklamasi) leksemashakl tarkibida tuslovchidan oldin kelsa, qo'shib yozish shart bo'ladi: *kelgan eding-mi*, lekin *kelganmiding*; *kelgan-dir*, lekin *kelgandirman* kabi.

Ayrim yuklamalar tashqi ko'rinishi jihatidan leksemaga o'xshaydi, shunga ko'ra leksema ko'rinishli yuklamalar deyiladi va leksemashakldan ayrim yoziladi; **axir**, **faqat**, **nahot[ki]**, **hatto[ki]**, **xuddi**, **ham**, **esa**.

Yuklamalar odatda quyidagi ma'no turlariga ajratiladi: 1) kuchaytiruv va ta'kid yuklamalari, 2) so'roq va taajjub yuklamalari, 3) ayiruv va chegaralov yuklamalari, 4) aniqlov yuklamasi, 5) gumon yuklamasi. Ayni bir yuklama qanday leksemashaklga qo'shib kelishiga, qanday ohang bilan aytilishiga qarab yuqoridagi boshqa-boshqa bandlarda ta'kidlangan ma'nolarni ifodalashi mumkin. Shuni hisobga olib yuklamalarni birma-bir keltirib, ular bilan ifodalanadigan ma'nolarni ta'kidlashni ma'qul topdik:

1. **-mi** yuklamasi:

1) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Xolposh daladami?* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) 'noaniqlik' ma'nosini ifodalaydi, bunda takroran ishlatiladi: a) kesimga qo'shib keladi: *Uning ovozdagi shu qahr sabab bo'ldimi, boshqami — Otaqo'zi buni bilolmay qoldi* (Odil Yoqubov) kabi; b) to'ldiruvchiga qo'shib keladi: *Yo'ldosh qopmi, brezent palatkami — .. iflos bir narsaga cho'qqayib o'tirib ..* (Asqad Muxtor) kabi; v) hollovchiga qo'shib keladi: *Shu haftaning oxiridami, narigi haftaning boshidami .. ziyofat qilamiz-u,..* (Odil Yoqubov) kabi.

2. **-a/-ya** yuklamasi:

1) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Qotil kim bo'ldi ekan-a?* (Hamid G'ulom) kabi;

2) taajjub ma'nosini ifodalaydi: *Bolaga o'xshaydi-ya!* (Oybek) kabi.

3. **-chi** yuklamasi:

1) *so'roq* ma'nosini ifodalaydi: *Xotining-chi? U ham hech narsa demadimi?* (O'tkir Hoshimov) kabi; 2) 'harakatga undash' ma'nosini ifodalaydi: *.. o'z yog'ingda o'zing qovrulguncha dardingni aytsang-chi!* (Asqad Muxtor) kabi.

4. *nahot[ki]* yuklamasi 'so'roq bilan taajjub' ma'nosini ifodalab, odatda kesimi *-sa* affiksi bilan shakllangan gaplarda ishlatiladi: *N a h o t Otaqo'zi .. boshiga ko'tarib yurgan Jamol Bo'ribojev shu odam bo'lsa?!* (Odil Yoqubov).

N a h o t κ i hamma ishni boshdan boshlashga to'g'ri kelsa? (Odil Yoqubov) kabi.

5. *ham* yuklamasi ta'kid ma'nosini ifodalab: 1) egaga qo'shilib keladi: a) yakka holda ishlatiladi: *Orqa aravadagilar h a m yerga tushib, olomon tomon kela boshladilar* (Hamid G'ulom) kabi; b) takroran ishlatiladi: *Boshining guvullashi ham, ko'zlarining achishishi h a m darrov bosildi* (O'tkir Hoshimov) kabi; 2) to'ldiruvchiga qo'shilib keladi: a) vositasiz to'ldiruvchiga:

Shu payt u boshliq ekanini h a m, obro'si tushishini h a m unutilib ko 'ziga yosh oldi (Asqad Muxtor) kabi; b) vositali to'ldiruvchiga: *Rahimjonning boshiga tushgan kaltakning bir uchi sizga h a m tegadi* (Abdulla Qahhor) kabi; 3) hollovchiga qo'shilib keladi: a) payt hollovchisiga: *Temir yo'l vokzalining boshlig'i bilan gaplashganda h a m .. dilozorlik qildi* (Asqad Muxtor) kabi; b) o'rin hollovchisiga: *.. egniga h a m shunaqa matodan qopga o'xshatib tikilgan ko'ylak kiygan .. edi* (O'tkir Hoshimov) kabi; v) tarz hollovchisiga: *U chindan h a m hozir jahon bo'ylab keza boshlaydi, chang yutadi ...* (Asqad Muxtor) kabi. 4) qaratuvchiga qo'shilib keladi: *Nahot uning boshiga tushgan musibatlar qizining h a m boshiga tushsa?* (Odil Yoqubov);

5) kesim vazifasidagi qo'shma fe'l qismlari orasida ishlatiladi: *Hatto boshda .. er-xotin ancha xafa h a m bo'lishgan, uni qizlariga ravo ko 'rishmagan edi* (Odil Yoqubov) kabi; 6) ergash bog'lovchiga qo'shilib keladi: *Sh u n i n g u ch u n h a m Botirali otryadi .. keyin-gina jang qildi* (Hamid G'ulom) kabi; 7) *ham* yuklamasi uyushiq qator qismlari oldida takror ishlatilganida bog'lovchiga o'xshab ketadi, lekin ta'kid yuklamasiligicha qatnashadi: *Fazilatxon bizda h a m klub boshlig'i, h a m kutubxona mudiri bo'lib ishlaydilar* (Odil Yoqubov) kabi. Bunday ishlatishni *klub boshlig'i bo'lib ham, kutubxona mudiri bo'lib h a m* tarzida transformatsiya qilinsa, *ham* yuklamaga tengligi ochiq ko'rinadi.

6. *esa* yuklamasi ta'kid ma'nosini eslatish' ma'no qirrasini bilan birgalikda ifodalaydi, odatda egaga qo'shiladi: *Ko'pchilik unga so'z berilishini talab qilar, rais e s a bosh tortar edi* (Abdulla Qahhor). *Tussiz tagdo'zi do'ppi qo'ndirilgan boshi e s a qori chala erigan cho'qqini eslatar edi* (Hamid G'ulom) kabi.

7. *hatto* yuklamasi ta'kid ma'nosini kuchli darajada ifodalaydi:

1) odatda kesimga qo'shiladi: *Keyin-keyin Salimxon uning fikriga tushuna boshladi, h a t t o ba'zi bir masalalarda u bilan bahslashadigan bo'ldi* (Abdulla Qahhor) kabi; 2) ta'kid ma'nosini yanada kuchaytirish uchun *ham* yuklamasi bilan birga ishlatiladi: *.. ha t t o otani xushlamaydigan Haydar h am dadasining yonini olmadi* (Odil Yoqubov) kabi. Ushbu jumalalarda yuklamalar egaga qo'shib ishlatilgan.

8. *-ku* yuklamasi ta'kid ma'nosini 'hissiyot' ma'no qirrasini bilan birgalikda ifodalaydi: 1) kesimga qo'shiladi: *Mirobidovku uning achchiq kinoyalarini kulgiga olib qulog'ining yonidan o'tkazib yubordi* (Odil Yoqubov) kabi.

9. *-da* yuklamasi ta'kid ma'nosini 'pisanda' ma'no qirrasini bilan birgalikda ifodalaydi: *Boshqa odam quribdi-da bu qishloqni!* (Odil Yoqubov). *Yuboravering- da, shuyerda o'lib-netib qolsa,..* (Abdulla Qahhor) kabi.

10. *xuddi* yuklamasi 'ta'kidlab o'xshatish' ma'nosini ifodalaydi: 1) ba'zan yolg'iz o'zi ishlatiladi: *Sherzodning ko'nglidagi istak ham x u d d i shunaqa arzimagan narsadan boshlanadi* (O'tkir Hoshimov). *.. x u d d i namgarchilik kuz kechasini boshlab kirgan edi dahlizga* (Asqad Muxtor) kabi;

2) ko'pincha *-dek* affiksoidi bilan birgalikda ishlatiladi: a) ot leksemaga qo'shiladi: *Shukurov esa x u d d i mashhur donishmandning so'zini tinglay olgan y osh talabadek hadeb bosh irg'irdi* (Odil

Yoqubov) kabi; b) fe'ning sifatdosh shakliga qo'shiladi: *Sirojiddin x u d d i arvohta duch kelgandek ko'zlari olaygan cha yonbosh tomonga surila boshladi* (O 'tkir Hoshimov)

kabi; d) *bor* kesimlik leksemasiga qo'shiladi: .. *boshqarma oldidan o'tib ketayotganida esa x u d d i b i r zarur ishi borday kirgisi keldi* (Abdulla Qahhor).

11. *faqat* yuklamasi 'chegaralab ta'kidlash' ma'nosini ifodalaydi: 1) yolg 'iz o'zi ishlatiladi: *Kulolning ko'zlari hech narsani ilg'amay faqat qizchani ko'rayotgandek edi* (Asqad Muxtor) kabi; 2) ma'noni kuchaytirish uchun *-gina* yuklamasi bilan birgalikda ishlatiladi: *Faqat .. ishga sho'ng'ib ketganda-gina bu o'ylar sal yodidan ko'tarilib,..* (Odil Yoqubov) kabi.

12. *-gina* yuklamasi 'faqat' ma'nosini ta'kidlab ifodalaydi: *Shundagina Farida boshini ko'tardida, .. auditoriyaga bir daqiqa qiziqsinib qarab qo'ydi* (O 'tkir Hoshimov) kabi. Asli bu yuklamani chiziqcha bilan *shunda-gina* kabi yozish to'g 'ri. *Faqat* va *-gina* yuklamalarini bir-biriga qo'shib ishlatish ham uchraydi: .. *u faqat - gina o'zini ovutishga uringanday..* (Asqad Muxtor).

13. *-u/-yu* yuklamasi:

1) 'keyingi harakatning oldingi harakat tugashi bilan boshlanishi' ma'nosini ifodalaydi: *Birdan momaqaldir oq gumburladi-yu, ketidan shiddat bilan jala quya boshladi* (O 'tkir Hoshimov). *Ichkaridan yalangbosh, yalangoyoq Oliy a yugurib chiqdi, chiqdi-yu, eriga otildi* (Odil Yoqubov) kabi;

2) 'ta'kidlab sanash' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: .. *bir-ikki xonali boshpana qurib olsam-u, xonalarning bittasini kutubxona, bittasini qiroatxona qilib, yosh-yalanglarga.. ko'rgan-kechirganlarimni gapirib berib o'tirsam* (Odil Yoqubov). *Hammani to'ydirish g'amida yuradi-yu, o'zi to'yib non yemaydi.*

14. *-da* yuklamasi:

1) 'keyingi harakat oldingi harakatga tezda ulanib ketishi' ma'nosini ifodalaydi: *Devor tomonga qarab oldi-da, sochlarini tekislay boshladi* (O'tkir Hoshimov). .. *E'zozxon Uchqunni Tozagulning qo'lidan oldi-da, o'tirib emiza boshladi* (Hamid G'ulom) kabi;

2) 'ta'kid' ma'nosini 'istehzo' ma'no qirrasini bilan birgalikda ifodalaydi: *Qancha shohona shiypon soldirganingda ham, .. o'zing poygakda o'tirib, to'rda yonboshlab yotgan amiringga choy quyib berasan-da* (Abdulla Qahhor).

15. *-oq/-yoq* yuklamasi:

1) 'tezda*' ma'nosini paytga, o'ringa bog'lab ifodalaydi: *Ikki qadah ichishi bilanoq boshi o'z-o'zidan aylanib, ..* (O'tkir Hoshimov). *U shu lahzadayoq o'tirgan stuli bilan chalqonchasiga yiqila boshladi* (O'tkir Hoshimov). *Ochil buva odati bo'yicha ko'chaning boshidayoq mashinadan tushib, piyoda yurdi* (Asqad Muxtor) kabi;

2) .. *ma + s + dan* shaklidagi sifatdoshga qo'shib, 'hali boshlanmay turib' ma'nosini ifodalaydi: *Komil kitobdan boshini ko'tarmasdanoq savolga savol bilan javob berdi* (Hamid G'ulom) kabi.

16. *-dir* yuklamasi 'taxmin' ma'nosini ifodalaydi: *Men bu kitobni o'qimagandirman* kabi.

17. *na.., na..* yuklamasi 'ta'kidli inkor' ma'nosini ifodalaydi: *Qoni miyasiga urib darg'azab bo'lib ketganidan na ko'zini uqalash, na ust-boshini qoqish xayoliga kelar, atrofga alanglar edi* (Asqad Muxtor) kabi. Bu yuklama bo'lishsiz shakldagi fe'l leksemali jumlada ishlatilsa, faqat 'ta'kid' ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi: .. *na ko'zini uqalash, na ust boshini qoqish xayoliga kelmas edi* kabi.

Savol va topshiriqlar:

1. Yordamchi so'zlarning grammatik xususiyatlarini solishtiring, umumiy va farqli jihatlarni tushuntiring.

2. Tildagi leksikalizatsiya hodisasini tushuntiring.
3. Tildagi grammatikalashuv hodisasini tushuntiring.
4. Ko'makchilarning sintaktik xususiyatlarini tushuntiring.
5. Yordamchilar o'rtasidagi transpozitsiya hodisasini tushuntiring
6. Yuklamalar haqida so'zlab bering.

O'ZBEK TILIDA SO'Z GAPLAR.

REJA:

1. So'z-gaplar va ularning turlari
2. So'zgaplarning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari.
3. So'z gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Tayanch so'zlar: *yordamchi so'z, so'z-gap, tasvir birliklari, grammatik ma'no, grammatik vazifa, tasdiq so'zlar, inkor so'zlar, taklif so'zlar*

So'z-gap to'plamini ajratish tamoyillari. O'zbek tilshunosligida so'z-gapning mohiyati, turlari, ularning leksik materialini tavsifi, qo'llanish xususiyati em'irik asosda etarlicha o'rganilgan. Substantsial yondashuvda gapning eng kichik qurilish qolipi [**WRm**] sifatida ehtirol etilgach, ziddiyatli, izohtalab nuqtalarga ega bo'lgan so'z-gapga ham «lison-nutq» tamoyili asosida yondashish zaruriyati paydo bo'ldi va har bir gapning o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi, so'z-gapning ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish modeli bo'lishi shartligi ehtirol etildi.

So'z-gap umumiy atamasi ostida birlashtiriladigan so'zlarning alohida belgilari mavjudki, ular shu belgisi bilan mustaqil, yordamchi so'zdan, shuningdek, yoxud qo'shma gapdan farq qiladi. Bular quyidagilar:

- 1) mustaqil holda gap bo'la olish;
- 2) gap tarkibida shu gapning biror bo'lagi bilan sintaktik aloqaga kirisha olmaslik;
- 3) o'ziga xos g'ayrioddiy ma'noga ega bo'lish;
- 4) bog'lamlar bilan birika olmasligi va shuning uchun mayl, zamon, shaxs/son shakllariga ega emaslik.

So'z-gap sirasiga shu to'rt asosiy belgi bilan bir majmuaga birlashuvchi birliklar kiradi (bu tipdagi birliklar kirish so'z vazifasida ham keladi, lekin ularning substantsial belgisi – so'z-gap bo'lib kelish). Quyida ularning har biri alohida-alohida ko'rib o'tiladi.

1. Mustaqil holda alohida gap bo'la olish belgisi. Bu belgi 4- belgi bilan chambarchas bog'langan. O'zbek lisoniy tizimi gapda ma'lum bir axborotni tashuvchi tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son ma'no va munosabatini ifodalovchi tarkibiy qism zarur bo'lishini talab qiladi. So'z-gapda bunday tarkibiy qismni alohida-alohida ajratish mumkin emas. Lekin kesimlik ma'no va munosabati so'z-gapning o'zida mujassamlangan va ularning ichki mohiyatini tashkil qiladi. Bunday gaplarda kesimlik kategoriyasi ma'nolari hamda kesimlik – gap markazi vazifasida kelish – fikrni shakllantirish, ifodalash vazifasi bor. Ularda gap sifatida voqelanuvchi so'zning leksik ma'nosida mujassam. Shu sababdan bunday gapda kesimlik mavjud, ammo kesimlik shakli ifodalanmagan.

2. So'z-gap mustaqil gap bo'la olish qobiliyatiga ega bo'lganligidan bu so'zga nisbatan *semantik funksional shakllangan so'z-gap* atamasi qo'llaniladi. Bu atamadagi “semantik” tarkibiy qismi hodisaning lug'aviy (ma'noviy) tomoniga ishora qilib turadi. Gap markazi mavqeida kelgan bunday leksemaning ikki tabiiy xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni leksik birlik ham so'z, ham gap. Bu atamaning funksional tarkibiy qismi esa so'z-gapning sintaktik vazifa bajarishi f a q a t g a p m a r k a z i v a z i f a s i d a k e l a o l i s h i bilan chegaralanganligini ifodalaydi. Demak, semantik-funksional shakllangan gap grammatik shakllangan gap (**[WRm]**) dan farq qiladi va kesimlik ma'nosi so'z-gapda leksik birlikning yoki

atov birligi [W] ning o'zida mujassamlanganligi tufayli lisoniy qurilish qolipi [W^] sifatida berilgan.

3. So'z-gapning o'ziga xos g'ayrioddiy lug'aviy ma'noga egaligi. Bu xususiyat quyidagida namoyon bo'ladi:

- a) ma'no imkoniyati chegaralangan;
- b) grammatik shaklni talab qilmaydi;
- v) boshqa so'z bilan birikish qobiliyatidan mahrum;
- g) gapda bajara oladigan vazifasi cheklangan;
- d) ma'noli qismga ajralmaydi.

Shuning uchun ham bu tur leksemalar boshqa leksemalarga nisbatan g'ayrioddiy, biroq ma'no va vazifa jihatidan alohida barqaror til birligi hisoblanadi.

Aytilganlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqlid so'z turkumlari gapning istalgan bir bo'lagi vazifasida kela olsa, so'z-gap gap (yoki uning markazi) vazifasida kela olishga xoslangan, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama esa sintaktik aloqani ifodalash uchun xizmat qiladi.

So'z-gap tasnifi. So'z-gap o'z ichida bir necha ma'noviy guruhga ajraladi: 1. Modal. 2. Undov. 3. Tasdiq /inkor. 4. Taklif/ishora.

So'zlovchining bayon etilayotgan fikrga munosabati — qathiy ishonch, gumon, taxmin kabi ma'noni ifodalab keladigan so'z *modal*dir. Unga [xullas], [demak], [chamasi], [tabiiy], [ehtimol], [shubhasiz], [shekilli] kabi so'z misol bo'ladi.

Kishilarning his-tuyg'usini, haydash, to'xtatish kabi xitob, buyruqni ifodalaydigan so'z-gap ko'rinishi – *undov so'z-gap*. His-tuyg'u undoviga [eh], [voy], [oh], [barakalla], [rahmat], [ofarin] kabi so'z, buyruq -xitob undovlariga ['isht], [beh-beh], ['isht-'isht], [chuh] kabi xitob so'z kiradi.

So'z-gapning uchinchi ma'noviy guruhi bo'lgan tasdiq/inkor so'z ko'pincha modal tarkibida o'rganilgan. [Ha], [mayli], [xo'sh], [xo'] so'zi tasdiqni, [yo'q], [mutlaqo], [aslo], [sira] so'zi – inkorni ifodalovchi so'z-gap.

Taklif/ishorasoz-gapga qo'llanishi tana a'zolarining maxsus harakati bilan uzviy bog'liq bo'lgan [ma], [mang], [qani], [marhamat] so'zi kiritilgan. Ular tinglovchiga qaratilgan bo'lib, uni biror ish-harakatni bajarishga undaydi.

So'z-gap shunday birliklar guruhiki, ularning ko'pchiligi boshqa so'z turkumidan tarixiy taraqqiyot jarayonida o'ziga xos nutqiy qo'llanish natijasida shakllangan va rivojlangan. Chunonchi, [so'zsiz], [tabiiy] so'zi sifatdan, [albatta] ravishdan o'sib chiqqan bo'lsa, [har qalay], [har holda] modal so'z-gapni so'z birikmasidan, [nasib bo'lsa], [xudo xohlasa] kabilar gapdan kelib chiqqan.

Sof so'z-gapga [albatta], [alhamdulillah]; [eh], [hoy], [oh], [o'h]; [ha], [yo'q], [mutlaqo]; [ma], [mang] kabi modal, undov, tasdiq/inkor, taklif/ishora so'zi mansub. O'zbek substansial tilshunosligida so'z-gap [W^]-lashgan (modallashgan, undovlashgan tasdiq/inkorlashgan, taklif/ishoralashgan) so'zlar, [W^]-lashayotgan (modallashayotgan, undovlashayotgan, tasdiq/inkorlashayotgan, taklif/ishoralashayotgan) so'zlar, [W^]-simon (modalsimon, undovsimon, tasdiq/inkorsimon) syz-gapga ajratilib, mufassal o'rganilgan.

[W^]-lashgan (so'z-gaplashgan) so'z o'z semantik-funksional xususiyati bilan har xil guruhning markaziy leksemasiga juda yaqin turadi, lekin o'z aloqasini boshqa so'z turkumlaridan to'la-to'kis uzmagani bo'ladi. Chunonchi, modallashgan so'zga [chamasi], [chog'i], [ehtimol]; undovlashgan so'zga [ura], [olg'a], [dod], [voydod]; tasdiq /inkorlashgan

so'zga [bo'ti], [mahqul], [aksincha], [mutlaqo]; taklif/ishoralashgan so'zga qani kabi leksema misol bo'ladi.

[W[^]]-lashayotgan (so'z-gaplashayotgan) so'z so'z-gapga to'la-to'kis o'tgan bo'lmaydi va «o'tish yo'lida» turgan so'zdir. Bu o'rinda modallashayotganga [balki], [hatto], [aftidan]; undovlashayotganga [yashang], [voy o'lay]; tasdiq /inkorlashayotganga [durust], [to'g'ri], [rost], [aslo], [hargiz]; taklif/ishoralashayotganga [mana mundoq]kabi so'zni misol keltirish mumkin. Chunonchi, 1. **Balki**, siz aytarsiz nima bo'lganini? (.Tur.) 2. *Nafsi uchun emas, balki qadri uchun yig'laydi-da.* (O'.Usm.) 3. – *Qaerga borish, kimga uchrashishni u yaxshi biladi.* – **To'p'a-to'g'ri.** (Ch.Ayt.) 4. *Hilola gapning to'g'risini aytdi* (O'.Usm.) gaplarida [W[^]-lashayotgan] so'z (1-3-gapda) qo'llanilgan.

[W[^]]-simon (so'z-gapsimon) deganda mohiyatan so'z-gap bo'lmagan lug'aviy birlikning so'z-gap vazifasida kelishi tushuniladi. Jumladan, modalsimonga [shunday qilib], [baxtga qarshi], [tavba], [xudo saqlasin]; undovsimonga erkalash ma'noli [asolim], [o'og'im]va undalma ma'noli [ey, do'stlar] kabi; tasdiq/inkorsimonga [xuddi shunday], [hech qachon], [noto'g'ri] kabi; taklif/ishorasimonga [boshlang] ko'rinishli so'z misol bo'ladi.

Qisqasi, so'z-gapning leksik-semantik turi bo'lmish sof so'z-gap o'zi tarixan kelib chiqadigan so'z turkumidan batamom uzilgan bo'lib, uning ko'pchiligi ravish, sifat, ot sifatida mutlaqo qo'llanilmaydi. So'z-gaplashgan unsur esa o'zi tarixan kelib chiqqan so'z bilan omonimik munosabat hosil qiladi va o'z aloqasini boshqa turkumdan to'la uzmagani bo'ladi. So'z-gaplashayotgan unsurga o'zi boshqa so'z turkumi (ravish, sifat, olmosh, son, fe'l) ga tegishli, lekin so'z-gapga xos ma'no va vazifada qo'llanila oladigan birliklar kiradi va bularning so'z-gapsimondan farqi shundaki, ushbu qatlamga oid so'z tarixiy taraqqiyot natijasida batamom so'z-gapga o'tib ketishi mumkin. So'z-gapsimon esa o'z turkumi doirasida qoladi.

So'z-gapning sintaktik xususiyati. So'z-gapning sintaktik xususiyati yuqorida ta'kidlaganimizdek, kesimlik qo'shimchasini qabul qilmasligi, bog'lama bilan birika olmasligida. So'z-gap ham undalma, sodda gap kabi kengaygan yoyiq holatda bo'lishi mumkin: 1.*Cho'lni o'zlashtirgan mardlarga ofarin.* (A.Qah.) 2. *Falakning dastidan dod!* (Hamza.) 3. **Barakalla sizga!** Misollardan ko'rinib turganidek, so'z-gap faqat bitta so'zdan iborat bo'lmay, nutqda kengayish qobiliyatiga ham ega. So'z-gapning yana bir sintaktik xususiyati shundaki, [WRm] qurilishli gapda kesimlik kategoriyasi va ma'nosi (W)ga (Rm) orqali kiritiladi, (m)ning esa o'zbek tilida juda ko'p ko'rsatkichi mavjud. Shakl o'zgarishi bilan kesimlik kategoriyasining ma'no turi ham o'zgaradi. Masalan, *Bo'ladi. Bo'lmaydi. Bo'lsa. Bo'ldi* va h.k. Ammo so'z-gapda bunday emas. Har bir so'z-gap shu gapga xos bo'lgan ma'noni ifodalashga xoslangan bo'ladi. Chunonchi, [ha] so'zi tasdiqni ifodalaydi. Uning bo'lishsizligi *Ha, emas* bilan emas, balki alohida [yo'q] so'z bilan ifodalanadi. [Albatta] yoki [shubhasiz] modal so'zi qat'iy ishonch va tasdiqni ifodalaydi, inkor ma'nosi [mutlaqo], [aslo] so'z-gapiga bilan beriladi.

So'z-gapda zamon va shaxs ma'nosi matnda muayyanlashadi. O'zbek tilida gap (kesimlik) zamon va shaxs ma'nosidan xoli bo'la olmaydi. Zero, so'z-gapda zamon va shaxs-son ma'nosining kontekstual aniqlanish xususiyati bu so'zning asosiy sintaktik xususiyati – kesimlik qo'shimchasini qabul qilmay gap bo'lib kela olishi bilan sharhlanadi. So'z-gapning yana bir sintaktik xususiyati – uning gap tarkibida alohida pozitsiyada turishi, ya'ni boshqa gap bo'laklari bilan bog'lanmasligi va o'zi gap sifatida “yashay olishi”, hamisha lisoniy alohidalikni saqlab qolishi bilan belgilanadi. Chunonchi, 1. *-Ertaga kelasizmi?- Albatta.* (O'.Usm.) 2. *-Engil tortdingmi, qizim?- Shukur.* (A.Qah.)

Ko'rinadiki, so'z-gapning umumiy sintaktik xususiyati ular kesimlik qo'shimchasini qabul qilmagan holda gap va uning markazini tuza olishida. To'rt leksik-semantik turda (modal, undov, tasdiq/inkor, taklif/ishora so'zlar) kesimlik kategoriyasini tashkil etuvchi ma'nodan har biri alohida bo'rttirilgan va "yalang'och" holda yuzaga chiqadi: modal so'zlovchining munosabatini ((**R_m**)dagi maylni), taklif/ishora «shaxsga qaratilganlik» ma'nosini ((**R_m**)dagi shaxs-sonni), tasdiq/inkor ((**R_m**)dagi) tasdiq va inkorni va undov bo'lajak harakatni ((**R_m**)dagi zamoni) ifodalashga xizmat qiladi.

Undovlar turkumi

Undov deb avvalo kishining his-hayajonini bevosita ifodalaydigan tovush birliklariga aytiladi: *oh, eh, uh, uf, e, be, voy, a, o, iye, he, hah, ehha, o 'h h o v o y d o d* kabi.

1. Undov bilan qanday his-hayajon ifodalanayotgani ko'pincha aniq bo'lmaydi; undovdan keyin (ba'zan oldin) keladigan jumlaning mazmuni undov qanday his-hayajonni ifodalashini, qanday ohangda talaffuz qilinishini ko'rsatib turadi.

Ba'zi undovlar aniq bir his-hayajonni ifodalashga xoslangan bo'ladi. Masalan, *be* undovi rozi bo'lmaslik, qo'shilmaslik kabi his-hayajonni, *iya* undovi 'ajablanish' kabi his-hayajonni ifodalaydi. Tinglovchining diqqatini tortish uchun ishlatiladigan *hoy* undovi ham aniq bir ma'noni ifodalaydi. Ko'pchilik undovlar esa har xil ohang bilan aytilib, turli his-hayajonlarni ifodalashga xizmat qiladi. Undovning turli ma'nolari deb talqin qilinadigan bunday hodisa nutq sharoitida, kontekstda (qurshovda) aniqlashadi. Masalan, *eh* undovi sevinch'ni ifodalash uchun ishlatilsa, bir ohang bilan, 'xafalik'ni ifodalash uchun ishlatilsa, boshqa bir ohang bilan talaffuz qilinadi. Ayni bir undovning bunday turli his-hayajonni ifodalashini yozuvda aks ettirish qiyin. Shu tufayli undov bilan yonma-yon keladigan jumla tarkibida undovning qanday his-hayajonni ifodalab kelayotganini aniqlashtiruvchi vositalar (leksemalar) ishlatiladi: *Eh, qanday go 'zal manzara! — Eh, natija kutilgandek bo'lmadi-da!* kabi. Undovlarga xos ana shunday ko'pqirralilik ularni ma'no ifodalashiga ko'ra tasniflashni qiyinlashtiradi.

2. Adabiyotlarda undovlarning ikkinchi ma'no turi deb xitob birliklariga aytiladi. Bular his-hayajon birliklaridan keskin farq qiladi: biror harakatni qilish-qilmaslikka ko'rsatma beradi. Shunga ko'ra ikkiga guruhlanadi: 1) harakatni bajarishga chaqiruvchi undovlar. 2) harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar. 1) Harakatni bajarishga chaqiruvchi undovlar hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatilishga xoslangan: *chu, tss* (otga), *xix* (eshakka), *moh-moh* (qo'yga), *tu-tu-tu* (tovuqqa) kabi.

2) Harakatni bajarmaslikka chaqiruvchi undovlar ham asosan hayvon va parrandalarga nisbatan ishlatilishga xoslangan: *dirr, tak* (otga), *ish* (eshakka), *xo'sh* (ho'kizga), *kisht* (parrandaga) kabi.

3. Undovlarning alohida guruhi deb kishilar orasidagi muomala-murojaat birliklari keltiriladi. Undovga aylanmagan, hali leksemalik xususiyatini saqlagan bu birliklarni undov turkumiga kiritish o'ta shartli bo'lib, quyidagicha ma'nolarni bildirish uchun xizmat qiladi:

1) Ko'rishishni, xayrlashishni bildiradi: *assalomu alaykum, assalom, salom; vaalaykum assalom; xayr* kabi.

2) tabrik, istak, minnatdorlik va unga javobni bildiradi: *hormang — bor bo'ling, salomat bo'ling; quilug' bo'lsin — qulluq; ruhmat — arzimaydi* kabi.

3) Biror faoliyatni ko'tarinki ijobiy baholashni bildiradi: *balli, barakallo, ofarin* kabi

Modallar gapshaklga bir butun holda qo'shib, so'zlovchining o'zi anglatayotgan fikrning aniqligiga, chinligiga ishonch darajasini, voqelikdan taajjublanishini, afsuslanishini ifodalaydi:

1. Fikrning aniqligini ifodalovchi modallar o'z navbatida quyidagicha guruhlanadi:

1) fikrning rostligini, realligini ifodalovchilar: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat* (eskirgan) kabi: *D a r h a q i q a t , bu mojaroning boshqa oqibatlari hozir uning ko 'ziga o 'z-o 'zidan barham topgan va topayotganday ko'rinar edi* (Abdulla Qahhor). *H a q i q a t a n , keyinroq eshitsa, kelini: "Yana o'qiyman" degan gap chiqaribdi* (Odil Yoqubov) kabi;

2) fikrning qat'iyiligini ifodalovchilar: *shubhasiz, so'zsiz, shaksiz* kabi: *Bu, sh u b h a s i z, bizning yutug'imiz* (Abdulla Qahhor) kabi;

3) anglatilayotgan voqelikning yuz berishiga ishonch bildiruvchi: *albatta* (She'riyatda *albat* shaklida ham uchraydi): *Lekin jigar.. Esga tushsa, achinaman, a l b a t t a* (Uyg'un). *..bu gapining ham ustidan chiqadi, a l b a t t a* (Odil Yoqubov) kabi;

4) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanini ifodalovchilar: *o'z-o'zidan, tabiiy* kabi: *T a b i i y , Yefim Yefimovich ham bu yangi do 'stlaridan osonlikcha ko 'ngil uzolmas edi* (Hakim Nazir) kabi;

5) fikrning chinligi, realligini eslatuvchilar: *rostdan, darvoqe, aslida (asli, ba'zan, aslan* shaklida ham uchraydi): *D a r v o q e , bu gap raisning uyida ham aytilgan edi* (Said Nazar) kabi.

2. Fikrning noaniqligini ifodalovchi modallar o'z navbatida quyidagicha guruhlanadi:

1) fikrning taxminiy ekanini ifodalovchilar: *shekilli, chog'i, chamasi* kabi: *Ha, yana bir ta'ziringni beradigan bo'ldim, ch a m a s i !* (Uyg'un). *Bu gapim raisga og 'ir botdi sh e κ i l l i , o 'zi bosh bo 'lib bolalarini dalaga olib chiqdi* (O'tkir Hoshimov) kabi;

2) fikrning gumonli ekanini ifodalovchilar: *ehtimol, balki* kabi: *B a l k i u yerlarda ko'p dilbar Manzaralar jilva qilgandir...* (Uyg'un). *Boshqa payt bo'lganida Latofat, e h t i m o l , bu faryodga chidab turolmasdi* (Odil Yoqubov) kabi;

3) fikrning tasmolli ekanini ifodalovchilar: *hoynahoy, aftidan, mazmuni* kabi: *Sharofat, a f t i d a n , bunaqa gaplar bilan .. shu yerda biron mojaro boshlab dod solmoqchi edi* (Abdulla Qahhor) kabi;

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham ifodalovchilar: *har qalay, har holda* kabi: *Jahonning kattaligi aniq o'lchangancha yo'q', h a r h o l d a , bir soldatning qalbidan kichik bo'lur* (G'afur G'ulom) kabi.

3. Ayrim modallar yuz bergan voqea-hodisadan so'zlovchining taajjubini, afsusini ifodalaydi: *ajabo, attang, esiz, tavba, xayriyat* kabi: *A j a b o , shu o'zimizning Saodatmi?!* (G'afur G'ulom). *Attang, shunday dolzarb vaqtda eng yaxshi brigadirimiz yotib qoldi-da* (Abdulla Qahhor) kabi.

5- §. Modallar asosan quyidagi turkumlarning birligidan ma'no taraqqiyoti asosida o'sib chiqqan:

1. Ot leksemashakldan o'sib chiqqan: modallarning ko'pchilik qismini shular tashkil qiladi. Bunda modal:

1) tub leksemashaklga teng deb qaraladi: *ehtimol* kabi;

2) asli arabcha leksemaning tushum kelishigi shakliga teng bo'lib, o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: *haqiqatan (haqiqat + an)* kabi;

3) asli predlog va leksemadan iborat b o i i b , o'zbek tili nuqtayi nazaridan tub deb qaraladi: *darhaqiqat* (tojikcha *dar* predlogi va arab tilidan o'zlashgan *haqiqat* leksemasidan iborat bo'lib , tojik tilida analitik grammatik shaklli leksemashakl sifatida *dar haqiqat* tarzida ajratib yoziladi), *darvoqe* (Bu modal ham xuddi shunday tuzilgan: tojikcha *dar* predlogi + arabcha *voqe'* = *darvoqe'* — haqiqatda) kabi. Arxaik *filhaqiqat* modali esa arabcha *fi* predlogi, *al* aniqlik artikli va *haqiqat(un)* leksemasidan tuzilgan: *fi al haqiqat* —>*filhaqiqat'*, 4) asli "ot leksema + atributiv shakl yasovchi" tarkibiga ega leksemashakldan o'sib chiqqan va ma'noli qismlarga ajratilmaydigan bo'lgan: *shubha + siz = shubhasiz, shakl + li* —>*shekilli* kabi (Keyingi misolda

kelgan *kl* tovushlarini talaffuz qilish qiyin bo'lgani sababli *kl* tovushlari oralig'iga *i* tovushi kiritilgan) kabi;

5) asli leksema va shakl hosil qiladigan morfemadan tuzilgan bo'lib, modal turkum birligi sifatida o'sib chiqqan, shakl hosil qiladigan morfemalar o'z grammatik mohiyatini yo'qotgan, ajratilmaydigan bo'lgan. Bunday modallar asli:

a) "leksema + birlik sonlovchisi + III shaxs nisbatlovchisi + bosh kelishik ko'rsatkichi" tarkibiga ega bo'lgan: *chama + si = chamasi, mazmun + i = mazmuni* kabi;

b) "leksema + birlik sonlovchisi + o'rin yoki chiqish kelishigi affiksi" tarkibiga ega bo'lgan: *haqiqat + da = haqiqatda, rost + dan = rostdan* kabi (Keyingi modal ko'pincha *rostdan ham* shaklida yuklama bilan ishlatiladi);

d) "leksema + birlik sonlovchisi + III shaxs nisbatlovchisi + o'rin yoki chiqish kelishigi affiksi" tarkibiga ega bo'lgan: *asl + i + da - aslida, aft + i + dan = aftidan* kabi.

2. Otdan boshqa turkum leksemashakllaridan o'sib chiqqan:

1) Sifat leksemashakldan o'sib chiqqan: *tabiiy* kabi;

2) Ravish leksemashakldan o'sib chiqqan: *albatta* kabi;

3) Tojikcha *xoh-noxoh* fe'l shaklidan o'sib chiqqan; bunda *xoh* — 'ista', *no* — '-ma' \ *xoh-noxoh* — 'ista-istama'; o'zbek tilida har ikki qism oxiridagi *h* tovushi y'tovushiga, ikkinchi qismdagi birinchi otovushi *a* tovushiga almashgan: *xoh-noxoh* —> *xoynaxoy*; ma'noda ham jiddiy o'zgarish yuz bergan: 'ista-istama' —> 'tusmol';

4) Bog'lovchidan o'sib chiqqan: *balki*.

3. Birikmashakl hokim a'zosining ellipsianishi (tushirilishi) natijasida yuzaga kelgan: *o'z-o'zidan aniq* —> *o'z-o'zidan* kabi.

4. Birikmashaklning modalga aylanishi bilan yuzaga kelgan: *har qalay, har holda* kabi.

Biror turkum birligi asosida modal birlik o'sib chiqqan bo'lsa, bunday hollarda odatda omonimiya voqe bo'ladi.

Savol va topshiriqlar:

1. So'z gaplarga ta'rif bering.
2. So'z gaplarning asosiy grammatik xususiyatlarini ayting.
- 3 So'z-gaplarning qanday turlari mavjud?
4. Undov so'zlarning asosiy grammatik xususiyatlarini ayting.
5. Undov so'zlar qanday turlarga ajratiladi?
6. Modallar haqida ma'lumot bering.

AMALIY MASHG'ULOTLAR ISHLANMALARI

3-SEMESTR UCHUN

MORFEMIKA BO'LIMI. MORFEMA MORFEMIKA BIRLIGI SIFATIDA. MORFEMA TURLARI. (2 SOAT)

Reja:

1. Morfema morfemika birligi sifatida.
2. Morfemaning leksemaga munosabati.
3. Morfemaning xususiyatlari.
4. Morfema turlari

Tayanch iboralar: *Morfema, alternatsiya, morf, morfem tuzilishi, morfema variant, morfonologiya, fuziya, pleonazm, o'zak va afixsal morfema, affiks, morfema, allamorf, prefiks, suffiks, so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi affikslar.*

Savol va topshiriqlar

- 1-topshiriq. Morfemika bo'limi haqida ma'lumot bering.
- 2-topshiriq. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

	<i>Morfema</i>	<i>leksema</i>
Qaysi bo'limda o'rganiladi?		
So'zga munosabati		
Til birliklari ierarxiyasidagi o'rni		
Xarakterli xususiyatlari		
Tasnif belgilari		

1-mashq. Matndagi so'zlarni morfemalarga ajratib chiqing.

Tong payti. Bog'larda ishqomlar uzumga to'la. Chillaki endi qizara boshlagan. Havoda qushlar ovozi yangraydi... Tong shabadasining salqini ko'ngillarga orom beradi... Men va A'zam aravada ketmoqdamiz. Biz endi yorishib kelayotgan osmonning mayin shohisini, sehrli musiqa va ohangga, mislsiz husn-latofatga to'la bog'larni tantanali sayr etib boramiz. qalbimizda his-tuyg'ular, shodlik, zavqtoshadi.

Kecha maktabdan qaytganimda onam o'poq qilib yuvgan ko'ylak-ishtonlarimni arqonga yoyar ekan, meni kulib qarshi olgan edi.

- Ertaga jo'naysan, - degan edi ko'zlarida mehr, sevinch chaqnab.
- Qayerga? - deb so'radim ha'qirib.

Yangibozorga borasan. Hali to'satdan darvozani qoqib bir kishi keldi. Darrov chiqdim, dadangning oldidan keli'ti. Tayyor bo'lib tursin Musavoy, ertaga, tongda olib jo'nayman, dedi. A'zam ham boradi, buvasi chaqirtiri'ti, oyisiga aytib keldim.

Men o'zimga yo'q edim. (Oybek).

2-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni morfemalarga ajrating. O'zak va affikslarning ma'nolarini, vazifalarini aniqlang.

1. Anvaming maxdum hovlisida turishini *joysizlikdan* *vayoshlikdan* shunda o'sib *o'rgangandan*, deb yurgan Sultonali mirzo bu kun ertalab o'z uyiga kelgan maxdumning so'zidan keyin bir oz haqiqatga *tushungandek* bo'ldi. (A.Qodiriy) 2. Saidiy Munisxonning haligi so'ziga *muvaqqiyatli* javob *qilgandan* so'ng yana o'shanday *so'zlatib* javob qilishni xohladi. (A.Qahhor) 3. *Quvonchimdan* terimga *sig'may Turg'un degan* o'rtog'irnikiga yugurdim. (Oybek) 4. Kuz iliq kelgani uchunmi, Hirot *tojdorlari* hali ham qal'a *tashqarisidagi* bog'larda yashamoqda edilar. (P.Qodirov) 5. Qiz majorasi *boshlanishidan* ikki kun oldin Chavandoz Komila bilan birga toqqa *chiqib ketgandL* (P.Qodirov) 6. Qizlar *sandiqchalaridan*, yostiqlarining ostlaridan *tueunchalarini* keltirib, nonlarini o'rtaga to'kib, nonushtaga *o'tirganlaridan* keyin ham o'zaro *pichirlash* tugamadi. (I.Rahim) 7. Yulduzlar *bekinmachoq* o'ynayotgandek, onda-sonda yalt-yalt etib qoladi. (V.Gpofurov) 8. *Ko'ngilli* o'tgan bir hafta, ayniqsa, Qo'qondan *hatlab* nariga chiqa olmagan G'aribiyda katta taassurot qoldirgan edi. (S. Abdulla)

3-topshiriq.

1. So'z tarkibining tuzilishi haqida ma'lumot bering.
2. O'zak va affiksial morflarning bog'liq hamda farqli tomonlarini tushuntiring.
3. Lisoniy bosqichdagi affikslarda omonimlik yo'q degan fikrni sharhlang.
4. Bo'g'in va morfemaning farqli jihatlari nimada? Javobingizni tillar doirasida misollar keltirib izohlang.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.

MORFEMALARDA SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARI. MORFEMIK TAHLIL

Reja:

1. Morfemalarda ma'no masalasi.
2. Morfemalarda sinonimlik, omonimlik, antonimlik va ko'pma'nolilik.

3. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi. Unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) omillar. Nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.

Tayanch iboralar: *Morfema, affiksal omonimiya, affiksal sinonimiya, ko'p ma'noli qo'shimchalar, lisoniy omillar, nolisoniy omillar, lisoniy imkoniyatlar.*

Topshiriq. Quyidagi qo'shimchalarning shakldosh ekanligini isbotlang:

-m	1. egalik q. on <u>m</u>	-q	1
	2. shaxs-son q. keldi <u>m</u>		2
	3. ot yas. to'pla <u>m</u>	-	1
		oq	
-	1		2
ng	2	-	1
		gina	
-n	1		2
	2	-	1
		lik	
-l	1		2
	2		3
	3		

Topshiriq. Quyidagi qo'shimchalarning sinonimlarini toping.

bor <u>ish</u> di		arava <u>kash</u>		<u>beg'</u> ubor	
til <u>shunos</u>		kel <u>gusi</u>		bor <u>uvchi</u>	
bil <u>may</u>		bol <u>adek</u>		uyalgan <u>namo</u>	

1-mashq. Keltirilgan gaplar tarkibidan ko'p ma'noli affikslarni aniqlang. Ularni shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra tahlil qiling.

1. Uyga kirsa - uyda, hovliga chiqsa - hovlida betoqat bo'ladi. (M. Ismoilij). 2. Bu gap To'tiqizga yoshlik chog'larini eslatdi. O, u vaqtlar naqadar baxtli edi To'tiqiz! (M. Ismoilij). 3. Namozshomda karvonchilar Komil bilan Qurbon ota turgan qo'raga yig'ilishdi. (O. Yoqubov). 4. Qabristonning bir chetida bosmachilar bilan urushda halok bo'lgan uch-to'rtta jangchining qabri bor edi. (O. Yoqubov). 5. U sersavlat, serpul shoir kechqurun ham kelmadi. (A.Qahhor). 6. Boshini egib xomush o'tirgan bobom, har turli ibratli so'zlar bilan, otamga nasihat qila boshlaydi. (Oybek). 7. Shahar ichida ham mevali daraxtlar, toklar juda ko'p... (P.Qodirov). 8. Biroq doktor... dori bermadi, tayinli bir gap ham aytmedi (A.Qahhor). 9. - Bunday xayol qilmasligingizni iltijo qilar edim, otincha! (S. Abdulla). 10. Kuchli shamol ko'tarilib, boqchadagi har narsani to'rt tarafga buka boshladi. (A. Qodiriy). 11. Shu vaqt ayvonda kam'irlarning kulgisi ko'tarildi, osh'az bilan choyxonachining diqqatini tortdi. (V. Gpofurov). 12. Kechki kuz fasli. Erinchak qish hali o'zini sezdirgan emas. (Oybek).

Topshiriq. Quyidagi qo'shimchalar ko'pma'noliligini isbotlang.

-ni, -ga, -da, -dan; -i (-si), -im; -la, -lar, -chak, -lik.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

SO'Z YASASH QOLIP. YASAMA SO'ZLARINING XUSUSIYATLARI, TIPLARI VA TURLARI.

Reja:

1. So'z yasash qolipining turlari.
2. Unumli qoliplar. Unumsiz qoliplar.
3. Mahsuldor va kammahsul qoliplar.
4. So'z yasalishi tahlili

Tayanch iboralar: *Morfema, o'zak va afixsal morfema, affiks, qolip, derivatsion morfema, unumli qolip, unumsiz qolip, izchil affixslar, noizchil affiks, derivatsiya.*

Savollar:

1. Qolip tushunchasiga izoh bering.
2. So'z yasash qolipi nima?
3. So'z yasash qolipining qanday turlari bor?
4. Otlar derivatsiyasi misolida qoliplarga misol keltiring.
5. So'z yasash qolipi borasida SH.Rahmatullaev va A.Hojievlarning fikrlarini tavsiflang.
6. So'z yasash tipi nima?
7. So'z yasalishi imkoniyati deganida nimani tushunasiz?
8. So'z yasovchi affixslarning unumli va unumsizligi qanday omillar bilan bog'liq?

1-mashq. Quyidagi so'zlarning tub yoki yasama ekanligini aniqlang. Yasama so'zlarni ajratib olib yasalish usuliga ko'ra tahlil qiling.

Abadiy, abad, zarpechak, lbo, iboli, ignasimon, ilgak, iilat, ilg'or, kahrabo, ketkazmoq, lavlagi adiylik, ajoyib, azoblantirmoq, bitta, bichim, bodroq, bodring, vajohat, vajohatli, lavozim, loyqa, mazluma, mehr-oqibat, mo'ylov, narigi, naqqosh, noaniq, oynasoz, olxo'ri, olcha, orombaxsh, pufak, puchqoq, ro'molcha, savag'ich, taglama, tagli, ulug'vor, umumiy, chapak, chaqaloq, sholipoya, shuhrat, shuhratli, ezgu, ezgulik.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А, Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Т., “XXI аср авлоди”, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. Морфология.Т.,2009.
3. Шоабдураҳмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. – Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. Т., Университет 2002.
8. Ҳожиёв А. ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Т.: Фан, 2010.
9. Ҳозирги о‘zbek tili fanidan mashqlar to‘plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘Idoshev) . – Toshkent, 2007.

O‘ZBEK TILI MORFOLOGIYASI. GRAMMATIK SHAKL VA GRAMMATIK MA’NO.

Reja:

1. Grammatika bo‘limi haqida.
2. Grammatik shakllangan so‘z morfologiyaning birligi sifatida.
3. O‘zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari.
4. Grammatik ma’no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma’no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma’no, kategorial, yondosh va hamroh ma’no, ularning xususiyatlari va turlari.

Tayanch so‘zlar: *grammatika, qiyosiy grammatika, chog‘ishtirma grammatika, umumiy grammatika, xususiy grammatika, nazariy grammatika, amaliy grammatika, tavsifiy grammatika, generativ grammatika, antik grammatika, grammatik ma’no, umumiy grammatik ma’no (UGM), xususiy grammatik ma’no (XGM), oraliq grammatik ma’no (OGM), pleonazm, tejamkorlik.*

Savollar:

1. Grammatika bo‘limi haqida ma’lumot bering.
2. Qadimgi hind, yunon va rim grammatikasi haqida ma’lumot bering.
3. Turkiy tillar grammatikasi vujudga kelishi haqida so‘zlang.
4. Hozirgi o‘zbek tili grammatikasi shakllanishida qaysi tilshunoslik yo‘nalishining ahamiyati katta?
5. Hozirgi o‘zbek grammatikasi kimning ilmiy ishlari asosida vujudga kelgan?
6. O‘zbek tili grammatikasini o‘rgangan olimlarni sanang.
7. Zamonaviy tilshunoslikdagi antropotsentrik nazariya grammatika tadqiqida qanday o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi?
8. Grammatikaning turlarini sanang va tahrif bering.

1-topshiriq. Grammatik ma’noning barcha til birliklariga xosligi, bevosita nutqni shakllantirishi, umumlashma va abstraktligi tushunchalariga izoh bering.

2-topshiriq. Talabalar ta'zilga chiqdilar. Ushbu gapdagi har bir so'zning umumiy grammatik ma'nosini, xususiy grammatik ma'nosini ko'rsating.

3-topshiriq. So'zshakl va uning asosiy tiplari: nol shakl, sintetik, analitik, aralash, juft va takroriy shakllarga misol keltiring.

4-topshiriq. Grammatik ma'noni shakllantiruvchi vositalarni ayting va misollar keltiring.

5-topshiriq. Grammatik shaklning tuzilishiga ko'ra turlariga misol keltiring.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

HOZIRGI O'ZBEK TILIDAGI SO'Z TURKUMLARI. MUSTAQIL SO'ZLAR.

REJA:

1. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari.
2. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh.
3. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari: o'zgaruvchi va o'zgarmas turkumlar, g'ayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid).
4. Mustaqil so'z turkumlari tartibi.

Tayanch so'zlar: *turkum, umumiy grammatik ma'no, tasnif tamoyillari, morfologik tasnif, semantik tasnif, sintaktik tasnif, mustaqil so'z turkumlari, yordamchilar, oraliqdagi so'zlar, o'zgarmas turkumlar.*

Amaliy mashg'ulotda tasnif tushunchasi, tasnif tamoyillari, so'zlar tasnifi masalasi alohida ko'rib chiqiladi. So'z turkumlarining o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilinib, mavjud tasniflardagi muammolarga ham diqqat qaratiladi.

1- mashq. Matndagi so'zlarni turkumlarga ajratib chiqing.

Tong payti. Bog'larda ishkolar uzumga to'la. Chillaki endi qizara boshlagan. Havoda qushlar ovozi yangraydi... Tong shabadasining salqini ko'ngillarga orom beradi...

Men va A'zam aravada ketmoqdamiz. Biz endi yorishib kelayotgan osmonning mayin shohisini, sehrli musiqa va ohangga, mislsiz husn-latofatga to'la bog'larni tantanali sayr etib boramiz. qalbimizda his-tuyg'ular, shodlik, zavqtoshadi.

Kecha maktabdan qaytganimda onam oppoq qilib yuvgan ko'ylak-ishtonlarimni arqonga yoyar ekan, meni kulib qarshi olgan edi.

- Ertaga jo'naysan, - degan edi ko'zlarida mehr, sevinch chaqnab.

- Qayerga? - deb so'radim hapqirib.

Yangibozorga borasan. Hali to'satdan darvozani qoqib bir kishi keldi. Darrov chiqdim, dadangning oldidan kelipti. Tayyor bo'lib tursin Musavoy, ertaga, tongda olib jo'nayman, dedi. A'zam ham boradi, buvasi chaqirtiripti, oyisiga aytib keldim.

Men o'zimda yo'q edim. (Oybek).

2-mashq. Ajratib ko'rsatiigan so'zlarni turkumlarga ajrating. Affikslarning ma'nolarini, vazifalarini aniqlang.

1. Anvarning maxdum hovlisida turishini *joysizlikdan* *vayoshlikdan* shunda o'sib *o'rgangandan*, deb yurgan Sultonali mirzo bu kun ertalab o'z uyiga kelgan maxdumning so'zidan keyin bir oz haqiqatga *tushungandek* bo'ldi. (A.Qodiriy) 2. Saidiy Munisxonning haligi so'ziga *muvaqqiyatli* javob *qilgandan* so'ng yana o'shanday *so'zlatib* javob qilishni xohladi. (A.Qahhor) 3. *Quvonchimdan* terimga *sig'atnay Turg'un degan* o'rtog'irnnikiga yugurdim. (Oybek) 4. Kuz iliq kelgani uchunmi, Hirot *tojdorlari* hali ham qal'a *tashqarisidagi* bog'larda yashamoqda edilar. (P.Qodirov) 5. Qiz majorasi *boshlanishidan* ikki kun oldin Chavandoz Komila bilan birga toqqa *chiqib ketgandL* (P.Qodirov) 6. Qizlar *sandiqchalaridan*, yostiqlarining ostlaridan *tugunchalarini* keltirib, nonlarini o'rtaga to'kib, nonushtaga *o'tirganlaridan* keyin ham o'zaro *pichirlash* tugamadi. (I.Rahim) 7. Yulduzlar *bekinmachoq* o'ynayotgandek, onda-sonda yalt-yalt etib qoladi. (V.G'ofurov) 8. *Ko'ngilli* o'tgan bir hafta, ayniqsa, Qo'qondan *hatlab* nariga chiqa olmagan G'aribiyda katta taassurot qoldirgan edi. (S. Abdulla)

Nazorat uchun savollar:

1. Tasnif nima?
2. Tasniflashning asosiy qonuniyatlarini sanang.
3. So'zlarni turkumlashning qanday tamoyillari mavjud?
4. Semantik tasnifning afzal va qoniqarsiz jihatlarini ko'rsating.
5. Morfologik tasnifning afzal va qoniqarsiz jihatlarini ko'rsating.
6. Semantik-morfologik-sintaktik belgilar birligi asosida tasniflashning o'ziga xos jihatlarini sanang.
7. Qanday tasnif so'z turkumlarini farqlash uchun emas, aksincha, ularni tenglashtirish uchun xizmat qiladi?
8. O'zgaruvchan va o'zgarmas so'z turkumlari deganda so'zlarning qaysi jihati hisobga olinadi?
9. So'zlarni turkumlashda kontekst katta ahamiyatga ega. Bunda ularni turkumlashda nimaga e'tibor beriladi?
10. Oraliq uchinchi tamoyiliga so'z turkumlari tasnifi asosida misol keltiring.
11. Mustaqil va yordamchi so'z turkumlarining asosiy farqlovchi belgilarini ko'rsating.
12. So'z-gap terminiga izoh bering.

13. So'z turkumlaridagi ko'chish hodisasi tasnifga qanday ta'sir qiladi?

Topshiriq. So'zlar tasnifini maydon nazariyasi bo'yicha amalga oshirishga urinib ko'ring.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.

FE'LNING TASNIFLOVCHI KATEGORIYALARI VA ULARNING SHAKLLARI

Reja:

1. Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari.
2. Nisbat kategoriyasi va uning shakllari tizimi.
3. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi ularning substansial mohiyati sifatida.
4. Bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasining tasdiq-inkor kategoriyasiga munosabati.

Tayanch so'zlar: fe'ning tasniflovchi kategoriyalari, nisbat kategoriyasi, grammatik ma'no, bo'lishli-bo'lishsizlik, umumiy grammatik ma'no.

Savollar:

1. Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari deganda nimani tushunasiz?
2. Tasniflovchi shakllar orasida qaysi biri fe'l leksemani modifikatsiya qilish darajasi jihatidan boshqalaridan ustuvorroq?
3. Bo'lishli-bo'lishsizlik shakli bilan kesimlik kategoriyasining tarkibiy qismi bo'lgan tasdiq-inkor kategoriyasi farqini tushuntiring.
4. Fe'l nisbati shaklining o'zgarishi fe'l valentligiga qanday tahsir qiladi?
5. Semantikasida ma'noviy siljish ro'y berayotgan nisbat shakliga ega fe'llarga misol keltiring.
6. Fe'l nisbati shakliga ega fe'llarning tublashuviga misol ayting va tavsiflang.
7. Geterogen tabiatli lisoniy birliklar deganda nimani tushunasiz?
8. Fe'ning bo'lishsiz shakli qanday usullar bilan hosil qilinadi?

Topshiriq. Matndagi fe'llarni morfologik tahlil qiling. Ularning tasniflovchi shakllariga izoh bering.

Rivoyat qiladilar: kunlardan birida sulton Husayn Boyqaro shikorga - ovga chiqishni ixtiyor etdi. Unga hazrat Alisher Navoiy hamroh bo'ldi. Shikordan qaytar ekanlar, bir qishloqdan

o‘tdilar. Ko‘cha chetida turgan olti-yetti yoshlardagi bolakay salom berdi. Sulton Husayn qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib, alik oldi-yu, o‘tib ketaverdi. Alisher Navoiy esa bolani ko‘rib otini to‘xtatdi. pastga tushib bola bilan qo‘shqo‘llab ko‘rishdi. Keyin tag‘in otiga minib, yo‘iida davom etdi. Navoiyning bu ishi shahanshohni hayron qoldirdi.

-Mavlonο, - dedi u Navoiyga yuzlanib, - siz saltanatning vaziri bo‘lsangiz, buning ustiga jahonga taniqli shoir bo‘lsangiz, nainki go‘dak bir bolaga shunchalar muruvvat ko‘rsatadursiz?!

-Olam‘anoh, - dedi Navoiy jilmayib. - Gap bolada emas. Gap shundaki, bir vaqtlar bu bolaning otasi mening savodimni chiqargan edi. Men ustozimning yetti pushti oldida hamisha qarzdordurmen.

Bu voqea chindan ham bo‘lganmi - yo‘qmi, noma‘lum. Biroq, Navoiydek zukko insondan xuddi shunday harakatni kutish hech kimni ajablantirmaydi. Umuman, hamma xalqlar hamma zamonlarda o‘qituvchini buyuk inson hisoblagan. O‘zbeklar hurmat qilgan kishisini, ilmi odamlarni domla deb izzatini joyiga qo‘yadi. Ozarbayjonlar muallim deb ehtirom ko‘rsatadi. Tojiklar ustoz devdi. Ruslar uchun «uchitelg’» degan so‘z juda keng ma‘noni anglatadi. Biroq bu so‘zlarning hammasini yagona ma‘no - katta hurmat ma‘nosi birlashtirib turadi. (O‘,Hoshimov)

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o‘zbek tili fanidan mashqlar to‘plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo‘ldoshev) . – Toshkent, 2007.

4-SEMESTR UCHUN

1-mavzu: OT SO`Z TURKUMI

REJA:

1. Ot va uning o'rganilish tarixi.
2. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari.
3. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlari.
4. Otning tasniflovchhi kategoriyasi.
5. Otning nokategorial shakllari.

Tayanch so'zlar: *ot, UGM, XGM, OGM, LGG, tasniflovchi kategoriya, son kategoriyasi, sintetik usul, analitik usul, leksik usul, morfologik usul, leksik-morfologik usul, mantiqiy ko'plik, grammatik ko'plik, nokategorial shakllar, noparadigmatik affiks, kichraytirish, erkalash, xoslik, leksik tabiatli morfemalar, ko'makchilar, kichraytrish, erkalash, qarashlilik.*

1- mashq. Ko'plik shaklida kelgan atoqli otdan anglashilgan ma'nolarni izohlang.

1. Arava Zebilar masjidi oldiga yetganda, Razzoq so'fi bir necha kishi bilan birga, boshqa bir aravada qarshi tomonga o'tib ketdi (Cho'lpon). 2. Balki Qodiriylar, Cho'lponlar, Usmon Nosirlar dilida armon bo'lib ketgan gaplarni aytish uchun taqdir bu yaxshi kunlarni bizga ravo ko'rgandir (S.Ahmad). 3. G'afur G'ulom, Oybeklar nazari tushgan sendek ijodkor do'stimiz bilan faxrlanamiz (S.Ahmad). 4. - Qizim, bugun mehmonlaringni Sulxonxonlarnikiga olib chiqasan-a? -deb qolsinmi? (Cho'lpon).

2- **mashq.** Quyida berilgan atoqli otlarni ma'no xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratib yozing.

Sirdaryo, Amudaryo, Hind okeani, Tinch okeani, Nurota tog'i, Qo'qon, Orol dengizi, Marg'ilon, Kaspiy dengizi, Toshbuloq, Norin daryosi, Jumanquduq, Chirchiq daryosi, Qumbuloq, Sbo'rquduq, Qumariq, Jiyaariq, Oy, Gulhovuz, Venera, Toshhovuz, Do'nan, Gulqishloq, G'irko'k, Jarqishloq, Boychibor, Osiyo, Olapar, Afrika, To'rtko'z, Yer, Qaytmas, Nilufar, Baroq, Gulnora, Mosh, Alisher, Malla, Bobur, Jizzax, Qirg'iziston, «Yoshlik», Farg'ona. «Sinfidosh», Tojikiston, «Xalq so'zi», «Sharq yulduzi», «O'zbekiston ovozi».

3 - **mashq.** O'zingiz o'qigan badiiy asardagi atoqli otlarni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing va ularning imlosi haqida ma'lumot bering.

4 - **mashq.** «Uzoq o'tmishdan qolgan bebaho meros» mavzusida joy nomlari tarixi bilan bog'liq uy inshosi yozing. Insho yozishda ilmiy adabiyotlardan, etnografik, etimologik, izohli lug'atlardan, shuningdek, buvi va bobolaringizdan eshitgan hikoyalardan unumli foydalaning.

5 - **mashq.** Berilgan matndagi ot so'z turkumiga mansub so'zlarni ajratib, ularni ma'noviy xususiyatlariga ko'ra guruhlashtirib yozing.

Namuna: O'simlik nomlari: rayhon, binafsha, yalpiz...

Geografik nomlar: So'qoq, Xuroson, Urgut...

Qulog'imga mungli nola chalindi:

Bobomning, buvimning yoshligi o'tgan, -

Turkiston tuprog'i, endi alvido!

Ko'zimdan yosh to'kar, dilni qon etar

Ona - Yurt firog'i! Endi alvido!

Olamni larzaga keltirgan bu mungli nola sekin-asta uzoqlashib borar edi. Yana o'shanday qayg'uli ovoz eshitildi. Shayx o'sha tomonga o'girildi. Sirdaryo bo'ylab yuqoriga ko'chib ketayotganlarning qorasi ko'rindi. Qayoqqa? Jung'orlar tarafgami? Xitoygami? Buxorogami? Yo Hindiston, Afg'on ellarigami? Shayx ich-ichidan yig'lab xudoga nola qilyaptimi yoki o'sha mungli ovozga o'zicha jo'r bo'lyaptimi, bilib bo'lmasdi, harqalay, lablari qimirlardi, burushgan yuzidagi ajinlar goh yozilib, goh yig'iladi. Nursiz ko'zlari tagida shabnamday tomchi yaltiraydi.

- Ishqilib, tushim bo'lsin-da, tushim, - deb pichirlagan shayxning bu gapi yonida turgan chopariga ham ta'sir qildi. Ot ham, o'zi ham yiqildi. Shayx ham chidolmadi. Shamol yiqitgan terakday, oq bo'z otining ustiga gup etib quladi (T.Qaipbergenov).

6- mashq. Berilgan matndan ot so'zturkumiga mansub so'zlarni ajrating. Ularni namunadagidek tahlil qiling.

Namuna: *Kitoblar - ot; o'quv quroli; turdosh ot; aniq ot; nima? so'rog' igajavob bo'ladi; sanaladigan ot ko'plik shaklida kelgan.*

Bog'da bahor hukmron edi...

Siz, umringizda biron marta bog'da yashab, bahor kirib kelishini kuzatganmisiz?

Boshda tuni bilan tongda eriyotgan qor tomchilarining dilga xush yoqadigan tovushi taraladi. Hali bahor uzoq-anhorning suvi kam, yer -sovuq, maysalar - yer ostida, o't - o'lanlar o'smaydi, gullar ochilmaydi.

So'ngra yer bug'lanib, bog'da qushlar paydo bo'ladi, anhor suvi loyqalanib, ko'paya boshlaydi-yu dastlab daraxtlar soyasi tushmagan yalangliklarda maysalar uchun yer teshib, yashillanadi. Teraklar barg chiqarib, mayin shabada esganda qush tilidek barglar shodasi titray boshlaganini eshitasanu «Mana, bahor ham kelibdi», - deb o'ylaysan. Tevarakka sinchiklab qaray boshlaysan: momaqaymoqlar sap-sariq gul ochibdi, olchalar gullabdi. Anhor bo'yida yalpizlar unibdi. «E voh, deysan shunda, - umr o'tayapti, umr!» (X.Davron)

Topshiriq: Berilgan matnga nom qo'ying. Nega shunday nomlaganingizni o'rtoqlaringizga izohlab bering.

7 - mashq. O'zingiz o'qigan badiiy asarlardan mavhum otlarga misollar toping va ularni ma'noviy guruhlarga ajratib yozing

Namuna. *Diniy tushuncha otlari: ummat, farz... Kasb - hunar otlari: oqituvchilik. noshirlik... His-tuyg u otlari: qo'rquv, jasorat, sevgi...*

8 - mashq. Berilgan misollar asosida otlarning son, egalik va kelishik kategoriyalarini tushuntiring.

1. Zehningni kengaytirma, chuqurlashtir, toki nur taratuvchi oynaning olov nuqtasiga o'xshab aqlingning butun harorati va butun shuuri ham bir nuqtaga jam bo'lsin (K.Gelvesiy). 2. Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nirmani seva olmaydi (J.Bayron). 3. Faqat o'zi uchun yashash insonlikni suiste'mol qilishdir (V.Shekspir). 4. Eng razil, ayni paytda eng oddiy va azaliy ko'mamaklik - bu farzandlarning ota-onani qadrlamasligidir (L.Vovenarg). 5. Insonning bittagina zolimi bor, u ham bo'Isa jaholatdir (V.Gyugo). 6. Jaholatning uch turi mavjud: umuman hech nima bilmaslik, hamma bilgan narsalarini juda yomon bilish, lozim bo'lmagan narsalarni bilish (Sh.Dyuklo). 7. Do'stinga tushgan xavtmeni ham tahlikaga solmas ekan, bu chinakam do'stlik emas (D.Dido).

9 - mashq. Bu mashqni guruhlarga bo'linib, musobaqa tarzida bajarishga harakat qiling. Berilgan so'zlarni to'liq tahlil qiling. Shuningdek, og'zaki savol - javob orqali o'z bilimingizni sinab ko'ring.

Tahlil namunasi: *varrak - ot, nima?, predmet, taqlidiy so'z^ak, sintetik shakl affiksatsiya*

usulida yasalgan sodda yasama ot.

Uyqu, ozodlik, olomon, o'rmon, qand-qurs, ota-ona, kuch-qudrat, ombor-ombor, etak-etak, sadarayhon, isitma, yog'in, yig'in, kesatliq, tezlik, bekinmashoq, ichkilik, sinov, qurshov, yog'ingarchilik, bilaguzuk, karvonboshi, ayiqtavon, dunyoqarash, gulxayri, gultojixo'roz, adibadi, qiy-chuv, ur-yiqit, bordi-keldi.

10 - mashq. Berilgan misollardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sintaktik xususiyatlarini tushuntiring.

1. *Nazokat* O'tkirning muomalasidan xursand (Uyg'un). 2. *Daryolarim* g'azabdan notinch (J.Jabborov). 3. *Insonparvarligingizdan* benihoya mamnunman (S.Jamol). 4. Bu *Vatan* barchamiz uchun muqaddas. 5. Odam *temirdan* qattiq, guldan nozik (Maqol). 6. *7/7-yurakning kaliti* (Maqol). 7. *Ona Ulan bob- gul bilan lola* (Maqol). 8. Mening *ismim - Muslima, familiyam Yo'ldosheva*. 9. *Anorsoy-o'tmishning* tilsiz *guvohi*. Daxshatli janglar *maydoni*, ko'chmanchi sahroyi *qabilalarning makoni*. 10. Mahallaning *hokimi - ellikboshi* (Oybek). 11. *Vatanimiz - onamiz, mehnat - baxt durdonamiz* (Q.Muhammadiy). 12. *Kamtarlik* kishining *bezagi* (Maqol). 13. *Otam - shifokor, onam-o'qituvchi*.

Adabiyotlar:

10. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
11. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
12. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
13. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
14. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
15. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
16. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
17. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
18. Ҳозирги о'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

2-mavzu: SIFAT SO'Z TURKUMI

REJA:

1. Sifat va uning o'rganilish tarixi.
2. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari.
3. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlar. Asliy va nisbiy sifatlar.
4. Sifatning tasniflovchi kategoriyasi va nokategorial shakllari

Tayanch so'zlar: *sifat, belgi, LGG, asliy sifat, nisbiy sifat, daraja kateoriyasi, analitik usul, sintetik usul, sintetik-analitik usul, kuchaytirma sifat, ozaytirma sifat.*

1- mashq. Berilgan matndagi sifatlarni ma'noviy guruhlariga ajratib yozing.

Namuna: *Maza - tarn bUdirwchi sifatlar: shirin, nordon...*

Shakl ko'rinishni bildiruvchisifatlar: novcha, gavdali...

1.Halinchakka,

chakan ko'ylak yarashar
Kelinchakka,
chakan ko'ylak yengiga
Tut qoqaylik...

Bir - ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan, chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. (Cho'lpon). 2. Mana o'sha sariq qamishzor ichida yurgan «yo'lbars»lardan biri parcha nonga zor, beholi bemador qadam tashlab, sarnigun, yo'l yoqasida yiqildi. (Mirmuhsin). 3. Barcha jonzod bolaligida shirin va suyganchik bo'ladi, echki bolasini oling, katta bo'lgach - shumshuk taka. bo'ri bolasi esa - bo'ri, ular ota bobolari qilgan ishni qiladurlar. (Mirmuhsin). 4. Tor ko'chada qo'shnimizning eski, shaloq eshigi oldida mening chol bobom - uzun soqolli, yirik jussali, kar quloq rao'ysafid bilan nimalar to'g'risidadir ezmalanib so'zlashadi (Oybek). 5. Bobom oriq kichkina gavdasini devorga suyab cho'qqaygan, hassasini tizzalarining orasiga qadagan. O'rtog'i esa qo'pol, eski, sag'ri kovush kiygan, uzun oyoqlarini cho'zib, oftobga yag'rinini tutgan holda, yerga yonboshlab o'tiribdi (Oybek). 6. Siyrak o'tkinchilar albatta, qo'l qovushtirib «assalomu alaykum», - deb o'tadilar (Oybek). 7. Bo'yi pastroq odamlar baland bo'yilarga havas bilan qarar emish (Shukrullo). 8. Mashinaning oynalariga tushgan ertalabki quyoshning nurlari bugun ham kunning issiq bo'lishidan darak berib turardi (Shukrullo). 9. Ovchi odam bog'bonlik qilib daromad topishdan ko'ra ko'proq qanday qilib bo'lsa ham o'z ovchiligi orqali kattaroq o'lja tushirish, uning bo'ladigan joylari haqida bosh qotirgani rna'qul (Shukrullo). 10. Bugun kutilmaganda shahristonlik xavaskor shoirlar bilan uchrashib qoldik (Shukrullo). 11. Yangi yaraqlagan quticha ustiga kattakon bir kamay o'matilgan (Oybek). 12. Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku, Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku. Karashma dengizin ko'rdim, na nozlik to'liqini bordir, Halokat bo'lg'usin bilmay, qulochni katta ochdim-ku (Cho'lpon). 13. Qoraqosh, ko'krakdor, xushbichim bu yigit Dildorning ham hushini o'g'irlagan edi (S.Ahmad). 14. Yer hali yaxshi qurimagan, devorlarning kungay etaklari sergib qolgan bo'lsa ham, o'radagi arava izi pilchillab yotar, bultur kallaklangan tollarning silliq novdalari hushtak yasasa bo'ladigan darajada sarg'imtil rangga kirib suv yig'ib qolgan. (O'.Hoshimov)

2 - rnashq. She'rni o'qing. Sifatlarni aniqlab, ma'nosi va gapdagi vazifasini ayting.

Mittilarga ulkan ko'rinar olam, Ulkanlar nazdida mittidir
dunyo. Deydilar, Gulliver degan bir odam Ayon ko'rgan emish
ularni go'yo.

Atrofin ulkanlar qurshagani choq,
Gulliver zarradir, u- yo'q, u- o'lgan
Mitti odamchalar qoshida biroq
Gulliver buyukdir, Gulliver- ulkan! (A. Oripov)

3 - mashq. Berilgan gaplarni yozing. Otlashgan sifatlar ostiga chizing va ularning gapdagi vazifasini izohlang.

1. Saxiyning ehsoniga baxilning boshi og'rir (maqol). 2. Axir inson bolasi baliq emaski, zo'ravoni ojizini yutib, hayot kechirsa! (Shuhrat) 3. Yaxshigayam, yomongayam birdek yaxshi ko'rinishga urinadigan odam eng xavfli odamdir (O'.Hoshimov). 4. Odamlar «bozor munosabati»ni baliqdan o'rgangan. Kattasi kichigini yeyaveradi (O'.Hoshimov). 5. Hech kimga hasad qilma. Hasadgo'y hech nimaga erisholmaydi (O'.Hoshimov). 6. Baxilning bog'i ko'karmas (maqol). 7. Yalqov bilan anqov - dushman uchun ov (maqol). 8. Aqlli o'z fikrini o'zgartiradi, ahmoq hech qachon (maqol). 9. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz - do'stini (maqol). 10 Baxil baxilni ko'rganda saxiyligi

tutadi (maqol).

Asliy va nisbiy sifatlar

4 - **mashq.** Berilgan gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.

I. Kelinchakning kichkina, qop-qora va o'ynoqi ko'zlari keng ochilib, qo'shni xotinning og'ziga tikilgan edi (Cho'lpon). 2. Jayhun bo'ylaridagi bu bepoyon sarg'ish qamishzorlarga boqqan kishi uning ichida qancha yo'lbars, jayronlar yurganini ko'rmaydilar. 3. Bahor chog'lari tomlarda tizza bo'yi bo'lib o'sgan barra o'tlar orasidagi chuchmomalardan tortib, lalaqizg'aldoqlar ichiga kirib qolgan lolaqo'ng'izlaru, tip-tiniq osmon ostida bodroq-bodroq bo'lib gullab yotgan o'riklar hammasi esimda (Shukrullo). 4. Daraxtlarning bunday fusunkor gullari, ko'm-ko'k mayin yaproqlari ruhlarni ko'taradi, zavqlarni chayqaydi (Oybek). 5. Qodir ko'k eshikni asta qoqdi. Qiz yana bidirladi: -Ichkarilik, qoqavering! Qodir qattiqroq qoqdi. Ichkaridan ayol kishining «labbay» degan tovushi keldi (Shuhrat). 6. Jannatning shaharga kelishidan eng katta umidi nomi ketgan doktorda edi. Kimga maslahat solsa, shu doktorning nomini aytdi (Shuhrat).

5-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, ma'nosi va gapdagi vazifasini ayting. Sifatlarda modal ma'noning ifodalanishini tushuntiring.

1. Bobom kichkina, zah, qorong'i hujrasida o'tiribdi. Omonatgina, eshigi kichkina sovuq hujra (Oybek). 2. O'zidan uncha uzoq bo'lmagan baland yantoq ostida kattagina bir chipor ilon cho'l sichqonini tishlab turardi (Mirmuhsin). 3. Jannat muyulishdan burilishi bilan kichikgina ariqchaga duch keldi (Shuhrat). 4. U nima qilishini bilmay, yana dovdirab guzarga kelib qoldi. Keksa qayrag'och tagidagi ko'rimsizgina butetga kirdi (S.Ahmad). 5. Zebixon bu pachoqqina, ko'rimsizgina, kamgap bolaning ichida shuncha gap borligini bilmagan edi (S.Ahmad). 6. Chetroqda ko'rinishi bo'sh-bayovgina, xunukkina, ko'ziga oq tushgan kalta soqol bir kishi o'tirgan edi (Oybek). 7. Ey, siz mening g'aribgina kulbalarim, Sizni tashlab samolarga ketolmayman. (I.Mirzo).

6- mashq. O'zingiz o'qigan badiiy asarlardan asliy sifatning kuchaytirma va ozaytirma shakllari qatnashgan 10 tadan gap yozing.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'Idoshev) . – Toshkent, 2007.

3-mavzu: SON SO'Z TURKUMI.

REJA:

1. Son va uning o'rganilish tarixi.
2. Sonning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi.
3. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.
4. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.

Tayanch so'zlar: *son, son turlari, sonning LGGi, grammatik shakl, dona son, miqdor son, tartib son, jamlovchi son, kasr son, numerativlar.*

1-mashq. Gazeta va jurnallardan sonlar ishtirok etgan gaplarni ko'chiring. Ularning qaysi so'z turkumi bilan bog'langanligini ayting.

2- mashq. Gaplarni o'qing. Raqam bilan ifodalangan sonlarni harflar bilan, harflar bilan yozilgan sonlarni raqam bilan yozing. Sonlarning imlosi va gapdagi vazifasini izohlang.

1. Qimmatli qog'ozlar bozoridagi umumiy mablag' ayianishi 32889 million so'mni tashkil etdi. 2. Yer yuzida har yili o'rta hisobda yigirmata kuchli va uch yuz mingdan ortiq sezilmaydigan yer tebranishlari bo'lib turadi. 3. Birja bozorida 7954,3 million so'mlik, birjadan tashqari bozorda esa 24934,6 million so'mlik aksiyalar sotildi. 4. Akula terisining bit kvadrat santimetri to'rt yuz oltinchi kilogrammgacha kuchga chiday oladi. 5. Yuz kilogramm og'irlikdagi dengiz toshbaqasi bir soatda o'ttiz ikki kilometr masofani bosib o'ta oladi. 6. Yog'ochdan qilingan eng uzun narvon 1955 yilda Norvegiyada tayyorlangan. Uning uzunligi bir kilometrdan ortiq bo'lib, uch ming yetti yuz o'n besh pog'onaga ega. 7. Narvon 740 metr balandlikka 45 gradus burchak ostida ko'tariladi (gazetadan).

3-mashq. Gaplarni o'qing. Sonlarni topib, ma'no tunni va imlosini tushuntiring. Ularning gapdagi vazifasini aniqlang.

I. Har bir odamni hayot o'z ummonidagi olovlari bilan pishiq g'isht kabi toblamasa, siz ming tarbiya berganingiz bilan g'isht xomligicha qolarkan, bir-ikki zarbadan uvalanib ketarkan (P.Qodirov). 2. Otasining rasadxonasida ilmi nujumdan saboq olgan Abdullatif osmondagi o'nlab yulduzlarni bir qarashda tanir edi (P.Qodirov). 3. Uning ikkita aybi bor: birlamchi, jussadan bergan emas, ikkilamchi, xotinidan ko'p urish eshitadi (A.Qodiriy). 4. Har bir mingboshiga o'ntadan, har bir aminga ikkitadan, har bir ellikboshiga bittadan yaroqlik yigit beradigan bo'lishibdi (Cho'lpon). 5. Begimni madrasaga ikki nafar sodiq kanizagidan tashqari yana to'rt nafar barvasta soqchilar ham kuzatib keldilar (P.Qodirov). 6. Uchovlon tashqariga chiqqanlarida daraxt soyasida poyloqchilik qilib turgan kishi yo'lni to'sdi (P.Qodirov). 7. Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar (Cho'lpon). 8. Aholining uchdan bir qismi dehqonchilik bilan shug'ullanar ekan (gazeladan).

4-mashq. Sonlarni topib, ularning imlosini, morfologik va sintaktik xususiyatlarini tushuntiring. Sonlarni o'zi bog'langan so'z bilan birgako'chiring.

1. Ikkisining orasidagi sham' yel bilan o'ynashibg'ina nur separ, ikkisi ham so'z qo'yishqandek sham'ga ko'z tikib qanday o'yg'adir berilgandek ko'rinar edi. 2. Nozik oyoqlar toldilar shekillik, sadaf kabi oq tishlarini bir-ikki qaytalab chaydi. 3. Kumushbibi endi o'n yettini qo'yib o'n sakkizga qadam bosqanliqdan bo'yi ham onasig'a yetayozg-an, ammo jussasi

onasig'a ko'ra to'laroq edi. 4. 1264-inchi hijriy, dalv oyining o'n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shorn azoni eshitiladir... 5. Uchhavi yuragini to'xtatib olish uchun anchagacha jim qoldilar. 6. Qutidor bir tomondan dahshatka tuslisa, ikkinchi jihatdan Otabekning dov yuragiga hayron qolar edi. 7. Musulmonqul voqi'asidan yigirma kunlar chamasi keyin edi. 8. Xat sakkiz buklanib, qizil ipak bilan bir-ikki yeridan chatilg'an va Otabekka atalg'an edi. (A.Qodiriy)

5 - mashq. Gaplarni ko'chiring. Sonlarni topib, tuzilishiga ko'ra turini tahlil qiling.

1. Mevasining uzunligi 30 dan 90 santimetrgacha, aylanasi esa 25-30 santimetr, ya'ni qovunsimon, og'irligi 10-15 kilo keladi. 2. Dunyoda hammasi bo'lib 5621 til va sheva bor ekan. Hozirgacha shundan atigi 500 tasigina o'rganilgan bo'lib, 1400 tasining esa yo'qolib ketish xavfi bor. Har uch tildan bittasi yozuvga ega emas. 3. Mutaxassislarning hisob-kitobicha, boshimizda 125000 ga yaqin soch tolasi bo'lib, umrimiz davomida 1,5 milioni tushib, qaytadan chiqadi. 4. Teritnizning har 6,5 kvadrat santimetrda 25 metr asab tolalari, mingdan ortiq asab nuqtalari, 6 metr qon tomirlari bor («G'aroyib olam»).

6-mashq. Gaplarni yozing. Sonlarni topib ma'no turini aniqlang. Otlashgan sonlarning gapdagi vazifasini belgilang.

1. Biz g'ofil bandalarmiz-da. Birimiz bu dunyoni sevib yashaymiz. Birimiz jirkanib yashaymiz. 2. Hazrat Ali (r.a.) der ekanlar, dunyo hayoti bilan oxirat hayoti bir erkakning ayni bir vaqtda nikohida bo'lgan ikki xotini kabidur, biri mamnun bo'lsa, ikkinchisi kuyaveradi. 3. Ajalni unutishda bir-birimizni ortda qoldirib ketganmiz. 4. Bu shoxga ikkita odam osildi. Sen uchinchisi bo'lasan. 5. Yigirma sakkizinchida kelganmisan? - deb so'radi Hamdam. 6. Kavkazlik laming ikkinchisi ham qariyb shunday javob berdi. 7. Keyin yana uch - to'rttasi paydo bo'lishdi. Bittasi g'ilay, juda beayov ekan. 8. Gavdali baquvvat odammi? Yoshi o'ttiz besh-qirqlarda, a? 9. Ulaming qishloqlarida beshta hovuz bo'lardi. Uchtasidan odamlar suv ichardi, biri molhovuz, biri ot hovuz edi. 10. Savollar sel oqimiday bostirib keladi. Qani edi, loaqal bittasiga javob topsa... (T.Malik)

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'Idoshev) . – Toshkent, 2007.

RAVISH SO'Z TURKUMI.

REJA:

1. Ravish va uning o'rganilish tarixi.

2. Ravishning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi oʻziga xos grammatik xususiyatlari. Oʻzgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida.

3. Ravishning lugʻaviy-grammatik guruhlari.

Tayanch soʻzlar: *ravish, belgi, turkumlik belgisi, oʻzgarmaslik, daraja kategoriyasi, ravish LMGlari, ravish turlari, derivatsiya, qoʻshma ravishlar.*

1 - mashq. Gapdagi ravishJarni topib, maʼno turini aniqlang va ulaming boshqa soʻz turkumlaridan qaysi jihatlari bilan farq qilishini izohlang.

1. Bir yil avval oʻgʻlining ogʻzidan ilkis shu gap chiqib ketdi. 2. Oʻgʻil bu gapni aytmasligi kerak edi-yu, orqavarotdan eshitganlari qulogʻiga mahkam oʻrnashib qolganidanmi yoinki koʻpdan buyon xayolida shu fikr yurgan ekanmi, tomdan tarasha tushgandek kutilmaganda aytdi-qoʻydi. 3. U avval hech nimani anglamayotgandek, oʻz quloqlariga ishonmagandek hangumang boʻlib turdi; bir zumdan soʻng koʻkardi, qarshisida nima qilib qoʻyganligini anglab-anlamay bezrayib turgan oʻgʻlining qulogʻi ostida chunonam shavla qaynatdiki, u guppa qulab, boshqa oʻt yoqishning hojati boʻlmadi. 4. Bunday muomala oʻgʻilning alamini kundan-kunga ulgʻaytirdi. 5. Kampirning qargʻishlari tegdimi yoinki oʻzining vaqti soati yetgan ekanmi, kelinning otasi birdan oyoq uzatib oʻldi-qoldi. 6. Xabar yetgach, kampir darrov kalish-maxsisini kiyib yoʻlgi otlandi. 7. Dod-voylaru yigʻi-sigʻilar orasida quloqqa chalingan soʻzlar maʼnosi chaqilganda shu narsa ayon boʻidiki, qudaginasi bu dunyoda topilmas odam boʻlganmish, endi u qaytib kelmasmish, qaytib kelmasligiyam koʻp afsuslanarli ish emasmish, nega deganda, u naq behishtning oʻziga ketganmish, jannatiymish. 8. Toshmurodning buvisi bilan borishga otasi koʻp roʻyxushlik bermasa-da, buni ochiq-oydin aytolmas, mayli, hozircha kampirga yonqoziq boʻlib tursin-chi, keyin-keyin qadamini uzib tashlayman, deb xayol qilardi. 9. Boyagi boyagi, boyxoʻjaning tayogʻi ekan - kichik oʻgʻil mana endi oʻziniyam, yolgʻiz qiziniyam, ikkalasidan toʻraganlarniyam ogʻir kunlarga qoldirib oʻtiribdi: u yoqdagilar buni avvalroq bilishganida yanayam boshqacharoq harakat qilisharmidi, kim bilsiti; kechani kecha, kunduzni kunduz demay koʻpaytirishgan mol-hollari ham kuyovni begonasirashib, ularning ortidan ketgani yomon boʻldi; nafsilambrini aytganda, kuyov ham ana shu keyingi safardan koʻproq norozi boʻldi, avval shod, keyin noshod boʻldi. 10. Oʻnta qozigʻu oʻnta arqonni yaxshi niyatda oxurga tashlab qoʻvgan amaki ertalab turib qarasaki, xizmatdagi bitta qoziq qolibdi, xolos; arqon-parqoni bilan ilgariqi tirraqi buzov, hozirgi kattakon hoʻkizni oʻgʻirlab ktishibdi. (Sh.BuʻtayeV)

Ravishlarda daraja

2--mashq. Sifat va ravish darajalarini qiyoslang. Oʻrtadagi farqni darslik va oʻquv qoʻllanmalar asosida tushuntiring. Badiiy asarlardan misollar topib, tahlil qiling.

Ravishlarning yasalishi

3- mashq. Ravishlarni topib, bogʻlangan soʻzi bilan birga koʻchiring. Qaysi savolga javob boʻlishini aniqlang.

1. Oʻz umrlari davomida koʻp shovqin-suron solishgan boʻlsa-da, har ikkala kampir ham abadiy maskanlariga jimgina oyoq uzatib ketishdi. 2. U yoqda nimalar qilishyapti, farishtalarni hol-joniga qoʻymay toʻzitib yurishibdimi, u yoqdayam qargʻashyaptimi-yoʻqmi, buni yorugʻ jahondagi barcha odamzod vaqti yetib bilib olaveradi. 3. Amaki bu qishloqqa koʻchib kelishidan avvalgi holatga qaytgan edi, feʼli badbinlashgan, sal gapga olov olaman, deb turardi. 4. U hamon indamay-netmay ketvorishgan mollardan xafa, alami bosilmagan. 5. Har kuni bu yoqqacha

tushib kelishadi, yalinishadi, chuvvos solishadi. 6. Qizarib-bo'zarib, uning so'zlarini bazo'r oxirigacha eshitib turdi-da, keyin xayr-ma'zumiya nasiya qilganicha jo'navordi. 7. Yo'lda ketarkan, o'ziga-o'zi endi bu xonadonga qaytib qadam bosmayman, deb ont ichar, otasining ta'qiqlariga qaramay, yashirincha kelib yurganlarini eslar, hammasi bir go'r ekan, deb o'ylar, ana shu hammasi bir go'rning ichida o'ziyam borligi xo'rlogini keltirar edi. 8. Toshmurod haqiqatan ham ancha vaqtgacha o'zini ko'rsatmadi. (Sh.Bo'tayev)

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Ғуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Ҳозирги о'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

TAQLID SO'ZLAR

REJA:

1. Taqlid va uning o'rganilish tarixi.
2. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida.
3. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.

Tayanch so'zlar: *taqlidlar, mustaqil so'zlar, oraliqdagi so'zlar, morfologik o'zgarish, o'zgarmaslik, aqlid so'zlarning LGGlari.*

Mashq. Gaplarni o'qing. Taqlidiy so'zlarni **topib** ma'nosiga ko'ra guruhlarga ajratib yozing vato'liq lahlil qiling.

I. Mashriq tomon **bilinar-bilinmas** oqara **boshlagan**, **lekin** osmon lianuz g'uj-g'uj yulduzlarga to'la edi. 2. Urgut tog'laridan g'ir-g'ir shabada esib turgan, ilk bahor oqshomi cdi. 3. Xurshida bonu shahzodaning sarak-sarak qilgan boshi, dir-dir titragan uzun nimjon gavdasi esiga tushdi-yu tirnoqlarigacha zirqirab ketdi. 4. Ali Qushchi nechundir yuragi gurs-gurs urib, qoyaga tirmashdi, 5. Shamol kuchayib, bulutlar tarqagan, osmon g'uj-g'uj yulduzlarga to'lib ketgan edi. 6. Uning iyagi qandaydir osilib qolgan, tishlari bir-biriga tegmay shaq-shaq qilar, dir-dir titragan nogiron, qoqsuyak vujudi, yonib turgan ko'zlari shunday vahimali va ayanchli ediki. Mirzo Abdullatif qilichini mahkam ushlaganicha, beixtiyor orqaga tisarildi. 7. Mavlono Muhiddin, go'yo bu noxush xabardan ezilib ketayotganday, boshini velkalari orasiga olib, g'ujanak bo'lib o'tirardi. 8. Bog'da, tog' etagidagi xushbo'y archazorlarda shoxlari qulochga sig'maydigan oq arxarlar. o'ynoqi kiyikchalar. ko'zlari ma'sum ohular gala-gala bo'lib yurardi. 9. Ichkarida gurs-gurs oyoq tovushi eshitildi. Sal o'tmay eshik qiyg'och ochilib, beliga qilich osgan qora barzangi

yigit koTindi. 10. Atrofdagi turganlarning tillari tanglaylariga yopishib, yuraklari gup-gup ura boshladi. 11. Amir Jondor barvasta gavdasiga mos tushmagan bir thaqqonlik bilan apil-tapil o'rnidan turib, bosh egdi. 12. Shunda Ulug'bek yana boyagiday yuragi gup-gup urib, javob berdi. 13. Mirzo Ulug'bek yaqinlashayotgan oyoq tovushini eshitib ko'zini ochdi, ochdi-yu tubsiz osmon qa'rida, tez uchib o'tayotgan qora bulutlar orasida milt-milt yongan yulduzlarni ko'rdi. 14. Yomg'irda cho'milgan ko'm-ko'k barra maysalar g'ir-g'ir esgan tong shabadasida mayin chayqalar, go'yo ipakday tovlanib, kishining ruhini erkalar edi. (O.Yoqubov)

Savollar:

1. Taqlid so'z turkumiga ta'rif bering.
2. Taqlid so'z turkumining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi haqida so'zlang
3. Taqlidning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlarini sanang.
4. Taqlidning umumiy grammatik ma'nosi nima?
5. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlariga izoh bering.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Ҳозирги о'zbek тили fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

OLMOSH SO'Z TURKUMI

REJA:

1. Olmosh va uning o'rganilish tarixi.
2. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so'z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari.
3. Olmoshlarning matndagi o'rni. Sintaktik imkoniyatlari.

Tayanch so'zlar: *olmosh, mustaqil so'zlar, ishora so'zlar, ichi bo'sh so'zlar, yordamchi so'zlar, turlanish, kesimlik kategoriyasi, ismlar, olmosh LMGlari.*

51 - mashq. Gaplarni o'qing. Olmoshlarni topib, ularning qaysi so'z turkumi o'rnida qo'llanganligini va gapdagi vazifasini ayting.

1. Avtobus shahardan chiqar mahalda Zelixon yigitaliga qarab ajablandi. Shuncha paytdan beri uning birga ekaniga ahamiyat bermagan ekan (T.Malik). 2. Shaharda bitta kutubxona bor.

Bu kutubxona ham qarovsizlikdan to'kilib qolgan (Gazetadan). 3. Uning uchun bu eshik hovli bilan ko'chani bog'laydigan bir vosita emas, balki umid qopqasi edi (T.Malik). 4. Dunyoda faqat bir sobit suxan bor: U o'z farzandingga o'zing qo'ygan nom (A.Oripov). 5. Kimdir eski kursi keltirib gulxan yoniga qo'ydi (O'.Hoshimov). 6. Balki qovurma chuchvaradan umid qilib tavanxonaga kirgandir? Mo'ralab qarasam, u yerdayam yo'q (O'.Hoshimov). 7. O'sha kuni ham odatdagidek yarim kechada uyga qaytdim (O'.Hoshimov). 8. Hammamiz duoyi-jonimizni qilib yuribmiz, siz mashq qilib bo'lguncha urush ham bitib qolarmish degin. (O'.Hoshimov)

Olmoshlarning ma'no turlari

52 - mashq. Gapdagi olmoshlarni topib, qaysi so'z bilan bog'langanligini ayting. Ulardagi qo-shimchalaming qo'shilishini izohlang.

1. O'zi pasmondaning ko'zi osmonda (Maqol). 2. Har qanday cbuqur yerdan ham osmonga ko'tarilish mumkin (Seneka). 3. Palag'da tuxumga murch sepib bergan bilan uni yeb bo'lmaydi (A.Qahhor). 4. Mening oltita sadoqatli xizmatkorim bor. Hamma narsani ulardan o'rganarnan. Ismlari: nima?, qachon?, qanday?, qayerda?, kim?, nimaga? (D.Kamegi). 5. Taqdirotning muqarrar qonuniga ko'ra, har bir xalq o'z turmushi bilan jami insoniyat hayotining qaysidir bir qirrasini ifodalashi lozim, aks holda, bu xalq hayot kechirmaydi, balki behuda tirikchilik qiladi va uning mavjudligidan hech qanaqa naf yo'q (V.Belinskiy). 6. Biryoqlamalik har qanday odamga zararli, jumladan, butun insoniyatga ham. Butun dunyo Rimga aylanganida, hamma xalqlar rirncha fikrlab, rimcha his qila boshlaganida, inson tafakkurining harakati ham to'xtaydi (V.Belinskiy). 7. Har kimning o'z eli - o'ziga shirin (Maqol). 8. Birovning bergani - ko'rgulik, mehnatning bergani to'ygulik (Maqol). 9. O'zining butunini qo'yib, birovning yarmiga osilar (Maqol).

53 - mashq. Gaplardagi kishilik va ko'rsatish olmoshlarining ma'no va grammatik xususiyatlarini aniqlang.

1. Mana biz, taqsir, shu keyingi ishda ko'rilmasa ham faqat shirin xayollardagina yurgan oliy firqag'a o'zimizda tarafdorlik his etamiz. 2. -Biz bu daqiqada sizning fikringizcha go'yo bir ig'vogar, go'yo bir isyonchi bo'lib tanilib turibmiz, - dedi bek, - chindan ham shundog' kishilarmizmi, yo'qmi, buni albatta sizning tekshirishlaringiz, haqiqatlaringiz ko'rsatar. 3. Ana, ana, hov aka! O'sha qipchoqqa o'q tegib o'lib o-lalmay, yurib yuralmay ingrab yotqan ekan. 4. Ul bizni aniq toshkandlik bo'lg'onimizga ishonsa, darbozaga solingan noituyaning boshidek qulfni ming mashaqqat bilan ochib, zanjirini tushuradir. 5. -O'shal kungi manim so'zlag'anlarim, otam bilan manim ichki sirlarimiz edi, - dedi bek, - albatta bunga guvoh va isbot topish qiyindir. Adolatingizdan talabimiz shul! - dedi va qo'rboshig'a qaradi. 7. Uning yuzida qo'rqish va iztirob alomatlarini ko'rdi. 8. Mundan so'ng xalqning o'ziga ishonib turolmay Toshkandni ololmay qaytqan Normuhammad qushbegiga yordamga yetib kelish uchun chopar yugurtiradi. 9. -Bu kungacha kelinsiz ham yashab keldingiz, bundan keyin ham shusiz turib bo'lardi-ku, - dedi. 10. Biz sani Marg'ilon andisiga bunchalik mukkadan ketishingni o'yلامag'an edik, adabsiz... O'zingga qolsa shu marg'ilonliqni xoting'a hisoblab yuraberar ekansan-da, uyatsiz... (A.Qodiriy)

54 - mashq. Gaplardagi so'roq olmoshlarini topib, nimaga nisbatan so'roq ifodalashini ayting. So'roq olmoshlarining ma'no va grammatik xususiyatini izohlang.

1. O-chib borayotir qanchalar kalom, Ne-ne bitiklar ham yo'qdir, vassalom (A.Oripov). 2. Odamlar o'g'ri devorni qachon va qanday asbob bilan teshgani, ho'kizni qaysi tomonga olib ketgani, uni qaysi bozorga sotishi mumkinligi to'g'risida bahslasha-bahslasha tarqaldi

(A.Qahhor). 3. Hazratimni men nechun uyg'otdim? (P.Qodirov). 4. Bobur sahhoflarni chaqirib, bu kitobning eng baland narxi qancha bo'lishini so'radi (P.Qodirov). 5. Nimaga ishondim anavi imonsizning gapiga? Bolang nobud bo'пти desa, nega laqqa tushdim? (O'.Hoshimov). 6. Nima deb kelardim? Kimning oldiga? Qaysi yuz bilan? (O'.Hoshimov). 7. Dunyoning qanchalar chehrasi o'zgardi, qanchalar vangiliklar ro'y berdi (G'.G'uIom). 8. - Qanday kuyni chalay, bek aka? (A..Qodiriy). 9. Nega qadding egik, nega boshing xam, Nega nigohingni tortadi tuproq? (A.Qodiriy). 10. Bir qo'ning puli ekan, qavoqdan kelib, qayoqdan ketmaydi. (P.Qodirov)

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

SO'Z TURKUMLARINING KO'CHISHI.

REJA:

1. So'z turkumlarida ko'chish hodisasi.
2. Transpozitsiya hodisasi.
3. Konversiya hodisasi
4. Polifunksionallik.

Tayanch so'zlar: *ko'chish, transpozitsiya, konversiya, polifunksionallik, semantika, lisoniy hodisa, nutqiy hodisa, sema, gibrid so'z, sinxron va diaxron aspekt.*

1-topshiriq. Quyidagi test savollariga javob bering

1. Atoqli ot asosida paydo bo'lgan turdosh otlar qatorini toping.

- A) asal, rayhon, arslon, muhabbat B) anor, lola, shirin, to'qson,
C) etmish, bultur, turdi, ra'no D) rentgen, xosiyatxon, michurinchilar, am'er

2. Faqat turdosh otlar asosida paydo bo'lgan atoqli otlar qatorini toping.

- A) Ergash, Lobar, Gulchehra, To'xtamurod B) Juma, Bahri, Rayhon, Nilufar,
C) Ulug', Dilbar, Go'zal D) Ortiq, Quvonch, Xursand, Vali

3. Boshqa turkumdagi so'zlar asosida paydo bo'lgan atoqli otlarni toping.

- A) O'lmas, Aziz, Nodir, Olapar B) Asal, Ra'no, Lola, Anor
C) Alisher, Akram, Rustam, Mosh D) Yu'iter, Mars, Xulkar, Sotiboldi.

4. Qaysi qatorda oy so'zi ot turkumiga xos sintaktik vazifani bajargan?

- A) Oy osmon dengizida suzib bormoqda. B) Uydan oy yuzli qiz chqib keldi.
 C) Oy borib, omon kel, o'g'lim! D) B va C
5. Turdosh otdan yaslagan atoqli otlar qatorini aniqlang.
 A) Olmos, Yashin, Sulton, Juma
 B) Shirin, O'tkir, Majnun, Aziz
 C) To'xta, Turdi, Tursin, Berdi
 D) rentgen, boston, Xosiyatxon, am'er.
6. Aslida sifat bo'lib keyinchalik otga ko'chgan so'zlarni toping.
 A) qiz, o'g'il, gul B) katta, ayol, chol
 C) yangi, tugal, go'zal D) qiz, o'g'il, chol
7. Otlashgan so'zni toping.
 A) Qozonga yaqin yursang, qorasi yuqar
 B) Yaxshi ot uloqda bilinadi.
 C) Musofir odamga yo'l ko'rsatish savob.
 D) Kitobini topsangiz mayli, yo'q demayman.

Savollar

1. So'z ma'nosi kengayishi va torayishining so'z turkumlari ko'chishiga tahsirini tushuntiring.
2. Transpozitsiya nima?
3. Konversiya nima?
4. Transpozitsiya va konversiyaning farqini tushuntiring.
5. Polifunksionallik nima?
6. Polifunksionallikning polisemantiklikdan farqi nimada?
7. Grammatikalizatsiya nima?

2-topshiriq. Transpozitsiya va konversiya bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlardagi farqni sharhlang va umumiyashtiring.

3-topshiriq. Quyidagi konversiya turlariga tavsif bering va misol keltiring.

verbalizatsiya	
grammatikalizatsiya	
adyektivatsiya	
substantivatsiya	
pronominalizatsiya	
adverbializatsiya	

4-topshiriq. Konversiya jarayonining sinxronlik va diaxronlik jihatlarini izohlang.

5-topshiriq. Izohli va etimologik lug'atlardan foydalangan holda konversiya va transpozitsiyaga uchragan so'zlarga misol keltiring.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.

2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Ҳозирги о'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

SINTAKTIK SHAKL HOSIL QILUVCHI KATEGORIYALAR VA ULARNING TURLARI.

REJA:

1. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari.
2. Egallik, kelishik va kesimlik kategoriyasi.
3. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi.

Tayanch so'zlar: *kategoriya, sintaktik shakl, kesimlik kategoriyasi, kelishik, egallik, turlovchi, nisbatlovchi, bog'lamalar.*

1-mashq. Matndagi so'zlarni morfemik, morfologik va so'z yasalihi bo'yicha tarkibga ajrating. Morfemik asos, morfologik asos va so'z yasalihi asosi tushunchalarining farqini tushuntiring.

Qasida o'qib tugatilganda Bobur ta'sirlanganidan qayerda o'tirganini ham unutgan edi. U atrofiga qarab, go'yo mehmonxonaga uzoqlardan qaytib kelganday bo'ldi.

-Mavlono, bu qasidani Alisherbekka nega yubormaysiz?

-Hirotda boradigan tayinli odam yo'q, amirzodam.

-Biz yaqinda Hirotda elchi yubormoqchimiz. Kaminaga Alisherbekdan kitobat kelgan edi. Javobini yozib yubormoqchiman.

-Amirzodam, qani edi, qulingizning bu qasidasini ham...

-Marhamat, xattotga berib ko'chirtirmoq zarur bo'lsa, men buyururmen. So'ng elchidan berib yuborurimiz.

Gap shunga qaror to'di-yu, mulla Binoiy xursand bo'lib chiqib ketdi.

Bobur yana xonai xosga kirib, chala qolgan she'rini qo'lga oldi. Biroq endi katta shoir bilan bo'lgan uzoq suhbatdan so'ng, avvalgi she'rlari Navoiyga yuborishga munosib emasdek tuyuldi. Unga ilgari jo'n tuyuladigan narsalar ham aslida juda murakkab ekani hozir juda aniq sezilayotganday bo'lardi. Hamma narsani muhit, ahli jahon murakkablashtiradi. Hirotda yashayotgan Alisher Navoiy ham, hozir Boburga ko'p narsalarni kuYunib aytib bergan Binoiy ham muhitdan, zamona ahlidan norozi bo'lganlaricha bor edi. Boburning o'zi bu zamonadan ozmuncha jabr ko'rdimi? (P. Qodirov,).

1-topshiriq. Quyidagi qo'shimchalarning turini tasniflang.

	LShY	SinShY	SY	
-ning				
-ga				
-dan				
-lik				
-gani				
-yapman				

2-mashq. Fe'llarni alohida ko'chirib oling va ularga tuslovchi qo'shimchalarni qo'shib gap tuzing.

Ishlatmoq, moylamoq, randalamoq, tiklamoq, tozalamoq, yaxshilamoq, sekinlamoq, dodlamoq, voyvoylamoq, gumburlamoq, taqirlamoq, lapanglamoq, otlanmoq, foydalanmoq, ovqatlanmoq, achchiqlanmoq, sergaklanmoq, ikkilanmoq, sekinlanmoq, tezlanmoq, yaxshilanmoq, o'tkirlanmoq, zavqlanmoq, havotirlanmoq, qanoatlanmoq, do'stlashmoq, suhbatlashmoq, qiyinlashmoq, yaqinlashmoq, guvillamoq, chirillamoq, bezillamoq, likillamoq, yarqiramoq, sirqiramoq, mo'ltiramoq, oshamoq, o'ynamoq, bo'shamoq, qiynamoq, shildiramoq, jildiramoq, pasaymoq, qoraymoq, toraymoq, ko'paymoq, ko'karmoq, eskirmoq, suvsiramoq, xavfsiramoq, sensiramoq, sizsiramoq, yo'liqmoq, birikmoq, kechikmoq, zo'riqmoq, boyimoq, changimoq, to'latmoq, berkitmoq, kamsitmoq, boshqarmoq, yo'qlamoq, yotsinmoq, kasal bo'lmoq, kashf etmoq, bayon qilmoq, qo'l qo'yamoq, sotib olmoq, borib kelmoq, aytib kelmoq.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадваллари. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Ҳозирги о'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

KESIMLIK KATEGORIYASI MURAKKAB KATEGORIYA SIFATIDA.

Reja:

1. Kesimlik shakllari paradigmasi. Ularning umumiy grammatik ma'nosi. Kesimlik shakllarining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari.
2. Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi.
3. Kesimlik kategoriyasi grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Bog'lama.

1-mashq. Gapdagi kesimlarning qanday soʻzlar bilan ifodalanayotganligini aniqlang.

1. Turgʻunboy munkib-munkib choy hoʻpladi. 2. Kelin tushadigan yasatugʻli uy huvillab qoldi. 3. Goʻrkov kelib qoʻltigʻidan koʻtarmaganda hali-beri oʻrnidan turmasdi. 4. Yer tagida ilon qimirlasa biladigan Robiya boʻlgan voqeani oʻsha kechasiyoq eshitadi. 5. Shaharning pastqam mahallalarida xufiya «iskalat»lari boʻlardi. 6. U qilgan toʻylar hali-hali ogʻizlarda doston. 7. Qamoq lagerlarida umrini oʻtkazayotgan mahbuslar uyini, bola-chaqalarini soginib mushuk boqishardi. 8. Koʻmir ortilgan vagonchalarni tortish shular zimmasiga tushdi. 9. Shirimbetov tunov kuni qoʻliga kishan solingan, soqchidan tepki yegan mahbus edi. 10. Qoʻshtegirmon bilan viloyat markazining oraligʻi atigi oʻn toʻrt kilometr, hozir yoʻlga chiqsa, oʻn besh minutga qolmay yetib keladi (S.Ahmad).

2-mashq. Matnni oʻqing. Kesimlarni aniqlab, qaysi soʻroqqa javob boʻlishi, kelishigi va qanday shakllanganini ayting.

Togʻ bagʻridagi huv oʻsha bulut bulut emas, chinor. Darvoqe, togʻning oʻzi ham, qishloq ham uning nomi bilan: Chinortogʻ, Chinorqishloq deb ataladi. Bizning Ochil buva shu yerda tugʻilgan. Men gapni toʻgʻri shu kishidan boshlamoqchi edimu, lekin bu joylarda chinorsiz hech narsani tushuntirib boʻlmaydi. Hatto guzar, undagi katta, gavjum choyxona haqida gap ketganda ham «chinorda chaqchaqlashib keldik», «chinorga borib bir osh qilaylik», deyishadi. Butun qishloq shu chinorning soyasiga joylashgan. Ochil buva bugun chinor bilan xayrlashmoqda. Butunlay emas, albatta. Vaqtincha. U safar oldidan har gal shunday qiladi, tirik odam bilan xayrlashganday uzoq tikilib, pichirlashib xayrlashadi. (A.Muxtor)

3-mashq. Gaplarni oʻqing. Kesimlarni oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birga koʻchiring.

1. Umida hozir qoʻlga tushishdan ham koʻra, yana Bergerning basharasini koʻrishdan qoʻrqar edi. 2. Berger shlyapasini tizzasiga qoʻndirib, oltin uzuk taqqan uzun qoʻllarini qayoqqa qoʻyishni bilmagandek, oʻngʻaysizgina oʻtirdi. 3. Uning gapini yigitlar eshitmadilar, ammo kapitanning vaqti chogʻligi koʻrinib turardi. 4. Endi bu odamning qoʻpol soʻroq qilishlari gʻashiga tegmay qoʻygan edi. 5. Sumbulning har bargidan tiniq buloq suvi tomib turadi. 6. Corning ogʻziga yaqinlashganingizda siz avvalo quyosh nuri va buloq suvi zarralaridan paydo boʻlgan ajoyib naykamalakni koʻrasiz, keyin koʻzingiz sal koʻnikkach, bosh ustingizda qora soch tolalaridagi milliard-milliard yiltiroq bargchalarda koʻz yoshiday moʻlt-moʻlt etib turgan tomchilarni, ularning oyoq ostingizdagi oydin buloqqa yomgʻirdek tomishini koʻrasiz, tomchilarning ajoyib sirli, kumush tovushini eshitasiz, bagʻringizga rohatbaxsh salqin kelib uriladi. 7. Jahonning sakkizinchi moʻjizasi bino boʻldimi, yoʻqmi - roviylar bilmaydilar. 8. Bu dargoh baayni jahannam, falak gumbazini oh-nola tutuni tutgan, qiyomat qoyimning xuddi oʻzi edi.

9. Shohning imosi bilan uning oyogʻi ostiga bir tovoq oltin toʻkdilar. 10. Navolarning dardli avji dillarni tilkalar, odamlar esa bu jarohatdan lazzat topib oʻzligini unutar edi. (A.Muxtor)

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.

7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev). – Toshkent, 2007.

MUSTAQIL SO'Z TURKUMLARI BO'YICHA KOMPLEKS MORFOLOGIK TAHLIL

Reja:

1. Ismlar bo'yicha mashqlar.
2. Fe'l bo'yicha mashqlar.
3. Ravish turkumi bo'yicha tahlil.

1-mashq. Berilgan misollardagi ismlarning ma'no va grammatik xususiyatini izohlang.

1. Inson boshiga kelgan fojialarni o'zicha tahlil qiladi. Yuzaki sabablarga bog'lab yuradi. Ammo o'zini, o'zligini anglagan inson hayotida sodir bo'lgan ko'ngilsizliklar sababini o'zidan izlab ko'radi (B.Nurmuhammad). 2. O'z uyim - oian to'shagim (Maqol). 3. Endi uning butun borlig'i quloq bo'lib aylangan, o'zini unutib barcha diqqati hujraga ichiga oqg'an edi (A.Qodiriy). 4. O'zingiz toshkandlik bolaturib nima majburivat ostida Marg'ilondan uylandingiz? (A.Qodiriy). 5. Biz o'zimizni ichkariga olg'ach, darbozabon o'zining hazmi ko'targan qadar bizga po-ng'illaydilar-da: darbozani berklash harakatiga tushadir (A.Qodiriy). 6. «O'zaro gap uchun shu yerga ovora bo'lib kelib o'tirarkanmi bu odam» deb o'ylaydi u (T.Malik). 7. O'zlari ham tunda o'tishibdi. Gap bilan chalg'ib bu yoqqa qarashmabdi, -dedi (T.Malik). 8. «Men - o'zingizman, men - Ismoilbeyman. Men bunda bobomni kutayotirman» (T.Malik). 9. -O'zlaringning o'zbeklaringni o'ldirib tomosha qilib turasanlarmi! - deb baqirdi Zelixon osmonga qarab. (T.Malik)

2-**mashq**. Matnni o'qing. Ismlarni topib, ularning ma'nosi, yasalish usuli va tuzilishiga ko'ra turini ayting. Ostiga chizilgan so'zlamning sinonimini toping va izohlang.

Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda *ko'rkamrak* bir hujra, anovi hujralarga kiygiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, ularda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora chirog' sasig'anda, bu hujrada sham' yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, *serchaqchaq* kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha yaratilishda.

Og'ir tabi'atlik, ulug' gavdalik, *ko'rkam* va oq yuzlik, kelishgan, qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarliq edi. Qandog'dir bir xayol ichida o'ltirg'uchi bu yigit Toshkandning mashhur a'yonlaridan bo'lg'an Yusufbek hojining o'g'li -Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kimgach, ulardan biravi darboza yonidag'i kimdandir so'radi:

-Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko'rsatilishi bilan ular shu tomonga qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavadaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtlik, vigirma besh yoshlar chamaliq bir yigit bo'lib, Marg'ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o'g'lidir,

ikkinchisi: *uzun bo'vlik*, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, cho'qqi soqo!, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an *ko'rimsiz* bir kishi edi (A.Qodiriy).

3-mashq. Gapلامي ko'chiring. Qo'shma fe'llarni topib, ma'no xususiyatlarini izohlang.

1. Otamizning o'lganiga anchagina yil o'tib ketdi (G'.G'ulom). 2. Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so'zlab ketdi (A.Qahhor). 3. Qattiq betoblikdan keyin negadir Lining ko'ngli qishlog'ini qo'msab qoldi (S.Zunnunova). 4. Ba'zan lo'xtab, adashmadimmi, degandek, u yoq-bu yoqqa alanglar. vana tasmollab yurib ketardi (S.Zunningva). 5. Miryoqubning o'tkir quloqlari oshxona tomonni tinglarkan, ikki kishining pichirlashib gaplashganini aniq eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi (Cho'lpon). 6. L ham xudi suratday jonsizgina sudralib yura boshladi (Cho'lpon). 7. So'fi ko'zlarida marvarid donalariday yirik-yirik yoshlari ko'ringani holda, bilganicha aytib berdi (Cho'lpon). 8. Bir ozdan keyin Firuzani ko'tarib qaytib kirdi, ketma-ket ikkita o'g'lini yetaklab olgan Guljahon ko'rindi (O.Yoqubov). 9. Qiziq: usta shu so'zni eshitdi-yu, Nodimi ko'rganida tarqaganday tuyulgan darmonsizlik a'zoyi badanini qayta chulg'ab oldi (O.Yoqubov). 10. So'ngra urush boshlandi-yu, har kim o'z g'ami, o'z tashvishi bilan bo'lib qoldi.

4-mashq. Gaplarni o'qing. Fe'llarni topib, ulardagi tuslovchi qo'shimchalarning ma'nosini izohlang.

1. - Chidolmayapman, bilasanmi, chidolmayapman. Yana Kim bilan ketganini-chi. Voy jinni boimasam, o'zim o'sha savilni «dugona» qilamanmi-a? (Y.Akram). 2. - Dada-a... - Jasura og'ringandek tikildi. -Siz uni bilmaysiz... Ana, hozir ham pastda turibdi (E.A'zam). 3. - Menga bittasini bering? - dedi chelakdan ko'z olmay (M.Norqobulov). 4. -Xullas, biz, - gapirdi Chippingem, - o'zimiz qidiruv guruhini tashkil etishga qaror qildik. 5.- Hammamiz bu yerga nima uchun yig'ilganimizni bilamiz, - dedi Rita kengashni ochar ekan, rasmiy ohangda. - Sizlar bilan ishni qanday tashkil qilishni kelishib olaylik. Dastavval tashkiliy masalalarni muhokama qilaylik (A.Qahhor). 6. Men butun insoniyatni ikki toifaga ajratgan bo'lardim: sevishtga qodir va muhabbat tuyg'usidan benasib insonlar (M.Shoxonov). 7. 70-yillaming oxirlarida Mariyam ikkovimiz Moskvaga borib, mehmonxonadan joy oldik. Bizning kelganimizni eshitib, bir oqshom sen huzurimizga tashrif buyurding va buyuk qozoq bastakori Yestoyning muhabbatiga bag'ishlangan she'ringni o'qib berding, 8. - Bibisora vafot etgach, oradan ko'p vaqt o'tmasdan ineni Italiyaga taklif qildilar. Teploxodda Sitsiliyaga jo'nadik. 9. Odamlar palubada raqsga tusha boshladilar. Men esam, bir chetda to'siqqa suyanganimcha yum-yum yig'lardim. 10. O'sha musiqa tovushini hozii eshitsam ham io'lqinlanib ketaman. Daihol Bibisora esimga tushadi. Bu tuyg'uni tushuntirib berishga ojizman. (Ch.Aytmatov)

5-mashq. Gapdagi ravishlarni topib, ma'no turini aniqlang va ulaming boshqa so'z turkumlaridan qaysi jihatlari bilan farq qilishini izohlang.

1. U avval hech nimani anglamayotgandek, o'z quloqlariga ishonmagandek hangumang bo'lib turdi; bir zumdan so'ng ko'kardi, qarshisida nima qilib qo'yganligini anglab-anglamay bezrayib turgan o'g'lining qulog'i ostida chunonam shavla qaynatdiki, u guppa qulab, boshqa o't yoqishning hojati bo'lmadi. 2. Bunday muomala o'g'ilning alamini kundan-kunga ulg'aytirdi. 3. Kampirning qarq'ishlari tegdimi yoinki o'zining vaqti soati yetgan ekanmi, kelinning otasi birdan oyoq uzatib o'ldi-qoldi. 4. Xabar yetgach, kampir darrov kalish-maxsisini kiyib yo'lgi otlandi. 5. Dod-voylaru yig'i-sig'ilar orasida quloqqa chalingan so'zlar ma'nosi chaqilganda shu narsa ayon bo'idiki, qudaginasi bu dunyoda topilmas odam bo'lganmish, endi u qaytib kelmasmish, qaytib kelmasligiyam ko'p afsuslanarli ish emasmish, nega deganda, u naq behishtning o'ziga ketganmish, jannatiymish. 6. Toshmurodning buvisi bilan borishga otasi ko'p ro'yuxshlik

bermasa-da, buni ochiq-oydin aytolmas, mayli, hozircha kampirga yonqoziq bo'lib tursin-chi, keyin-keyin qadamini uzib tashlayman, deb xayol qilardi. 7. Boyagi boyagi, boyxo'janing tayog'i ekan - kichik o'g'il mana endi o'ziniyam, yolg'iz qiziniyam, ikkalasidan to'raganlarniyam og'ir kunlarga qoldirib o'tiribdi: u yoqdagilar buni avvalroq bilishganida yanayam boshqacharoq harakat qilisharmidi, kim bilsiti; kechani kecha, kunduzni kunduz demay ko'paytirishgan mol-hollari ham kuyovni begonasirashib, ularning ortidan ketgani yomon bo'ldi; nafsilambrini aytganda, kuyov ham ana shu keyingi safardan ko'proq norozi bo'ldi, avval shod, keyin noshod bo'ldi.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

HOZIRGI O'ZBEK TILIDA YORDAMCHI SO'ZLAR.

REJA:

1. Yordamchi so'zlar va ularning turlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.
2. Yordamchilarning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari.
3. Yordamchilar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Tayanch so'zlar: *mustaqil so'zlar, ma'noviy mustaqillik, grammatik ma'no, grammatik shakl, grammatik vazifa, ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, vazifadosh bog'lovchi, grammatik ma'no, grammatik vazifa, teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar, sof bog'lovchilar, vazifadosh bog'lovchilar, bog'lovchi-yuklamalar, yuklama, grammatik ma'no, grammatik vazifa, so'z yuklamalar, qo'shimcha yuklamalar, o'zgarimaslik, ta'kid yuklamalari, so'roq-taajjub yuklamalari, inkor, sof yuklama, nisbiy yuklama..*

1-mashq. Bog'lovchilarni topib vazifa va ma'nosini lishuntiring.

1. Shumng uchun Sherimbek uning otini orqaga burayotganda Bobur qarshilik qiimadi. 2. Bobur shunday paytda ota yurti Andijonni tashlab ketganini xalq bilsin, undan ixlosi qaytsin. 3. So'nggi gap Fotiina Su ton bilan Qutlug' Nigor xonimga qaratilganligini hamma sezdi. 4. Biroq boyagi shirin orzular hamon xayolini to'liqlantirib, ko'ziga uyqu qo'ndirmaydi. 5. Bobur mirzo sendan faqat ikki yoshga katta bo'lsa ham, agar mening o'rriimda qolsa, sen unga farzanddek sodiq bo'lgin. 6. Lekin u o'tlanib uyiga qaytayotganda sal hovuridan tushdi-yu, Uzun Hasan aytgan so'nggi gaplarda achchiq bir haqiqat borligini sezdi (P.Qodirov). 7. Chunki shohini o'zim eltib berishka ham endi hozirlanib qolg'an cdirn. 8. Siz uyianganda o'zingiz yoqtirib

uylandingizmi voki oradag'ilarning yoqtirishi bilanmi? 9. O'tabboyning muloqoti uchun Musulmonqul ham go'yo hech narsa ko'rmagandek o'rnidan turib uning bilan quchoqlashib ko'rishdi. 10. Mana shuning uchun mundan keyin bizning boshqa bir yo'l bilan ish ko'rmagimiz laqozo qiladilar (A.Qodiriy). 11. Chunki mehmon xon tayinlagan gapni xonning og'zidan qanday chiqqan bo'lsa, shundayligicha yetkazyapti, deb o'yladi. 12. Agar o'ng qo'lning buyru'ini chap qo'l bajarsa, .oyoq miya da"vat etgan tomonga yursa ayb Jbo'lmasa kerak (T.Qaipbergenov). 13. Go'yoki shuncha o'tkan gaplarga qiymat bermagandek. Men buning sirrini endi xo'b bilib oldim, deb qo'ydi. 14. Bilsangiz ham yanglish onglabsiz, chunki buning sirri siz o'ylag'oncha emas (A.Qodiriy).

2-mashq. Berilgan gaplarni o'qing. Ko'makchilarni topib, ma'no va qo'llanishiga ko'ra izohlang.

1. Biz ham jon saqlash uchun harqayonga tarqab qochsakmikin? kinoya bilan so'radi Xo'ja Abdulla (P.Qodirov). 2. Ana undan so'ng Jahongir mirzoning taxtga o'tirishiga hech bir monelik qolmas (P.Qodirov). 3. Shundan so'ng ikkinchi dushmani tuynukdan chiqmayoq ishni bitirdim. 4. Ba'zi ehtimollarga qarshi siz bilan ko'rishmak menga muyassar bo'lmadi. 5. Otabek Musulmonqul otini, uning yirtqichlig'ini yaxshi bilsa ham, ammo shaxsan o'zini ko'rmagan, shuning uchun xonning yonidag'i hoqong'a iltifot etmadi (A.Qodiriy). 6. Haydar bolaning yuzig'a qarab, keyin peshonasiga kaftini bosdi. 7. Jamshidni ko'mib kelishganidan beri, ayniqsa qizi Zaynab o'zini osib qo'yganidan beri Asadbek yursa ham, tursa ham sodiq yigitini o'ylardi. 8. Ammo uning nima uchun to'q mushuk singari o'ljasini o'ynayotganiga tushunmadi. (T.Malik)

3- mashq. Gaplarni o'qing. Yuklamalarni topib, tahlil qiling.

1. Men faqat o'zim chizgan suratga - o'z ijodimga mehr qo'yganmen, xolos! 2. Axir uning yolg'iz o'g'li, suyuqli farzandi Bobur ham mana shu binolarning birida istiqomat qilyaptimi? 3. Eshiklari nafiso'ymakorliklar bilan bezangan, ichidagi oltin-kumush buyumlar ko'zni qair.asbtiradigan ko'shkda hozir Boburni faqat bitta xona o'ziga tortar edi. 4. Bobur endi otasini umrbod ko'rolmasligini butun vujudi bilan his qildi-yu, achchiq judolik tuyg'usi birdan lining borlig'ini toMdirib, ko'zlaridan yoqasiga yosh bo'l lib tom-di. 5. Yo'l bo'yidagi darvozaning bir tavaqasi sekin ochildi-vu, uridan katta cho'va ko'targan pakana odam chiqdi. 6. Faqat xipcha qomati va hali uncha to'lishmagan yelkalari endi o'n besh yoshga kirganini eslatib turardi. 7. Bobur bu so'zlarni shunday kuyunib, alami kelganini yashirolmay lablari titrab avtdi-ki, uning hali ham juda yosh ekanligi birdan bilinib qoldi. 8. Bobur O'shda o'zi qiudirgan kichik bir hujradan bugun qanchalik zavq olganini esladi-yu, onasi bilan opasining ttiaklarini qo'Hab-quvvatlagisi keldi (P.Qodirov).

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.

9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

O'ZBEK TILIDA SO'Z GAPLAR: TIZIMI, TURLARI VA SUBSTANSIONAL-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.

REJA:

1. So'z-gaplar va ularning turlari
2. So'zgaplarning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari.
3. So'z gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.

Tayanch so'zlar: *yordamchi so'z, so'z-gap, tasvir birliklari, grammatik ma'no, grammatik vazifa, tasdiq so'zlar, inkor so'zlar, taklif so'zlar*

1-mashq. Gaplarni o'qing. modal so'zlarni topib, ma'nosiga ko'raturini tahlilqiling.

1. Chunonchi, uy ishlarining hammasini - to kir yuvishgacha -bolalarning o'zlari qiladilar (Cho'lpon). 2. Chunki darboza taqqillatib, otini hurkitkan Hasanalmi jallodg'a topshirish niyati, albatta yo'q emas edi. 3. Taqsir ... cbaqirishingiz albatta fuqaroning tinchlig'i, raoyoning rohati, hukumatning barqaror turmog'i uchundir. 4. Darhaqiqat, aqldan ozib ko'chalarda ochiq kezish va kishanga tushishning o'zi ham Zaynab uchun kichkina jazo deb hisoblanmas edi. 5. Bas, ayb qipchoqda emas, balki uning mantaati shaxsiyasi yo'lida ish ko'rguchi. boshliqlarida va qipchoqiar o'ylag'andek gunoh qora choponlarda bo'lmay. balki uning uch-to'rt ma'nisiz beklarida! ... 6. Haqiqatdan ham, shayx xalq birligi buzilmasin deb, toshbo'ron qilishga hukm etdi-yu, keyiniga o'zi ham qiyomatlik do'slim O'razan botir qaytib kelganida nima javob qilaman, deb hayron edi.

2-mashq. Gaplarni o'qing. Taqlidiy so'zlarni **topib** ma'nosiga ko'ra guruhlariga ajratib yozing vato'liq lahlil qiling.

I. Mashriq tomon **bilinar-bilinmas** oqara **boshlagan, lekin** osmon lianuz g'uj-g'uj yulduzlarga to'la edi. 2. Urgut tog'laridan g'ir-g ir shabada esib turgan, ilk bahor oqshomi cdi. 3. Xurshida bonu shahzodaning sarak-sarak qilgan boshi, dir-dir titragan uzun nimjon gavdasi esiga tushdi-yu tirnoqlarigacha zirqirab ketdi. 4. Ali Qushchi nechundir yuragi gurs-gurs urib, qoyaga tirmashdi, 5. Shamol kuchayib, bulutlar tarqagan, osmon g'uj-g'uj yulduzlarga to'lib ketgan edi. 6. Uning iyagi qandaydir osilib qolgan, tishlari bir-biriga tegmay shaq-shaq qilar, dir-dir titragan nogiron, qoqsuyak vujudi, yonib turgan ko'zlari shunday vahimali va ayanchli ediki. Mirzo Abdullatif qilichini mahkam ushlaganicha, beixtiyor orqaga tisarildi. 7. Mavlono Muhiddin, go'yo bu noxush xabardan ezilib ketayotganday, boshini velkalari orasiga olib, g'ujanak bo'lib o'tirardi. 8. Bog'da, tog' etagidagi xushbo'y archazorlarda shoxlari qulochga sig'maydigan oq arxarlar. o'ynoqi kiyikchalar. ko'zlari ma'sum ohular gala-gala bo'lib yurardi. 9. Ichkarida gurs-gurs oyoq tovushi eshitildi. Sal o'tmay eshik qiyg'och ochilib, beliga qilich osgan qora barzangi yigit koTindi. 10. Atrofdagi turganlarning tillari tanglaylariga yopishib, yuraklari gup-gup ura boshladi. 11. Amir Jondor barvasta gavdasiga mos tushmagan bir thaqqonlik bilan apil-tapil o'rnidan turib, bosh egdi. 12. Shunda Ulug'bek yana boyagiday yuragi gup-gup urib, javob berdi. 13. Mirzo Ulug'bek yaqinlashayotgan oyoq tovushini eshitib ko'zini ochdi, ochdi-yu tubsiz osmon qa'rida, tez uchib o'tayotgan qora bulutlar orasida milt-milt yongan yulduzlarni

ko'rdi. 14. Yomg'irda cho'milgan ko'm-ko'k barra maysalar g'ir-g'ir esgan tong shabadasida mayin chayqalar, go'yo ipakday tovlanib, kishining ruhini erkalar edi. (O.Yoqubov)

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шахобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Hozirgi o'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

KOMPLEKS MORFOLOGIK TAHLIL

Berilgan gaplardagi so'zlarni quyidagi belgilari bo'yicha morfologik tahlil qiling

1. Turkumi.
2. UGMsi
3. Ma'no turi.
4. Grammatik shakllari
5. Grammatik turi.
6. Tarkibi
7. Tuzilishi.

1. Ustoz Oybek to'g'risida bilganlarimni yozmoqchiman Ammo har gal jazm qilganimda jur'atsizlik qo'limni qaytaradi (S.Ahmad). 2. Ikkalasi vuzlari vulduzday charaqlagani holda. darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zebining «Qora sochim» kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi (Cho'lpon). 3. Sarsoriboy ota otini ilgarilari shu ustunlardan biriga bog'lab qo'yardi (O'.Umarbekov). 4. Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hoi so'ragan edi (O'.Hoshimov). 5. Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqandav, zamon qalqiganidan buyon yomon ko'paydi (O'.Hoshimov). 6. Xadicha allaqachon uyga kirib ketibdi (O'.Hoshimov). 7. Barcha daliljar, toshlar kosmosdan tushganini ko'rsatadi (H.Shayxov). 8. U!ar hayot otlig' mo''jizaga aylanganicha, uchqur xayollaru sho'x shamollarga, avtobusu tramvaylarga qo'shilib ayovsiz o'tib bormoqda (E.A'zain). 9. Yigitali ularni taniraadi. Lekin ust-boshlarining o'ziyoq ularning kimligi, bu yerga nimaga kelishayotganini anglatadi (T.Malik). 10. - Men avval ko'zingni davolamoqchiman. Shunda sen oq bilan qorani farq qiladigan bo'lib, ikkinchi marta kuygan non yemaydigan bo'lasan (Kalila va Dimna). 11. U - devday bir erkak bo'lsa, men bir siqim joni bor qiz bo'lsam? 12. Har qalay, ertaga xudo poshsho, egam... Bugunning maslahatidan keling. 13. Shashtini qaytarsam ... Hovliqishini bossam. 14. - Bo'lmasa «yo'q» deng. Saltanatxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi. 15. O'rus tilini bilarmidiki, amaldorlar, sudlar bilan chiqishsa? 16. - Aylanay mehrnon, kimdan xafa bo'lib

tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog'ingizni ochsangizchi! Yorug' dunyoga keldingiz! Shukur qiling, sevining! Mundoq bir kulung' Kulumsirang? Ijaying! 17. Men omi bo'lsam.. savodim bo'lmasa, oq-qorani tanimasam, u kishi mulla bo'lsa, zabardast bo'lsa, xudoning buyrug'ini tushunsa, shariatni, tariqatni suvday bilsa... nima deyman? 18. Haligacha oz topgan bo'lsa, mundan nari ko'p topar. 19. Undan keyin sizning dasturxonigizni solib, qo'lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizmatigizni qilib yotardim. Xoh ishonig, xoh ishonmang! 20. Biznikiga bir kirib chiqing. (Cho'ipon)

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. Т., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Ҳозирги о'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

Adabiyotlar:

1. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш. ва б. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. - Т.: XXI аср авлоди, 2001.
2. Сайфуллаева Р. ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Т., 2009.
3. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М. ва б. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1980.
4. Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек тили. - Т.: Ўқитувчи, 1989.
5. Ўзбек тили грамматикаси. 1-том. - Т.: Фан, 1975.
6. Нурмонов А. Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. - Т.: Ўқитувчи, 1993.
7. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. Т., Universitet 2002.
8. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясашининг назарий масалалари. - Т.: Фан, 2010.
9. Ҳозирги о'zbek tili fanidan mashqlar to'plami. (tuzuvchilar: M. Asqarova, R. Yunusov, M. Yo'ldoshev) . – Toshkent, 2007.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

«TASDIQLAYMAN»

O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

_____ b.f.n., dots. D.Dehqanov

«__» _____ 2019 yil

“HOZIRGI O‘ZBEK TILI”

fanining

ISHCHI O‘QUV DASTURI

2019/2020 o‘quv yili kunduzgi ta‘lim shakli 2-kurslari uchun

Bilim sohasi:	100000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi:	120000 – Gumanitar fanlar
Bakalavriat yo‘nalishi:	5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek filologiyasi)

NAMANGAN – 2019

Ishchi fan dasturi Oliy va oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi yoʻnalishlari boʻyicha oʻquv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018-yil 21-noyabrdagi 5-sonli bayonnomasi bilan maʼqullangan dastur asosida ishlab chiqildi. Namunaviy dastur Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2018-yil 7-dekabrdagi 1000-sonli buyrugʻi bilan maʼqullangan.

Tuzuvchi:

PhD. U.Qoʻziyev

Fanning ishchi oʻquv dasturi oʻzbek tili va adabiyoti kafedrasining 2019 yil __- avgustdagi 1-sonli yigʻilishida muhokamadan oʻtgan va fakultet kengashida koʻrib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

f.f.d., prof.N.Uluqov

Ishchi oʻquv dastur filologiya fakultetining 2019 yil __-avgustdagi 1-sonli Kengashida koʻrib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet kengashi raisi:

Q.Sidiqov

Kelishildi:

Oʻquv-uslubiy boshqarma boshligʻi v.v.b.:

Z.Moʻminov

KIRISH

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika yo'nalishida maxsus sirtqi bo'limlarni tashkil etish to'g'risida PK -3183-sonli qarorida ta'lim muassasalarining maktabgacha, boshlang'ich, musiqa, tasviriy san'at, chet tillari, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya yo'nalishlari va boshqa fanlar bo'yicha oliy ma'lumotii pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, tumanlar va qishloq joylardagi ta'lim muassasalarini yuqori malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash hamda ularni tayyorlash tizimini joylarda tashkil etishni yanada takomillashtirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash maqsadida Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti qoshida ham maxsus sirtqi tashkil etilgan bo'lib, unda umuta'lim va o'rta-maxsus ta'lim sohasi uchun o'zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha yetuk pedagog kadrlar sonini oshirish ko'zda tutilgan.

Shu nuqtayi nazardan, bugungu kunda o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabalariga hozirgi o'zbek adabiy tili fonetikasi, leksikasi, grammatikasini jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chuqur o'rgatish muhim ahamiyatga ega.

II. Fanning maqsad va vazifalari.

"Hozirgi o'zbek tili" kursi ta'limining maqsadi Davlat ta'lim standartlari asosida bo'lajak filologlarga hozirgi o'zbek tilining lisoniy qurilishi va imkoniyatlari hamda ularning nutqiy qo'llanilishi masalalari bo'yicha sistemali ilmiy-nazariy ma'lumot berishdan iborat bo'lib, ta'lim oluvchilarda qayd etilgan masalalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

III. Fan bo'yicha talabning malakasiga qo'yiladigan talablar

"Hozirgi o'zbek tili" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr hozirgi o'zbek tilining shakllanish tarixi, shevalarga munosabati, lisoniy sathlari, lisoniy paradigmalari, lisoniy birliklarining substansial imkoniyatlari, lisoniy munosabatlar, lisoniy tasnif asoslari, lisoniy birliklari substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, imlo qoidalari va talaffuz me'yorlari, fonetikasi, leksikasi, morfemikasi, so'z yasalishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi haqida tasavvurga ega bo'lishi ko'zda tutildi. SHuningdek, hozirgi o'zbek tili sathlari va ularning birliklarini farqlash tamoyillarini, lisoniy munosabat hamda uning turlarining ilmiy asoslarini, lisoniy birliklar substansial imkoniyatlarini aniqlash usullarini, fonetik, leksik, grammatik imkoniyatlarini aniqlash asoslarini, substansial imkoniyatlarining nutqiy voqelanishida lisoniy, shaxsiy va pragmatik omillar roli va hamkorligining ilmiy asoslarini, imlo, talaffuz va punktuatsiyasi me'yorlarining ilmiy mezonlarini bilishi va ulardan foydalana olishi malakasini egallashlari ta'limning hal qiluvchi vazifalaridir. Pirovardida hozirgi o'zbek tilida lison, nutq hamda ular birliklarini

farqlash asoslarini sharhlay olish, lisoniy va nutqiy birliklarini ajratish mezonlarini tushuntira olish, birliklar orasidagi lisoniy munosabatlarni tavsiflay olish, lisoniy imkoniyatlarini nutqiy vaziyat va sharoitga bog‘liq ravishda samarali ishga solish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Farmonda ta'kidlaganidek, “Eng avvalo, ona tilimizning qo‘llanish doirasini kengaytirish, uning tarixiy ildizlarini chuqur o‘rganish va ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish bugungi kunda o‘ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, fundamental fanlar, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, harbiy ish va shu kabi o‘ta muhim tarmoqlarda o‘zbek tili o‘zining haqiqiy o‘rnini egallashiga erishish, shu maqsadda zamonaviy darsliklar, etimologik va qiyosiy lug‘atlar yaratish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish oldimizda muhim vazifa bo‘lib turganini qayd etish lozim. Mazkur vazifadan kelib chiqqan holda fanni o‘qitishning maqsadi terminologiya sohasining predmeti, maqsadi va vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masallarning mazmun-mundarijasini belgilash, hozirgi o‘zbek tilining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek tili, hozirgi o‘zbek tili va mustaqillik davri hozirgi o‘zbek tilining shakllanishi va rivojlanishiga turtki bo‘lgan ijtimoiy shart- sharoit va omillar, terminlar tizimining taraqqiy etishida o‘zbek tili qatori boshqa tillarning salmoqli o‘rni, terminlarning yasaliq qoliplari, terminologik izlanishlar, istiqloq yillari hozirgi o‘zbek tilida yuz bergan jarayonlar haqida ma'lumot berishdan iborat. Fanni o‘qitishda “Hozirgi o‘zbek tili” fanining vujudga kelishi va rivojlanishi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash, talabalarda hozirgi o‘zbek tili bo‘yicha boshlang‘ich bilim ko‘nikmalarini hosil qilish, jamiyatda ro‘y beradigan har qanday o‘zgarishlarning terminologiyada yaqqol ifodasini topishi, hozirgi o‘zbek tili tizimining dastlab qadimgi turkiy til bitiklarida ko‘zga tashlanishi, uning eski turkiy til va eski o‘zbek tilida miqdor va sifat jihatidan o‘sib borishi, hozirgi o‘zbek adabiy tilida tub o‘zgarishlarga uchragani, terminologik tizimning sof turkiy (o‘zbekcha) hamda o‘zlashma qatlamlardan iboratligi, terminlarning struktur-grammatik qurilishi haqida bilim berish vazifalarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

Umumiy va o‘quv ishlari turlari bo‘yicha hajmi

Fanga 2-kurslar uchun umumiy 108 soat ajratilgan, bir semestr – 7-semestrda o‘tiladi. Shundan auditoriya mashg‘ulotlari 60 soat bo‘lib, semestr davomida haftasiga 6 soatdan o‘tiladi.

Semestr	Auditoriya mashg‘ulotlari turi bo‘yicha o‘quv yuklamasi taqsimoti (soat)				Mustaqil ish
	Jami	Ma‘ruza	Amaliy mashg‘ulot	Seminar	
3-semestr	66	18	10	10	28
4-semestr	90	26	12	12	40
Jami	156	44	22	22	68

III. Asosiy nazariy qism (ma‘ruza mashg‘ulotlari)

Ma‘ruza mashg‘ulotlari mazmuni va unga ajratilgan soatlar

3-semestr

T/r	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soatlar
1	O'zbek tili morfemikasi	Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: derivatsion va grammatik morfemalar. Derivatsion morfemaning turlari. Grammatik morfemaning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar.	2
2	Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari.	Morfemalarda shakl va ma'no munosabatlari. Morfema lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.	2
3	O'zbek tili derivatsiyasi	So'z yasash qolipi. So'z yasash qolipi UMIS, yasama so'z YaXVO sifatida. So'z yasash qolipining turlari. Unumli qoliplar. Unumsiz qoliplar. Mahsuldor va kammahsul qoliplar.	2
4	So'z yasash qolipi. Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari.	Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi. Yasama so'z taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari. So'z turkumlarida yasaliş va yasama so'zlarning leksemalashishi.	2
5	O'zbek tili morfologiyasi. Grammatik shakl va grammatik ma'no.	Grammatikaning tarkibiy qismlari. Morfologiya. Grammatik shakllangan so'z morfologiyaning birligi sifatida. O'zbek tilida leksemani grammatik shakllantiruvchi vosita va uning turlari. Grammatik ma'no, uning turlari: morfologik va sintaktik ma'no, umumiy, oraliq va xususiy grammatik ma'no, kategorial, yondosh va hamroh ma'no, ularning xususiyatlari va turlari.	2
6	O'zbek tili grammatik (morfologik) kategoriyalari va ularning turlari.	Lug'aviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.	2

7	Hozirgi o'zbek tilidagi so'z turkumlari. Mustaqil so'zlar.	So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari. So'zlarni turkumlash tamoyillari, tasnif asoslari. Mustaqil so'z turkumlari, ularning o'rganilish tarixiga sharh. Mustaqil so'z turkumlarining xususiyatlari, tiplari: o'zgaruvchi va o'zgarmas turkumlar, g'ayrioddiy ma'noli turkumlar (olmosh, taqlid). Mustaqil so'z turkumlari tartibi.	2
8	Fe'l so'z turkumi.	Fe'ning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Fe'ning umumiy grammatik ma'nosi. Fe'ning lug'aviy-grammatik guruhlari. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'ning nutqdagi turlari: tuslangan va tuslanmagan ko'rinishlari; tuzilish turlari, to'liqsiz fe'llarning so'z turkumlari sistemasidagi o'rni.	2
9	Fe'ning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari	Fe'ning o'zgalovchi kategoriyasi va uning shakllari. Sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, ravishdosh. Fe'ning harakat tarzi kategoriyasi. Ularning shakllari tizimi, kategoriya umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.	2
JAMI			18

4-semestr

T/r	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soatlar
1	Ot so'z turkumi.	Ot va uning o'rganilish tarixi. Otning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik ma'nosi. Otning lug'aviy-grammatik guruhlari. Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik ma'nosi. Son kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. Otning nokategorial shakllari.	2
2	Sifat so'z turkumi.	Sifat va uning o'rganilish tarixi. Sifatning mustaqil so'z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lug'aviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar. Sifatning tasniflovchi kategoriyasi va nokategorial shakllari. Daraja sifatning	2

		tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.	
3	Son so`z turkumi.	Son va uning o'rganilish tarixi. Sonning mustaqil so`z turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lug'aviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lug'aviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.	2
4	Ravish so`z turkumi.	Ravish va uning o'rganilish tarixi. Ravishning mustaqil so`z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik ravishning grammatik belgisi sifatida. Ravishning lug'aviy-grammatik guruhlari.	2
5	Taqlid so`zlar.	Taqlid va uning o'rganilish tarixi. Taqlidning mustaqil so`z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. O'zgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lug'aviy-grammatik guruhlari.	2
6	Olmosh so`z turkumi.	Olmosh va uning o'rganilish tarixi. Olmoshning o'ziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil so`z turkumi sifatidagi o'ziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi o'рни. Sintaktik imkoniyatlari.	2
7	So`z turkumlarining ko'chishi	So`z turkumlarida ko'chish hodisasi. Transpozitsiya hodisasi. Konversiya hodisasi va polifunksionallik.	2
8	Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari	Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari. Egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi. Sintaktik shakllarning turli so`z turkumlarida qo'llanish imkoniyatlari. Shakllar umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.	2
9	Kesimlik	Kesimlik shakllari paradigmasi. Ularning	2

	kategoriyasi murakkab kategoriya sifatida	umumiy grammatik ma'nosi. Kesimlik shakllarining turli mustaqil so'z turkumlarida qo'llanish xususiyatlari. Kesimlik kategoriyasi murakkab kategoriya sifatida. Kesimlik kategoriyasining tarkibi (shaxs-son, zamon, tasdiq/inkor, modallik kategoriyalari), uning shakllari paradigmasi. Kesimlik kategoriyasi grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Bog'lama.	
10	Hozirgi o'zbek tilida yordamchi so'zlar. Ko'makchilar	Yordamchilarning o'rganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ko'makchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.	18
11	Bog'lovchilar	Bog'lovchilarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Bog'lovchilar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.	
12	Yuklamalar	Yuklamalar. Yuklamalarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yuklamalar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligi.	
13	O'zbek tilida so'z gaplar: tizimi, turlari va substansional-grammatik xususiyatlari	So'z gaplar, ularning o'rganilish tarixi, tizimi, turlari va substansional-grammatik xususiyatlari. So'z gaplarning xususiyatlari, tiplari va turlari. So'z gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.	
			26

Amaliy mashg'ulotlar taqsimoti

T/r	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soatlar
1	Morfemik tahlil	Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: derivatsion va grammatik morfemalar. Derivatsion morfemaning turlari. Grammatik morfemaning turlari: lug'aviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar bo'yicha mashq tahlil qilish.	2
2	So'z yasalish tahlili	Yasama so'zlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama so'z nutqiy, yasalgan so'z lisoniy hodisa ekanligi. Yasama so'z	2

		taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari. Soʻz turkumlarida yasaliş va yasama soʻzlarning leksemalashishi boʻyicha mashq tahlil qilish.	
3	Grammatik maʼno turlari boʻyicha mashq	Grammatik maʼno, uning turlari: morfologik va sintaktik maʼno, umumiy, oraliq va xususiy grammatik maʼno, kategorial, yondosh va hamroh maʼno, ularning xususiyatlari va turlari boʻyicha mashq tahlil qilish.	2
4	Feʼlning grammatik lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha mashq	Feʼlning umumiy grammatik maʼnosi, Feʼlning lugʻaviy-grammatik guruhlari, oʻtimli va oʻtimsiz feʼllar. Feʼlning nutqdagi turlari: tuslangan va tuslanmagan koʻrinishlari; tuzilish turlari, toʻliqsiz feʼllar boʻyicha mashq tahlil qilish.	2
5	Feʼl tahlili	Feʼlning tasniflovchi kategoriyalari. Feʼlning oʻzgalovchi kategoriyasi va uning shakllari. Feʼlning harakat tarzi kategoriyasi. Ularning shakllari tizimi, kategoriya umumiy grammatik maʼnosining nutqiy voqelanishi boʻyicha mashq tahlil qilish.	2
			10
4-semestr			
1	Otning grammatik lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha mashq	Otning lugʻaviy-grammatik guruhlari, otning tasniflovchi kategoriyasi, son kategoriyasi va uning shakllari boʻyicha mashq bajarish. Test ishlash	2
2	Sifat va sonlarning grammatik lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha mashq	Sifatning lugʻaviy-grammatik guruhlari, uning tasniflovchi kategoriyasi, daraja kategoriyasi va uning shakllari boʻyicha mashq bajarish. Test ishlash. Sonlarning grammatik lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha mashq	2
3	Ravish va taqlidlarning grammatik lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha mashq	Ravishning lugʻaviy-grammatik guruhlari, uning tasniflovchi kategoriyasi, daraja kategoriyasi va uning shakllari boʻyicha mashq bajarish. Test ishlash Taqlidlarning grammatik lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha mashq	2
4	Olmosh, uning grammatik	Olmosh, uning grammatik lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha	2

	lugʻaviy xususiyatlari va lugʻaviy shakllari boʻyicha mashq. Sintaktik kategoriyalar boʻyicha mashq	mashq bajarish. Sintaktik kategoriyalar boʻyicha mashq. Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari. Egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi. Sintaktik shakllarning turli soʻz turkumlarida qoʻllanish imkoniyatlari. Shakllar umumiy grammatik maʼnosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uygʻunlashuvini oʻrgatish.	
5	Yordamchi soʻzlar tahlil	Yordamchilarning oʻrganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Koʻmakchi lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi boʻyicha mashq bajarish. Test ustida ishlash.	2
6	Soʻz-gaplar boʻyicha mashq	Soʻz gaplarning oʻrganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Soʻz gaplar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi boʻyicha mashq bajarish. Test ustida ishlash.	2
	Jami		12

Seminar mashgʻulotlar taqsimoti

T/r	Mavzular	Qisqacha mazmuni	Soatlar
1	Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari	Morfema morfemika birligi sifatida. Morfemaning leksemaga munosabati. Morfemaning xususiyatlari, variantlari, tiplari: derivatsion va grammatik morfemalar. Derivatsion morfemaning turlari. Grammatik morfemaning turlari: lugʻaviy shakl hosil qiluvchi morfemalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi morfemalar.	2
2	Yasama soʻz taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari.	Soʻz yasash qolipi. Soʻz yasash qolipi UMIS, yasama soʻz YaXVO sifatida. Soʻz yasash qolipining turlari. Unumli qoliplar. Unumsiz qoliplar. Mahsuldor va kammahsul qoliplar. Yasama soʻzlarning xususiyatlari, tiplari va turlari. Yasama soʻz nutqiy, yasalgan soʻz lisoniy hodisa ekanligi. Yasama soʻz	2

		taraqqiyotida ixtisoslashish, soddalashish, tublashish hodisalari. Soʻz turkumlarida yasaliş va yasama soʻzlarning leksemalashishi.	
3	Oʻzbek tili grammatik (morfoloqik) kategoriyalari va ularning turlari.	Lugʻaviy shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, lugʻaviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar, sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar. Grammatik shakl lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unga taʻsir qiluvchi lisoniy (leksik, sintaktik) va nolisoniy (nutqiy vaziyat, sharoit, shaxsiy sifatlar va b.) omillar hamkorligi.	2
4	Feʻl soʻz turkumi.	Feʻlning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Feʻlning umumiy grammatik maʻnosi. Feʻlning lugʻaviy-grammatik guruhlari. Oʻtimli va oʻtimsiz feʻllar. Feʻlning nutqdagi turlari: tuslangan va tuslanmagan koʻrinishlari; tuzilish turlari, toʻliqsiz feʻllarning soʻz turkumlari sistemasidagi oʻrni.	2
5	Feʻlning harakat tarzi kategoriyasi murakkab tarkibli kategoriya sifatida.	Feʻlning tasniflovchi kategoriyalari. Feʻlning oʻzgalovchi kategoriyasi va uning shakllari. Feʻlning harakat tarzi kategoriyasi. Ularning shakllari tizimi, kategoriya umumiy grammatik maʻnosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.	2
	Jami		10
1	Ot soʻz turkumi.	Ot va uning oʻrganilish tarixi. Otning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Otning umumiy grammatik maʻnosi. Otning lugʻaviy-grammatik guruhlari. Otning tasniflovchi kategoriyasi. Son kategoriyasi va uning shakllari. Son kategoriyasi va shakllarining umumiy grammatik maʻnosi. Son kategoriyasi umumiy grammatik maʻnosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillar munosabati. Otning nokategorial shakllari.	2
2	Sifat soʻz turkumi.	Sifat va uning oʻrganilish tarixi. Sifatning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sifatning lugʻaviy-grammatik guruhlari. Asliy va nisbiy sifatlar. Sifatning tasniflovchi kategoriyasi va nokategorial shakllari. Daraja sifatning tasniflovchi kategoriyasi sifatida. Daraja	2

		kategoriyasi umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Sifatning nokategorial shakllari: kuchaytirma va ozaytirma shakllari.	
3	Son soʻz turkumi va ularning .	Son va uning oʻrganilish tarixi. Sonning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi umumiy grammatik xususiyatlari. Sonning lugʻaviy-grammatik guruhlari va tasniflanishi. Son grammatik shakllarining lugʻaviy ma'noga ta'sir qilish imkoniyatlari. Son shakllari umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi. Numerativlar. Numerativli birikuvlarning qoliplari.	2
4	Taqlid soʻzlar. Olmoshlar	Taqlid va uning oʻrganilish tarixi. Taqlidning mustaqil soʻz turkumi sifatidagi oʻziga xos grammatik xususiyatlari. Oʻzgarmaslik taqlidning grammatik belgisi sifatida. Taqlidning lugʻaviy-grammatik guruhlari. Olmosh va uning oʻrganilish tarixi. Olmoshning oʻziga xos ishoraviy (deyktik) tabiati, mustaqil soʻz turkumi sifatidagi oʻziga xos grammatik xususiyatlari. Olmoshlarning matndagi oʻrni. Sintaktik imkoniyatlari.	2
5	Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari	Sintaktik shakl hosil qiluvchi kategoriyalar va ularning turlari. Egalik, kelishik va kesimlik kategoriyasi. Ularning umumturkumiy va sintaktik vazifa uchun xoslangan kategoriyalar ekanligi. Sintaktik shakllarning turli soʻz turkumlarida qoʻllanish imkoniyatlari. Shakllar umumiy grammatik ma'nosining nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning uyg'unlashuvi.	2
6	Yordamchi soʻzlar. Oʻzbek tilida soʻz gaplar	Yordamchilarning oʻrganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Yordamchilar lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi. Soʻz gaplarning oʻrganilish tarixi, xususiyatlari, tiplari va turlari. Ular lisoniy imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi, unda lisoniy va nolisoniy omillar hamkorligi.	2
			12

MUSTAQIL ISH MAVZULARI VA SHAKLLARI

No	Mavzu nomi	TMI shakli	Soati
3-semestr			
1	O'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyasi talqini	Ilmiy ma'ruza tayyorlash	4
		Slayd tayyorlash	1
		“O'zbek tili va adabiyoti” jurnali maqolalarini o'rganish	5
		“Til va adabiyot ta'limi” jurnali maqolalarini o'rganish	4
2	O'zbek tilshunosligida umumiy va xususiy grammatik ma'no tavsifi	Grafikli organayzerlar tayyorlash	4
		“O'zbek tili va adabiyoti” jurnali maqolalarini o'rganish	5
		“Til va adabiyot ta'limi” jurnali maqolalarini o'rganish	5
			28
4-semestr			
1	O'zbek tilshunosligida egalik kategoriyasining o'rganilishi	Lingvistik masalalar tayyorlash Ilmiy ma'ruza tayyorlash Slayd tayyorlash “O'zbek tili va adabiyoti” jurnali maqolalarini o'rganish	10
	O'zbek tilshunosligida grammatik kategoriyasi talqini		
2	O'zbek tilshunosligida zamon kategoriyasining formal tadqiqi	“Til va adabiyot ta'limi” jurnali maqolalarini o'rganish	10
3	O'zbek tilshunosligida nisbat kategoriyasining o'rganilishi.	Grafikli organayzerlar tayyorlash Internet materillari bilan tanishish	10
4	O'zbek tilshunosligida grammatik shakllar tasnifi		10
	Jami		28

Kurs ishlari 1-kursning 2-semestriga mo'ljallangan.
NamDU filologiya fakulteti – 5120100 o'zbek tili yo`nalishi 2-kurs talabalari
uchun “Hozirgi o'zbek tili” (morfemika, so'z yasalishi, morfologiya) fanidan
oraliq nazorat savollari

1. Derivatsiya.
2. Affiksial morfemalar.
3. Affiksial morfemalarning fonologik strukturasi.
4. Affikslarda shakl va ma'no munosabati.
5. Affikslardagi tarixiy o'zgarishlar.
6. Affiksoidlar.
7. Agglutinatsiya.
8. Derivatsion sinonimiya
9. Derivatsion antonimiya
10. Derivatsion omonimiya
11. Derivatsion polisemiya.
12. Fleksiya.
13. Fonetik hodisalar va morfema.
14. Fonomorfologiya bo'limi.
15. Fuziya.
16. Grammatik kategoriya.
17. Grammatik ma'no.
18. Grammatik morfema.
19. Grammatik shakl.
20. Grammatik sinonimiya
21. Ichki fleksiya.
22. Kategorial shakl yasovchilar.
23. Morfem ma'no va uning o'ziga xos xususiyatlari.
24. Morfema va allomorf.
25. Morfema variantlari
26. Morfemalar va valentlik nazariyasi.
27. Morfemalarning funksional-semantik tasnifi
28. Morfemalarning turlari.
29. Morfemaning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turi.
30. Morfemaning struktur tasnifi.
31. Morfemik antonimiya
32. Morfemik sinonimiya.
33. Morfemik omonimiya
34. Morfemik paradigma.
35. Morfemik polisemiya
36. Morfemik sinonimiya
37. Morfemik va morfologik asos tushunchalari.
38. Morfemik va morfologik tarkib.
39. Morfemika haqida ma'lumot.
40. Morfemika va morfonologiya munosabatlari.
41. Morfologik qayta bo'linish.

42. Morfonema
43. Morfonema.
44. Morfonologik alternatsiyalar.
45. Morfonologiya
46. Murakkablashuv.
47. Nokategorial shakl yasovchilar
48. O`zak morfemalarning fonologik strukturasi.
49. Pleonazm va uning turlari.
50. Qo`shimchalarning agglutinativ tabiati.
51. Shakl yasovchi affikslar va ularning turlari.
- 52.** So`z turkumlarida so`z yasalishi.
53. So`z yasalishining til qurilishidagi o`rni.
54. So`z yasash qolipi.
55. So`z yasash tiplari.
56. So`z yasash usullari.
57. So`z yasashda zamonaviylik va tarixiylik.
58. So`z yasovchi affikslarning o`ziga xos xususiyatlari.
59. So`zning morfem tuzilishi
60. So`zning morfema tarkibidagi o`zgarishlar
61. So`zning morfologik tarkibi
62. So`z yasalishining analitik usuli
63. So`z yasalishining semantik usuli
64. So`z yasalishining sintetik usuli
65. So`zdagi fonetik o`zgarishlar sabablari.
66. Soddalanish.
67. Soddalashish sabablari.
68. Yetakchi morfemaning tuzilishiga ko`ra turlari.
69. Yordamchi leksemalar (bog`lovchi, ko`makchi, yuklama, ko`makchi fe'l) va affiksial morfemalar munosabati.

**NamDU filologiya fakulteti – 5120100 o`zbek tili yo`nalishi 2-kurs talabalari
uchun “Hozirgi o`zbek tili” (morfemika, so`z yasalishi) fanidan yakuniy
nazorat savollari**

1. Abbreviatura
1. Adyektivatsiya
2. Aktant
3. Anqlik mayli
4. Asl (sof) ko`makchilar
5. Asliy sifatlar
6. Atoqli otlarning ma`no turlari
7. Affiks ko`rinishli yuklamalar
8. Affiks-ko`makchi
9. Bog`lovchilarning vazifa jihatidan turlari
10. Valentlik
11. Valentlikning turlari

12. Verbalizatsiya
13. Vositali semantik valentlik turlari
14. Grammatik birlik turkumlari
15. Grammatik turkumlar
16. Grammatikalashish
17. Deminutiv
18. Derivatsion indeks
19. Dinamik fe'llar
20. Yordamchi so'zning shakliy xususiyatiga ko'ra turlari.
21. Yetakchi turkum
22. Jisimiy (konkret) va fikriy (abstrakt) otlar
23. Intensiv forma
24. Infinitiv
25. Kategorial ko'rsatkichlar
26. Kauzativ
27. Kesimlik leksemalari turkumi
28. Konversiya
29. Konnektiv kategoriyalar turlari
30. Ko'makchi ot
31. Ko'makchi fe'llarning o'ziga xos xususiyatlari
32. Ko'makchining shakliy xususiyatiga ko'ra turlari
33. Ko'plik ma'nosining ifodalanishi
34. Ko'plik son
35. Kuchaytiruv morfemalari
36. Leksema ko'rinishli yuklamalar
37. Leksemalarning sintaktik tasnifi
38. Leksema-morfemalar
39. Leksemashakl tarkibi
40. Leksemashakl tarkibiga kiradigan morfema
41. Leksik-semantik valentlik turlari
42. Lug'aviy birlik turkumlari guruhi
43. Mayl kategoriyasi
44. Mantiqiy miqdor va grammatik miqdor munosabati
45. Mantiqiy-semantik valentlik
46. Modal ma'no
47. Modallarning kelib chiqishi
48. Morfologik proformalar
49. Morfologik tasnif
50. Morfologiya
51. Morfonema
52. Morfonologiya
53. Mustaqil turkum
54. Nisbat shakllari
55. Nisbatlash morfemalari
56. Nisbiy yordamchi so'z

57. Nisbiy ko'makchi
58. Nisbiy sifat
59. Nol (0) morfema
60. Olmoshlovchi turkum
61. Oraliq uchinchi kategoriyasi
62. Ot turkumi leksemasiga xos noparadigmatik affikslar
63. Otning tasniflovchi kategoriyalari.
64. Otning funksional shakllari
65. Otning xususiy lug'aviy shakllari
66. Partitiv ma'no
67. Pleonazm
68. Prefiksal indeks
69. Ravishlarda shakl yasalishi
70. Ravishlarning affiksal yasalishi muammosi
71. Rus grammatikasi ta'sirida yuzaga kelgan shakllar
72. Semantik agentiv fe'llar
73. Semantik valentlik turlari
74. Signifikat
75. Sintaktik sema
76. Sintetik tillar
77. Sintetik shakl
78. Sifatda aloqa-munosabat kategoriyalarining voqelanishi
79. Son turlari
80. Sonlar tarkibidagi o'zgarishlar
81. Sonlash morfemalari
82. Statik fe'llar
83. Subparadigma
84. Substantivatsiya
85. **Substansional morfologiya**
86. Subyektiv baho shakli
87. So'z-gap
88. So'z-gap tasnifi
89. So'zlarni turkumlarga ajratish tamoyillari
90. So'zlarning morfologik tasnifi
91. So'zning morfologi tarkibi
92. So'zshakl
93. So'zshakl tiplari
94. Suffiksal indeks
95. Tasvir birliklari
96. Tasviriy so'z
97. Tejam
98. Tillarning morfologik (tipologik) tasnifi
99. Transpozitsiya
100. Tuzma sonlar
101. Turkumlik semasi

102. O'zgalovchi kategoriya
103. O'zgarmas so'z turkumi
104. Fe'l bo'lishsizlik ma'nosining ifodalanishi
105. Fe'lga xos noparadigmatik shakllar
106. Fe'llar tahlili tamoyillar
107. Fe'llarni lsglarga bo'lish tamoyillari
108. Fe'ning adverbial shakli
109. Fe'ning atributiv shakli
110. Fe'ning leksik-grammatik turlari
111. Fe'ning nokategorial shakli
112. Fe'ning substantiv shakli
113. Fe'ning tasniflovchi kategoriyalari
114. Fe'ning funksional formalari
115. Fleksiya
116. Funksional shakl
117. Harakat tarzi kategoriyasi
118. Hozirgi zamon fe'lining analitik shakli
119. Hozirgi zamon fe'lining sintetik shakli
120. Hollovchi
121. Shakl semantikasi valentligi
122. Shakllarning so'zga qo'shilish tartibi
123. Shaxssizlik shakli
124. Elativ
125. Ellipslanish
126. Emotik valentlik
127. Yuklamalar ma'no turlari
128. Yuklamaning tuzilish turlari
129. Yakka otlar va noyakka otlar
130. Yarim mavhum bog'lama
131. Otning o'rganilish tarixi
132. Fe'ning o'rganilish tarixi
133. Sifatning o'rganilish tarixi
134. Sonning o'rganilish tarixi
135. Olmoshning o'rganilish tarixi
136. Ko'makchilarning o'rganilish tarixi
137. Bog'lovchilarning o'rganilish tarixi
138. Yuklamaning o'rganilish tarixi
139. Undovlarning o'rganilish tarixi
140. Taqlid so'zlarning o'rganilish tarixi
141. Modal so'zlarning o'rganilish tarixi
142. So'z gaplarning o'rganilish tarixi
143. Modallik kategoriyasi
144. Ismlarning munosabat shakllari
145. Yasama (sodda yasama) terminlar.

BAHOLASH MEZONI

“Hozirgi o‘zbek tili” fani bo‘yicha nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarining saralash ballari haqidagi ma‘lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashg‘ulotda talabalarga e‘lon qilinadi.

Fan bo‘yicha talabalarining bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta‘lim standartlariga muvofiqligini ta‘minlash uchun quyidagi nazorat turlari o‘tkaziladi:

Talabalarining bilimi quyidagi mezonlar asosida:

Nazorat turlarini o‘tkazish bo‘yicha tuzilgan topshiriqlarning mazmuni talabalarining o‘zlashtirishini xolis (obektiv) va aniq baholash imkoniyatini berishi shart.

Talabalar bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchi tomonidan Talabalarining fanlarni o‘zlashtirishini hisobga olish jurnalida (bundan buyon matnda Jurnal deb yuritiladi) qayd etib boriladi. Professor-o‘qituvchi qo‘shimcha ravishda talabalar bilimini baholashni elektron tizimda ham yuritishi mumkin.

Professor-o‘qituvchi Jurnalda talabaga qo‘yilgan baholarni shu kunning o‘zida qayd etib boradi. Agar talabalarining bilimini baholash yozma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, bunda professor-o‘qituvchi talabalarining natijalarini 3 kundan ko‘p bo‘lmagan muddatda Jurnalga qayd etishi lozim.

36. Nazorat turi bo‘yicha talabalarining bilimi «3» (qoniqarli) yoki «4» (yaxshi) yoxud «5» (a‘lo) baho bilan baholanganda, nazorat turini qayta topshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Talabalar bilimini baholash 5 baholik tizimda amalga oshiriladi.

Oraliq nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabalarining bilimini baholash tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazish va mazkur nazorat turi bo‘yicha talabalarining bilimini baholash o‘quv mashg‘ulotlarini olib bormagan professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Tegishli fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini olib borgan professor-o‘qituvchi yakuniy nazorat turini o‘tkazishda ishtirok etishi taqiqlanadi.

Yakuniy nazorat turini o‘tkazishda kelishuv asosida boshqa oliy ta‘lim muassasalarining tegishli fan bo‘yicha professor-o‘qituvchilari jalb qilinishi mumkin.

Joriy nazorat (JN) – talabalarining fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda amaliy mashg‘ulotlarda og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollektivium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin; oraliq nazorat (ON)- semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanlarning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabalarining nazariy bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli.

Oraliq nazorat bir semestrda ikki marta o'tkaziladi va shakli (yozma, og'zaki, test va hokazo) o'quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Yakuniy nazorat (YAN)- semestr yakunida muayyan fan bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni talabalar tomonidan o'zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan "Yozma ish" shaklida o'tkaziladi.

ON o'tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, ON natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda ON qayta o'tkaziladi.

Oliy ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida YAN ni o'tkazish jarayoni muntazam ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, YAN natijalari bekor qilinishi mumkin. Bunday hollarda YAN qayta o'tkaziladi.

Talabaning bilim saviyasi, ko'nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning fan bo'yicha o'zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

«Hozirgi o'zbek tili» fani bo'yicha talabalarning semestr davomidagi o'zlashtirish ko'rsatkichi 5 ballik tizimda baholanadi.

"Hozirgi o'zbek tili" fanidan baholash mezonlari

1. *Joriy nazorat (JN)*. "Hozirgi o'zbek tili" fani uchun joriy nazoratda

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

2.1. *Oraliq nazorat (ON)* bir marta yozma tarzda otkaziladi. 5 ta savolga yozma javob berish so'raladi. Unda talabalar maksimal 5 baho to'plashlari mumkin.

- mavzu to'liq ochilgan, kirish va xulosa belgilangan tartib yozilgan, ijodiy fikrlari bo'lsa – 5 baho

√ mavzu mohiyati ochilgan, kirish va xulosa bor, biroq ilmiy referatning rasmiylashtirilishida kamchiliklar bo'lsa – 4 baho

√ mavzu mohiyati yoritilgan, ammo kirish, xulosa va ilmiy referatning rasmiylashtirilishida jiddiy kamchiliklari bo'lsa – 3 baho beriladi.

- √ Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.
- √ Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.
- √ Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek ushbu nazorat turi bo'yicha «2» (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.
- √ Talaba uzrli sabablarga ko'ra oraliq va (yoki) yakuniy nazorat turiga kirmagan taqdirda ushbu talabaga tegishli nazorat turini qayta topshirishga fakultet dekanining farmoyishi asosida ruxsat beriladi.

3.1. Yakuniy nazorat (YN)ni talaba yozma ish tarzida topshiradi

Yakuniy nazoratda "Yozma ish"larni baholash mezonlari

Yakuniy nazorat "Yozma ish" shaklida amalga oshirilganda, sinov ko'p variantli usulda o'tkaziladi. Har bir variant 5 ta nazariy savoldan iborat. Nazariy savollar fan bo'yicha tayanch so'z va iboralar asosida tuzilgan bo'lib, fanning barcha mavzularini o'z ichiga qamrab olgan.

Har bir nazariy savolga yozilgan javoblar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 2-5 baho oralig'ida baholanadi. Talaba maksimal 5 baho to'plashi mumkin.

Yozma sinov bo'yicha umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichini aniqlash uchun variantda berilgan savollarning har biri uchun yozilgan javoblarga qo'yilgan o'zlashtirish ballari qo'shiladi va yig'indi talabaniing yakuniy nazorat bo'yicha o'zlashtirish bali hisoblanadi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

RAHBARIY ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
4. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011.
5. Каримов И. Ўрта асрлар шарқ алломалари ва мутафаккирларининг тарихий мероси, унинг замонавий цивилизация ривожигаги ўрни ва аҳамияти. – Тошкент, 2014.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

6. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik – Toshkent, 2013.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva va b. Hozirgi o'zbek tili. O'quv qo'llanma. – T.,2009.
8. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva va b. Hozirgi o'zbek tili. Darslik. – T.,2010.

9. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik – Toshkent, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar:

11. Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.

12. Shoabdurahmonov Sh. Asqarova M. va b. Hozirgi o'zbek tili. T., "O'qituvchi", 1980.

13. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek tili. T., "O'qituvchi", 1989.

14. O'zbek tili grammatikasi. I tom, T., Fan 1975.

15. O'zbek tili grammatikasi. II tom, T., Fan 1975.

16. Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi, T.: O'qituvchi, 1990.

17. Nurmonov A, Shahobiddinova Sh. va b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Morfologiya. T., XXI asr avlodi, 2001.

18. Nurmonov A., Rasulov R. O'zbek tili jadvallarida, T., O'qituvchi, 1993.

19. Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. T., Fan, 1989.

20. Rahmatullayev SH. Til qurilishining asosiy birliklari. T., Universitet 2002.

21. G'ulomov A. Fe'l. O'z davnashr, T., 1955.

22. Hojiyev A. Fe'l. T., 1973..

23. Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasalishi. T., "O'qituvchi" 1989.

24. Hojiyev A O'zbek tilida forma yasalishi T., "O'qituvchi"1990.

25. Qilichev E. Hozirgi o'zbek tili. 2-nashri. Вухоро, 2001.

26. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли лугати. Тошкент: Фан, 2002.

27. "Ўзбек тили ва адабиёти" журнали.

28. "Тил ва адабиёт таълими" журнали

Internet saytlari:

32. www.literature.uz

33. www.genhis.philol.ru

34. www.library.ziyonet.uz

35. www.lingvo-online.ru

36. www.globalterminology.com

37. www.basiccomputerterminology.com

38. www.tilde.com

39. www.oxfordhandbooks.com

GLOSSARIY

МОРФЕМИКА		
1.	Агглютинатив тил	<p>Сўз ясалиши ва шакл ясалиши агглютинация йўли билан бўладиган тиллар. Мас., туркий тиллар, фин-угор тиллари.</p> <p>А. (лот. ёпиштирмақ). 1. Сўз ясалиш ёки шакл ясалиш асоси ўзгармаган ҳолда янги сўз ёки сўз шакли ҳосил бўлиши. Бунда ҳар бир аффикс маълум бир маъно, вазифа билан қатнашади. Мас., туркий тилларда, жумладан, ўзбек тилида ясама сўзлар ва сўз шакллари асосга маълум изчиллик билан аффикслар қўшиш орқали ҳосил қилинади ва бу аффиксларнинг ҳар бири ўз маъноси билан қатнашади: <i>тер-им-чи-лар-имиз-га</i>.(ТТИЛ) 2. Икки сўз (асос)нинг бир сўзга, бир сўз шаклига айланишидан иборат морфологик жараён. Мас., <i>эчкини эмар> эчкиэмар> эчкэм ар</i>.</p>
2.	Агглютинация индекси	Агглютинатив қурилмалар миқдорининг морфлар чоки миқдорига муносабатидир. Масалан, <i>leaves</i> сўзида иккита морф бўлиб, битта морфлар чоки мавжуд.
3.	Алломорфа	Морфеманинг бири ўрнида иккинчисини ишлатиб бўлмайдиган, қуршов, шароитга қараб танлаб қўйиладиган морф(а)лари. Мас., -ги, -ки, -қи морфемалари ўзаро алломорф (а) ҳолатида, чунки ҳар бири маълум фонетик шарт-шароитга кўра танлаб қўшилади, бири ўрнига иккинчисини ишлатиб бўлмайди: <i>кузги, кечки, ташқи. қиёс</i> .Морфеманинг варианты. (ТТИЛ)
4.	Аморф тиллар	(юн. шаклсиз, шаклга эга бўлмаган). Аффиксларга эга бўлмаган, сўзлар орасидаги грамматик алоқалар битишув йўли билан ёки ёрдамчи сўзлар воситасида ифодаланадиган тиллар. Мас., хитой тили.(ТТИЛ)
5.	Аналитик тиллар	(юн. ёйиқ, ёйилган). Грамматик маънолар (гапда сўзларнинг ўзаро муносабати) сўз шакллари (шакл ясовчи қўшимчалар) воситасида эмас, балки ёрдамчи сўзлар, сўз тартиби, оҳанг ёрдамида ифодаланадиган тиллар. Мас.,

		инглиз, француз, испан тиллари аналитик тиллар гуруҳига киради. <i>қиёс</i> . Синтетик тиллар.(ТТИЛ)
6.	Аналитик усул	Ёрдамчи сўзлар воситасида ҳосил бўлиш (ясалиш) усули. Қ. Аналитик шакл. <i>қиёс</i> . Синтетик усул.(ТТИЛ)
7.	Аналитик шакл	Лексик табиатли морфема билан ҳосил қилинадиган грамматик шакл: <i>кел+а+қол-, иш+дан+кейин</i> каби.
8.	Аналитик шакл	Ёрдамчи сўзлар воситасида ҳосил бўлувчи шакл. Мас., уйга қадар, укам учун (отнинг аналитик шакллари); йиртиб юбор, айтиб кўр (феълнинг аналитик шакллари) ва б. Қ. <i>Аналитик усул. қиёс</i> . Синтетик шакл. (ТТИЛ)
9.	Аналитик-синтетик (синтетик-аналитик) шакл	Айрим адабиётларда грамматик маънонинг <i>кела қол</i> -тарзида ифодаланиши шундай аталади. Ваҳоланки бу ерда грамматик маъно кўмакчи феълнинг ўзи билан ифодаланади; кўмакчи феъл лексемалик хусусиятини қисман сақлагани сабабли асосга эмас, балки грамматик шаклланган бирликка – лексемашаклга тенг бирликка қўшилади.
10.	Аналогия	(юн. мувофиқлик, мослик, ўхшашлик). Тил унсурларининг (сўз ясалиш, шакл ясалиш ва б. моделларининг) ўзаро қандайдир муносабат таъсирида ўхшашлик касб этиши, махсулдор бўлган ҳодисанинг бошқасига ёйилиши: Аналогия йўли билан ўзгариш. Аналогия асосида ясалиш. Мас., қара объектсиз феълнинг кўр объектли феълга синоним сифатида қўлланиши (чўчимаслигини қара), шунингдек, кўр кўмакчи феълга қара, боқ феълларининг синоним сифатида қўлланиши (ўқиб кўр, ўқиб қара, ўқиб боқ) ҳам аналогия натижасидир: <i>...бунинг натижасида ўқув юртига танлашда келишмовчиликлар ва янглишмовчиликлар келиб чиқади</i> (Газетадан). Бу мисолда янглишмовчилик сўзи нотўғри қўлланган. Унинг қўлланиши англашилмовчилик сўзининг таъсиридадир.
11.	Асос	Аффикс қўшиладиган қисм
12.	Аффикслар	Бир морфема билан бир неча бошқа-бошқа грамматик

	нинг вазифа жиҳатидан синкретиклиги	маънонинг биргаликда ифодаланиши ҳодисаси. Айни бир аффикс бир неча вазифани бажаришга хизмат қилади (қадимги туркий тилда). Масалан, кўплик шаклини ясовчи -лар аффиксидан (<i>уй - уйлар</i> каби) нисбатловчи, тусловчи аффикс таркибида фойдаланилиб, модал маънони («сизлаш», «сенлаш» маъноларини) ифодалашга эришилган, «сизлаш» модал маъноси асосида «ҳурмат» маъносини ифодаловчи -лар аффикси ўсиб чиққан.
13.	Аффиксларнинг қўшилиш ўрнига кўра турлари	Суффикс ва префикс. Ўзбек тилидаги аффикслар – суффикс табиатли. Инфикс туридаги қўшимчалар ўзбек тилида учрамайди.
14.	Аффиксоид	Асли лексик бирлик бўлиб, кейинчалик худди аффикс каби грамматик маъно ифодалашга хизмат қилиб, аффикс каби бир неча лексемаларга қўшилиб келиш хусусиятига эга бўлган бирлик (лот. – “аффиксга ўхшаш”): хона, нома, ҳам каби. Аффиксоидлар лексема ясовчилик вазифасини бажаради (Ш.Р)
15.	Глоссоцентрик (вербоцентрик назария)	Барча тил бирликларининг асосида сўз туради, деган ғояга асосланувчи назария (Нурмонов А.)
16.	Грамматик (морфем) семема	Аффикснинг грамматик маъноси. Морфем семема таркибида одатда бир неча сема ажратилади. Масалан, -м аффикси семемаси таркибида энг кенг кўламли семедан тор кўламли семаларга бориб «тил бирлиги», «лисоний бирлик», «морфема», «шакл ҳосил қилувчи морфема», «аффикс», «тусловчи», «шахс», «I шахс», «бирлик» семалари.
17.	Грамматик морфемалар турлари	Грамматик морфема асосий хусусиятига кўра учга ажралади: 1) луғавий шакл ҳосил қилувчи морфема; 2) синтактик шакл ҳосил қилувчи морфема;

		<p>3) луғавий-синтактик шакл ҳосил қилувчи морфема.</p> <p>ГМ лексик морфемага қўшилиши ва грамматикализация даражасига кўра икки турга бўлинади:</p> <p>1) аффикс морфемалар; 2) ёрдамчи морфемалар. (Нурмонов А., Искандарова Ш)</p>
18.	Декорреляция	<p>(лот.«олиш», «ажратиш» маъноли олд қўшимча + ўзаро алоқа, муносабатдорлик). Сўзда морфемалар миқдори сақлангани ҳолда уларнинг маъноси, хосса-хусусияти ва ўзаро муносабатининг ўзгариши. Мас., унинг сўзи асли ул — олмош ва -инг — қаратқич келишиги қўшимчасидан таркиб топган. Кейинчалик морфемаларга ажралиш ўзгарган: у — олмош ва -нинг — келишик қўшимчаси. Қаранг: <i>Морфологик қайта бўлиниш</i>.</p>
19.	Деривацион морфемалар турлари	<p>Деривацион морфемалар қайси туркумга оид бирлик ҳосил қилишига кўра 4 турли: 1) от ясовчилар; 2) сифат ясовчилар; 3) феъл ясовчилар; 4) равиш ясовчилар. (Равиш ясовчилар масаласида мунозаралар мавжуд)</p> <p>Деривацион морфемалар ясалиш асосига қўшилиш ўрнига кўра 2 турли: 1) префикслар (олд қўшимчалар); 2) суффикслар.</p> <p>Деривацион морфемалар фаоллик даражасига кўра 3 турли: 1) унумдор сўз ясовчилар; 2) камунум ясовчилар; 3) унумсиз ясовчилар.</p> <p>Деривацион морфемалар тузилишига кўра 2 турли: 1) содда қўшимчалар; 2) мураккаб қўшимчалар.</p>
20.	Деривацион омонимия	<p>Сўз ясовчилар ўртасидаги шаклдошлик. Мас. – дор: дўкондор (от яс.), гулдор (сифат ясовчи)</p>
21.	Ёрдамчи морфемалар ва уларнинг турлари	<p>Ёрдамчи морфемалар аффикслардир. Айрим муаллифларда ЁМлар лексик морфемага қўшилиш табиатига кўра икки турга бўлинади:</p> <p>1) сегмент морфемалар; 2) устсегмент морфемалар. (Нурмонов А., Искандарова</p>

		Ш)
22.	Идеографи к сема	Масалан: -м аффиксида «тусловчи», «шахс», «I шахс», «бирлик» семалари.
23.	Изчил аффикслар	Маълум бир тизим тарзида сўз ясайдиган, сўз ясалишининг маълум типини ҳосил қилувчи аффикслар. Мас., от ясовчи –чи (ишчи, спортчи, бетончи), феъл ясовчи –ла (уйла, сўзла), сифат ясовчи –ли (кучли, ақлли, мазали) аффикслари изчил аффикслардир. қиёс. Ноизчил аффикслар. (ТТИЛ)
24.	Инвариант	Луғавий маъноси “ўзгармас”. Тилнинг қурилиш бирлигининг (фонема, морфема, лексема ва ш. к.) нутқдаги муайян воқеланишдан ажратиб, мавҳум олинган ҳолати. (ТТИЛ)
25.	Қайта тузилиш	Сўздаги морфлар чегарасининг ўзгариши ва бунинг натижасида янги аффиксал морфларнинг пайдо бўлиши. Қайта тузилишда сўзнинг негизи ясамалигича қолаверади, лекин у морфларга ажратилаётганда уларнинг чегараси ўзгариб, бу сўзни тузишда иштирок этган дастлабки морфлар асл кўринишини йўқотади.
26.	Категориал шакл ясовчи қўшимчала р	Грамматик маъно ифодаловчи шакл ясайдиган, шакллар системасини – парадигмани ҳосил қиладиган қўшимчалар. Улар камида иккита шаклдан иборат бўлади. Жумладан, от ва отлашган сўзларга хос грамматик сон, эгалик ва келишик шакллари ясовчи қўшимчалар; феълларга хос шахс-сон шакллари, замон шакллари ва у билан боғлиқ майл шакллари ясовчи қўшимчалар категориал шакл ясовчи қўшимчаларга киради.
27.	Қўшма (мураккаб) аффиксларн инг вазифавий турлари	Қўшма аффикслар, асосан, мавҳум от лексема ясовчи аффиксларга тўғри келади: <i>-чилик [деҳқончилик-, молчилик- каби), -гарчилик (ёғингарчилик-, оврагарчилик- каби);</i> шакл ҳосил қиладиган аффикслар орасида ҳам мавжуд: <i>-даги (юқоридаги, уйдаги каби) ва б</i>
28.	Қўшма	Қўшма (мураккаб) морфема ифода жиҳати туб

	(мураккаб) морфема ифода жиҳати	аффикслардир, кейинги босқичда бундай қисмларнинг ифода жиҳати деб фонемалар кўрсатилади. Мас. –даги мураккаб морфемасининг ифода жиҳати 2 туб морфемадан иборат: -да, -ги
29.	Қўшма қўшимча	Мураккаб қўшимча, қўшма морфема, мураккаб морфема
30.	Лексик табиатли морфема	Ўзи тааллуқли лексемага зич қўшилмайдиган, айримлиги сақланадиган, лексемага ўхшаш бўлган морфемалар. Улар грамматик маъно ифодалашига кўра аффиксга тенглашади. Масалан, от туркуми доирасида <i>билан, учун</i> каби кўмакчилар, сифат ва равиш туркумлари доирасида <i>энг, жуда</i> каби кучайтирув birlikлари, феъл туркуми доирасида <i>–бер-, -ол-, -бўл-</i> каби кўмакчи феъллар. (Ш.Р)
31.	Моносемем морфемалар	Бир маъно ифодалайдиган морфемалар. Масалан, <i>-ни</i> келишик аффикси «ўзи қўшилган лексема англатадиган предмет (кенг маънода) ўтимли феъл англатадиган ҳаракат қаратилган объект» эканини кўрсатади
32.	Морф	Морфеманинг нутқий жараён натижасида моддий birlik сифатида намоён бўладиган вакили бўлган нутқий birlik (Ш.Р)
33.	Морфем луғат	Сўзларнинг морфем таркиби қайд этиладиган луғат. (ТТИЛ) Ўзбек тилининг ilk морфем луғати 1977 йил А.Ғуломов томонидан тузилган. Шунингдек, Б.Менглиев, Б.Баҳриддиноваларнинг “O‘zbek tilining so‘z tarkibi lug‘ati” (Т.: Yangi asr avlodi, 2009) ҳам маълум.
34.	Морфем парадигма таркиби	Камида икки морфемадан иборат бўлади, бу морфемалар ўзаро умумий (интеграл) семаси асосида бирлашиб, фарқли (дифференциал) семаси билан зидланган ҳолатда яхлит бир тизимни ташкил этади; лексемашакл таркибида айна бир ўринни (позицияни) эгаллаб, маълум талабга кўра бирини иккинчисига алмаштириб ишлатилади. Масалан, от лексемаларга хос грамматик сон морфемалари парадигмаси икки аъзоли: «кўплик» маъносини ифодаловчи <i>-лар</i> морфемасидан ва унга зидланиб белгиланадиган «birlik»

		маъносини ифодаловчи морфемадан иборат.
35.	Морфем таҳлил	Сўзнинг морфем таркибини, морфемаларнинг турларини, ҳар бир турнинг маъно ва вазифасига кўра турларини белгилаш. (ТТИЛ)
36.	Морфема вариантлари.	<p>Морфема нутқда турли вариантга эга бўлади. Мисол сифатида қаратқич келишиги инвариант шаклининг вариантлари кўзга ташланади:</p> <p>а) поэтик вариант: <i>боғин меваси</i>;</p> <p>б) тарихий вариант: <i>маним</i>;</p> <p>в) диалектал вариант: <i>китобтинг</i>;</p> <p>г) фонетик вариант: <i>менинг</i>.</p> <p>Вариантлар намоён бўлиш шарт-шароитига кўра бир неча турга бўлинади:</p> <p>1) комбинатор вариантлари;</p> <p>2) позицион вариантлар;</p> <p>3) факультатив вариантлар. .</p> <p>4) диалектал вариантлар. (Болтаева Г. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси)</p>
37.	Морфема турлари	Морфемалар, аввало, бинар тамойилга мувофиқ икки турга бўлинади: лексик морфемалар ва грамматик морфемалар (граммемалар) (Нурмонов А., Искандарова Ш)
38.	Морфемалар (аффиксал морфемалар) тузилиши жиҳатидан турлари	Содда ва қўшма (мураккаб)
39.	Морфемаларда маъно синкретизми	(юнонча “бирлаштириш”) Айрим морфема-аффиксларнинг бир-биридан ажратиб бўлмайдиган икки грамматик маънони ифодалашга хизмат қилиши. Масалан, буйруқ-истак майлига хосланган <i>-нг</i> тусловчиси айни вақтда шахс

		(«II шахс») ва сон («бирлик») маъноларини ифодалайди. Бундай ҳодиса ҳозирги ўзбек тилида, масалан, нисбатловчи (эгалик), тусловчи (шахс-сон) аффиксларида мавжуд.
40.	Морфемаларда синонимия	Масалан, <i>-дош -ҳам. -тир(-дир), -ғиз (-киз, -қиз, -ғиз)</i> орттирма ясовчилари ҳам жавоб беради: <i>айттир- - айткиз-, билдир- - билғиз-</i> каби. Лекин бу аффиксларда айтилган бир феъл лексемага қўшилиш оз учрайди, кўпинча ҳар хил лексемага (сайлаб) қўшилади: <i>ёндир-</i> дейилади-ю, <i>ёнғиз-</i> дейилмайди ва б.
41.	Морфемаларнинг вазифасига кўра таснифи	Лексема (сўз) ясовчилар ва шакл ҳосил қилувчилар. Морфемалар мазмун ва вазифасига кўра тўрт турга бўлинади: 1) лексик морфемалар; 2) сўз ясовчи (деривацион) морфемалар; 3) грамматик маъно ифодаловчи морфемалар (граммемалар); 4) оралиқ морфемалар (ундов, мимема, модал морфемалар) (Г.Болтаева)
42.	Морфемаларнинг табиатига кўра турлари	Аффикс, аффиксоид, лексик табиатли морфема
43.	Морфемаларнинг функционал-семантик таснифи	Морфема функционал-семантик хусусиятига кўра 2 гуруҳга бўлинади: 1) деривацион морфема; 2) грамматик морфема.
44.	Морфеманинг варианти.	1. айн. Алломорфа. 2. Морфеманинг ҳар қандай қуршовда ҳам бири ўрнида иккинчисини қўллаш мумкин бўлган морфалари. Мас., -дай, -дек морфалари эркин қўшилаверади. Демак, вариант ҳолатида: гулдек, гулдай каби. <i>зид</i> . Алломорфа 2 (ТТИЛ)
45.	Морфеманинг ифода жиҳати	Унинг қайси фонема(лар) билан ифодаланиши. Мас. –им эгалик қўшимчаси икки фонемадан (и ва м дан) иборат.

46.	Морфеман инг мазмун жиҳати	У ифодалайдиган грамматик маъно (Ш.Р)
47.	Морфеман инг онтологик жиҳати	Морфеманинг маълум қурилиш (конструктив) бирликларнинг ўзаро барқарор синтагматик муносабатидан ташкил топган қурилма (конструкция), система эканлиги. Морфема икки ва ундан ортиқ фонемаларнинг ўзаро синтагматик муносабатидан ташкил топган ва янги сифатга эга бутунлик сифатида (морфема бир фонеманинг янги сифатга эга бўлиб, морфемик сатҳга кўтарилиши натижасида ҳам вужудга келиши мумкин) (Нурмонов)
48.	Морфемик а	<p>Тилнинг морфемик сатҳ бирлиги бўлган морфемаларни ўрганувчи тилшуносликнинг бўлими.</p> <p>М.нинг юзага келишига сўз ясалиш жараёнида маълум ясовчи воситаларнинг (қўшимчаларнинг) муайян асосга қўшулуви ва бу қисмларнинг ўзаро муносабатини ўрганиш жараёнида сўз маъноли қисмларини ажратиш зарурати билан юзага келди.</p> <p>Ўзбек тилшунослигида XX аср 70-йилларидан морфемика тилшуносликнинг алоҳида бўлими сифатида ажратила бошланди. Бу соҳага оид илк қўлланма Ё.Тожиёв қаламига мансуб (“Ўзбек тили морфемикаси”, Тошкент, 1992). Шунингдек, Т.Мирзақуловнинг тадқиқотлари ҳам эътиборга сазовор (“Ўзбек тили морфемикасининг асосий аспекти ва уларнинг муносабати”, Хўжанд, 1992; “Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари”, Тошкент, 1994)</p>
49.	Морфоцент рик назария	Тил тизимидаги асосий birlik – морфема, деган ғояга асосланувчи назария. Мазкур назария XX аср 20-йилларида агглютинатив тил бўлган Америка ҳиндулари тилини ўрганган дескрептив тилшунослик вакиллари томонидан илгари сурилган: Фонема – морфема маъносини фарқловчи энг кичик тил бирлиги. Конструкция – морфемаларнинг қўшулуви натижаси ва ҳкз.
50.	Мураккаб ашув	Аввал туб сўз ҳисобланган сўзларни ясама ёки мураккаб сўзлар қаторига ўтиб қолиши ёки бир морфли сўзларнинг икки ва ундан ортиқ морфли сўзларга ўтиб қолиши.

		Масалан, голланд тилидан рус тилига ўтган <i>зонедек</i> сўзи <i>зонтик</i> тарзида ўзлаштирилиб, аналогия қоидасига биноан бу сўзнмг таркиби <i>столук, домик</i> сўзлари таркиби сингари <i>зонт</i> ва <i>-ик</i> морфемаларга ажратилади.
51.	Нисбатловч и қўшимча	Эгалик қўшимчаси. У шакл ўзгартирувчи, лекин синтактик вазифа кўрсаткичи эмас.
52.	Ноизчил аффикслар	Сўз ясалишида бирор модель, сўз ясалиш типи ҳосил қилмайдиган, бир-икки сўз ясалишидагина учрайдиган аффикслар. Мас., <i>ўсимта, кўрк, ичак</i> каби сўзлардаги <i>-та, -к, -ак</i> аффикслари. <i>қиёс</i> . Изчил аффикслар. (ТТИЛ)
53.	Нокатегориал шакл ясовчи қўшимчалар	Грамматик маъно ифодаловчи шакл ясайдиган, лекин шакллар системасини – парадигмани ҳосил қилмайдиган шакл ясовчилар. Булар асосан қуйидагилар: 1. Отларда кичрайтириш, эркалаш, чегара каби ҳар хил маъноларни англатувчи шакл ясовчи қўшимчалар: <i>-ча, -лоқ, -чак, -чоқ, -гина, -гача: уй-ча, бўта-лоқ, қўзи-чоқ, келин-чак, шаҳар-гача</i> каби. 2. От, сифат ва равишларда модаллик (<i>-гина: қиз-гина, яхши-гина, тез-гина</i>), сифатларда белгининг кучсиз экани каби маъноларни англатган шакл ясовчилар <i>-иш, -(и)мтир: кўк-иш, кўк-имтир</i> . 3. Сонларда доналик, чама, жамловчи, тартиб сон турларини ясовчи қўшимчалар: <i>-та, -ча, -ов, -ала, -(и)нчи: икки-та, уч-ов, беш-тача, уч-ала, тўрт-инчи</i> каби. 4. Феълларда ҳаракатнинг такрор, давом, кучсизланиш каби миқдор шакллари ёки бирор вазифани бажаришга мослашган сифатдош, равишдош ва ҳаракат номи шаклларини ясовчи қўшимчалар: <i>-(и)мсира, -(и)нқира, -гила, -ган, -(и)б, -гач, -моқ: кул-имсира, қизар-инқира, югур-гила, кел-ган, кел-иб, кел-гач, кел-моқ</i> каби.
54.	Нолисоний омиллар	Тил тараққиётига таъсир кўрсатувчи объектив воқеликка доир (тил қонуниятларидан ташқари) шарт-шароитлар.

		Бундай шарт-шароитларга биринчи навбатда ижтимоий-сиёсий омиллар киради.
55.	Овоздорлар морфема ифода жиҳати сифатида	<i>л, р, м, н, нг</i>
56.	Омоморфемалар	Ифода жиҳати тенг морфемалар (аффикслар) –а, -қ каби
57.	Омоморфемаларнинг юзага келиш сабаблари	Қадимги туркий тилда унлилардаги қаттиқлик ва юмшоқликнинг фарқланиши. Мас. Тила – юмшоқ а Қара – қаттиқ а
58.	Омоформалар	Омоним шакллар; маълум шаклларда товуш томондан бир хил бўлувчи сўзлар. Бу ҳодиса одатда турли туркумга оид сўзлар ўртасида воқе бўла олади: олди (олд + и) — олди (ол+ ди) каби.
59.	Орттирма товуш	Онаси, мавзуйим, китобим каби. Орттирма товуш аффикснинг ифода жиҳати таркибига кирмайди, шунга кўра юқоридаги мисолларда қатнашаётган -и ва -си, -и ва -йи, -м ва -им ўзаро аффикснинг икки кўринишига тенг деб бўлмайди. Ш.Р.
60.	Полисемем морфемалар	Айрим морфемаларгагина хос хусусият. Масалан, ҳозирги ўзбек тилида -(и)нгиз- аффикси икки маънони ифодалашга хизмат қилади: 1) «кўплик» маъносини ифодалайди (Бунда «шахс» семаси сақланади, баҳо семаси бетараф бўлади): <i>китобингиз (сизларнинг)</i> каби; 2) «бирлик» маъносини ифодалайди.
61.	Редупликация	<i>Такрор.</i> Грамматик маънони ифодалаш мақсадида сўз ёки унинг бирор қисмини икки марта қайтариш. Такрорлар кўп тилларда учрайди, лекин у бир хил мақсадга хизмат қилмайди. Масалан, у иналай тилида грамматик восита сифатида ишлатилади. Такрордан бу тилда кўплик

		маъносини ифодалашда фойдаланилади.
62.	Сегмент морфемалар	Аффикслар
63.	Синтетик шакл	Аффикс билан ҳосил қилинадиган грамматик шакл: <i>кел+ди+м, кел+а+ман</i> каби.
64.	Содда морфемаларнинг ифода жиҳати	Фонема. Тил товуши морфеманинг (тил бирлигининг) ифода жиҳати сифатида фонема мавқеига эга бўлади.
65.	Супплетиви зм	Бир сўзнинг грамматик шакллари ҳар хил сўз ўзакларидан ясалиши. Сўзларнинг супплетив шакли ҳинд-оврупо тилларида кўплаб учрайди. Грамматик маънони бу йўл билан ифодалаш асосан кишилик олмошлари ва айрим феъллар ҳамда сифатларга хосдир. (Ирисқулов) (лот. тўлдирувчи, қўшимча).Айни бир сўзга мансуб икки сўз шаклининг алоҳида-алоҳида сўзларда ифодаланиши. Мас., биринчи ва иккинчи шахс бирлик кишилик олмошларининг мен, сен сўзлари билан, кўплигининг эса биз, сиз сўзлари билан ифодаланиши. Бу ерда кўплик шакли қўшимчасиз – алоҳида сўз билан ифодаланади.
66.	Сўз ясовчи формант	Янги сўз ҳосил қилувчи бирлик, сўз ясалиши бирлиги. Формант аффикс, аффиксоид ёки ёрдамчи сўзга тенг бўлиши мумкин: ишчи, (-ни — аффикс) , ишхона (-хона — аффиксоид), тасдиқ қилмоқ (қ и л— ёрдамчи феъл).
67.	Сўз ясовчиларнинг вазифаси	Мавжуд лексемага қўшилиб, янги лексема яшаш, шу йўл билан тилнинг лексик қатламига янги бирлик қўшиш.
68.	Сўзнинг морфем таркиби	Сўз морфем таркибига кўра таҳлил қилинганда, унинг (сўзнинг) умуман таркиби – морфемалари - маъноли қисмлари аниқланади. Масалан: <i>тер-им-чи-лар, ўқи- т-ув-чи-лик-ни, пахта-зор-лар-нинг</i> каби.

69.	Тарихий морфема	Ҳозирги тилда маъносини йўқотган (тил бирлиги сифатида йўқ), тарихан маъноли бўлган морфема. Мас. ялпоқ, яйлов каби сўзларнинг ял-, яй- қисми тарихан луғавий маъноли морфема бўлган.
70.	Товуш (ҳарф)нинг сигнификатив вазифаси	Тилнинг товуш белгиси (шунингдек, график белги)нинг икки вазифаси мавжудлиги таъкидланади: 1) перцептив, яъни англаш объекти бўлиш вазифаси; 2) сигнификатив, яъни маъноли бирликларни (морфема, сўз, гап) фарқлаш вазифаси.
71.	Тублашув	Сўз ва қўшимча бирлашиб, сўз <i>тублашиши</i> мумкин: <i>юксал, юксак</i> .
72.	Турлаш морфемалари	Турловчилар (Ш.Раҳматуллаев фикрича, келишиклар) Одатда от лексемага қўшилиб, унинг бошқа бир лексемага синтактик боғланишини ва бирор синтактик вазифада келишини таъминлашга хизмат қиладиган морфема.
73.	Устсегмент морфемалар	Маъно фарқлаш учун хизмат қиладиган урғу, оҳанг каби фонетик воситалар. (Нурмонов А., Искандарова Ш)
74.	Фарқловчи (дифференциал) сема	Масалан, -нинг “қарашлилик”, “эгаллик шаклини талаб қилиш” ва –ни га хос “воситасизлик”, “ўтимли феълни талаб қилиш” семалари
75.	Формант	(лот. ясовчи). Сўз ясовчи ва шакл ясовчи бирликнинг (асосан аффиксинг) умумий номи. Мас., <i>камҳосил, камкатнов</i> сўзларидаги кам; шахматчи, ҳосилдор сўзларидаги -ни, -дор формант ҳисобланади. Сўзнинг сўз ясалиш тузилиши. (ТТИЛ)
76.	Форматив	Сўз шаклини ҳосил килувчи аффикс ёки ёрдамчи сўз. Мас., сифатнинг ожайторма даража шаклини ясовчи -роқ аффикси (яхшироқ, кенгроқ), феълнинг «қодирлик» маъносини ифодаловчи аналитик шаклини ясовчи ол кўмакчи феъли (ўта олмоқ, бажара олмоқ) ва б.
77.	Фузия	(франц. қўшилиш, туташуш<лот. қуйиш, қуйма). Фонема таркибининг ўзгариши (ёнма-ён фонемаларнинг

		сингишуви) патижасида фонемалар чегарасининг ноаниқлашуви, бир фонеманинг ҳар икки морфема таркиби учун умумий бўлиб қолиши. Мас., (ўқиётирман (ўқи+ й+ йотирман) каби
78.	Шакл ўзгартирувчи морфема	Лексемага бошқа бир лексема билан боғланиш туфайли ўша лексеманинг табиатига кўра танлаб қўшиладиган шакллар. Масалан, тушум келишиги морфемаси –ни от лексемага ўтимли феъл лексема билан боғланиш туфайли қўшилади.
79.	Шакл ясалиш усули	Сўз шакли ясалишининг йўли. Ўзбек тилида сўз шакллари қуйидаги усуллар билан ясалади: 1) синтетик усул (Шакл ясалишининг синтетик усули); 2) аналитик усул (Шакл ясалишининг аналитик усули).
80.	Элизия	(лот. сиқмоқ, итариб чиқармоқ) Унли товуш билан тугаган сўзга унли билан бошланган сўзнинг қўшилиши натижасида бир унли товушнинг тушиши. Мас., боролади< бора олади каби.
81.	Эмик ва этик бирликлар	Эмик бирликлар -эма билан тугаган атамалар (фонема, морфема, лексема каби) орқали ифодаланган тил бирликларини ўз ичига олса, этик бирликлар вариант ёки алло- билан бошланган (аллофон, алломорф, аллолекс) атамалар орқали ифодаланган нутқ бирликларини ўз ичига олади. (Нурмонов)
82.	Яхлитлашиш	Сўз ва қўшимча бирлашиб, <i>яхлитланиши</i> мумкин: <i>бирон, бирор, безор</i> ; (Қўшимча бундай зичлашиши натижасида ўз инварианти – морфемасидан узилиши мумкин.)
СЎЗ ЯСАЛИШИ		
83.	Агент (ижрочи) маъноси	Ясама сўзларда ифодаланадиган ҳаракатнинг бажарувчиси маъноси. Мас., пайвандчи, уйсоз, кабобпаз сўзларида ИМ – соз, -паз аффикслари ёрдамида воқеланади.
84.	Бевосита мотивацион муносабат	Икки элементнинг фақат бир формант орқали мотивация муносабатида бўлиши. Мас., гулзор ясалмасида 1-элемент (гул – ясалиш асоси) ва 2-элемент (гулзор – ясалиш ҳосиласи, ясалма) –зор форманти маъноси асосига

		қурилган.
85.	Билвосита мотивацио н муносабат	Икки элементнинг формантлар йиғиндиси орқали мотивация муносабатида бўлиши. Мас., гулчилик сўзида гулчилик элементи гул элементи (экспонент)га билвосита алоқадор.
86.	Деэтимолог изация	де— «айириш» маъноли олд қўшимча + этимология). Сўзда этимологик боғланишнинг йўқолиши, яъни сўз ясашига асос бўлган қисм билан сўз ясовчи формат маъно муносабатининг йўқолиши. Д. турли ҳодисалар туфайли, мас., товуш ўзгаришлари, морфемаларнинг истеъмолдан чиқиши ва ҳ. натижасида юз беради. Мас., ўзбекча юксак, юксал, юқори сўзлари юк-, юқ- сўзи билан боғлиқ. Лекин ҳозирги тилда бу сўзлар ясама деб қаралмайди.
87.	Мотивация воситаси	Сўз ясовчи қўшимча
88.	Синхрон деривация	С.Д.да ясама сўз билан деривацион (сўз яшаш) қолип орасида алоқа мавжуд бўлиб, қолипнинг шаклий ва мазмуний томони ҳосила сўзда ўз изини қолдирган бўлади. [Китобчи]ясама сўзида [от+чи=от билан шуғулланувчи шахс оти] қолипдаги тенглик аломатининг чап (шаклий) ва ўнг (мазмуний) томони излари яққол кўриниб турибди.
89.	Сўз ясашиш асоси	Янги сўзнинг ясашишида асос бўладиган, сўз ясовчи қўшиладиган қисм. Мас., тилак сўзида тила, тилакдош сўзида тилак кабилар СЯА ҳисобланади. У мотивловчи база деб ҳам юритилади.
90.	Сўз ясашиш маъноси	Айни бир сўз ясовчи воситасида маълум бир лексик-семантик гуруҳга оид сўзлардан ҳосил қилинган сўзлар учун хос бўлган маъно. Мас., ўрим, терим сўзлари учун умумий бўлган, уларни ўр, тер сўзларидан фарқловчи маъно.
91.	Сўз ясашиш меъёри.	Сўз ясашишининг адабий тил қонун-қоидаларига мослиги - мос эмаслигини белгиловчи меъёр. Мас. -вий, -ий аффикси ёрдамида партиявий, кимёвий, таркибий сифатларининг ясашиши меъёрий, аммо, чизиқий, тумшуқий, халқий

		ясалишлари меъерий эмас.
92.	Сўз ясашиш мотивацияси	Сўз ясашиш асоси билан ясалма орасидаги асосланиш. Мас. Темир-чи ясалмаси асос (темир) билан узвий боғлиқ (темирга ишлов берувчи)
93.	Сўз ясашиш усуллари	<p>Ўзбек тилида сўз яшанинг воситалари ҳар хил бўлиб, унинг турлари шундай кўринишларга эга: 1) <i>фонетик усул</i>; 2) <i>семантик усул</i>; 3) <i>аффиксация (морфологик) усули</i>; 4) <i>композиция (синтактик) усули</i>.</p> <p>1. Фонетик усул. Бу усул билан сўз яшаш 2 ҳодисани кўзда туттади:</p> <p>1) сўзнинг таркибида фонетик ўзгариш (товуш ўзгариши) қилиш орқали янги сўз ҳосил қилиш. Масалан, <i>бўр-бўз, тоғ-тош, кўз-кўрмоқ, тош-тиш</i> (қаттиқлик белгиси асосида);</p> <p>2) урғунинг ўрнини ўзгартириш билан янги сўз яшаш. Масалан, <i>янги</i> (сифат), <i>янги</i> (равиш), <i>ҳозир</i> (равиш) - <i>ҳозир</i> (тайёр), <i>тугма</i> (от), <i>тугма</i> (феъл), <i>академик</i> (унвон) – <i>академик</i> (нашр тури).</p> <p>2. Семантик усул. Лексик – семантик йўл билан сўз яшаш сўз маъносининг ўзгариши, маънонинг кўчиши орқали янги маъноли сўзнинг юзага келишидир.</p> <p>3. Аффиксация усули. Ҳозирги ўзбек тилида сўз ясашишининг кенг қўлланиладиган энг унумли, етакчи тури аффиксация усулидир.</p> <p>4. Композиция усули. Композиция йўли билан сўз яшаш бирдан ортиқ ясовчи асосни маъно ва мазмун жиҳатидан бириктириб, янги лексик бирлик - қўшма сўз ҳосил қилишдир. Қўшма сўзнинг содда сўздан фарқи шундаки, содда сўзда мустақил маъноли қисм битта. Қўшма сўзда эса биттадан ортиқ бўлади. Сўз яшанинг бу тури ўзбек тилида энг фаол усулларида ҳисобланади. Масалан, <i>гулбеор, ерёнғоқ, учбурчак</i> каби.</p>

		<p>Даврлар ўтиши билан айрим сўз бирикмалари бир сўзга (қўшма сўзга) айланиши мумкин. Бунда сўз бирикмаси бир маъно – лексик маъно ифодаладиган бўлиб қолади, бирикма қисмлари орасидаги синтактик алоқа йўқолади. Натижада аслида сўз бирикмаси бўлган бирлик қўшма сўзга айланади. Бу жараён тилшуносликда синтактик-лексик усул билан сўз ясаши деб юритилади. Масалан, <i>қашқаргул, токқайчи, мингбоши, юртбоши, энгилтабиат, калтафаҳм, ўзбилармонлик, барибир (бари-эга – бир-кесим)</i>. Синтактик-лексик усул билан сўз яшаш тарихий (диахрон) ясашиш ҳисобланади.</p>
94.	Сўз ясаши	<p>Сўз ясаши лингвистик термин сифатида икки маъноли:</p> <p>а) сўз яшаш жараёни атамаси;</p> <p>б) ушбу жараённи ўрганувчи соҳа.</p> <p>Турли усуллар ёрдамида янги маъноли сўз ҳосил қилиш.</p>
95.	Сўз яшаш (деривацион) қолипи	<p>Ҳар қандай ясама сўз сўз яшаш қолипи асосида ҳосил қилинади. Ҳосила лисонийлашиб, ўз қолипидан узилиб кетса ҳам, унда билинар-билинамас қолип билан (агар қолип яшовчан бўлса) боғланиш барибир сақланиб қолади.</p> <p>Сўз яшаш қолипи икки узвдан иборат бўлади:</p> <p>а) қолипнинг шаклий томони;</p> <p>б) қолипнинг мазмуний томони.</p> <p>Сўз яшаш қолипининг шаклий томони икки қисмдан ташкил топади: <i>ясовчи асос</i> ва <i>ясовчи восита</i>. Масалан, [от+чи=шу от билан шуғулланувчи шахс оти] қолипининг шаклий қисми бўлган [от+чи] нинг <i>от</i> қисми ясовчи асос, [-чи] қисми эса ясовчи восита.</p>
96.	Сўз яшаш таркиби	<p>Сўз яшаш таркибида сўз <i>ясовчи асос</i> ва сўз <i>ясовчи аффикс</i> ажратилади.</p>
97.	Сўз ясашиш имконияти	<p>Маълум сўз ясашиш типининг, қолипининг, сўз ясовчилар</p>

		<p>унумли-унумсизлиги сабабларининг умумий номи.</p> <p>Сўз яшаш имкониятининг чекланганлиги куйидаги омиллар билан боғлиқ:</p> <p>1) сўз ясашиш асосининг хусусияти билан; 2) сўз ясовчининг хусусияти билан; 3) объектив ҳолат билан. (А.Ҳожиёв)</p>
98.	Тарихий (диахрон) деривация	Тарихий деривацияда ясама сўзнинг шакли ва маъносига мос қолип мавжуд бўлмайди. Бу махсус текшириш натижасида аниқланади. Масалан, [қишлоқ], [овлоқ] сўзларининг маъносини уларнинг ташкил этувчилари ва деривацион қолипи асосида чиқариб бўлмайди. Чунки улар тарихий ясалмалардир. [Қоровул], [ясовул], [силлиқ] сўзида ҳам шу ҳол кузатилади
99.	Ясама асос	Маълум воситалар ёрдамида ясалган ва бошқа сўзнинг ясашишига асос бўладиган асос. Мас., теримчи сўзининг ясашишига асос бўлган қисм (терим) ЯА.дир
ГРАММАТИКА		
100	Антик грамматика	Антик филологлар томонидан қадимги тиллар асосида яратилган, лекин умумийликка эга бўлмаган грамматик қонуниятларни очиб беради деб тасаввур қилинувчи г.
101	Ассоциатив грамматика	<p>1. Сўз тузилишини, сўз бирикмаси ва гапни парадигматик планда, яъни тил системасининг структур шаклланган элементлари сифатида ўрганувчи грамматика. Зид. Синтагматик грамматика.</p> <p>2. Сўзларнинг лексик-семантик муносабатларини ўрганувчи тилшунослик бўлими. (Ахманова)</p>
102	Билишнинг трансцендент усули	<i>Трансцендент</i> атамаси ўзгарувчан, иккинчи даражали, ўткинчи каби маъноларни билдиради. Нарсаларнинг ўзгарувчан белгиларини фарқламасдан ўрганувчи билиш усули. зид. имманент билиш .
103	Генератив (туғдирувчи) грамматика	1. Замонавий тил илмида тилшуносликнинг мақсади тил қурилишининг ички қонуниятларини ўрганиш деган тамойилга асосланган Г. Бунда тилнинг табиий қўлланиши билан бирга уни илмий ўрганиш мақсадида “сунъий” қўллаш ҳам назарда тутилади. Бунинг учун тўғри

		<p>шакланган гаплар (моделлар)ни танлаб олиш ва ҳар бири учун бир ёки бир неча структур тавсиф бериш керак.</p> <p>2. Дедуктив система сифатида тузилган Г. Ва у сўз ва синтактик қурилмаларнинг мавжуд функцияларини таърифлашнинг бевосита ва рационал усулларини таклиф қилади. Бунда нутқнинг ижро этилиши уни бевосита ташкил этган терминлар билан эмас, балки унинг тузилиши (туғилиши) учун керак бўлган тартибли қоидалар асосида изоҳланади. (Ахманова)</p>
104	Грамматик ва лексик маъно муносабати	<p>Грамматик маъно лексик маънога асосланган бўлади. Жумладан, умумий грамматик маъно (предмет, белги, жараён кабилар) лексик маънога жуда яқин бўлади. Лексик маъносиз сўзлар мавжуд (мас., ёрдамчи сўзлар), бироқ грамматик маъносиз сўз йўқ.</p>
105	Грамматик категория	<p>Ўзбек тилшунослигида тилимиздаги 9 та ГК мавжудлиги тан олинади:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) нисбат категорияси; 2) ўзгаловчи категорияси; 3) ҳаракат тарзи категорияси; 4) бўлишли-бўлишсизлик категорияси; 5) сон категорияси; 6) даража категорияси; 7) келишик категорияси; 8) эгалик категорияси; 9) кесимлик категорияси: <ol style="list-style-type: none"> 9.1) шахс-сон; 9.2) замон; 9.3) тасдиқ-инкор; 9.4) майл (модаллик) <p>ГК ҳам серқирра моҳиятли лисоний ҳодиса бўлганлиги сабабли турли томондан тасниф қилинади. Улардан айримларини келтирамиз:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Категория шаклларининг маъновий таркибига кўра.

		<p>2. Морфологик категория (МК)нинг сўз туркуми ёки гап бўлакларига хослигига кўра.</p> <p>3. МК синтактик қобилиятининг йўналишига кўра.</p> <p>ГК.нинг характерли томонлари қуйидагилар:</p> <ul style="list-style-type: none"> - категорияга киритувчи белгининг модифицион типи; - унинг синтаксисга алоқаси; - категория йиғиндисидан бир шаклни танлаш зарурияти; - уни ифодалашнинг доимий усули миқдори.
106	Грамматик категориялар турлари	<p>ГКлар грамматик белгига кўра қуйидаги турларга бўлинади:</p> <p>1. Шакл ясовчи к.лар (коррелятив, модификацион), бу к.ларга кўра лексемалар ўзгариши мумкин бўлади. Мас., отлардаги келишик, феъллардаги замон ва майл.</p> <p>2. Классификация қилувчи, таснифловчи (классификацион, коррелятивсиз) к.лар, бу к.лар бир тўп лексемаларга хос бўлиб, доимийлик белгисига эга бўлади. Мас., сўз туркумлари, ўтимли-ўтимсизлик, тусланиш-тусланмаслик</p>
107	Грамматик категорияларнинг коррелятив даражасига кўра турлари	<p>1. Сўз ўзгартирувчилар (коррелятив, флектив), модификация қилувчилар (корреляциялар миқдорини билдирувчи) берилган сўз туркумидаги ҳамма сўзларга оид к.лар.</p> <p>2. Деривацион (сўз ясовчи), сўз туркумининг маълум қисмига оид корреляция миқдорини билдирувчи: отлардаги кўплик, феъллардаги майл.</p>
108	Грамматик категориянинг синтактик хосланишига кўра турлари	<p>Грамматик категориялар синтактик хосланиш хусусиятига эга. Улар гап ва унинг таркибидаги узвларни боғлаш ҳам; синтактик бирликни гап қилиб шакллантириш вазифасини ҳам бажаради. Шунинг учун бундай грамматик категориялар иккига бўлинади: а) синтактик бирликларни боғлаш учун хизмат қилувчи коннектив категориялар; б) синтактик бирликни гап қилиб шакллантирувчи (конститутив) категориялар. Биринчисига эгалик, келишик категориялари (отларда), иккинчисига замон, майл, шахс-сон (феълларда) категориялари киради.</p>
109	Грамматик	<p>Сўз туркумларига хос (масалан, отларда «предметлик», феълларда «жараянлик» маънолари) умумий маъно, шунингдек, маълум морфологик</p>

	маъно	<p>категория ичидаги ўзаро зидланувчи сўз шаклларининг хусусий маънолари (замон, шахс, келишик).</p> <p>Мас., болаларга сўзининг грамматика маъноси: <i>предмет, шахс, кўпликда, жўналиш келишигида, туб сўз, содда сўз</i> кабилар. Грамматик маъно деганда фақат сўзнинг шакллари маъносигина эмас, балки синтактик бирликларнинг умумлашган маънолари ҳам тушунилади. Масалан, предикативлик, модаллик, тема-рема тузилиши ва ҳ.к.</p> <p>Грамматик маъно деганда тил (фонетик, лексик, морфологик ва синтактик) бирликларнинг нутқни шакллантирувчи умумлашма абстракт маънолари тушунилади. Кўринадики, таърифда уч муҳим унсур мавжуд. Улар қуйидагилар:</p> <p>а) грамматик маънонинг барча тил бирликларига хослиги;</p> <p>б) бевосита (!) нутқни шакллантириши;</p> <p>в) умумлашма ва абстрактлиги.</p>
110	Грамматик маъно типлари	<p>Сўз грамматик бирлик сифатида морфологик маъно тизимига эга. Шунга кўра, грамматик маънони қуйидаги типга бўлиш мумкин:</p> <p>а) маълум бир туркумга кирувчи сўзнинг улар қайси морфологик шаклда бўлишидан қатъи назар барчаси учун бирдай тегишли бўлган грамматик маъно (масалан, отларда предметлик, сифатларда белгилик, феълларда жараёнлилик);</p> <p>б) бир туркумдаги бирор гуруҳнинг қандай грамматик шаклда бўлишидан қатъи назар барча сўзларига хос бўлган грамматик маъно (масалан, озайтирма даража сифатнинг фақат ранг билдирувчи турларига хос);</p> <p>в) бирор туркумдаги маълум бир сўзнинг маълум бир шаклдаги туригагина хос бўлган грамматик маъно (масалан, ўзлик олмошига келишик қўшимчаси фақат эгалик қўшимчасидан кейин қўшилади, олмошнинг бошқа турларида бундай ҳол кузатилмайди, ёки [-ял] қўшимчали аниқ ҳозирги замон шакли III шахсда [-ди] шакли билангина воқелана олади).</p>
111	Грамматик маъно	<p>ГМлар характерида кўра қуйидаги турларга бўлинади:</p> <p>1. Маъноли (номинатив, семантик, референциал) ГМлар, улар бевосита тилдан ташқари борликда ҳам иштиро этишади.</p>

	турлари	<p>2. Шакли (асемантик, формал-структур) ГКлар, улар фақат чегараланган сўз шакллар орқали намоён бўлади. Мас., отлардаги келишик, кўплик, феъллардаги шахс; формал-структур типлари бўлган турланиш ва тусланиш. (Х.Зокирова)</p> <p>Грамматик маънони уч гуруҳга бўлиш мумкин: 1) носинтактик (референционал); 2) синтактик (реляцион); 3) субъектив. Биринчи маънони туркумловчи, иккинчи маънони тоифавий (категориал), учинчи маънони эса нотоифавий (нокатегориал) маънолар деб ҳам таснифлаш мумкин.</p> <p>Грамматик маъно система сифатида морфологик маъно ва синтактик маъноларни ўз ичига олади.</p> <p>Грамматик шаклнинг фаҳмий ҳис қилинадиган алоҳида маъноси хусусий <i>грамматик маъно</i> (қисқ. ХГМ) дейилади. Масалан, эгалик қўшимчалари умуман «кейинги сўзни олдинги сўзга боғлаш» моҳиятига эга. Бу <i>умумий грамматик маъно</i> (қисқ.УГМ) бўлиб, у нутқий бирлик бўлган <i>Ҳалимнинг китоби</i> бирикувида «(китоб) сўзини (Ҳалим)сўзига боғлаш», <i>дафтарнинг варағи</i> бирикувида эса «(варақ) сўзини (дафтар) сўзига боғлаш» тарзида хусусийлашган. Бу – ХГМ.</p>
112	Грамматик маънонинг абстрактлиги	<p>Г.М.нинг бевосита кузатишда берилмаганлиги. Масалан, [WП_м – кесимлик кўрсаткичи билан шаклланган атов бирлиги] синтактик қолипнинг грамматик маънони кўзга ташланиб турган тил бирликлари замирига яширинган.</p>
113	Грамматик маънонинг ифодаланиши	<p>Г.М. алоҳида морфемалар, ёрдамчи сўзлар, оҳанг, сўзнинг морфемик бўлиниши, структур шаклланиши, парадигматик қатори ва синтагматик муносабати билан ифодаланади.</p> <p>Юқорида баён қилинганидек, грамматик маъноларни ифодаловчи тил воситалари хилма-хилдир. Тилшунослик фанида бу воситалар икки катта туркум - смтетик ва аналитик воситаларга ажратилади.</p> <p><i>Синтетик воситаларга</i> аффиксация (префикслар, суффикслар), ички флексия, супплетив усул кирса, <i>аналитик воситаларга</i> ёрдамчи сўзлар, сўз тартиби, такрор, оҳанг киради.</p>
114	Грамматик шакл	<p>Грамматик шакл муайян грамматик маънонинг ташқи ифодаланиш томони - моддий томонидир.</p> <p>Ҳозирги тилшуносликда грамматик шаклга икки хил ёндашув амал қилмоқда. Биринчиси грамматик шаклни муайян грамматик маънонинг маълум моддий воситалар ёрдамида ифодаланиши, сўзнинг грамматик шаклланган</p>

		<p>моддий – товуш тури сифатида талқин этади. Иккинчиси эса шаклни грамматик маънонинг ички тузилиши сифатида тушунади.</p> <p>Гарчи грамматик шаклга бундай икки хил қараш бир-бирига зиддек кўринса ҳам, аслида, бир-бирини инкор қилмайди. Грамматик бирликни икки томондан тавсифлайди: бири маъно плани асосида, иккинчиси эса ифода плани асосида изоҳлайди. (Нурмонов А.)</p>
115	Грамматик шаклнинг тузилишига кўра тури.	<p>Грамматик шакл тузилишига кўра содда ёки мураккаб бўлиши мумкин. Содда шакл бир грамматик кўрсаткичдан иборат бўлади. Келишик, эгалик шакллари бунга мисол. Синтетик шаклнинг айрими(-даги) ва синтетик-аналитик шаклнинг барчаси мураккаб шакл.</p>
116	Грамматика	<p>Г. тилшунослик бўлими сифатида сўз шакллари ва категориялари, сўзларни лексик-грамматик гуруҳларга (ЛГГ ларга) таснифлаш тамойиллари, гап ва унинг категориялари, гапнинг тузилиш турлари каби масалаларни ўрганеди.</p> <p>Г. (юн. грамматике — ҳарф ўқиш ва ёзиш санъати). 1. Тилшуносликнинг сўз шакллари (шакл ясаиши), сўз бирикмаларининг турлари, гап турлари (тилнинг грамматик қурилиши) ҳақидаги бўлими. Ўрганиш манбаи, материали ва вазифаси нуқтаи назаридан Г.нинг бир неча тури фарқланади: 1) тарихий г.; 2) тасвирий г.; 3) формал г.. Ўзаро қардош ёки қардош бўлмаган тиллар грамматик қурилишни солиштириб ўрганишига кўра г.нинг икки тури фарқланади: 1) чоғиштира г.; 2) қиёсий г. (ТТИЛ)</p> <p>Ўзбек тили г.си илк бор А.Фитрат томонидан “Сарф” (Морфология) ва “Наҳв” (Синтаксис) номлари билан ўрганилган. М.Шамсиев ва Шербек, Ҳ.Қайюмий ва С.Долимовлар Г. терминини илк бора олиб кирдилар. Ўзбек тилини Г.сини илмий ўрганиш ишлари бошида А.Ғуломов турди (XX аср 40-йилларидан). Ўзбек тили Г.сини яратишга алоҳида эътибор XX аср 50-йилларидан бошланди. (Нурмонов А.)</p>
117	Граммема	<p>Г. грамматик шакл ва грамматик маъно муносабатидан ташкил топган грамматик категориянинг таркибий қисми саналади. Бу</p>

		<p>вақтда грамматик категория г.ларга бўлинади. Мас., келишик категорияси таркибида –нинг, –ни, –га каби г.лар мавжуд.</p> <p>Г.ларда фарқланиш (динстиктив) жиҳатдан кучли ва кучсиз турларга бўлинади. Кучсиз фарқлаш хусусиятига эга бўлган граммемалар доимо моддий ифодаланиши шарт эмас. Масалан, отларнинг сон зидлигида бирлик моддий махсус восита ёрдамида ифодаланиши шарт эмас. Лекин унинг бирлик шаклда эканлиги кўплик шаклга зид қўйиш орқали маълум бўлади.</p> <p>Кучли фарқлаш хусусиятига эга бўлган г.лар доим моддий ифодасини топади.</p> <p>Г.лар грамматик шакл ва грамматик маъно муносабатидан ташкил топган яхлитлик саналиб, умумий хусусиятга эга. У бевосита кузатишда вариантлар орқали намоён бўлади. Г.лар шакл ва мазмун диалектик алоқасини ўзига мужассам этганлиги учун вариантланиш икки томонлама рўй беради: а) шаклий вариантлар; б) мазмуний вариантлар.</p>
118	Детерминация	<p>Константа ва ўзгарувчан бирликлар ўртасидаги бир томонлама муносабат. Бу муносабатда бир аъзо иккинчисининг бўлишини тақозо этади. Сифатнинг аниқловчи вазифасида келиши учун аниқланмиш зарур. Унинг бўлиши тақозо этилади. Лекин аниқланмиш вазифасидаги от аниқловчисиз ҳам ишлатилаверади. Шунингдек, бош ва эргаш гаплар ҳам ўзаро детерминация муносабатида бўлади (ҳавола бўлакчи қўшма гаплар бундан мустасно). (Нурмонов)</p>
119	Интердепенденция	<p>Икки константа ўртасидаги ўзаро тобелилик, яъни бири иккинчисининг бўлишини тақозо этиши. Бундай муносабатда бири иккинчисисиз мавжуд бўлмайди. Масалан, лисоний бирликларнинг маъно плани билан шакл плани ўзаро шундай муносабатда бўлади. Ёки унлилар ва ундошлар, жаранглилар ва жарангсизлар, қаратқич ва қаралмиш ўртасидаги муносабат интердепенденция саналади. (Нурмонов)</p>
120	Категориал кўрсаткич таркибий қисмлари	<p>А.В.Исаченко маълум грамматик маънони ифодалаш учун хизмат қиладиган ташки лисоний воситаларни категориал кўрсаткичлар ҳисоблайди. Унинг фикрича, категориал кўрсаткичлар ўз табиатида кўра белги ҳисобланади. Категориал кўрсаткич ҳар қандай белги каби икки таркибий қисмдан ташкил топади: ташки моддий восита – ифодаловчи (десигнатор) ва ифодаланмиш (десигнат). (Нурмонов)</p>

121	Констелляция	Функция аъзоларининг бири иккинчисини тақозо этмаса, бундай муносабат саналади. Масалан, равиш билан феъл ўртасидаги муносабатда бирининг бўлиши иккинчисига боғлиқ эмас. (Нурмонов)
122	Қиёсий (қиёсий-тарихий) грамматика	Қиёсий тарихий методдан фойдаланган ҳолда ёдгорликларда берилмаган тил фактларини ёзма ёдгорлиги ёки жонли қўлланишдаги материаллар орқали қариндош тилларни ўзаро қиёслаб ўрганадиган Г. (Ахманова)
123	Мантиқий грамматика	Грамматик ва мантиқий категорияларни қориштиришга асосланган грамматика (Ахманова)
124	Синтагматика	Сўз бирикмалари ва гапларни нутқ элементлари сифатида ўрганувчи Г. (Ахманова)
125	Синтактик категориялар турлари	<p>1. Синтагматик категориялар: тобеланиш, бирикув, предикация, атрибут (аниқловчи), актант.</p> <p>2. Парадигматик категориялар:</p> <p>А) гапнинг ГКлари (коммуникатив): тасдиқ/инкор, модаллик;</p> <p>Б) синтагма ГКлари (сўз бирикмалари, гап бўлаклари, иштирокчилар);</p> <p>В) номинатив гуруҳнинг ГКлари: аниқ/ноаниқлик, сон, шахс;</p> <p>Г) предикат ГКлари (диатеза – субъект ва объектнинг турли муносабатлари)</p> <p>Д) атрибут ГКлари (қиёслаш даражаси, интенсивлик) (Ҳ.Зокирова)</p>
126	Субститут	Л.Блумфилд тилшуносликка <i>субститут</i> тушунчасини олиб кирди. Унинг фикрича, маълум синфга мансуб бўлган бир шаклнинг муайян бир шароитда бошқаси билан алмашилиб келиши <i>субститут</i> саналади. Субститутлар шакллар синфини ҳосил қилади
127	Субституция	Агар ифода планидаги ўзгариш мазмун планидаги ўзгаришга олиб келмаса, бу ҳодиса субституция ҳисобланади. Масалан, <i>кел</i> сўзининг бошидаги <i>к</i> ундошини <i>г</i> га алмаштирадиган ҳам, сўзнинг мазмун планида ўзгариш рўй бермайди.

128	Тавсифий грамматика	Грамматик ҳодисаларни - сўз шакли, маъноси ва бошқа грамматик бирликларни тавсифловчи грамматика
129	Таксономик грамматика	Нутқнинг морфосинтактик таҳлилини уни бевосита ташкил этувчилар иерархияси орқали амалга ошириш билан чекланувчи грамматика. Бунда гапни ташкил этган нутқ бирликлари синтактик вазифаси ва аҳамияти кетма-кет очиб борилади. (Ахманова)
130	Тарихий грамматика	Маълум тилга хос сўз таркиби, сўз бирикмаси ва гапларни тарихий тараққиётнинг турли босқичларида қиёслаш орқали ўрганадиган Г. (Ахманова)
131	Тобелилик грамматика си	Гап таркибидаги сўзларнинг тобеланиш муносабатини тавсифлаш грамматикаси. (Нурмонов)
132	Тобелилик грамматика си	Гап таркибидаги сўзларнинг тобеланиш муносабатини тавсифлашга асосланган грамматика
133	Формал грамматика	Алоҳида матнларни эмас, балки бир қанча тўғри матнларни ва қонуниятларни тавсифлаш усулларини ўрганади. Мазкур қонуниятлар формал грамматиканинг абстракт символлари орқали белгиланади. Шу асосда «Туғдириш грамматикаси» ёки «генератив лингвистика» майдонга келди. Формал г. грамматик категорияларни шаклдан мазмунга қараб ўрганади.
134	Формал грамматика	Гап қурилишида шаклий ифодага эга бўлган муносабатларнигина ўрганувчи грамматика. Алоҳида матнларни эмас, балки бир қанча тўғри матнларни ва қонуниятларни тавсифлаш усулларини ўрганади. Мазкур қонуниятлар формал грамматиканинг абстракт символлари орқали белгиланади. Шу асосда «Туғдириш грамматикаси» ёки «генератив лингвистика» майдонга келди. Формал г. грамматик категорияларни шаклдан мазмунга қараб ўрганади, ифода томонига эга бўлмаган грамматик маъноларни, ритмомелодик белгилар, мазмуний мундарижани ўрганмайди.
МОРФОЛОГИЯ		
135	Аббревиатура	Қисқартма сўзлар (ТТИЛ)

136	Адъективация	Сифатлашиш: <i>темир қонун</i>
137	Актант	Бирор вазифани бажарувчи нутқий бирлик. Мас., субъект валентлиги актанти
138	Аниқлик майли	<i>Ижро майли, хабар майли</i> - феълнинг замон ясаши тизими
139	Асл (соф) кўмакчилар	Мустақил лексик маъносини тамомила йўқотиб, бутунлай кўмакчига айланган ёрдамчи сўзлар: билан, учун, каби ва б. (ТТИЛ)
140	Аслий сифатлар	Шакл ясаши асосан аслий сифатларга мансуб бўлиб, нисбий сифатларга айрим шакл ясовчиларигина қўшилади.
141	Атоқли отларнинг маъно турлари	<p>Атоқли отлар борлиқдаги нималарнинг хусусийлаштирилган номи эканлиги нуқтаи назаридан қўйидаги гуруҳларга бўлинади</p> <ol style="list-style-type: none"> 1) Антропонимлар – шахсларга қўйилган номлар; 2) Зоонимлар – ҳайвонларга қўйилган номлар; 3) Топонимлар – географик объект номлари; 4) Астрономимлар – осмон жисмлари номлари; 5) Космонимлар – космик майдон номлари; 6) Теонимлар - оллоҳ ва илоҳий тушунчаларни билдирувчи атоқли отлар; 7) Хремотонимлар - маданий буюм номлари; 8) Фитонимлар – ўсимлик номлари; 9) Анемонимлар - табиий офат номлари; 10) Хрононимлар - вақт номлари: темурийлар даври, Наврўз байрами. 11) эргонимлар – фаолият юзасидан уюшган кишилар жамоаси, шунингдe, муассаса, ташкилот ва корхоналарнинг атоқли оти (Э.Бегматов): “Олмос” ош маркази

		12) ойконимлар – аҳоли жой номлари.
142	Аффикс кўринишли юкламалар	Қўшимча юкламалар: -ми, -ку, -чи...
143	Аффикс-кўмакчи	Ш.Раҳматуллаев фикрича, <i>-дек (-дай)</i> , <i>-ча</i> аффикслари
144	Боғловчиларнинг вазифа жиҳатидан турлари	<p>III. Тенг боғловчи. 1. Бириктирув боғловчиси: [ва], [-у/-ю], [ҳамда]. 2. Айирув боғловчилари:[ё], [ёки], [ёхуд], [гоҳо], [дам]... дам, [бир... бир], [баъзан... баъзан]. 3. Зидлов боғловчиси: [аммо], [лекин], [бироқ].</p> <p>IV. Эргаштирувчи боғловчи. 1. Аниқлов боғловчиси: [яъни], [-ки/-ким]. 2. Сабаб боғловчиси: [чунки], [шунинг учун], [зероки]. 3. Шарт боғловчилари: [агар], [агарда], [агарчи]. 4. Чоғиштирув боғловчиси: [гўё], [гўёки]. Тенг боғловчи, эргаштирувчи боғловчининг маъно ва вазифа томони, имло хусусияти формал тилшунослик бўйича дарслик ва қўлланмада атрофлича баён этилган.</p>
145	Валентлик	<p>Сўзнинг муайян лесик маъноси асосида маълум эш сўз билан бирикиш имкониятидир. (Миртожиев)</p> <p>Валентлик тушунчасини тилшуносликка Л.Теньер олиб кирган, у буни феъл доирасида тушунган. Унингча, валентлик феълнинг гапда субъект ва объектларни бириктириш имкониятидир. С.Д.Кацнельсон В. деганда сўзнинг маълум тарзда гапда воқеланиши ва бошқа сўз билан қандайдир алоқага киришувини тушунади. (М.Миртожиев)</p> <p>Валентлик дастлаб лексик бирликларга нисбатан (лексик валентлик) қўлланилган бўлса, кейинги даврларда синтактик бирликларга ҳам қўлланила бошланди (синтактик валентлик). Бундан ташқари, шаклий ва мазмуний валентлик ҳам ажратила бошлади. Боғланувчи элементлардан қайси бири бириктириб олувчи, қайси бири бирикувчи эканига кўра фаол валентлик ва нофаол (пассив) валентликка бўлиш одат тусига кирмоқда.</p> <p>Қолаверса, лисоний бирликлар валентликларнинг юзага чиқиш зарурлиги ёки зарурий эмаслиги белгисига кўра мажбурий (облигатор) ва факультатив валентликларга</p>

		ҳам бўлинади. Валентликнинг мазкур турга бўлиниши позицион синтаксиснинг таъсири натижасидир. Валентликни бу жиҳатдан ўрганиш позицион синтаксиснинг ривожини учун кенг имконият яратади. (Нурмонов)
146	Валентликнинг турлари	<p>1. Семантик валентлик. Сўз лексик маъноларининг мантиқий узви бошқа сўз мантиқий узви билан семантик мос бўлиши. Бунда фақат денотат (ўз маъно) назарда тутилади. Масалан, феълдаги ижрочи, қатнашчи, кечим, вазият кабиларни олдиндан кўрсатиш имконияти.</p> <p>2. Синтактик валентлик. Масалан, феълдаги эга, воситали ва воситасиз тўлдирувчини бириктириш имконияти. Немис тилшунослиги В.Банциога асосланиб М.Миртожиев бундай В. тури мавжуд эмас деган хулосага келади.</p> <p>3. Мантиқий валентлик. Тилга оид бўлган тушунчалар ўртасидаги муносабатдир. Мас., Я пришёл. Гапда феъл 1-шахс кўрсаткичига эга эмас. Бу боғланиш мантиқан амалга оширилади. Бу В. тури ўзбек тилида учрамаслиги қайд этилади. Мас., Девор оқ, мен – талаба каби гапларда мантиқий-семантик В. воқеланади. Мантиқий-семантик В. семантик В.нинг бир тури сифатида баҳоланади. (Миртожиев)</p>
147	Вербализация	Вербал бўлмаган ҳодисанинг вербал ҳодиса вазифасига ўтиши. Яъни имо-ишора, ҳар хил товуш, мимикаларнинг сўзга айланиши.
148	Воситали семантик валентлик турлари	<p>1. Мақсад (дестинатив) – <u>ўқигани</u> бордим. <u>Меҳмонга</u> борди. <u>Етишини мўлжаллаб</u> турдим.</p> <p>2. Сабаб – <u>ўқий олмаганидан</u> университетдан кетди. М.Миртожиев С.В.ни воситали семантик валентлик таркибига киритади.</p> <p>3. Миқдор (quantus) – <u>бир пиёла</u> сув ичди. <u>Беш метр</u> газлама олдим. – буларда миқдор валентлиги феълга билвосита боғланган. Беш метр олдим – гапида метонимик</p>

		кўчиш юз бериб, бевосита боғланган. (Миртожиев)
149	Грамматик бирлик туркумлари	Ш.Раҳматуллаев фикрича, боғловчи ва юклама. Олим ундов ва модалларни ҳам шу гуруҳга қўшади
150	Грамматик туркумлар	Ш.Раҳматуллаев фикрича, луғавий маъно ифодалайдиган ва ифодаламайдиган сўзлар сўз номи билан юритилса, грамматик маъно ифодалайдиган луғат бирликларнинг гуруҳланишини билдирувчи термин.
151	Грамматика лашиш	1. Сўзнинг мустақил луғавий маъносини йўқотиб, ёрдамчи вазифада қўлланишга ўтиши, ёрдамчи сўзга айланиши. Мас., кўра, қараганда, асосан сўзларининг ёрдамчи вазифада қўлланиши; билан, эди кабиларнинг бутунлай ёрдамчи сўзга айланиши. 2. Сўз бирикмасининг аналитик шаклга айланиши. Бунда ҳам сўз бирикмасини ҳосил қилувчи қисм (сўз)лардан бири ўз мустақиллигини йўқотади. Мас., ўзбек тилидаги ўқий бошламоқ, ёзиб кўрмоқ каби бирикувлар аслида сўз бирикмаси бўлган. Ҳозирда эса, улар таркибидаги бошламоқ, кўрмоқ феъллари мустақил луғавий маънога эга эмас, шу туфайли улар аналитик шакл ҳисобланади. (ТТИЛ)
152	Деминутив	(лот. деминутус— кичрайган) — айн. Кичрайтиш шакли: қизча, столча, тугунчак каби. (ТТИЛ)
153	Деривацион индекс	Д/В. У деривацион морфемалар миқдорининг сўз миқдorigа муносабатини билдиради. Д/В индекси юқори тиллар деривацион тиллар қаторига киради.
154	Динамик феъллар	Ҳаракат феъллари
155	Ёрдамчи сўзнинг шаклий хусусиятига а кўра турлари.	Ёрдамчи сўз шаклий хусусиятига кўра: а) кўшимчасимон; б) соф ёрдамчи сўз; в) нисбий ёрдамчи сўз кўринишига эга.
156	Етакчи туркум	Беш лексик туркум орасида етакчиси - от туркуми: сифат, сон, феъл шутуркум лексемасининг белгиларини англатади.

		Феъл - иккиламчи етакчи туркум: равиш шу туркум лексемасининг белгисини англатади. Демак, лексик туркумлар орасида от туркуми биринчи даражали, феъл туркуми эса иккинчи даражали етакчи туркум мавқеига эга.
157	Жисмий (конкрет) ва фикрий (абстракт) отлар	Аниқ (муайян) ва мавҳум отлар
158	Интенсив форма	Нотўлиқ такрор усули. Масалан: <i>пакана-->пак-пакана-, бутун- - бут-бутун</i>
159	Инфинитив	(лот.— ноаниқ). Феълнинг муайян ҳаракатни бажарувчи шахс, замон, майлдан ташқари ҳолатда ифодалайдиган, ҳаракатнинг ўзинигина атайдиган шакли. Мас., рус. говорить, бежать, обнимать; узб. олмоқ, кулиш, бориш каби ҳаракат номи шакли. Ҳаракат номи. (ТТИЛ)
160	Каузатив	Ҳаракатнинг бажарилиши учун сабаб, қўзғаш маъносига эга бўлган. Мас., каузатив феъл (хайдамоқ, мажбур қилмоқ). (ТТИЛ)
161	Кесимлик лексемалар и туркуми	Ш.Раҳматуллаев фикрича, <i>мумкин, керак, кифоя, иборат</i> каби лексемалар, <i>бор, йўқ, эмас, керак, лозим, шарткабилар.</i>
162	Конверсия	(лот.айланиш, ўзгариш). Сўзнинг фонетик ва морфологик жиҳатдан ўзгармас, бир сўз туркумидан бошқа бир сўз туркумига ўтиши, шу йўл билан янги сўз ҳосил бўлиши: <i>чол, ўғил, қиз, узил-кесил</i> каби.
163	Коннектив категориялар турлари	Синтактик бирликларни боғлаш учун хизмат қилувчи категориялар боғлаш йўналишига кўра икки гуруҳга бўлинади: 1) чапга боғловчилар; 2) ўнгга боғловчилар.
164	Кўмакчи от	Лйғавий маъносини йўқотмаган, кўмакчи вазифасида ҳам қўлланадиган от: ост, ич, олд каби отлар (ТТИЛ)
165	Кўмакчи феълларнинг ўзига хос	Ўзбек тилида йигирмадан ортиқ кўмакчи феъл мавжуд бўлиб, феъл лексеманинг лексик маъносига маълум бир грамматик маъно қўшиш учун ишлатилади; шунга кўра бу

	хусусиятлар и	кўмакчи феъллар шакл ясовчи морфемаларга тенглаштирилади. Бундай кўмакчи феъл билан аналитик грамматик шакл ясалади.
166	Кўмакчининг шаклий хусусиятига кўра турлари.	Кўмакчи шакли ва бажарадиган вазифаси жиҳатидан қуйидаги турларга бўлинади: а) соф кўмакчи; б) ярим кўмакчи; д) қўшимчасимон кўмакчи.
167	Кўплик маъносининг ифодаланиши	-морфологик: болалар; -синтактик: кўп бола; -синтактик-морфологик: кўп болалар; -семантик: халқ, гуруҳ.
168	Кучайтирув морфемалари	Сифат лексема олдидан келадиган <i>энг, ғоят, ғоятда, бағоят, ниҳоятда, жуда</i> морфема-аффиксоидлари
169	Қиёсий грамматика	Қариндош тиллар морфологик ва синтактик қонуниятларини қиёслаб ўрганувчи грамматика.
170	Лексема кўринишли юкламалар	Сўз юкламалар: ахир, ҳатто, худди..
171	Лексемаларнинг синтактик таснифи	ЛСТда, асосан, уларнинг нутқда бошқа лексемалар билан боғлана олиш-олмаслиги, гап бўлаги бўлиб кела олиш-олмаслик хусусияти ўз аксини топади: 1) гап бўлаги бўлишга хосланмаган сўз: ундов, модал, сўз-гап; 2) гап бўлаги бўлишга хосланган сўз: феъл, от, сифат, сон, равиш, тақлид, олмош; 3) синтактик алоқа воситаси бўлишга хосланган сўз: кўмакчи, боғловчи, юклама.
172	Лексема-морфемалар	Ёрдамчи сўзлар
173	Лексемашакл таркиби	Лисоний бирлик сифатида лексема ва морфема билан тўлдириладиган қолипдан иборат, лисоний бирлик сифатида мавҳум бирлик, суперсегмент бирлик, нутқий

		бирлик сифатида эса аниқ бирлик, сегмент бирлик дейилади.(Ш.Р.)
174	Лексемаша кл таркибига кирадиган морфема	Ш.Раҳматуллаев фикрича, кўмакчи туркуми
175	Луғавий бирлик туркумлари гуруҳи	Ш.Раҳматуллаев фикрича, луғавий маъно ифодаладиган ва ифодаламайдиган сўзлар сўз номи билан юритилса, луғавий маъно ифодаладиган луғат бирликларнинг гуруҳланишини билдирувчи термин: от, сифат, сон, феъл, равиш туркумлари. Булар номинатив ва сигнификатив вазифа бажаради, бирикманинг, гапнинг бўлаги бўлиб келади. Бу туркумлар асли бирикма ёки гапнинг бўлаги вазифасида келишига кўра мустақил туркумлар деб номланган.
176	Майл категорияс и	1) Ҳаракатнинг воқеликка муносабати; 2) Субъект (бажарувчи) билан ҳаракат орасидаги алоқа; 3) Ҳаракатнинг буюриш, исташ, мақсад, шарт қўйиш йўсинида амалга ошувини ифодаладиган модал маънолар
177	Мантиқий миқдор ва грамматик миқдор муносабати	Мантиқан атоқли от якка предметни атайди: <i>Собир-, Чилонзор-</i> каби. Айни шу исм билан бир неча предмет аталиши мумкин, лекин шунда ҳам исм ҳар гал якка предметни атайди. Турдош от эса турнинг номи сифатида мантиқан биттадан ортиқ (кўп) предметни номлайди.
178	Мантиқий- семантик валентлик	1. Ўрин – фалсафий қонуниятга кўра ҳамма нарса макон ва замона мавжуддир. От кесимда ўрин валентлиги шаклан ифодаланмаслиги мумкин. <u>Ҳамма ёқда</u> лолалар. <u>Йўлнинг икки чети</u> нуқул лола. Юксак <u>тоғлар</u> туманда. 2. Белги – от кесимларнинг МСВ си. <i>Дуо</i> сўзи мантиқида <i>яхши</i> бор. Отанинг билгани <u>яхши</u> дуо. <u>Ёруғ</u> кун. <u>Қоронғу</u> тун. (Миртожиев)
179	Модал маъно	Морфемалардаги эркалаш, ҳурмат, кесатиқ каби маънолар
180	Модалларн инг келиб	От, сифат, феъл, равиш: <i>эҳтимол, ҳақиқатан, дарҳақиқат,</i>

	чиқиши	<i>табиий, албатта</i>
181	Модаллик категорияси	Фикрнинг воқелика бўлган муносабатини кўрсатувчи маънолар ва бу маъноларнинг ифодаланиш тизими. Модал маъно, масалан, модал сўз ёки модалшакллар орқали ифодаланади. (ТТИЛ)
182	Морфологик проформалар	Барча қардош тиллар учун умумий грамматик шакллар
183	Морфология	М. тилшуносликнинг сўз шакллари ва категориялари, сўз шакллари таснифлаш тамойилларини ўрганувчи бўлими. Ўзбек тилшунослигига морфология ва синтаксис терминини илк бор О.Усмонов ва Б.Азизовлар олиб кирдилар. (“Грамматика. Морфология”, 1938; “Г.. Синтаксис”, 1938).
184	Мустақил туркум	Ш.Раҳматуллаев фикрича, шакл ўзгариши мавжуд лексемалар умумий номини билдирувчи термин. Лекин бу белги мустақил деб номланадиган туркумларнинг барчасида мавжуд эмас: ўзбек тилида сифатга, сонга, равишга ўз туркуми табиатини сақлаб ишлатилганида шакл ўзгариши хос эмас. Мустақил туркумни ажратишда асосий белги - бирикманинг, гапнинг бўлаги вазифасида келиш.
185	Нисбат шакллари	Ҳаракатнинг бажарувчиси билан ҳаракат ўтадиган предмет - воситасиз тўлдирувчи орасидаги ўзаро муносабатда бажарувчининг ҳолатини белгилайдиган морфема (Ш.Р.)
186	Нисбатлаш морфемалари	Эгалик шакллари. Ўзи қўшилган асосдан англашиладиган предметнинг (ёки предмет деб тасаввур қилинадиган белгининг, ҳаракатнинг) бирлик ёки кўпликдаги уч шахсдан бирига нисбат берилаётганини ифодаловчи морфема.
187	Нисбий ёрдамчи сўз	<i>Нисбий ёрдамчи сўз</i> атамаси остида бошқа туркумга мансуб бўлган сўзнинг ёрдамчи вазифасида қўлланилиши ([<i>олд</i>], [<i>орқа</i>], [<i>аввал</i>], [<i>бўйлаб</i>], [<i>бошлаб</i>]) ёки табиатида “шаклдошлик” мавжуд бўлган бирлик тушунилади.
188	Нисбий сифат	Даражаланиш хусусиятига эга бўлмаган сифатлар
189	Нол (0)	Фонема ифодасига эга бўлмаган морфема

	морфема	
190	Олмошловч и туркум	Олмошлар. Олмош лексик маъно англатмайди, одатда лексик маъно англатадиган лексема ўрнида ишлатилади, шунга кўра <i>олмош туркуми</i> деб номланган. Бу туркум birlikлари одатда лексик туркум birlikлари ўрнига ишлатилади
191	Отнинг таснифловчи категориялари.	Сон ва субъектив баҳо шакллари отнинг асосий таснифловчи грамматик шакллари ҳисобланади.
192	Отнинг функционал шакллари	Отнинг маълум бир грамматик маъно ва вазифага эга бўлган, лекин бирон грамматик категорияга мансуб бўлмаган шакллари. Ўзбек тилида отнинг қуйидаги функционал (нокатегориал) шакллари бор: 1) кичрайтириш шакли; 2) эркалаш шакли; 3) ҳурмат шакли; 4) қарашлилик шакли; 5) ўрин белгиси шакли 6) ўхшаштиш шакли
193	Партитив маъно	(лот.қисм). Чиқиш келишиги шаклининг ҳаракат предметга қисман утишини билдирадиган маъноси: нондан олинг (бир қисмини) - нонни олинг (ҳаммасини) каби.
194	Плеоназм	Бир сўзда маънолари бир хил ёки яқин бўлган қўшимчанинг такрорланиши (икки, баъзан уч) <i>аффиксал плеоназм</i> дейилади. Плеоназм аффиксларда бир неча кўринишга эга. Масалан, бир аффикснинг айнан ўзи ёки ташқи шакли ҳар хил бўлган – маънодош аффикслар такрорланади: такрорланган бу аффикслар: а) зич, кетма-кет ҳолда (<i>айтинг+из+лар</i>) ҳам; б) ажралган ҳолда ҳам бўлиши (<i>иш+да +лиг+им+да</i>) мумкин.
195	Префиксал индекс	П/W префикслар миқдорининг сўз миқдорига муносабатини кўрсатади.
196	Семантик агентив	Бажарувчини тўғридан тўғри билдирадиган феъллар. сува –

	феъллар	сувоқчи, ўқи – ўқувчи, миёвла – мушук. Бунда мазмун валентлиги имплицит ифодаланади. (Миртожиев)
197	Семантик валентлик турлари	1. Воситали СВ. асосан феълга хос бўлиб, унинг мақсад, саба ва миқдор В.ларида кузатилади. 2. Шакл СВ. Туркий тиллардаги агенс, контрагенс, пациенс,, пайт валентликларининг феъл кесимнинг шакли ва отнинг хослик семантикасидан келиб чиқиши туфайли шундай номланган. 3. Лексик-семантик В. 4. Мантиқий-С В. (Миртожиев)
198	Сигнифика Т	Объектив борлиқдаги нарса, ҳаракат ва ҳодисалар (денотат)нинг киши онгида акс этган кўриниши (Нурмонов)
199	Синтактик сема	Етакчи морфеманинг гапдаги вазифасини англатувчи семаси
200	Синтетик тиллар	юн. - бириктирилган, қўшилган. Грамматик маънолар (гапда сўзларнинг ўзаро муносабати) шакл ясовчи аффикслар воситасида ифодаланадиган тиллар. Мас., рус ва немис тиллари синтетик тиллар.
201	Синтетик шакл	Аффикслар ёрдамида ҳосил бўлувчи шакл. Мас., отларнинг аффикслар ёрдамида ясалувчи келишик шакллари (уйни, уйдан, уйди, уйнинг), феълнинг аффикслар ёрдамида ясалувчи замон шакллари (кўрдим, кўряпман, кўрама н) ва б. қиёс. Аналитик шакл. (ТТИЛ)
202	Сон турлари	Туркология, жумладан, ўзбек тилшунослигида сон, аввало, семантик жиҳатдан икки турга бўлинади: санок сон ва тартиб сон. Бироқ рус тилшунослигидаги замонавий тадқиқотларда, жумладан, И.Г.Милославский ишларида сонлар санок ва жамловчи сон турларига бўлинмоқда. Тартиб сонлар эса сифат туркуми доирасига киритилган: тартиб сифатлари. (Нурмонов А., Искандарова Ш)
203	Сонлаш морфемала	Сон категорияси, грамматик миқдор маъносини

	ри	ифодаловчи морфема
204	Статик феъллар	Ҳолат феъллари
205	Субпарадигма	Кичик қисмлар
206	Субстантив ация	Отлашиш: <i>кўкини беринг.</i>
207	Субстанционал морфология	С.М.да грамматик шаклга алоҳида мавжудлик сифатида муносабатда (синтактик вазифасида) намоён бўладиган муайян хусусият (грамматик шакл маъноси)ларга эга бўлган нарса, предмет сифатида қаралади.
208	Субъектив баҳо шакли	Сўзловчининг нарса-предметга бўлган субъектив муносабатини (баҳосини) ифодаловчи (от туркумига хос) сўз шакли. Мас., отларнинг эркалаш шакли: ўртоқжон, сингилгинам. каби.
209	Сўз-гап	Сўз-гап умумий атамаси остида бирлаштириладиган сўзларнинг алоҳида белгилари мавжудки, улар шу белгиси билан мустақил, ёрдамчи сўздан, шунингдек, ёхуд қўшма гапдан фарқ қилади. Булар қуйидагилар: 1) мустақил ҳолда гап бўла олиш; 2) гап таркибида шу гапнинг бирор бўлаги билан синтактик алоқага кириша олмаслик; 3) ўзига хос ғайриоддий маънога эга бўлиш; 4) боғламалар билан бирика олмаслиги ва шунинг учун майл, замон, шахс/сон шаклларига эга эмаслик.
210	Сўз-гап таснифи	Сўз-гап ўз ичида бир неча маъновий гуруҳга ажралади: 1. Модал. 2. Ундов. 3. Тасдиқ /инкор. 4. Таклиф/ишора.
211	Сўзларни туркумларга ажратиш тамойиллари	Ҳозирги кун грамматикаларда сўзларни туркумларга ажратишда асосан беш белги: - <i>сўзнинг лексик-грамматик маъноси;</i> - <i>сўзнинг грамматик шакли;</i> - <i>сўзнинг синтактик вазифалари;</i> - <i>сўз ясовчи морфлар;</i> - <i>сўзнинг дистрибуциясидан</i> фойдаланилади.
212	Сўзларнинг морфологи	Бу таснифга биноан, сўзлар, икки гуруҳга ажралади:

	к таснифи	<p>а) ўзгарувчи лексема;</p> <p>б) ўзгармас лексема.</p> <p>Ўзгарувчи лексема луғавий шакл ҳосил қилувчиларни қабул қила олади. Ўзгармас сўз эса бундай хусусиятга эга эмас.</p>
213	Сўзнинг морфологи таркиби	Сўзнинг морфологик таркиби унинг (сўзнинг) шакл яшаш асоси ва шакл ясовчи восита ажратилади: <i>теримчи-лар-га</i>
214	Сўзнинг морфологи к таркиби	Сўзнинг морфологик асоси (сўзнинг шакл ясовчи қўшимчаларсиз қисми) ва грамматик шакллarga бўлиниши ёки. Мас. Теримчи-лар-ни
215	Сўзшакл	Грамматик шакланган лексик бирлик
216	Сўзшакл типлари	<p>Ҳозирги ўзбек тилида сўзшаклнинг бир неча типи мавжуд:</p> <p>а) аффикслар ёрдамида ҳосил бўлувчи сўзшакл (синтетик ёки “ёпишган” шакл);</p> <p>б) номустақил (фақат грамматик маъно ифодаладиган) сўз билан ифодаланадиган сўзшакл (аналитик ёки “ажралган шакл”);</p> <p>в) ҳам аффикс, ҳам номустақил сўз ёрдамида ифодаланган шакл (синтетик-аналитик ёки “аралаш” шакл);</p> <p>г) сўзнинг такроридан ҳосил бўлган шакл ёки такрорий шакл.</p> <p>Синтетик шакл аффикснинг табиатига қараб икки кўринишга эга:</p> <p>а) аффикси моддий шаклга эга бўлмаган (ноль шаклли) сўзшакл (<i>Шоир шеър ўқийди</i> гапидаги [шoир] сўзи бош келишиқда ва бирлик сонда бўлиб, бу маънони ифодаловчи шакл <i>ноль шакл</i> дейилади);</p> <p>б) аффикси моддий шаклга эга бўлган сўзшакл (келтирилган гапдаги <i>ўқийди</i> сўзшаклининг ҳозирги-келаси замон, III шахс бирлик маънолари моддий шаклли восита</p>

		<p>билан ифодаланган).</p> <p>Аналитик сўзшакл номустақил маъноли (асосан, ёрдамчи) сўз ёрдамида ҳосил қилинади: <i>мактаб учун, келажак сари.</i></p> <p>Синтетик-аналитик шакл ҳам аффикс, ҳам ёрдамчи сўз ёки ёрдамчи сўз вазифасидаги мустақил сўз билан ҳосил қилинади. Масалан, <i>ўқиб чиқди, борган экан, шаҳарга томон</i> ва ҳ. Бунда <i>чиқди</i> сўзи ушбу ўринда (<i>-иб</i>) аффиксиёрдамида, <i>томон</i> сўзи (<i>-га</i>) қўшимчаси ёрдамида аралаш сўзшаклни вужудга келтирган.</p> <p>Такрорий шакл ҳам маълум бир грамматик маъно ифодалаш учун хизмат қилади. Масалан, <i>баланд-баланд</i> (иморат), <i>қатор-қатор</i> (дарахтлар), <i>кула-кула</i> кабилар «кўплик», «такрор» маъносини ифодалайди.</p>
217	Суффиксал индекс	С/W. суффикслар миқдорининг сўз миқдорига муносабатини кўрсатади.
218	Тасвир бирликлар и	Ундов, тақлид, модал сўзлар. Бирор товуш ёки кўринишнинг рамзий номи, шакл ҳосил этиш вазифасини бажармайди (Ш.Р)
219	Тежам	<p>Плеоназмнинг зидди. Тилдаги тежам тамойили сўзловчи (индивид)нинг руҳий, психофизиологик қувватини тил бирликларини қисқартириш, тушириб қолдириш орқали тежаш, коммуникацияга кетадиган вақтни камайтириш, тилдаги ортиқчаликни бартараф этиш эҳтиёжидан келиб чиқиб зоҳир бўладиган умумлисоний қонуният. <i>Оп келинг</i> (олиб келинг), <i>буям</i> (бу ҳам), <i>қонг</i> (қолинг) каби ҳодиса бунга мисол бўлади. Тежамкорликнинг фонетик, морфологик кўриниши мавжуд. Морфологик тежам асосида фонетик тежам ётади. <i>Йирик-урик, йигит-игит, йироқ-уроқ</i> қисқаруви фонетик тежамга мисол. <i>Олиб бер - обер, бизим - бизнинг, сизинг - сизнинг</i> кабилар морфологик қисқарувга мисол. <i>Олиб бер - обер, бизим - бизнинг, сизинг - сизнинг</i> тежалишлари – нутқий қисқарув.</p> <p>Тежам ўз мақомига кўра ё лисоний, ё нутқий бўлиши</p>

		<p>мумкин. Масалан, жўналиш келишиги шакли дастлаб [-қару]кўринишида бўлган, бугунги кунда у қисқариб, [-га] шаклига келиб қолган. Бу – тежамнинг лисонийлашуви. <i>Олиб бер - обер, бизим - бизнинг, сизинг - сизнинг</i> тежалиши нутқий қисқарув. Чунки, масалан, <i>сизинг</i> сўзшаклидаги (-инг)лисонда [-нинг] шаклида яшайди. Тилшуносликда фақат нутқий қисқарувларнигина тежам сифатида тан олишга мойиллик кучли.</p> <p>Тежам ўз моҳиятига кўра нутқий алоқани осонлаштиришга хизмат қилади, бироқ ахборот кўламига салбий таъсир кўрсатмайди</p>
220	Тилларнинг морфологик (типологик) таснифи	<p>Тилларни грамматик шакл ҳосил қилиш усулларида фарқ қилишга кўра гуруҳларга ажратиш. Бу таснифга кўра тилларнинг қўйидаги турлари ажратилади: 1) аморф тиллар; 2) агглютинатив тиллар; 3) флектив тиллар; 4) полисинтетик тиллар</p>
221	Транспозиция	<p>Грамматик категорияларнинг ўзига хос бўлмаган вазифада қўлланиши. Мас., бир туркум сўзининг матнда бошқа туркум сўзи каби қўлланиши. <i>қиёс</i>. Конверсия. (ТТИЛ)</p> <p>Сўз туркумининг кўчиши. Маълум бир туркумга мансуб сўзнинг ўзига хос бўлган аташ, вазифа семасини кучсизлантириб, бошқа сўз туркумига хос семантик ва грамматик белгига эга бўлиши. Мас. Масалан, <i>Бирни кўриб фикр қил, бирни кўриб шукр қил</i> гапида сон туркумига мансуб (<i>бир</i>) сўзи вақтинча от туркуми вазифасида келмоқда ва бу ўткинчи, нутқий ҳодиса. Лисоний кўчишда сўз бир туркумдан бошқа туркумга бутунлай ўтиб кетади, транспозиция ҳодисаси юз беради. Транспозиция деярли барча мустақил сўз, ҳатто мустақил ва ёрдамчи сўзлар орасида ҳам кузатилади:</p> <p>1) [одам], [киши], [инсон] отлари (<i>зерикиб кетди одам (мен), ҳайрон қоласан киши (мен), дардимни эшитадиган</i></p>

		<p><i>инсон</i> (ҳеч ким) <i>топилмади</i>), [бир] сони (<i>бир киши</i> (кимдир)), [баъзи] сифати (<i>баъзилар</i> (аллакимлар) <i>ундай дейди</i>, <i>баъзилар бундай</i>) олмошга;</p> <p>2) [йигит], [қиз], [ўғил], [қари], [эр], [хотин], [кўр], [иссиқ-совуқ] (<i>иссиқ-совуқидан хабар олмоқ</i>) сифатлари, [борди-келди], [келди-кетди], [олди-берди], [ур-йиқит] жуфт феъллари, [ўқиш], [ёзиш], [ўтмиш], [қилмиш], [қидирув] ҳаракат номи шакллари, [ўқитувчи], [боғловчи], [кузатувчи] сифатдошлари, [уч], [етти], [йигирма], [қирқ] сонлари отга;</p> <p>3) [келажак], [бўлажак] сифатдошлари, [тилла], [кумуш], [тахта] (<i>тилла узук</i>, <i>асал бола</i>) отлари сифатгава ҳз.</p>
222	Тузма сонлар	Ш.Раҳматуллаев фикрича, мураккаб сонлар: ўттиз бир
223	Туркумлик семаси	Луғат бирликларининг қайси туркумга мансублиги. Мас., “предмет”, “предметнинг миқдорий белгиси”, “ҳаракат-ҳолатнинг белгиси”. Лексеманинг қайси туркумга мансублиги, грамматик табиати унинг семантик мундарижаси, аниқроғи - туркумлик семаси асосида белгиланади.
224	Ўзгалоғчи категория	Феълга хос шундай грамматик шакллар борки, улар феълни кесимликдан бошқа туркумга ([-(а)ў], [-(и)б], [-гач], [-гунча], [-ганча], [-ганда], [-гани], [-май/масдан]) шакллари равишга, [-ган], [-аётган], [-адиган/ўдиган] сифатга, [-моқ], [-иш], [-ув] отга) хос вазифаларга мослайди. Шунга кўра, улар уч гуруҳ – равишдош, сифатдош ва ҳаракат номи шаклларига ажратилади. Бу шакллар феълга нутқда ўзга туркум хоссаларини «ёпиштирганлиги» учун бир бутун ҳолда ўзгалоғчи категорияси атамаси билан номланади.
225	Ўзгармас сўз туркуми	Равиш. Чунки у грамматик шакл ўзгартирувчилар – синтактик шаклларни қабул қилмайди
226	Феъл бўлишсизлик	<p>1) морфологик: бормаган</p> <p>2) лексик: <i>дурадгор эмасман</i>, <i>синчков эмассиз</i></p> <p>3) синтактик: <i>бор-ган+ им + йўқ</i>, <i>бор+ а т- ётган + им + йўқ</i></p>

	маъносининг ифодаланиши	
227	Феъллар таҳлили тамойиллари	<p>Т.Д.Сергеева фикрига кўра:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Таксонимик (ономасиологик) таҳлил – феълларни ЛСГларга ажратиш. ЛСГ аъзосида ядро семасининг мавжуд бўлиши уларнинг бир парадигматик ва синтагматик хусусиятга эгаллигини исботлайди. 2. Динамик (семасиологик) таҳлил. Гуруҳдаги ҳар бир сўз лексик-семантик вариантларининг сўз яшаш имкониятлари, парадигматик ва синтагматик хусусиятларини ўрганиш. <p>Рус тилида икки босқичли: а) олд қўшимчасиз феъллар доирасида; б) олд қўшимчали феъллар доирасида. (Муҳамедова С)</p>
228	Феълларни ЛСГларга бўлиш тамойиллари	<p>Л.М.Васильев ўртага ташлаган:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Денотатив тамойил – семантик ва мавзуй гуруҳларга бўлиш. 2. Парадигматик тамойил – сўзлар маъносидаги интеграл ва дифференциал компонентларни аниқлаш. Бунда асосан феълларнинг ҳаракатнинг турли усулларини билдирувчи, каузативлик, модаллик кабиларни билдиришига кўра гуруҳланиши. Денотатив тамойилдан фарқли равишда сигнификатив аспектлар ҳам ҳисобга олинади. 3. Синтагматик тамойил – феълларни синтактик ва семантик валентликлари асосида таснифлаш. 4. Ассоциатив тамойил – психологик омилларни ҳисобга олиш. (Муҳамедова С.)
229	Феълнинг лексик-грамматик турлари	<p>Ўзбек тилидаги феъллар лексик-грамматик хусусиятига кўра икки асосий гуруҳга эга:</p> <p>а) мустақил феъл;</p>

		<p>б) номустақил феъл.</p> <p>Мустақил феълга қуйидаги хусусият хос:</p> <p>1) луғавий маъно асосидаги ҳаракатни ифодалайди ва шу боисдан гапда бирор бўлак вазифасида келади;</p> <p>2) бирор сўзни бошқариб (<i>китобни ўқиди</i>) ёки бирор сўз томонидан бошқарилиб (<i>ўқилган китоб</i>) келади;</p> <p>3) ҳаракатнинг объектга муносабатига кўра иккига бўлинади:</p> <p>а) ўтимли феъл;</p> <p>б) ўтимсиз феъл.</p> <p>Номустақил феъллар бевосита луғавий ифодали ҳаракат маъносига эга эмас. Масалан, <i>қарор қилди, ўқиб чиқди, ишлаётган экан</i> ҳосилаларида (<i>қилди</i>), (<i>чиқди</i>), (<i>экан</i>)бирликлари олдинда турган сўзларнинг луғавий маъносини ё янгилаган, ё модификация қилган. Бироқ бу феъллардан ҳам қандайдир ҳаракат уқилмоқда. Бу ҳаракат деривацион, грамматик ҳаракат, лекин луғавий эмас. Аниқроғи, улар ўзларидан олдинги сўзларнинг маъноларига ҳаракат, жараён тусини бермоқда.</p> <p>Номустақил феъл моҳият эътибори билан учга бўлинади:</p> <p>а) ёрдамчи феъл;</p> <p>б) кўмакчи феъл;</p> <p>в) тўлиқсиз феъл.</p>
230	Феълнинг нокатегориал шакли	Ҳаракат кучлилиги, кучсизлиги кабиларни билдирувчи шакллар
231	Феълнинг субстантив шакли	Ҳаракат номи, отдош (Ш.Р.)

232	Феълнинг таснифловчи категориялари	Фақат шу туркумга хос грамматик шакллар системаси. Улар нисбат, ўзгаловчи, ҳаракат тарзи, бўлишли-бўлишсизлик категориялари. Феъл кесимлик ёки нокесимлик вазифасида бўлишдан қатъи назар, ушбу шаклдан бирида бўлиши шарт. Улар феъл лексеманинг луғавий маъносини модификация қилиш вазифасини бажаради.
233	Феълнинг функционал формалари	1) ҳаракат номи, 2) сифатдош, 3) равишдош (Баъзи адабиётларда булар қаторига "соф феъл" номи билан тусловчили феъл шакли ҳамқўшилади).
234	Флексия	(лот. эгиш, буриш; ўзгариш). Бир неча грамматик маънони бир йўла ифодалайдиган шакл ясовчи морфема (Рус тилшунослигида «окончание» деб юритилади). Ўзакнинг морфонологик ўзгариши. Ички флексия деб ҳам аталувчи бу ҳодисада сўз ўзагидаги фонемаларнинг алмашилиши грамматик шаклларнинг ҳосил бўлишига, ҳатто сўз ясалишига хизмат қилади. Мас., араб тилидаги мактаб, мактуб, китоб, котиб сўзларини қиёсланг.
235	Функционал шакл	Сўзнинг маълум бир грамматик маъно (грамматик категорияга хос бўлмаган маъно) ифодаловчи шакли. Мас., отлардаги субъектив баҳо шакллари (укагинам, укажон) каби, феълнинг сифатдош, равишдош, ҳаракат номи шакллари ва б.
236	Ҳаракат тарзи категорияси ва ҳақида умумий маълумот.	Кўмакчи феълли сўз қўшилмаси, кўмакчи феъл
237	Шакл семантикаси ва валентлиги	Сўзнинг семантик таркиби билан эмас, грамматик шакллар орқали ҳам ифодаланадиган валентликлар. 1. Агенс – феъл кесимдаги шахс-сон шакллари билан боғлиқ: <u>Ўзим</u> талабаман. 2. Пайт (темпорал) – боряпман, бораман, ўқиб ётибман, ўқиб юрибман кабилар семантикаси билан боғлиқ. Мен

		<p>озодман. – кесимда доимий замон маъноси ифодаланмоқда.</p> <p>3. Пациенс – феъл орттирма нисбатда қўлланганда агенс каузалловчига ўтади, каузалланаётган субъект эса пациенс мақомига ўтади. Вали <u>итини</u> келтирди.</p> <p>4. Контрагент – агенсга ёрдамлашувчи субъект. Биргалик нисбат воситасида юзага чиқади. Дадам <u>укам билан</u> паркка боришибди. А., Б ва В сайр қилишди шаклидаги гапларда контрагент ифодаланмаган, А,Б,В агенслардир.</p> <p>5. Ҳолат – Феъллардаги бўлишсизлик ва майл категориялари шакл семантикаси В. ҳисобланади. Мутлақо (ҳеч, асло, зинҳор, ҳадеганда) бормаиди. <u>Бахтимизга</u> (кошки, зора) поезд эртароқ келса. <u>Мўлжаллаб</u> бормоқчи. Аналитик шакллар орқали ифодаланиши ҳам мумкин: <u>Биратўла</u> тўлаб қўйди. <u>Охиригача</u> ишлаб бўлди. <u>Чўзиб (ойлаб)</u> ишлаб ётибди.</p> <p>6. Сабаб - Емадим, чунки <u>ёқтирмадим</u>. Гапда чунки ҳавола қилмоқда, <u>ёқтирмадим</u> сабабни билдирмоқда. Факультатив валентликдир.</p> <p>7. Таъкидлов – <u>Аслида</u> ҳам шундай. Ҳам юкламаси ҳавола қилмоқда. Факультатив валентликдир.</p> <p>8. Кучайтирув – фақат <u>сизгина</u> келмадингиз. Факультатив валентликдир. (Миртожиев)</p>
238	Шаклларнинг сўзга қўшилиш тартиби	<p>Аффиксларнинг сўз таркибидаги тартиби маълум қонуниятга эга бўлиб, бу ҳодиса уларнинг тури билан боғлиқ: сўз ясовчи, луғавий шакл ҳосил қилувчи ва синтактик шакл ҳосил қилувчи сўздаги ўрни билан фарқланади.</p> <p>Морфемаларнинг ўринлашишидаги тартиб ва изчиллик уларнинг маъно-грамматик хусусияти билан боғлиқ, сўзнинг луғавий маъносини ҳосил қилувчи (сўз ясовчи) аффикс биринчи, луғавий маънога таъсир қилувчи (луғавий</p>

		шакл ҳосил қилувчи) аффикс иккинчи ва луғавий маънога таъсир қилмайдиган (алоқа-муносабат) аффикс учинчи бўлиб қўшилади.
239	Шахссизлик шакли	Ўтимсиз феълга қўшиладиган -ил аффикси мажҳул нисбат шаклини эмас, балки шахссизлик шаклини ҳосил қилади: (У уйга) борди ->(Уйга) борилди, [Икки километр) юрди -> (Икки километр) юрилди каби. Шахссизлик маъноси мажҳуллик маъносидан кескин фарқ қилади. Асли -ил аффикси мажҳул нисбат ясовчиси бўлиб, бу аффиксдан шахссизлик маъносини ифодалашда ҳам фойдаланилади.
240	Элатив	(лот.кўтарилган, юқори). Сифатларнинг белгининг ортиқ даражасини кўрсатувчи шакли. Бу шакл мазмунан орттирма даража шалига ўхшаса-да, белгини нисбат бермай ифодалайди. Мас., ўта аҳмоқ, ғирт ёлғон. сап-сариқ кабилар. Қ. Кучайтирма шакл.
241	Эллипсланиш	Тушириб қолдириш: баланддан тушмоқ, тозасини олмоқ
242	Эмотик валентлик	Салбий ва ижобий бўёқни ифодалашга хизмат қиладиган валентлик. чиройли чеҳра, <u>ойдай</u> жамолинга соя тушмасин. (Миртожиев)
243	Юкламалар маъно турлари	1) кучайтирув ва таъкид юкламалари, 2) сўроқ ва таажжуб юкламалари, 3) айирув ва чегаралов юкламалари, 4) аниқлов юкламаси, 5) гумон юкламаси.
244	Юкламанинг тузилиш турлари	Кўпгина лексоид ёрдамчи сўзнинг аффиксоид кўриниши мавжуд, бу юкламага ҳам тегишли: [ҳам], [-ам/-ям]; [учун], [-чун]; [-у], [-ю]; [билан], [-ила], [-ла]шулар жумласидан. Юклама шаклий жиҳатдан уч хил кўринишга эга: 1. Қўшимчасимон юклама ([-ми], [-чи], [-а], [-я]). 2. Соф юклама ([худди], [фақат], [ахир]...). 3. Нисбий юклама ([ёлғиз], [баъзан], [танҳо], [бир]...).